

84(50)7
T 98 00
408046

Kudoyberdi

TO'XTABOYEV




Mungli ko'zlar

XUDOYBERDI TO'XTABOYEV

MUNGLI
KO'ZLAR

QAYTA NASHR

408046



Toshkent
«Yangi asr avlodi»
2014

UO‘K: 821.512.133-3

KBK: 84 (5O‘zb)7

T - 98

To‘xtaboyev, Xudoyberdi

Mungli ko‘zlar : Ertak - roman / Xudoyberdi To‘xtaboyev.

-T.: Yangi asr avlodi, 2014. – 308 b.

ISBN 978-9943-27-032-9

Ota-onaga farzandining baxtidan bo‘lak ne‘mat kerak emas. Xuddi shuningdek, farzand ham eng baxtiyor damlarida ota-ona yonida bo‘lgisi, baxtini ular bilan baham ko‘rgisi keladi. Ota-ona diydori, ota-ona mehrini ular har narsadan aziz biladilar.

Qimmatli kitobxon! Sevimli yozuvchimiz Xudoyberdi To‘xtaboyevning siz, aziz kitobsevar do‘stlarimiz uchun taqdim etilayotgan mazkur kitobida ana shu mavzu qalamga olingan. Asarning yozilganiga oradan ancha fursat o‘tgan bo‘lishiga qaramay, u badiiy qimmatini hamon yo‘qotmagan, aksincha, har bir kitobxon ushbu asarni har gal qo‘liga o‘zgacha mehr va iztirob bilan oladi.

Mol-dunyoni har narsadan ustun bilgan va oxir-oqibatda guldek farzandlarining achchiq qismatiga sabab bo‘lgan ota-ona haqida hikoya qiluvchi mazkur asar umid qilamizki, yana bir karra o‘zining yangi o‘quvchilarini kashf etadi.

UO‘K: 821.512.133-3

KBK: 84 (5O‘zb)

ISBN 978-9943-27-032-9

© Xudoyberdi To‘xtaboyev, «Mungli ko‘zlar». «Yangi asr avlodi», 2014-yil.

G'AROYIB SALTANAT

Bora-bora tog'u toshlar cho'kishi, daryoyu ko'llar qurishi, yam-yashil o'rmonlar o'tinlar uyumiga aylanishi, zo'ravonlik bilan paydo bo'lgan davlatlar yemirilishi mumkin. Lekin bolalik deb atalmish g'aroyib saltanat borki, u zinhor zavol ko'rmaydi, sinalgan qonun-qoidalari asosida yashayveradi. Avvalo, u zamon, makon, irq, din, jins tanlamaydi. Ikkinchidan, bolalik saltanati maxluqotu mavjudot bilan hamisha, keng ko'lamli aloqada bo'ladi. Maymun, masalan, baland daraxtning uchiga chiqib, yerdagi raqibiga banan yog'dirishi, ona-sher, bolalari qatori, o'zga maxluqot rezgisini bag'riga bosishi, yalab-yulqashi, yovuz odamdan alamzada bo'lgan bo'ri undan qasd olishga chog'lanishi, ilonlar noyob xazinani ziyrak posbonday qo'riqlashlari, mehribon inson lat yegan hayvon, parranda, darrandani uzoq muddat davolashi mumkin. Uchinchidan, g'aroyib saltanatda odam bolasi ayiq, itdan hid olish mahoratini, tulkidan makr-hiyla asrorini, sheru yo'lbarsdan ulug'vor tajovuzkorlikni; qo'zidan ma'sumlikni, bulbuldan zavq-shavqni o'rganishi mumkin. To'rtinchidan, bu g'aroyib saltanatda turli-tuman aloqalar davom etaveradi. Odam, xohlasa, narigi dunyoga, xohlasa, insu jinlar, dev-parilar makoniga, xohlasa, osmoni falakka, o'zga sayyoralarga sayr qilishi tabiiy hol. Bu saltanatda dov-daraxt, maxluqot, changalzorlar, daryoyu dengizlar bir yoqadan bosh chiqarib, yovuzlikka qarshi bosh ko'tarishi, go'zal qizlar ta'viya maxluqlarga aylanib, narsa, hodisalar asl mohiyatidan tashqari kutilmagan vazifalarni bajarishi mumkin. Chaqmoqtosh, sehrli chiroq (qalpoqcha, tayoqcha, kovush, sandiq, xum), duldul ot, chaqimchi chumchuq haqidagi yuzlab asarlar hamisha diqqatni jalb etib kelgan. Kompyuter, uyali telefonlar g'aroyib saltanatni yangi mavzu, qahramon, imkoniyatlar bilan boyitdi. Xullas, bu saltanatning tub ildizi, mustahkam suyanchig'i xalq og'zaki

ijodidir. Muhimi, g'aroyib saltanat xayolot dunyosi kengliklarini bemalol kezishi mumkin. Unda shartlilik, ramziylik, sayohat, xayolotga katta erk beriladi. Uning ajoyibotlari bolalar adabiyoti deb ataladigan mo'jizaviy sohada o'z ifodasini topadi.

Bolani azal-azaldan podshoga mengzaydilar. Bolalik uy bozorligini, unda sir yotmasligini aytadilar. Farzand ko'rishni — oilasiga kichkina quyosh kirib kelishini orzulamaydigan odam topilmaydi. Bola — quvonch. Bola — bebaho ne'mat. Bola — tilsim. Ziyrak odamlar chaqaloqqa zehn solib, uning qanday inson bo'lishini bilib oladilar. Bo'ladigan bolaning o'nlab belgilari ilmiy, badiiy adabiyotda aniq-ravshan sanab berilgan. Bola, misoli, sirli qulf. Unga tushadigan kalit bolaning qiliqlari, naridan-beri aytib yurgan gaplarida ko'rinib qoladi.

Bolalar adabiyotining yetuk asarlarida duldul otlarnikiday qirq quloqli qanot bo'ladi, shekilli-da: ular yurtlardan yurtlarga uchib yuradilar, o'nlab tillarga tarjima qilinadilar, millionlab qalblarni zabt etadilar. Bolalar adabiyotining qahramoni avvali-oxir xayolparast bo'lgan, yetti qavat osmonda kezgan. Kattalar «yaxshidir achchiq haqiqat», desalar, bolalar «lek shirin yolg'on undan qolishmaydi», degan ishonch bilan yashaydilar. Shirin yolg'on manbai — ertakdir.

Bolalar adabiyotining deyarli hamma qahramonlari hangomatalab, sarguzasht oshig'i, sayohat fidoyisi. Xudoyberdi To'xtaboyevning Hoshimjon, Akrom, Orifjoni Tom Soyvor (Mark Tven), Maugli (Kipling), Chippolina (Janni Rodari), Jelsomino (Janni Rodari), Gulliver (Svift) singari sayohat, sarguzashtlarni sevadi.

Bolalar adabiyotining g'aroyib qahramonlari chaqmoqtosh, sehrlilari tayoqcha (qalpoqcha, mantiya, kalit, boyo'g'li)dan unumli foydalanadilar. Ular bitta odamning turli mohiyat, holatlarini kashf etadilar.

Xudoyberdi To'xtaboyev romanlarida sehrgarlik anjomlari, sehr yo'sinlari milliy betakrorlikda, o'zbekona muhitda aks ettiriladi. Ikkinchidan, X.To'xtaboyevning «Sehrlilari qalpoqcha», «Sariq devni minib» asarlari yaratilganda jahon adabiyotida Hoshimjon singari sehrlilari qalpoqchaga ega, o'ta qaltis

muammolarni zumda hal qilib tashlaydigan qahramon yo'q edi. «Shirin qovunlar mamlakati...»dagi Akrom bilag'onni aytmaysizmi? Folklorda, yozma adabiyotda ko'z jodusi, oyoq mo'jizasi, qo'llar asrori haqida asarlar ko'p edi-yu, ammo hid biluvchi burunning karomatlari hech qayerda ko'rsatilmagandi. X.To'xtaboyev Akromning hid biluvchi burnidan yumor manbai sifatida foydalanadi. Muhimi, g'aroyib fazilatli burni tufayli qahramonimiz katta bir afsonaviy mamlakatning qahramoni darajasiga ko'tariladi. Jahon adabiyotidagi kichik qahramonlarga mushtarak fazilatlar tufayli yozuvchining asarlari o'z kitobxonlarini tez topib bormoqda. O'tgan yillar ichida X.To'xtaboyev asarlari Toshkent, Moskva, Tallin, Vilnyus, Kiyev, Buxarest, Berlin, Sofiya, Dushanbe, Ashxobod, Boku, Yerevanda bosildi. Uning kitoblari bugungi kunda chex, norveg, fin, fransuz, turk, italyan, qozoq tillarida nashr etildi. Shu kunlarda ham X.To'xtaboyev asarlari jahon xalqlari tillariga ko'plab tarjima qilinmoqda.

Yozuvchi asarlari jahonda chop etilyaptimi, demak, ular o'qilmoqda. Afsuski, o'zbek adabiyotshunosligida yozuvchi reytingi masalasiga e'tibor berilmaydi. Vaholanki, reyting o'ziga xos ko'zgu, ko'rsatkich: yozuvchi asarlarining umumiy adadi qancha, necha tilga tarjima qilingan, qaysi asari eng mashhuru qaysi asari zaifroq, qaysi qit'a, mamlakatda yozuvchi asari ko'p o'qiladi... Bir fikrni qat'iy, ishonch bilan aytish mumkin: Xudoyberdi To'xtaboyev asarlarini o'zbekning uch avlod kitobxoni qunt, qiziqish bilan o'qidi. «O'tgan kunlar», «Sarob», «Shum bola»dan keyin «Sariq devni minib» eng ko'p o'qilayotgan asarlardan biri deyish mumkin.

Xudoyberdi To'xtaboyev ijod qila boshlaganidan beri zamon, tuzum, mafkura, adabiy-estetik qarash o'zgardi. Lekin yozuvchi salkam ellik yillik ijodi davomida qanday roman, qissa yozgan bo'lsa, ularga bo'lgan qiziqish susaymadi. Chunki yozuvchi hamisha tirik insonni, o'z «men»i, yo'l-yo'siniga ega odamni tasvirlagan edi.

Odatda, mashhur asarlar yombiday yaxlit, birdan paydo bo'ladi. Xudoyberdi To'xtaboyev romanga so'nggi nuqtani qo'yish uchun ko'p izlandi, misoli igna bilan quduq qazidi.

Yozuvchi tinimsiz izlandi. Qidirayotgani xalq og‘zaki ijodi xazinasida ekanligini qalbidan his etdi. Doston, ertak, topishmoqlarni qayta-qayta o‘qidi. Bola-bola-da! U toqqa chiqmay do‘lanali bo‘lishga, kon qazimasdan xazina topishga, o‘qimasdan obro‘-e‘tibor qozonishga, aqlni peshlamasdan raqiblarini yer bilan yakson qilishga intiladi. Ha, bola — o‘smir sirli, sehrli narsani topishi kerak. «Sariq devni minib»da voqealar ko‘p, ularni hikoya qilib berish yo‘isini bor. Hoshimjon ham roviy, ham voqealar ishtirokchisi. U voqea-hodisalarni maromiga yetkazib, o‘zigagina xos tilda so‘zlab beradi (yozuvchi vazifasini bajaradi).

Xudoyberdi To‘xtaboyevning «Sariq devni minib», «Shirin qovunlar mamlakati», «Mungli ko‘zlar» romanlarida sarguzashtlar ko‘p. Sarguzasht — insonning hayot girdobida uzluksiz harakat qilishi, maqsad yo‘lidagi kurashishi. Hoshimjon, aytilganiday, mashhurlik izlab sarguzasht boshlaydi. Uning Uzun quloq pirim ziyoratgohidagi, militsiya xodimlari bilan Sariq devni mahv etishdagi sarguzashtlari ham qiziqarli, ham murakkab, ham ma‘rifiy. Akromning g‘aroyib sarguzashtlari-chi? Ular Hoshimnikidan ortiq bo‘lsa borki, kam emas. Zafar mushtdayligidan hayot ziddiyatlari, murakkab sinovlar sarguzashtini boshidan kechirdi. Qahramonlar sarguzashtini qiziqarli, jonli tasvirlash X.To‘xtaboyev asarlarining asosiy maqsadimi? Yo‘q, albatta. Uchta romanda poetikaning mohiyati anglashiladi. Badiiy asar poetikasi deganda voqea-hodisa, qahramonlarning badiiyat olamidagi hayoti, intilishi, kurashi tushuniladi. Anig‘i, poetika — badiiy asarning yashash tarzi, undagi ruhiy harakat, mazmun-mohiyat demak. X.To‘xtaboyevning yozuvchi sifatidagi iste‘dodi, uquvi shundaki, u matn ostiniginamas, matnning kitobxon olamida jilolanadigan qiyofasini, ruhiy hayotini, tusini, turini aks ettira olgan. Mana shu kontekst — matnning badiiy in‘ikosini ochib berish — yozuvchi mahorati haqida fikr yuritishdir. Xudoyberdi To‘xtaboyev uchta romani orqali o‘zbekning asl mohiyatini, XX asrning II yarmidagi ijtimoiy-ma‘naviy-ruhiy hayotning badiiy tarixini ishonarli ochib bergan. Yozuvchi Hoshimjon, Akrom, Zafarning dunyoga kelishida vosita bo‘lgan ota-ona,

o'zbekning saxiy, orzu-havasli, g'ururli, to'ysevar, ishonuvchan, qonunni bilmaydigan, olomonsifat, bolajon bo'lgani bilan uni qanday tarbiya qilish yo'riqlarini anglab yetmaganligi ekanligini ko'rsatadi. Badiiy asarda shartlilik, ramziylik bo'ladi. Yozuvchi, deylik, Hoshimning soxta agronom, muhandis, artist bo'lganini ko'rsatmoqchi. Tabiiyki, u shartlilikdan, sehrli qalpoqchadan foydalanadi. Hoshimjon bironta rivojlangan yurtda na muhandis, na agronom bo'la olardi. Hamma yerda hujjat (diplom) talab qilinadi. Qarang, qorovul Polvontog'a tavsiyasi bilan sovxoz direktori Hoshimni agronomlikka oladi. Bu ishga joylashishning «o'zbekona usuli», xolos. Akrom («Shirin qovunlar mamlakati...») odamlar olti-yetti yuzta kosa, likobcha, choynak, piyola olib kelayotganini kuzatadi. Bu — bor gap edi. Ba'zilar katta bir to'yni o'tkazishga yetadigan choynak-piyola, kosa-lagan, hatto guldonlarni g'amlab qo'yganlar. Bunday g'aroyib saxiylikni Matmusa o'zbek qilishi mumkin, xolos. Zafarning («Mungli ko'zlar») ota-onasi pul, oltin yig'adi. Muhimi, ular boyiganlari sayin o'zlarini boshqara olmay qoladilar. Bebiliska topilgan pullar oilaga kulfat, baxtsizlik, fojia olib keldi. Yoqutxon, Saidlarning pul-boyliklari do'st-dushmani tanib olishda o'ziga xos mahaktosh vazifasini o'tadi: Yoqutxonning qadrdon ulfatlaridan Qo'mondon, Qozi xolalar eng tuban firibgar, muttahaarning ishini qiladilar.

Xudoyberdi To'xtaboyev 300 dan ortiq felyeton yozgan. Odatda, feleton jamiyat, jamoa manfaatlariga zid borganlar haqida yoziladi. Har qanday jamiyatda umunga zid borganlar, qonunni buzganlarga qarshi kurashadigan mahkamalar bo'ladi. Ko'zim tushgan, X.To'xtaboyev militsiya tashkilotlaridan, qonun himoyasi organlaridan ko'plab tashakkurnomalar, nishonlar olgan. Yozuvchi «Sariq devni minib», «Mungli ko'zlar» romanlarida militsiya xodimlari obrazini ishonarli yaratgan. O'smirlarning qadrdon qahramoni Hoshimjon Ro'ziyev militsiya serjanti sifatida dostonlardagiday ishlarni amalga oshiradi. Demak, X.To'xtaboyev Sariq dev, Iblis deganda qonunbuzarlarni, o'g'ri-muttahamlarni, tovlamachi-poraxo'rlarni nazarda tutgan.

E'tibor bering, X.To'xtaboyev qaysi asarida qonun himoyachilari va qonunbuzarlar haqida yozsa, qalami erkin

harakat qiladi. Chunki yozuvchi jurnalistlik kasbi tufayli qaltis holat, vaziyatlarni kuzatgan. Felyetonnavislik – qonunga suyanib ish yuritish yozuvchi tabiatiga singib ketgan.

X.To‘xtaboyev mahorati ijobiy va salbiy kuchlarni uyushtira olganligida, ular aro kurashning borishini tasvirlashida seziladi. Shu o‘rinda yozuvchi tutgan yo‘ldagi bir norasolikni ko‘rsatib o‘tish joiz. «Shirin qovunlar mamlakati...» — bolalar adabiyoti namunasi, yetakchi bolalar yozuvchisining pishiq asari. Bolalar adabiyoti, bolalar romanimi, demak, unda bolalar harakat qilishi, bolalar ruhiga yaqin masalalar qo‘yilishi lozim. Akrom Dar Daraja bilan Iblisga qarshi kurashadi. Iblis kattalarning buzuq qonidan paydo bo‘lgan. Nega Akrom atrofiga ikki-uch o‘smir qahramonni qo‘yish yoxud Iblisdagi qonlar qatoriga bolalar olamining illatlarini kiritish mumkin emasdi?

Iblisga qarshi kurashish, bu yo‘lda turli vositalardan foydalanish Joan Roulingning Garri Potter haqidagi kitoblarda ko‘zga aniq tashlanadi. Akrom Iblisga qarshi aql bilan kurashish yo‘lini tanlaydi, har xil fizikaviy, kimyoviy, biologik, genetik usullardan foydalanadi. Hozirgi yoshlar bolalar adabiyotidagi intellektual qahramonlarni yoqtiradilar. Garri, Germiona, Ron singarilar raqibga qarshi uzoqni o‘ylab kurashadilar. Shu nuqtai nazardan Akrom ham yoshlarning sevimli qahramoni. Unda izchil maqsad, kurash usuli, vositalari bor. Ustiga-ustak X.To‘xtaboyev kurashning o‘ta nozik yo‘llarini ko‘rsatib boradi. Aqllar, hiylalar kurashi birinchi o‘ringa chiqadi. Biz qancha kitobxon bilan suhbatlashgan bo‘lsak, Akrom X.To‘xtaboyev ijodidagi pishiq, aql-hushli kurashchilardan biri ekanligini aytdi. To‘g‘ri, Jamila kelinoyi haqida yolg‘on to‘qib tashlagan, «Fanga yurish»ni «Panaga yurish» tarzida talqin qilgan Akromning har xil asbob-uskunalaridan mohirona foydalana ola boshlagani orasida nomutanosiblik bor. Romanning fantastik, xayoliyligi ko‘p masalalarga o‘zgacharoq qarashga undaydi.

Garri Potter, garchi u ham xayolot olamida kezsa-da, yangi-yangi texnik vositalardan foydalanadi: uning sehrgarlik uskunalarining mo‘jizaviy imkoniyatlarini ocha bilishi hozirgi o‘smirlarda qoniqish tuyg‘usini vujudga keltiradi. Muhimi, Garri Potter sheriklari, ularning raqiblari tartibga tushgan

osoyishtalikni ayqash-uyqash qilib yuborishdan huzurlanadilar. Ya'ni, Rouling xonim bola tabiatidagi buzish-yorishga bo'lgan ehtiyojni amaliy ishlarda ko'rsatib beradi. X.To'xtaboyevning Hoshimi, Akromi, Sultonu Zufarida kattalar o'ylab topgan, amalga oshirgan tartibotlarga qarshi allaqanday norizolik bor. Ehtimol, o'smirning beg'ubor ko'ngli poraxo'rlik, to'rachilik, munofiqlik, buqalamunlik, laganbardorlik singari kasofatlar paydo bo'ladigan muhitni avvaldan his qiladi. Aslida, X.To'xtaboyevning deyarli barcha qahramonlari yomonlikka, zulmga, nohaqlikka qarshi sidqidildan kurashadilar.

Yana bir gapni aytish kerak, Hoshim, Akromlar kitobxonga tanilib, Yevropaga chiqib borgan paytida hali Garri Potter yo'q edi. Ehtimol, Hoshim, Akrom singari o't-olov qahramonlar Garrilarning paydo bo'lishida turtki bo'lgandir.

*Abdug'afur RASULOV,
filologiya fanlari doktori, professor*

BIRINCHI QISM

JINOYAT

I BOB

Achchiq taqdirim, goho charaqlagan, goho bulutli o'tgan kunlarim haqida so'rayapsizmi, sizga bularning hech hojati yo'q-ku yoki suhbat borasida dilimdagi mayda-mayda qora tugunchalardan, yelkamdan tog'dek bosib turgan g'am yuklaridan qutulib olishimni istayapsizmi? Bilib turibman, menga rahmingiz kelyapti, achinyapsiz. Yo'q, menga achinishlarini hecham istamayman, ilgari istasam ham endi istamayman. Kech bo'ldi. O'zlari loyqa to'la iflos chuqurga itarib yuborishadi-da, "voy o'lmasam, kiyim-boshlaring loy bo'pti-ya, kelaqol, yuvib, tozalab beraman", deyishadi.

Shuyam gap bo'pti-yu, shuyam mehribonlik bo'pti-yu!

Ha, men 16 yoshimda qamoqqa tushib qoldim. Qamalishim kerak edi. Mana, qamadilar. Turgan gapki, jinoyatni birovlar qilib nega endi seni qamadilar, bu qanaqa qonun bo'ldi, deb so'rarsiz. Iltimos, qonunni tinch qo'yaylik. Qonunlar adolatli, ularning adolatli ekanligini mana shu yerda, goh qorong'u, goh zax xonalarda yotgan hamxonalarim ham yaxshi bilishadi. Bu xususda hammamizning fikrimiz bir. Siz qonun ijrochilari, himoyachilari, targ'ibotchilari haqida gap ochsangiz boshqa edi, tilingizdan o'pgan bo'lardim. Yo'q, men jinoyatchi edim, jazolanishim shart edi. Lekin... Lekinlar haqida keyinroq gaplasharmiz. O'shanda adolatli hukm chiqarishni o'zingizga havola qilaman.

Hammasini boshidan boshlay qolay. Axir ashulani o'rtasidan aytishmaydi-ku. Siz uchun kuylamoqchi bo'lgan g'amgin qo'shig'imizning boshlanishi oxiridan ham g'amginroq. Xohlasangiz tinglarsiz, xohlamasangiz ixtiyor o'zingizda.

Xonadonimizga qo'shaloq baxtsizlikning qora bulutdek yopirilib, bo'rondek dahshat bilan bostirib kelishi to'qqizinchi iyunga to'g'ri keldi. Esingizdan chiqmasin – to'qqizinchi iyun

deyapman. Men o'sha kuni behad xursand, ehtimol baxtli ham edim. Sakkizinchi sinfni bitirayotgandim. Ona tilining yozma-og'zakisidan, algebra-yu geometriyadan yaxshi baholar oluvdim. So'nggi imtihon rus tilidan edi. Undan ham bahoim yaxshi bo'ldi, eshityapsizmi, yaxshi deyapman. Men hech qachon a'lochi bo'lgan emasman. Hamisha o'rtadan yuqori, a'lodan pastroq baholar olganman. To'g'ri, Ilhom, Manzura singari sinfdoshlarimga o'xshab a'lochi bo'lishni, suratim ilg'orlar doskasiga osilishini, majlislarda mening ham nomim o'shalar qatorida tilga olinishini pinhona orzu qilardim. Lekin, menda quntmi, iqtidormi, xotira quvvatimi – bilmayman, xullas, nimadir yetishmasdi. Bu esa juda-juda alam qilardi. Odam bolasi hamisha yuksaklikka intiladi, atrofda gilardan jindek yuqori bo'lishni orzu qiladi. Bilimi tufaylimi, chiroyli kiyimlari bilanmi, cho'ntagidagi puli bilanmi, birovlarga qilgan beminnat xizmati tufaylimi, ishqilib nimasi bilandir, o'zgalardan ajralib, yuqoriroq turishni orzu qiladi. Ehtimol, men xato qilayotgandirman. Lekin nima bo'lganda ham ko'nglimdan kechgan gaplarni aytyapman. Nega shunday deb o'ylashimning sababiga haligacha o'zim ham tushunmayman.

Ochig'ini aytsam, Ilhom, Manzura singari a'lochilarni, a'lochiligi, hurmati mendan baland bo'lgani uchun uncha xushlamayman. Ichi qoralikdanmi, hasaddanmi, ishqilib, yoqtirmayman-da. Lekin ulardan ustun kelishning, hurmat qozonishning boshqacha yo'llarini ham bilardim. Biz boy, juda ham badavlat yashardik. Ba'zan oyijonim bilan dadajonimning bizdan yashirincha derazaning pardasini tushurib olib pul sanayotganlarini ko'rsam to'lqinlanib ketardim, g'urur, iftixor hissidan mast bo'lardim. Daromadimiz goho, dadamning aytishicha, o'n ming so'mdan ham oshib ketardi, eshityapsizmi, o'n ming deyapman! Ilhomning dadasi avtobus haydaydi, bir yuzu sakson so'mdan ortiq ololmaydi. O'z og'zi bilan aytgan. Bizda esa o'n ming! Shularni o'ylab, yo'q, baribir, senlar bizdan yuqori bo'lolmaysanlar, deb o'ylardim. O'ylardimu lekin hech kimga aytmasdim. Ustunligimizning isboti sifatida men juda yaxshi kiyinardim. Qamoqxonaga tushgunimga qadar faqat import kiyganman. Import odamni ulug'sifatroq, madaniyroq

qilib ko'rsatadi, shunday emasmi? Xo'p deyavering, nega bo'lmasa o'ziga sal tuzuk bo'lganlar nuqul import kiyishadi? Yapon sviteri, chex kostyumlari, ingliz tuflilari, fin ko'ylaklari o'ziyam boshqacharoq tikilgan bo'ladimi yoki men bilmagan, ehtimol siz ham fahmlab yetmagan allaqanday sehrli bo'ladimi, ishqilib, odamni to'satdan e'tiborli qilib qo'yadi, qadr-qimmatini baland qiladi, obro'yiga obro' qo'shgandek bo'ladi.

Dadajonim ham qamalmasdan oldin nuqul import kiyardi. Oyijonim bo'lsa... Eh qanday yaxshi kunlar edi-ya! Oh-oh, uning arab parchasidan ko'ylak tiktirib, finlarning jemperidan kiyib, qulog'i va qo'llariga brilliant ko'zli taqinchoqlarni taqib ko'chaga chiqqanini bir ko'rsangiz edi, og'zingiz ochilib qolardi. Hamma oyijonimni ministrning xotinimi deb o'ylardi, suqlanib tikilgani-tikilgan edi.

Ota-onam hamisha, har bir kishi o'z qadrini bilishi, uni ulug'lashga harakat qilishi kerak, o'zini hurmat qilmagan kishi birovdan ham hurmat ko'rmaydi, deb aytishardi. Biz o'zimizni juda hurmat qilardik. O'zgalar ham bizni hurmat qilishini juda istaganimiz uchun qo'limizdan kelgancha harakat qilardik. Oh, qanday yaxshi kunlar edi-ya!

Dadajonim kayfiyati yaxshi bo'lgan kunlari goho bizni, ya'ni majruh akam, men, singlim va ukamni yoniga o'tqazib nasihat qilar, hikmatli so'zlar aytar, qiziq-qiziq voqealardan gapirib berardi. "Jamiyatda uch toifa odamning mavqei baland, qo'li uzun bo'ladi, orzusiga tezroq erishadi. Orzusiga tezroq erishgan odam o'zini baxtli hisoblaydi. Ilmli-yu hunarmandlarning, puldorlar-u mansabdorlarning aytgani aytganu degani degan bo'ladi..." degan gaplarni aytardi. Dadam katta amaldor emas, shunchaki bazaning bosh omborchisi, xolos. Ammo ko'chamizdagi barcha ulug' kishilar unga egilib salom berishadi. Raispolkom sekretari, sudya, tergovchi, raykom xodimlari, eh-e, ularning savol alomatidek egilib turganini ko'rsangiz edi. Demak, puling bo'lsa, changalda sho'rva, deb dadajonim to'g'ri aytarkan-da! Ha-ha, puling bo'lsa sudya ham boshi yerga yetguncha ta'zim qilib turarkan. Dadajonim haq, yuz karra haq. Bu haqiqatni, hozir aytganimdek, o'zim ham necha bor sinab ko'rganman. Sinfirmizdagi a'lochilar bilimlariga mahliyo bo'lib,

o'zlaricha kerilib, maqtanib qo'yishadi. Bu esa hali aytganimdek menga hecham yoqmaydi, g'ashim keladi, xo'rlangandek bo'laman. G'ururim qo'zg'ab o'zimni qo'yarga joy topolmay qolaman.

Tug'ilgan kunlarni nishonlaganimizda... sho'ring qurg'ur a'lochilarning ta'zirini berib qo'yaman. Biri kitob, boshqasi bir so'm yigirma tiyinlik sassiq atir ko'tarib boradi. Men bo'lsam sovg'aning eng kattasini qilaman. Hammasining ko'zi o'ynab ketadi. Aybdorning yoniga o'tqizib, tabrik uchun so'zni birinchi bo'lib menga berishadi. Uy egalari xursand, mehmonlar xursand. To'g'ri-da, yaxshi sovg'a kimga yoqmaydi. Oyijonim hamisha bergan xudoga yoqibdi, derdi. Judayam to'g'ri. Sovg'a har qanday kishining dilini yumshatib, qalbida shafqat hissini uyg'otadi. Umuman, sovg'alar berish bizning oilamizda odat tusiga kirgan. Oyijonimu dadajonimning aytishlaricha biz yigirmadan ortiq xonadon bilan sovg'alar tufayli bog'lanib turamiz. Bermasak bo'lmaydi, xafa bo'lib qolishadi. Xafa bo'lishsa, oyijonim ham, dadajonim ham nozik ishda ishlashadi, ularga xalaqit berib qo'yishlari mumkin.

Sinf rahbarimizga ham vaqti-vaqti bilan hadyalar qilib turamiz. Direktorimiz bo'lsa, hatto dars ketayotgan bo'lsa ham shartta sinfga kirib:

– Zafarjon, shu yerdamisan? – deb so'raydi.

Dik etib o'rnimdan turib:

– Shu yerdaman,– deyman xursand bo'lib. Nega xursand bo'lmay?

Direktorimiz sinfimizdagi bironta bolaning ismini bilmaydi, faqat menikini biladi, xolos. Yana tag'in meni o'ziga yaqin olib senlab gapiryapti, xursand bo'laman-da.

– Orqamdan yur, – deydi yana direktorimiz.

– Xo'p bo'ladi, – deyman-da sinfdoshlarimga mag'rur nazar tashlayman. Ko'ryapsanlarmi, hurmatli direktorimizning shaxsan o'zi meni yo'qlab keldi. Qani, ayt-chi, qaysi biringni shunday hurmat qiladi, degandek bo'laman. Mag'rur qadam tashlab orqasidan ergashaman. O'zimni dadil, erkin tutaman. Nima uchun chaqirganini yurak-yurakdan his qilib turganim uchun ham shunday qilaman. Biron marta bo'lsin baholarim

pasayib ketgani yoki sho‘xlik qilib birontasining dilini og‘ritganim uchun chaqirganini eslay olmayman. Qiziq, bunaqa paytlarda, ko‘pincha, mendan ko‘ra direktorimizning o‘zi tortinibroq, uyalinqirab turadi deng.

– Xo‘sh ahvollar qalay? – deydi o‘rniga o‘tirib.

– Yaxshi, – deyman.

– Dadang yaxshi yuribdimi?

– Yaxshi yuribdi.

– Lekin ajoyib oying bor-da. Saxiy, pazanda. Ayniqsa, norinni qiyib qo‘yadi-da.

– Ha shunday... – deyman chaynalib. Nega desangiz, oyijonim hech qachon pazanda bo‘lgan emas. Uyimizda xizmatkorimiz bor. Lutfi xola deb chaqiramiz uni. Juda mehribon, juda kamtar, juda sarishta, juda pazanda. Oyijonim bo‘lsa ro‘zg‘or ishidan allaqachon chiqib qolgan. To‘g‘ri-da, barmoqlari to‘la brilliant ko‘zli uzuklar bo‘lsa-yu, xamir qorsa ko‘zlarining orasiga kirib, xiralashtirib qo‘ymaydimi!

Direktorimiz ”norin” deyishi bilan gap nimadaligini darrov tushunaman. Shu kishi maktabimizga direktor bo‘lib kelgandan buyon nozik mehmonlarini kutayotganda tansiq taomlardan — qazili norinmi yoki to‘rt quloqli dumbali somsami zarur bo‘lsa, meni huzuriga chaqirib yo dadajonimni yoki oyijonimning sog‘lig‘ini so‘raydi. Gap orasida unisiniyam, bunisiniyam maqtab qo‘yadi. Bizam darrov ko‘na qolmas edikku, lekin o‘zingiz o‘ylang, bir oiladan majruh akamni ham qo‘shib hisoblaganda to‘rt bola o‘qiyimiz. Ota-onamizning biz bilan shug‘ullanishga vaqtlari ozroq. Oyijonim ko‘pincha “Bizdan norinu ulardan tarbiya-da”, deb qo‘yadi.

– Yana komissiya keladimi? – deb so‘rayman direktorimizdan.

– E... juda kattasi, – negadir qo‘l siltab qo‘yadi direktorimiz.

– Ko‘pchilikmi?

– Yigirmatacha bo‘lsa kerak... Maktab direktorlari... o‘zaro tekshiruv o‘tkazishmoqchi.

– O‘h-o‘, ko‘pchilik ekan.

– Nimasini aytasan, topib olganlari bizning maktab.

– Somsa buyuraymi yo norinmi?

– Aytdim-ku, hammasi direktorlar deb. Yog‘li ziyofat yeb yurgan odamlar-da. Iloji bo‘lsa... unisidanam, bunisidanam bir tog‘oradan tayinlagin. Singlingga “Artek”ka putyovka to‘g‘rilayapmiz, xushxabarni oyingga aytib qo‘y. Yo o‘zing ham borasanmi?

– Yo‘q, bu yil bormayman.

– To‘g‘ri qilasan, hadeb boraversang gap tegib qolishi mumkin.

– Aytganlaringiz soat nechaga tayyor bo‘lsin?

– Tushlikka-da. Yo‘q, yaxshisi, o‘n ikkilarga bo‘la qolsin.

– Yaxshi.

– Yo‘q, to‘xta... Haligi, nimaydi, qazini sizlar bozordan olasizlarmi yoki o‘zlaring qo‘lbola qilib tayyorlaysizlarmi?

– Har yili kuzga ot so‘yamiz.

– Barakalla, – deydi direktorimiz yuzi yorishib, – o‘zim ham shunday deb o‘ylovdim. Lekin qiyib qo‘yasizlar-da, og‘zingda erib ketadi-ya! O‘sha qazidan ko‘proq solishsin, hali aytdim-ku, mehmonlar ja nozik deb.

– Yaxshi, – deyman eshik tomon yo‘nalib.

– Yo‘q, to‘xta, – direktorimiz o‘rnidan turib menga yaqin keladi-da, ovozi xiyol pasaytirib juda muhim bir sirni menga, faqat mening o‘zimgagina oshkor qilayotgandek bir ohangda davom etadi. – Shu tog‘oralarni maktabga ko‘tarib yurmanglar, bilasan-ku, odamlar yomon bo‘lib ketgan hozir, gap ko‘payib yurmasin tag‘in. Biznikiga olib borib bera qolinglar, kelishdikmi?

– Kelishdik, – deyman-da, xursand bo‘lib chiqib ketaman.

Yettinchini bitirayotganimda g‘alati bir voqea yuz berdi. To‘rtinchi chorakka borganda to‘satdan o‘qishdan sovub ketsam bo‘ladimi. Fanlarning hech biriga qiziqmay qo‘ydim. Maktab ham, muallimlaru o‘rtoqlarimgacha hammasi ko‘zimga xunuk ko‘rina boshladi. Nega bunday bo‘lganini haligacha tushunolmayman. Dadajonimning ishidan bir-ikki ishkal chiqib qoluvdi. Shundanmi, oyijonimning qamalishiga bir bahya qoldi, shu sababli bo‘ldimi yoki majruh akamning qayta operatsiya qilishdan do‘xtirlar bosh tortishgani sabab bo‘ldimi ishqilib bir narsa bo‘ldi-da. Hali aytganimdek, hamma narsa ko‘zimga

befayz bo'lib ko'rina boshladi. Hatto, ishonsangiz uydan ko'chib ketib Afg'onistonga borib bir qahramonlik ko'rsatib qaytsammi, degan fikrga ham bordim. Xayriyat, sinf rahbarimiz bilan direktorimiz chorak yakuniga kelganda bo'sh kelishmadi. Bir amallab baholarimni to'g'rilashdi-da. Ammo, ona tili muallimimizni hech qo'lga olisholmadi. O'ziyam juda qaysar odam. Fe'liga yarasha jazosini olgan ham. Avariya bo'lib burni ezilib, bir qulog'i uchib ketgan. Biz uni Chinoq deb atardik. Chinoq muallim sinf rahbarimiz bilan ham, qattiqqo'lu bir so'zli direktorimiz bilan ham rosa olishdi.

– Bir amallab to'g'rilang, – dedi direktorimiz sinf jurnalini Chinoq muallimning oldiga surib.

Chinoq muallim jurnalni direktor tomon surdi:

– Qo'limdan kelmaydi.

Jurnal bu tomonga yana surildi:

– Iltimos.

Ochiq jurnal stol o'rtasida, betaraf zonada to'xtab qoldi. Ikkovlari bir-birlariga, negadir, ko'zlarini qisganicha tikilib, miyig'larida kulib turishibdi.

– O'zingiz o'ylang, – dedi nihoyat Chinoq muallim entikib, – saksonta so'zli bayonda qirqta xato bo'lsa, men qanday qilib to'g'rilayman?

– Qayta yozdiring.

– Uch marta qayta yozdirdim.

– To'rtinchi bor yozdiring.

– O'quvchilarim oldida meni sharmanda qilmoqchimisiz?

– Siz ikki qo'ymoqchi bo'lgan o'quvchining otasi maktab hovlisi atrofiga bazadan o'z bahosiga temir panjara olib berdi. O'tgan yilgi remontga uch yuz kilogramm belila sovg'a qilgan. To'g'irlang deyapman.

– Demak, bahoni sotib olishar ekan-da?

– To'g'irlang deyapman!

Chinoq muallim shartta turib ketdi. Qaltiray boshladi. Himoyachim ham o'rnidan turdi. Endi miyig'laridagi haligi tabassum yo'q, qovoqlari soliq.

Chinoq muallim tishlari orasida gapirgandek bo'ldi.

– Bu ahvolda men ishlay olmayman.

– Unda ariza yozishingizga to‘g‘ri keladi.

– Yozmagan nomard!

– Qo‘l qo‘ymagan ham nomard!

Xuddi shu paytda sezdirmasdan chiqib ketdim. O‘zing tufayli bo‘layotgan dilisiohlikni kuzatish noqulay bo‘larkan. Koridorning oxiriga yetmasimdan direktorning eshigi qarsillab yopilganini eshitdim. Chinoq muallim yonimdan gazanda chaqqandek vizillab o‘tarkan, men tomonga qarab “Tfu!” deganini eshitib qoldim. Lekin tupurmadi. G‘alati bo‘lib ketdim. Nazarimda qalbim tarvuzdek qoq ikkiga bo‘linib ketdi. Bir tomonda Chinoq muallimga achinish, uning haqligi-yu o‘zimning nohaqligimni his qilib turardim. Boshqa tomonda esa uch yoki to‘rt qo‘ysang asakang ketarmidi, men baribir, ona tili muallimi bo‘lmayman-ku, yurist bo‘laman-ku, yuristga imloning nima keragi bor, degan o‘y ham bordek edi.

Chindan ham men prokuror bo‘lmoqchiman. Oyijonimning bu xususda hamisha takrorlaydigan bir hikmati bor: “Chayqovchi pulni yalab olarkan, amaldor tilab olarkan, prokuror burab olarkan”.

Menga baribir “to‘rt” qo‘yishdi.

Gapim boshqa yoqqa burilib ketayotganini sezib turibman. Har qalay yaxshi bo‘lmadi. Men sizga to‘qqizinchi iyun kuni uyimizga xursand qaytganimni aytayotgan edim. Yana o‘shanga qayta qolay! Ha, behad shod edim. Quvonchim oshib-toshganicha majruh akamning xonasiga yugurib kirdim. Akbar akam mendan uch yosh katta. Bolaligida poliemit kasaliga chalinib ikki oyog‘i shol bo‘lib qolgan. Tanasini ko‘tara olmaydi. Qo‘l bilan boshqariladigan aravacha yasatib berganmiz. Zerikkanda o‘shanda yuradi. Boshqa vaqtlarda o‘tirib olib o‘qigani o‘qigan. Uni joni dilimdan yaxshi ko‘raman. Dunyoda qancha yaxshilik, qancha quvonch, qancha xushnudlik bo‘lsa hammasi o‘shanga bo‘lsa deyman.

– Akajon, rus tilidan ham “yaxshi” oldim! – dedim xonasiga otilib kirib.

– Rost aytyapsanmi? – dedi akam o‘qib yotgan kitobini bir chekkaga surib, – agar rost aytayotgan bo‘lsang, ke, tabriklay.

Achomlashib turgan edik, telefon jiringlab qoldi. Akamning karavoti yonida, shundoqqina qo‘li yetadigan joyda ikkita

telefon bor. Biri shaharga chiqadi, boshqasi hovlidagi boshqa xonalar bilan bog'langan. Trubkani ko'targan edim, "alo, alo" degan hayajonli ovoz eshitildi-yu, to'satdan uzilib qoldi.

– Obbo tirishqoq ukam-ey, – gap boshladi akam, ammo gap yana chala qoldi. Eshikdan it quvgan soqovdek halloslagancha Lutfi xolamning eri, ya'ni xonadonimizning shofyori Bozorvoy amakim kirib keldi. Rangi o'chgan, borlig'ini hayajon qoplagan, terlab ketibdi. Ter mo'lligidan oppoq ko'ylagi yelkasiga chippa yopishib qolibdi.

– Opam qanilar? – dedi ostonada turib.

– Oyim ish bilan ketgan, – dedi akam.

– Lutfi-chi?

– Xolam... bazaga boraman devdi.

Amaki stolga yaqinlashib, butilka ochib mineral suvdan stakanga qulqullatib quydi-da, bir ko'tarishda ichib yubordi. Labini kafti bilan arta turib:

– Ish chatoq, – dedi uf tortgandek qilib, – la'natilar tuzoq qo'yishgan ekan.

– Nima? – akam ikkovimiz birdan cho'chib tushdik.

– Sakkiz ming bilan qo'lga tushirishdi. Sakkiz ming-a!..

Ishqilib buyog'i yaxshi bo'lsin-da.

– Ochiqroq aytsangiz-chi, kimni qo'lga tushirishadi?

– Dadalaringni... Shoshilish kerak. Tintuvga kelib qolishlari ham mumkin... Ko'zga yaqin narsalarni berkitish zarur. Uh, opamni bir amallab topish kerak. La'nati Lutfining yo'qligini... Boradigan joylarim ko'p, tegishli odamlarni ogohlantirmasam bo'lmaydi... La'natilar, yomon boplashdi-ku, a! Said akamni qamab qo'yishlari ham mumkin. Voy pismiqlar-ey!

Bozorvoy amakim yugurib chiqib ketdi.

Telefor vahimali jiringladi. Qo'ng'iroq ichimizda jiringlagandek aka-uka cho'chib tushdik. Trubkani men ko'tardim. Ayol kishi kimgadir baqirib gapiryapti. Ovozi oyijonimnikiga ham o'xshab ketadi. Lekin oyijonim emas. Ovoz uzilib, trubka yana dududlay boshladi... Qiziq nima bo'lyapti o'zi-a? Nega bunday boshi-keti yo'q sirli qo'ng'iroqlar bo'lyapti?

Darvozaxonada it vovulladi. Demak, kimdir kelyapti. Hovlida Zarifjon zargarning oyog'ini siltab bosadigan xotini

ko'rindi. Otini bilmaymiz, hamisha opoqi deb chaqiramiz uni. Uyimizga tez-tez kelib turadi. Oyijonim bilan uzoq gaplashib o'tirishadi. Sirli imo-ishoralar qilishadi. Keyin kulisha-kulisha o'rtadagi pulni taqsimlab olishadi. Qiziq, bu gal nega keldi ekan?

– Hoy, kim bor? – deb chaqirdi hovlida turganicha.

Istiqboliga yugurdim.

– Biz bormiz, opoqi.

– Oying, oyiginang qo'lga tushib qoldi...

– Nima?!.

– Tilla buyumlarni bekit.

– Tushuntirsangiz-chi.

– Ming marta aytganmiz: katta pul bilan qilinadigan savdodan ehtiyot bo'ling deb. Bunaqa ishda gardkamchilik ketarmidi. Voy, sho'rim, bekitinglar, qo'lga ilinadigan narsaki bor ko'zdan nariga olinglar! Voy, xudoyim-ey, qanaqa kunlarga qoldik-a... Tillolarni gumdon qilinglar...

– Oyijonim qani o'zi?

– Uchastkada... Tergov qilishyapti shekilli. Uzoqdan ko'rib qoldim.

Ko'rdimu taksiga yugurdim. Voy, sho'rim, endi nima qildik-a? Bizni ham bir baloga ro'para qilmasa edi bu tavakkalchi onalaring. Dadalaring qani, ishdami, telefon qilinglar, shoshilib chorasini ko'rsin. Men ketdim. Hoy, menga qaranglar, tillo buyum bo'lsa hammasini bekitinglar deyapman. Taqinchoqlarni ham...

II BOB

Akam ikkovimiz nima qilishimizni, nima deyishimizni bilmay vahimada qotib turardik. Nega, nega endi ham dadajonimni, ham oyijonimni ushlashadi? Qiziq, axir ular boshqa-boshqa joyda-ku, dadam bazada, oyim zargarlarnikiga yoki mijozlaridan bitta-yarimtasining uyiga borgandir-ku?! Qiziq, juda qiziq! Akam jismonan ojiz, vahimali gaplarni, shum xabarlarini ko'tarolmaydi: rangi bo'zdek oqarib ketdi, qiz bolalarnikidek uzun kipriklari kapalakning qanotidek silkina boshladi. Bechora akam... Nega endi bu gaplarni uning huzurida

aytishadi, nega uni ehtiyot qilishmaydi... Bir paytlar multfilm ko'ruvdim, uni siz ham ko'rgan bo'lsangiz kerak, och bo'ri beozorgina quyon bolasini quvlashga tushadi, yemoqchi bo'ladi. Quyoncha qocha boshlaydi. Lekin oldidan og'zini katta ochib ajdaho chiqadi... Aka-uka ikkovimiz ham hozir xuddi o'sha quyoncha ahvoliga tushib qolgandekmiz. U multfilm edi, quyoncha tirik emas, bir qo'g'irchoq edi, xolos. Biz esa tirikmiz. Holatimizni hecham unga taqqoslab bo'lmaydi. Biz xuddi boshiga tayoq tushgan odamga o'xshaymiz. Hamma narsani ko'rib turibmizu lekin hech narsani his qilmayapmiz. Entikiyapmiz, xo'rsinib qo'yyapmiz, xolos.

Akam jismonan ojiz bo'lsa ham irodasi kuchli, aqlli. Aqlli bo'lmay ham iloji yo'q-da uning. Esini tanibdiki, yotib olib kitob o'qiydi. Kutubxonasi shunaqa boyki, muallimlarning havasi keladi unga.

– O'tir, nega tik turibsan, – birinchi bo'lib o'ziga keldi akam. O'tirdim.

– O'zingni qo'lga ol, ukajon. Hovliqma. Ehtimol hech gap bo'lmagandir. Shunchaki vahimadir. Bilasan-ku bunaqa vahimalar ilgari ham ko'p bo'lgan. O'shanda ham hammasi yolg'on bo'lib chiqqan.

To'g'ri podadan oldin chang chiqarmaslik kerak. Eh-he, dadajonim bilan oyijonim bunaqa chalkashlikka tushaverib, o'zlarining aytishicha, sochlari oqarib ketgan. Qo'rqmasak ham bo'ladi. Eng kattalari bilan, ancha-munchasini o'tirib turg'izadiganlari bilan aloqamiz yaxshi. Bir mo'ylov qilib qo'yishsa... tamom. Oyijonim-chi? Qiziq, nega endi ikkovlariga birdan tikilib qolishdi ekan? Oyimdan ham xavotir olmasak bo'ladi. Ha-ha, o'zimizni bosganimiz ma'qul. Pulimiz ko'p, juda ham ko'p. Tillolarimiz ham bor. O'shalar ishga tushsa bormi?! Oyijonim ko'pincha, "Eh, sizlar-ey, sizlar-ey, – deb qo'yardi, – hozirgi zamonda odamlar xudoga sig'inmay ketgan. Hamma hozir yo pulga, yo amaldorga sig'inadi. Pul xudo-yu, amaldor payg'ambar. Xudo beradigan yordamini endi odamlar puldan kutishyapti..." Bu gaplarni oyijonim bizga, ya'ni chekka-chekkada kattalarning gapini poylab, o'zini eshitmaganga solib o'tirgan farzandlariga qaratib aytarmidi yoki suhbatini jonon

qurayotgan og'zi to'la tish, bilagida oltin, barmog'ida oltin, bo'ynida shoda-shoda marvarid, bir-biridan shirin, bir-biridan dilbar dugonalarini, qadrdon qo'shnilarini shu oltinlarga rag'batini yana ham orttirish uchun aytyaptimi, bila olmasdik. Unday bo'lganda ham, bunday bo'lganda ham sizga baribir, shunday emasmi? Lekin menga baribir emas. Ehtimolki, shu paytda o'zini g'oyat sokin ko'rsatishga harakat qilayotgan majruh akajonim uchun ham baribir emasdir. Yugurib kimning oldiga borishni, kimga shoshilib qo'ng'iroq qilishni ham bilmaymiz. Bekit deyishdi, nimani bekitamiz, pul qayoqda, tillo qayoqda, biz bilmaymiz-ku axir!

Qiziq, vahima kishi qalbida uning ixtiyoridan tashqari qo'zg'alsa, uni quvib chiqarish ham kishining ixtiyorida bo'lmas ekan. Qalxim g'ussaga to'lib boryapti. Tezroq tashqariga chiqib ketishim kerakmidi? Yo'q, akajonimni shu ahvolda qoldirolmayman. Chiqdim deguncha yig'lab yuborishi ham mumkin. Shunaqa odati bor uning.

– Aka, dadamning ishxonasiga telefon qilaymi?– shu fikr miyamga kelganidan xursand bo'ldim.

– Yo'q... aslo... Melisa bosgan bo'lsa telefon ham nazoratda bo'lishi mumkin. Sabr qilaylik, – shunday deb akam halidan buyon ichiga yig'ib o'tirgan anduhini uhlab chiqarib yubordi. – Yana birontasi kelib qolar. Lekin ishonmayman, ham dadamni, ham oyimni bir vaqtda-ya. Yaxshisi, sabr qilamiz. Tag'in biz ham Abbosxon akamlarning xotiniga o'xshab chuv tushib qolmaylik. Eshitgansan-a?

– Eshitmay-chi! – dedim.

Abbosxon aka dadamning yaqin o'rtog'i. Bir-birlari bilan maslahatlashib turishadi. Juda kelishgan, yoqimtoy odam. Hamisha kulib turadi. Mehriyosi bormi, bir gaplashgan odam yana gaplashsam deydi. Bakaleyada katta omborchi bo'lib ishlaydi. Qarang, shunday aqlli odamni ham aldab ketishdi-ya. Dadam: “Abbos dunyoga o't qo'yadi”, deb yurardi. O'zining uyiga o't qo'yishdi. Yo'q, uchastkasiga emas... Qiziq, uch kungacha telefoni o'z-o'zidan ishlaymay qolaveribdi. Kechqurun tuzatishsa, ertalab yana buzilarmish. O'sha kuni bazaga keta turib: “Onasi, negadir yuragim g'ash. Ishga ham oyog'im tortmay

turibdi”, desa, xotini: “Unda bormay qo‘yaqoling, damingizni oling, qiymali mastava qilib beraman”, debdi. Abbasxon aka: “E, onasi, hozir uyda o‘tiradigan zamonmi, har kuni bosdi-bosdi, har kuni reviziya”, deb oyog‘ini arang sudrab chiqib ketibdi.

Kunduz soat o‘n birlarda yoqavayron bir yigit ko‘cha eshikni sharoqlatib ochib kirib kelibdi-da, yig‘lamoqdan beri bo‘lib: “Xayriyat, kelinoyi uyda ekansiz, bazani tekshirish bosdi. Hamma narsaga muhr bosildi. Akamni so‘roq qilishyapti. Tintuvga kelib qolishlari ham mumkin ekan. Akam aytdilar, qo‘lga ilinadigan qimmatbaho narsalarni zudlik bilan biron ishonarli joyga bekitar ekansizlar... Men ketdim, tez bo‘ling”, debdi.

Kelinoyimiz erlarining ertalab aytgan gapini eslabmi yoki to‘plagan boyligimizni oldirib qo‘ymasak edi-ya, degan xavotir miyasiga o‘rnashib qolgani uchunmi, ishqilib yigitning gapiga paqqos ishonibdi. Ro‘zg‘ori buzilib kelgan qizlari uyda ekan. Ikkovlari darhol ichkariga otilishibdi. Sariq chamadonning qopqog‘ini timsohning og‘zidek ochib xona o‘rtasiga qo‘yibdilar-da, avvalo tilla zayomni, ketidan po‘lat sandiqdagi mog‘orlagan pullarni, oltinu kumush taqinchoqlarni, ostona ostiga ko‘milgan sariq solkavoy (tanga pul)larni joylashibdi. Har birini joylashayotganda: “Voy, xudoyim-ey, voy tavba-ey, qanaqa kunlarga qoldik-a?” degan oh-vohni ham aytib turishibdi. Chamadonni ko‘tarib qo‘rqa-pisa ko‘chaga chiqishibdi.

Qizlari oldin uyoq-buyoqqa o‘g‘rincha nazar solibdi. Hamma yoq tinchlik, osoyishtalik, to‘rt-beshta qizaloq asfaltda chizmachiziq o‘ynayotgan emish. Ko‘chaga chiqib, endigina yigirmao‘ttiz qadam bosishgan ekan, militsiyaning qizil mashinasi shundoqqina yonlariga kelib qiyillatib tormoz beribdi. Ikki yosh militsioner mashinaning ikki eshigini lang ochib:

– Qani, marhamat, mashinaga chiqinglar, – deyishibdi.

Ona-bola boshlariga to‘qmoq bilan urgandek karaxt bo‘lib qolishibdi, dovdirashibdi. O‘g‘rilar chamadonni urib ketganidan keyin o‘zlariga kelib taksi olib Abbasxon akamning huzuriga uchishibdi.

Borishsa, Abbasxon aka bitta o‘rtog‘i bilan salqingina xonada choyxo‘rlik qilib o‘tirgan ekan.

– Voy, dadasi, – deb ostonadayoq yig‘lab yuboribdi xotini.
– Nima gap? – o‘rnidan turib ketibdi Abbosxon aka. Turmasa ham bo‘lmas ekan, nega desangiz, xotining ham, qizining ham rangida qon yo‘q, ko‘zlari to‘la vahima, o‘zlari ham sal g‘alatiroq bo‘lib turishgan emish.

– Rasvo bo‘ldi! – dodlabdi xotini.
– Nima bo‘ldi axir?
– Yuborgan yigitingiz...
– Qanaqa yigitni yuboribman?
– Voy o‘lay, sizni bosishgani yo‘qmi?
– Kim bosadi meni? Tushuntiribroq aytasang-chi.
– Tekshirish bosdi dedi-ku, yuborgan yigitingiz.
– Men hech kimni yuborganim yo‘q.
– Voy sho‘rim... – o‘zidan keta boshlabdi xotini.
– Voy xudoyim, – debdi eridan chiqib kelgan qizi ham.
– Tushuntirib gapirsanglar-chi, – baqirib yuboribdi Abbosxon aka.

– Hammasi ketdi...
– Nima ketadi?
– Pul ham, tillolar ham.
– Voy-dod...

Men o‘tgan yili bo‘lib o‘tgan bu voqeani qalbidagi daqiqa sayin kuchayib borayotgan vahimani bosish uchun ataylab eslatdim. Ehtimol, bizni chalg‘itish, aldash uchun bo‘layotgandir bu harakatlar. Aqlli akam to‘g‘ri aytyapti, o‘zimizni bosishimiz, hovliqmasligimiz kerak.

– Hovliga chiqamizmi? – so‘radim beholgina o‘tirgan akamdan.

– Yaxshi, – rozi bo‘ldi akam. – Uy dimiqib ketdi, bugun kun isiydiganga o‘xshaydi.

Xonasida qamalib o‘tirib dimiqib ketgan akamni bahavo ayvonga chiqarib, ostiga atlas ko‘rpachalardan qalin to‘shab berdim. Ayvon yerdan bir metr chamasi baland emasmi, hovlidagi anvoyi gullar bilan ayvon shifti va devorlariga naqshlangan gullar quyosh nurida yal-yal yonib atrofni nur va ranglar to‘lqiniga to‘ldirib yuborgandek edi. Allaqanday bir ilohiylik, masrurlik, gulbarglari hamda nurlar tarkibidan ajralib

chiqib aka-uka ikkimizni allalayotgandek, orom ol, rohatlan deya o'z tilida shirin alla aytayotgandek edi. Lekin ikkimiz ham g'amgin, tund edik. Oyijonim ko'pincha hovlimiz jannatning bir parchasi, deb atardi. Hozir xayolimizda jannat rohatidan ko'ra do'zax azobi ko'proq edi.

Akam menga qaraganda ham chuqurroq o'yga tolgan. U o'zi shunaqa, o'yga tolganda butun dunyoni unutib yuboradi, boshida yong'oq chaqsangiz ham sezmaydi.

– Ha endi, – deb qo'ydi bir mahal o'ziga kelib.

– Nima demoqchiding? – deb so'radim.

– Dadamni aytaman-da. Pora olishini aytyapman, tushunsang-chi.

– Bir dadam emas, hamma oladi-ku.

– Boshqalar insof bilan olsa kerak.

– Demak, aka, seningcha dadajonim insofsiz ekan-da?

– Zafarjon, ukagingam, ko'p narsaga hali tushunmaysan. Aqllisan-u, lekin baribir tushunmaysan, – shunday deb akam bir nafas jim qoldi. Xo'rsinib olgach, yana davom etdi. – Ehtimol, chindan ham dadamiz qo'lga tushgandir, ehtimol bularning hammasi vahimadir. Yoki bizni aldash uchun ataylab qilishayotgandir... Lekin aqlli ukam, o'zing o'ylab ko'r. Dadamning ishida qing'irlik ko'p edi-da. Bu baxtsizlik bugun bo'lmasa ertaga albatta, yuz berardi-da. Ehtimol, bugungisi vahimadir. Lekin ertaga chinakami yuz berishi aniq-ku.

– Aka! – deya gapni bo'ldim. – Bir gap aytsam xafa bo'lmysan-mi?

– Qani, ayt-chi.

– Yo'q, oldin so'z bergin.

– Xo'p, ana so'z berdim.

– Dadajonim, – dedimu bir daqiqa o'ylanib qoldim. Akamni hecham xafa qilgim yo'q edi. Dadajonim, shu akang kitobga qattiq berilib ketdi-da. Bora-bora jinni bo'lib qolmasa go'rga edi, deydi. Dadamning aytishicha, kitobdagi yozuvchilar ta'riflagan dunyo bilan hayotdagi o'zimiz ko'rib turgan haqiqiy dunyo boshqa-boshqa ekan. Kitob yo'lidan borgan odam baribir xarob bo'larkan. Buni yaxshi tushunaman. Akam qaysarda, shuning uchun ham u tushunishni istamaydi. Xo'sh, hamma

pora olganda nega dadam olmas ekan? Qo'shnilarimiz, rayispolkomning muovini Ahadjon aka, univermag direktori Hasanjon amakimlar olishmaydimi? Olishadi! Nega endi hammalari olganda dadam chetda turar ekan? Yo'q, aka, dadam to'g'ri aytadi, sen, chindan ham, kitob jinnisi bo'lib qolgansan, undan keyin oyimning ishlariga ham burningni jiyirib, xuddi irkit narsaga qaragandek qaraysan. Bu odatingni tashla, yaxshi emas. Bilamiz, sen bechora oyijonimga chayqovchidek qaraysan. Oyim chayqovchi emas. Bunday o'ylashga haqqing yo'q. Oyim hojatbaror, hojat chiqaradi. Mana o'zing o'ylagin, zargarlar yashirincha uzuk, boldoq, bilakuzuk yasashadi, lekin kimga sotishni bilishmaydi. Boshqa bir joyda kimgadir shunaqa taqinchoqlar kerak bo'ladi. Ehtimol, qizigadir, ehtimol kelin tushirayotgandir, lekin topolmaydi. Kimda borligini ham, necha so'm turishini ham bilmaydi. Shunday paytda hojat chiqaruvchi bir kishi xolis xizmat qilsa buning nimasi yomon?

Ko'nglimdan o'tgan ana shu gaplarni, uyat ish qilib qo'ygan yosh boladek xomush o'tirgan akamga yotig'i bilan, juda ehtiyot bo'lib aytdim.

– Baribir chayqovchilik bu, – dedi akam fikrimga qo'shilmay.

– Chayqov emas, – dedim yana yotig'i bilan.

– Chayqov deyapman... Mayli, qo'y, uka, baribir bir-birimizni tushunmaymiz.

– Bularni ota-onalarimiz sen bilan meni deb qilishyapti. Dadam doim aytadi-ku, men yashaganimcha yashab oldim, endi sizlar uchun yashayapman deb. Bizni baxtli qilish uchun jonlarini qiynashyapti, sen bo'lsang birini chayqovchi-yu, boshqasini poraxo'r deb ayblaysan. Fikringdan qayt, akajon... Choy damlab beraymi?

– Kerak emas.

– Qorning ham ochgandir?

Shu payt telefon jiringladi. Hovliqib o'sha tomonga yugurdim.

III BOB

Suhbatimiz uzilgani yaxshi bo'ldi, bo'lmasa aka-uka g'ijillashib qolishimiz hech gap emas edi. Qarang, akamni joni-dilundan yaxshi ko'raman-u, majruhligi uchun achinaman. Lekin aksar gapimiz bir-biriga qovushmay turaveradi. Shunaqasi ham bular ekan-da. Faqat dadamgina emas, oyim ham goho shu akangga hayronman, o'z farzandimiz-u lekin uyimizda xuddi begonadek yashaydi, qo'shilib ketolmaydi deb achinadi. Hammamiz ham achinamiz unga. Lekin nima qilaylik. Boshqa ilojimiz yo'q-da.

Telefon qilayotgan pochchamiz ekan. Yomon ko'raman uni. Judayam pastkash. Kattakon do'konda ishlaydi. Yozuv daftari, ruchkayu uch tiyinlik o'chirg'ich deysizmi, hammasini ustiga oshiqcha narx qo'yib sotadi. Nuqul bolalarni aldaydi deng tag'in. To'g'ri savdoda uncha-muncha urib turmasa bo'lmaydi. Pastu balandga muomala qilishga to'g'ri keladi. Muomala ana shu urilgan pul hisobidan bo'ladi. Lekin kattalarni aldasa boshqa gap. Ular aldanganini bilishadi. Ha mayli, bosh-ko'zimdanda sadaqa, deydi-qo'yadi. Lekin bolalarni aldash insofdanmi, axir ular hech narsani sezmaydi-ku, muzqaymoq yeyman deb olib chiqqan pulini magazinchi urib qo'ysa... yomon-da. Pochchamning mijg'ovligini dadam ham uncha xushlamaydi. Bir-necha bor, osilsang baland dorga osil, oyog'ing yerga tegmasin, deganlar, bunchalik maydakash bo'lmang, deya dashnom ham bergan. Pochcham bo'lsa o'ziga olmaydi. Doim aytadigan bitta gapi bor uning. Oziq-ovqat magazinida ishlaydigan paytlari ekan, go'sht sotarkan. Bir kuni xo'jayini, akasi, menga ikki kilogramm go'sht bergin, debdi. Xo'p bo'ladi xo'jayin, deb darhol lahimginasidan oppoq qog'ozga o'rab chiqibdi. Xo'jayin go'shtni tortib ko'rsa, roppa-rosa ikki kilogramm emish. Bir gramm ortig'i ham, kami ham yo'q ekan. Bo'lmaydi, debdi xo'jayin bosh chayqab, mendanki ikki yuz gramm urib qololmadingni, sendan baribir sotuvchi chiqmaydi. Shunday deb xo'jayin pochchamni ishdan bo'shatib yuborgan emish. O'shandan buyon pochcham olarmish. Lekin bildirmasdan olarmish, olmasa bu dargohda ishlab bo'lmas emish...

Ana shu odam telefon qilyapti hozir. Shunaqa hovliqyaptiki, so'zlarini anglab bo'lmaydi.

— Za-Za-Zafarjonmisan? – deb so'rayapti.

— Me-me-menman, – dedim. Qarang, shu paytda mening ham tilim tutilib qolsa bo'ladimi.

— Said akam ... tinchmilar?

— Idoralaridan... shum xabar keldi.

— Menga ham telefon qilishdi hozir. Opamni chaqir.

— Oyimnimi?

— Ha.

— Oyimniyam... – to'satdan yig'lab yubordim. Yig'i-yu, tomog'idagi hiqillash qayoqdan paydo bo'ldi, bilolmayman. Ancha mahal o'zimni tutolmay turdim, — Zarif zargarning xotini aytdi. Hozirgina o'zi kelib aytdi. Oyijonimni militsiya tergovga olib ketibdi.

— Qaysi militsiya?

— Bilmayman.

Pochcham yo qo'rqib ketganidan juftakni rostlab qoldi yoki yuragi yorilib o'zini tashlab yubordi. Nega desangiz, telefon to'satdan uzilib, dudulay boshladi.

Darvozaxonada itimiz erinibgina irillab qo'ydi. Demak, tanish odam kelyapti. Lutfi xolam ekan, xayriyat. Shunaqa paytda yaqin bir kishing yoningda bo'lsa qanday yaxshi. Dardingni yengil qilmasa ham, harqalay, dalda bo'lib turadi-ku. Men dalda bergan odamni juda yaxshi ko'raman. Lutfi xolam, hali aytuvdim-ku, xizmatkorimiz bo'ladi. Eri Bozorvoy amakim, buniyam hali aytganman, shofyorimiz. Dadam ikkovlarini ham o'zining bazasiga ishlab joylab qo'ygan. Eri qorovul, o'zi farrosh. Ishga borishsa borishadi, borishmasa, dadam uyog'ini o'zi tinchitib qo'yaveradi. Lutfi xolam juda yaxshi, tilidan chakillab bol tomadi. Meni, garchi nimjongina bo'lsam ham, "Arslonim", deb, betoqat ukam Zufarni "Qulunim" deb chaqiradi. Singlimizni "Asal"u majruh akamni "Pahlavon" deb aytadi. Dadamiz "Valine'mat"u, onamiz "Jannatxon". Boring-ki, hammamizga ham yoqimli sifat berib dilimizni yayratib yuboradi-da.

– Hoy, kim bor ? – deb darvozaxonadayoq baqirib yubordi Lutfi xolam. — Hoy tez bo'l, telefonga yugur.

– Halloslagancha xonadan bizning kiyimlarimizni olib kelayotgan bo'lsa kerak, ayvonga uloqtirdi-da, o'zi telefonga qarab yugurdi.

– To'xtang, — deb qichqirib yubordim, — telefonga tegmang. Nima bo'ldi o'zi? Nega shovqin solasiz?

– Voy bolaginam-ey, Jannatxon qo'lga tushibdi, – xolam polga o'tirib oldi. – Voy xudoyim-ey oyoqlarimda jon qolmadiya. Kirxonada edim, bo'g'oz sigirdek lapanglamay o'lgur zargarning xotini bordi. Egachingiz qo'lga tushdi, tezda bir ilojini qilinglar, gazak olib ketmasin, dedi-yu qorasini o'chirdi. Qo'lga tushib qolaman deb qo'rqadi-da. Voy o'lmasam, o'pkam og'zimga tiqilib qoldi-ya. Suv beringlar... Dadangga telefon qil. Tez bo'l deyaqman. Oldini olsin, naqd bo'lmasa ish kattalashib ketadi-ya. Voy, sho'rim, endi nima qildik?

– Dadamga... mumkin emas, – dedim ko'zimga yosh olib.

– Hazilingni qo'y, Arslonim, tez bo'l.

– Xolajon ... dadamniyam ... hozirgina Bozorvoy amakim kelib ketdi. Militsiya qo'lga olibdi.

– Voy sho'rim!

– Amakim uyoq-buyoqqa telefon qila ko'rmanglar, kuzatayotgan bo'lishlari mumkin, deb tayinladi. Ovozlarini yozib olishmasin tag'in deydi.

– E tavba, e parvardigor, valine'matimizni nega qo'lga olishadi? Nega? Gapirsang-chi, Arslonim.

– Pora berishgan emish.

– Porani kim bermas-u kim olmas ekan? Tavba, hamma qiladi-ku bu ishni.

– Dushmanlari uyushtirishganga o'xshaydi.

Chopqillagancha singlim Nigora hovliga kirdi. Sakrab-sakrab kelyapti. Quvnoq, o'zida yo'q shod. Gulzor orasidan o'tib kelayotgani uchunmi hidi guldan gulga uchib o'tayotgan kapalakka o'xshaydi. Ko'ylagi ok, boshidagi lentasi oq, oyog'idagi tuflisi oppoq, ha-ha, xuddi oppoq kapalakning o'zi. Qiziq, kapalakning oq ranglisi ham bo'larkan-da, degan fikr o'tdi boshimdan. Kela solib odatidek, avval akamning yuzidan o'pdi, so'ng navbati bilan bizning bo'yimizga osilib, erkalandi.

— Ie, nega tumshayib o'tiribsizlar? — dedi oxiri galma-gal ko'zimizga tikilib. Indamadik. — Urushib qoldinglarmi? — Yana jimmiz. — Qani, hoziroq yarashinglar, bo'lmasa menam pom chiqaman.

Bechora singilginam, gap nimadaligini bilmaydi-da. Yo'q-yo'q, qalbingdagi shu masrurlik, guldek yuzing charaqlab turgan ko'zlaringda akslanayotgan baxtiyorlik hech so'nmasin. Oilamiz boshiga to'satdan yopirilib kelayotgan dahshatni unga sezdirmaymiz. Kapalakdek guldan-gulga sakrab yuraver...

— Urushganimiz yo'q, — dedim yelkasiga qo'limni qo'yib, — tushlikka nima ovqat qilsak ekan deb maslahat qilayotuvdik.

Ukam Zufar hovliqib kirib velosipedini to'ppa-to'g'ri gulzorning ichiga qarab irg'itdi-da:

— Nega mendan yashirdilaring? — deb dag'dag'a qila boshladi.

— Nimani yashiribmiz? — deb so'radim o'zimni go'llikka solib.

Zufar yaqinginamga kelib yer tepindi:

— Hammasini eshitdim.

— Nimani eshitasan? — dedim yasama bosiqlik bilan.

Bir-birimizga qaradik. Qiziq, shum xabarni eshitganimizga hech qancha vaqt bo'lgani yo'g'-u, ko'cha changitib yurgan Zufar darrov kimdan bilaqoldi ekan.

— Kimdan eshitding?

— Bolalar aytdi.

— Qaysi bolalar deyapman?

— Yashirmay qo'ya qollaring. Hozir Komil uylaridan yugurib chiqdi. Adasi telefon qilibdi. Adang bilan oyingni qo'liga militsiya kishan urib qamoqxonaga olib ketibdi, dedi. Ishonmovdim, qasam ichdi.

Ko'z yumib ochguncha hovlimiz odamga to'lib ketdi desam ishonavering. Oldin halloslagancha tepakal pochchamiz, ketidan gap nimadaligini bilishga qiziqqan qo'shnilar, yo'q hammasini nomma-nom aytmay qo'ya qolay. Aytganim bilan hech narsa o'zgarmaydi. Achinganlar bor, ajab bo'pti, deya ko'zini g'alati qisib turganlar bor, ehtimol rostdir, ehtimol shunchaki bir tekshiruvdir deyotganlar, tavba, ushla-ushlaning qo'shalog'i

ham bo'larkan-da deya yelka qisayotganlar... xullas, ko'pchilik to'planib qoldi-da.

— Yur, tezda dadangning ishxonasiga boraylik, — qo'limdan tortdi pochcham.

Takchi ushlashga to'g'ri keldi. U yoqqa hozir, ayni shu daqiqada shaxsiy mashinada borish xavfli ekan, nomerini yozib olishlari, omborchi bilan shaxsiy aloqasi bormi deya keyinchalik so'roqqa tutishlari ham mumkin ekan. Bu gapni pochcham aytdi. Ko'pni ko'rgan, hushyor odam-da. Hammasini biladi u. Shu paytda bu odamni hamisha yoqtirmay, kamsitib kelganim uchun o'zimdanda o'zim xafa bo'ldim. Harqalay u oilamizning do'sti, mehriboni ekan. Boshimizga tashvish tushishi bilanoq hammadan oldin yetib keldi.

— Rostdan ham qo'lga tushirishdimikan? — taksida ketaturib sekingina so'radim pochchamdan.

— Qo'rqma, — ko'nglimni ko'tardi pochcham, — dadang uncha-munchaga qo'lga tushadigan arslonlardan emas.

— Dadamni arslon deb o'ylaysizmi?

— Shahar savdosida to'rtta arslon bo'lsa, bittasi dadang hisoblanadi.

Bu ta'rifdan o'zimda yo'q mamnun bo'ldim-u, shunday bo'lsa ham:

— Ja oshirib yubordingiz, — deb qo'ydim.

— Ha, Saidjon akamlar chinakam arslon, gapimga ishonaver, Zafarjon. Avvalo, u kishi, hozir aytdim-ku, uncha-munchaga qo'lga tushmaydilar. Mabodo biron ehtiyotsizlik qilib qo'lga tushsalar, qafasda turib ham ancha-munchasini g'ajib tashlaydilar.

— Siz... shunga ishonasizmi?

— Ilgari ko'p urinishgan. Lekin uddasidan chiqa olishmagan.

— Pochcha, siz-chi, siz ham arslonmisiz?

Pochcham yalt etib menga qaradi-yu, g'alati jilmayib, bosh chayqadi. So'ng past ovozda:

— Ularning qarshisida biz shunchaki... sichqonlarmiz, — dedi.

— Juda kamtarsiz-da, pochcha.

Aftidan, pochchamning men bilan gaplashgisi yo'q edi. Javob qaytarmay, kulimsirab qo'ya qoldi.

Bu bazaga ilgari ham ko'p kelganman. Yengil, goho og'ir yuk mashinalari hamisha tirband bo'lardi. Lekin bugun juda kam. Katta temir darvoza yonida besh-o'n odam kuymanishib yuribdi. Ish bilan kelganlarmi yoki shu yerning xizmatchilarimi, bilib bo'lmaydi. Darvoza ham, yonidagi eshikcha ham ichkarisidan berk. Odamlar darvoza tirqishidan hovliga galma-galdan mo'ralab, bosh chayqab qo'yishyapti.

— Tinchlikmi? – so'radi pochcham biriga yaqinlashib.

— Katta bir ajdahoni qo'lga tushirishdi, – deb qo'ydi beli sal bukikroq bir kishi.

— Tekshirish bosibdimi?

— Ha.

— Tumannikimi?

— Shaharniki deyishyapti.

— Direktorni ushlabdimi?

— Ombor mudirini ushlabdi. O'ziyam ajdahoning urg'ochisidek ochofat bo'lib ketgan ekan-da.

— Ichkariga kirsam bo'larmikin?

— Siz ham mol olgani kelganladanmi? Sekingina juftakni rostlab qoling, boshqalar ham shunday qilishyapti. Tergovga ilashib qolishdan qo'rqishadi-da. Ekspeditor zoti o'zi shunaqa qo'rqoq bo'ladi.

— Sizlar-chi? Sizlar ham mol olgani kelganlardanmi? – so'roq qilishni davom ettirdi pochcham.

— Remont zavodidanmiz, tushlikka chiquvdik. Shunchaki tomosha qilib turibmiz.

Bukri, boshimni qotirib yubordingiz-ku, degandek qo'l siltab nari ketdi. Pochcham qanday ahvoldaligini bilmayman-u, lekin men arang oyoqda turardim. O'shanda yiqilib tushmaganimga hali-haligacha hayronman.

Og'zi ochiq har zamonda pivo ho'plab qo'yayotgan yigitdan:

— Qanaq qilib qo'lga tushirishdi o'zi? – deb so'radi pochcham.

— Oralarida sotqin bor ekan.

— Bazadami?

— Ha.

— Tavba, dedi pochcham o'zini yana go'llikka solib. — Bu zamonda hech kimga ishonib bo'lmay qoldi-ya.

— Men ham shuni aytyapman-da, — yigit qultillatib pivoni yutib oldi.

— O'sha sotqin Saidjon akamning ixtiyoridagi omborlardan bittasida hisobchi bo'lib ishlarkan. Organ bilan aloqasi bor ekan xumparning. Lekin Saidjon akamga achinaman. Qo'li ochiq, hotamtoy edi. Bir narsa so'rab kirib, quruq chiqib ketganimni eslay olmayman.

— Ketdik, dedi pochcham qo'limdan tortib, — bu yerda turishdan foyda yo'qqa o'xshaydi.

IV BOB

Kalovlanib qolgan edim. Eng qadrdon, eng mehribon kishingni allaqanday bir bukri ajdarho deb tursa kalovlanmay bo'ladimi? O'sha qadrdon kishing qo'liga kishan urilgan holda, bo'riga duch kelgan quyunchadek dir-dir qaltirab o'tirgan bo'lsa-chi? Bechora dadajonim, ular bilan qanday olishayotgan ekan. Yo'q, ketmayman, gapning poyoniga yetmaguncha hech qayoqqa jilmayman.

— Yur deyapman, — shivirladi pochcham.

— Qo'lingizni oling, — jerkib berdim.

— Bizni yashirincha suratga olishayotgan bo'lishlari ham mumkin, — pochcham vahimali ohangda shivirladi, — bu odamlarga ham ishonma, oralarida agent bor.

— Dadamni shunday qoldirib-a! — baqirib yuborganimni odamlar yalt etib qaraganlaridan sezib qoldim. Tamom, oshkor bo'ldik. Xo'sh, oshkor bo'lsak nima bo'libdi? Dadamning o'g'liman-ku, begona emasman-ku, nega endi undan ahvol so'rab kelishga haqqim bo'lmas ekan?..

Yugurib borib temir darvozani do'mbira qilib chala boshladim. Qorovul tirqishdan mo'raladi. Tanidim, ilgari ko'p ko'rganman. U ham meni tanidi shekilli, ko'zi to'la vahima:

— Ruxsat yo'q, — deb shivirladi.

— Dadamga nima bo'ldi? — avvalgidan ham qattiqroq ovozda so'radim. — Oching, oldilariga kirmoqchiman. Nega baqrayib turibsiz? Hech bo'lmasa borib men kelganimni ayting. Jon amaki. Axir meni tanib turibsiz-ku!

Qorovul bosh silkib, ma'qul degandek ishora qildi-da, bazaning ichkari tomoniga qarab jadal yurib ketdi. Ikki ko'zim darvoza tirqishida, nafas olgani qo'rqaman. Xayriyat, tezgina qaytdi. Dadam aytibdi: tinchlik emish, vahima ko'tarmasdan tezda uyga qaytishim kerak ekan. Sal noxushlik bo'lganini uydagilarga iloji boricha yotig'i bilan aytishim zarur ekan. Dadamning o'zi kechqurun borarkan. Ko'nglim biroz taskin topgandek bo'ldi. Qiziq, shu daqiqada to'satdan bo'shashib ketdim. Ha-ha, juda yomon bo'shashdim. Qo'l-oyog'imda jon yo'qqa o'xshaydi, ko'zlarim javdiraydi, pochchamni axtaraman. Yo'q, juftakni rostlab qolganga o'xshaydi. Baribir, pochcham qo'rqoq-da. Katta ko'chaga qarab yugurdim. Xayriyat ketmagan ekan. Bekatda o'zini panaga olib turgan ekan.

— Nega qochdiz? — nazarimda yana baqirib yubordim shekilli.

Pochcham kaftini labiga bosdi:

— Sekinroq.

— Qorovul amaki bilan gplashdim, — dedim entikib. — Dadam tashvishlanmanglar, kechqurun uyga boraman, hammasi joyida, debdi.

Pochcham menga o'xshab, e, xayriyat-ey, demadi, jimgina yutinib qo'ydi. Ko'zlari hamon bejo, tashvishli. Shundan bildimki, dadamning hammasi joyida deganiga u uncha ishonmabdi. Uning odati o'zi shunaqa. Ancha-muncha gapga ishonavermaydi. O'zi ham ko'pincha yolg'on gapiradi-da, lekin qiziq, yolg'on gapirayotganini hech kim payqamaydi.

Yana taksi ushladik.

Oyijonimdan xabar olishim kerak. Dadam haqidagi shum xabar, shum xabar emas, haqiqat ekan. Dadamku chidaydi, chidab o'tirgandir. Ilgari ham bunaqa mashmashalarni ko'p ko'rgan. Hammasidan ham eson-omon qutulib chiqib ketgan. Yo'q, dadamdan ko'nglim tinch, qo'rqamasam ham bo'ladi. Bekorga u kishini savdo olamining arsloni deyishmaydi. Arslonning hamlasi zo'r bo'ladi. Eng muhimi, to'rga tushib qolmasa bo'lgani. To'r hamlaning kuchini kesadi. Kinolarda ko'rganman, to'rga tushib qolgan arslon hamla qilolmay qoladi, o'kiradi xolos.

Oyijonimning... yuragi xasta edi, qanday chidayotgan ekan. O'zi umuman juda qo'rqoq edilar. Chap tomonim bilan yotib qolsam tushimga nuqul melisa kirib, hushtak chalib quvganiquvgan, derdi. Bunaqa tushlarni oyijonim ko'p ko'rardi. O'shalarning qattiq tikilgan ko'zidan omon saqlagin deb xudoyilar qilardik, gadoylarga sadaqalar berib turardik. Oyijonim saxiy, qo'li ochiq ayol... Hozir qay ahvolda o'tirgan ekan. Tezroq yursa-chi bu mashina, eski arvaga o'xshab buncha qaldiramasa!

— Amaki, tezroq haydang, — deya iltimos qildim taksidan.

Taksist yelkasi osha menga bir nazar tashlab oldi:

— Saksonda ketyapmiz, ukam.

— Spidometringiz buzuqqa o'xshaydi, — dedim yana betoqat bo'lib.

Taksist indamadi. Indamasa indamas. Uning po'ng'illashiga zor emasman. Lekin pochcham-chi? Nega jim, nimalarni o'ylayotgan ekan? Dadam bilan oyijonimga tikilgan baloni daf qilish yo'llarini axtarib o'zicha o'y surib ketyaptimikin? Yoki landovur bo'lmay o'l ikkoving ham, mana senlarni deb kamida 25 so'mdan qoldim, deb o'ylayaptimikan? Bilib bo'lmaydi. Nigohini bir nuqtaga qadagancha yupqa lablarini qimtib jimgina ketyapti.

Yaxshisi oyijonim haqida o'ylayman. Faqat shirin o'ylargina qalbimga tasalli bo'lishi mumkin...

Bobomiz zargar bo'lgan ekan. Men u kishining qanaqaligini bilmayman. Biz tug'ilmasdan u olamdan o'tib ketgan ekan. So'lkavoylar meros qolgan deyishadi. Ularni ham ko'rgan emasman... Oyijonim zargarining qizi bo'lgani uchunmi, chaqaloqligida bobomiz angishvonadek keladigan qozonchada oltin eritayotganida shundoqqina yonginasida yotib, erigan oltin hidini ko'p hidlagani uchunmi, beshikda yotganida emizik o'rniga osib qo'yilgan oltin tangani ko'p so'rgani uchunmi, ishqilib, oltin tanlashda, qalbaki yoki sofligini ajratib berishda, sirg'a yoki uzukning tarkibida necha foiz oltin borligini belgilashda, zargarlarning aytishicha, shahrimizda unga teng keladigani yo'q ekan. Yo hidlab yoki yalab, bor gapni aytib qo'ya qolarkan. Zargarlar yuz martalab sinab ko'rishadi. Biron

marta ham xatosi bo'lmagan ekan. Ehtimol oyijonim o'zining mana shu sehrli bilimdonligi sababli, o'zi ham bilmagan holda, zargar bilan xaridor o'rtasiga tushib qolgandir. Keyin oyijonim boshqalar bilmagan yana bir sirdan, to'g'risi, o'zgalarning aqli yetmagan yana bir haqiqatdan xabardor ekan: ilgari podsholar va xonlarning poytaxti bo'lgan shaharlarda — Qo'qon, Samarqand, Buxoro, Urganchda hozir ham oltin ko'p bo'larkan. O'sha shaharlarda oyijonimning mijozlari bor. Uyoqdan oltin buyoqdan go'zal taqinchoqlar ketadi.

— Lekin shu ishlaringni bas qilsang bo'lardi, — deb dadam goho norozilik bildirib qo'yardi.

— Nega bas qilar ekanman? — hayron bo'lardi oyijonim.

— Axir juda qaltis-da.

— Sizning ishingiz qaltis emasmi?

— Men... nima desam ekan, majburman. Bola-chaqa, ro'zg'or degandek, erkak kishi ko'proq pul topishga majbur. Sen-chi, senga nima yetishmayapti o'zi?

— Sizga-chi, sizga nima yetishmayapti?

— Oyisi!

— Dadasi!

— Menga qara, — deydi gapga no'noq dadam uh tortib, — arqon ustda sakrab o'ynayotgan dorbozlarga o'xshaymiz. Bir kunmas bir kun langar qo'limizdan chiqib ketadi-yu, boshimiz bilan yerga urilib chilparchin bo'lamiz. Mayli, men-ku bu o'yinga aralashib qoldim, endi chiqolmaydiganga o'xshayman. Lekin sen ayolsan, bolalaring bor. Bas qila qol endi, usha qaltis o'yinlaringni.

— Voy-voy, dadajonisi, biram gapga chechan bo'lib ketibsizki, — bo'sh kelmaydi oyim. — Anov kuni, ilon o'ynayotganlarga o'xshaymiz, bir kunmas bir kun qo'limizdan chiqib o'zimizni bo'g'adi, devdingiz. Bir haftagacha tushinga ilonlar kirib uxlay olmovdim. Endi bo'lsa, darvozga o'xshatasiz, voy asalom-ey, biram hikmatlar to'qishga usta bo'lib ketibsizki. Nima balo, bazangizga borib nuqul kitob o'qiyapsizmi deyman... Qo'rqmang, azizim, dordan yiqilsak ushlab qoladiganlar, ostimizga yumshoq ko'rpalar to'shab, beozorgina tushirib oladiganlar bor.

— Men-ku ehtiyotkorman-a...

— Men sizdan ham ehtiyotkorroqman.

— Lekin, oyisi, iltimos qilaman, mijozlaring uyga kelishmasin.

Muomalangni o'sha yoqda qilgin.

— Voy joniganm-ey, biram soddasizki. Nahotki men uyga xaridor olib kelsam. Ular qayerda yashashimni, ismimni ham bilishmaydi. Voy o'zinning vahimachim-ey. Siz bola-chaqangizning baxtu saodatini o'ylab dorbozlik qilayotgan bo'lsangiz, men ehtimol, nabiralarimni deb ilon o'ynatayotgandurman?! Boylik hech qachon teshib chiqmaydi. Uyog'ini surishtirsangiz, baxtu saodatimizning manbai ham mana shu qurib ketmagur boyligimizda. Qani, ayting-chi, pulingiz bo'lmaganda Ataullo muallim bilan sudlashganda yutib chiqarmidingiz? U haq, siz nohaq edingiz. Lekin pulingiz bor edi, ustun keldingiz. Voy, jonginam-ey, juda aqllisizu lekin baribir qishloqiligingizga borasiz-da... Undan ko'ra cho'ziling, oyog'ingizni uqalab qo'yay, o'lardek charchaganga o'xshaysiz... Qurib ketsin o'sha bazangiz ham. Siz ham boshqalarga o'xshab bitta-yarimta univermag sotib olsangiz bo'lmaydimi?

— Univermaglar... qimmat bo'lib ketgan hozir.

— Qanchaga berisharkin?

— Yuz mingdan kamiga bo'lmaydi.

— Olaqolaylik, bir yilda chiqarib olamiz.

— Oyisi-ey, aqllisanu lekin baribir, hisobda adashasan.

Univermag — urilish joy, hammaning e'tibori o'shanda bo'ladi. Baza — shahar chekkasida, xilvatda. Ellik, oltmish odamdan boshqasining e'tibori tushmaydi. Tulki qo'lga tushmaslikning o'ttiz ikki usuli bor, shundan eng yaxshisi ko'zga ko'rinmaslik, degan ekan. Men xilvatda ish bitirishni yaxshi ko'raman...

Kamgap, hamma narsani imi-jimida bitiradigan, mahallada eng kamtar kishi deb nom chiqargan, aslida ham xuddi shunday bo'lgan dadam bilan saxiy, saxovatli oyijonim o'rtalarida bo'ladigan bunday suhbatlarni ko'p eshitganman. Goho bir-birlariga ana shunday beozorgina e'tiroz bildirishar, bahslashib ham qolishar, bahslashishi asnosida qalblaridagi vahima asta-sekin tarqab, fikr-o'ylari aslida bir manbadan boshlanib, bir

to'xtanga qarab ketayotgani uchunmi, ko'pincha yelka silash yoki oyoq uqalash bilan tugar edi.

Ammo Akbar akam oyijonim bilan ham, dadam bilan ham hech kelisholmaydi. Uyog'ini surishtirsangiz, mening ham fikrimga hech qo'shilgan emas. Hamisha bir narsadan nafratlangandek burnini jiyirgani jiyirgan. Oyijonim to'g'ri aytadi: yog' ichidagi buyrak u, qo'shib ketolmaydi. Oyim biron yoqdan kelishi bilan ayvonda yoki gulzor chekkasida o'tirgan akamning yoniga borib peshonasidan o'pmoqchi bo'lsa:

– Nari turing, – deya jerkib beradi uni.

– Voy, o'g'ilginam-ey, – deydi oyijonim norozi bo'lib, – seniyam xursand bo'lib kutib olganingni bir ko'rsam edi.

– Sizniyam rost gapirganingizni men ham bir ko'rsam edi, – zaharxanda bir ohangda deydi akam. – Doim yolg'on gapirganingiz gapirgan.

– Asalim-ey, men qachon yolg'on gapiribman?

– Zargardan bir yuzu yigirma so'mga baldoq olasiz-da, xaridorga uch yuzga pullaysiz. Meni sezmaydi deysizmi, hammasini bilaman. Avrab xaridorning boshini aylantirasiz, beshta bolam bor, oltini sof bo'lmasa buyurmasin, deb qasam ichasiz. Bilaman, hammasini bilaman.

– Bolaginam-ey, axir bularni sen uchun, ukalaring uchun qilaman.

– Bizni xaromxo'r qilmoqchi ekansiz-da!

– O'g'lim!

– Oyijon, qo'ying bu gaplarni. Hozir mendan jirkanib turibsiz-ku, yana o'g'lim deysiz, yana yolg'on gapiryapsiz.

– Baribir Ataullo muallimning ta'siridan qutulolmayapsan, asalim. Bu gaplarni o'sha go'ringda to'ng'iz qopgur o'rgatgan. Bizga haromxo'r deb laqab qo'ygan ham o'sha. Dadangga aytaman, tilingga chipqon chiqqurni mahalladan ko'chirtirib yuboradi.

– Kimni ko'chiradi?

– O'sha miyangni zaxarlayotganni-da.

– Bir marta qamatib ko'ngillaring joyiga tushmabdi-da?

– Axir u seni tinch qo'ymayapti-ku. Sen orqali bizni ham oromimizni buzyapti. He kitob jinnisi bo'lmay ketlaring. Dadang kitobdagi hayot ko'chaga to'g'ri kelmaydi, deb necha

bor aytdi. Kitob yozganlar ham pul uchun yozadi. Pul uchun bo'lgandan keyin miyasiga nima kelsa bitaveradi-da. Yig'ishtir o'sha kitoblaringni. Undan ko'ra yur, shaharga olib boraman, morojniyxo'rlik qilib kelamiz, yozilasan...

– Oyi, siz bilan hech qayoqqa bormayman.

– O'g'ilginam, dilbandim, nega meni buncha qiynaysan, nega?

– Chayqovchilikni tashlang.

– Men chayqovchimanmi?

– Kimsiz bo'lmasa?

– Hojatbarorman.

– Tekingami, jamoatchilik asosidami?

– O'g'lim, mayli vaqti kelib tushunarsan. O'shanda kechirib yuborarsan. Ehtimol, xato yo'lga kirgandirman, adashgandirman. Lekin nima qilsam sen uchun, ukalaring uchun qilyapman. Zamon shafqatsiz bo'lib ketyapti, it egasiga boqmaydi. Mendan keyin xoru zor bo'lmanglar, deyman-da. Mayli asalim, mayli, kel endi, yarashaylik. Peshonangdan o'pay...

V BOB

Tuman militsiya bo'limida xona ko'p ekan. Har xonaga kirib oyijonimni surishtirishdan oldin navbatchi militsionerdan ruxsat olish jonga tegib ketdi. Aslida afti xuddi cho'yandan quyulgandek sovuq navbatchi amaki Yoqut Karimovani olib kelishdi-yu, yana olib chiqib ketishdi, deb qo'ya qolsa bo'lardiku. Unday qilmadi. Tavba, odam bolasining ham muomalasi shunaqa rasmiy, shunaqa sovuq bo'ladimi!

Ha, oyijonim bu yerda bo'пти, uch soatcha ushlab o'tirgach, militsiya xodimlari qurshovida qayoqqadir olib ketishibdi. Qayoqqaligini hech kim bilmaydi. Ehtimol bilishar, lekin aytishmadi. Yelka qisishadi, xolos. Bular-ku militsiyaning sirini oshkor qilishdan qo'rqib yelka qisishayotgandir. Xo'p mayli, lekin pochcham-chi, nega u o'zini chekkaga tortadi? Idoraning orqasiga o'tib, muzqaymoq yeyish bahonasida bekinib o'tirishini qarang. «Sen kirib chiq, haqqing bor. Mendan nega oltinpurushlarga aralashib yuribsan, deb shubha qilishadi...» deyishini qarang, qo'rqqoqlik ham evi bilan-da!

Pochcham muzqaymoq yuqi labi va qo'llarini chit ro'molchasiga artayotib:

— Opamni bu yerga olib kelganlari... rostmikin? — deb so'radi.

— Jinoyat qidiruv bo'limiga keltirishgan ekan, — dedim yig'lamsirab.

— Aniqmi? — pochcham boyadan buyon qo'rqib turgan bo'lsa, endi dahshatga tushdi. Rangi quv oqarib, kipriklari pirpirab ketdi. — Kimdan bilding?

— Bitta opa aytdi.

— O'sha opa shu yerning xodimimikan?

— Ha, pogonida uchta xira yulduz ham bor

— Opam... hozir qayerda ekan?

— Olib chiqib ketishibdi.

— Ukam Zafarbek, sen o'zingni qo'lga ol, — pochcham negadir shivirlab tez-tez gapira boshladi, — xudo xohlasa, hech narsa bo'lmaydi. Opamning kattalar bilan aloqasi zo'r... Men boray, o'shalarni ogohlantiray. Qo'rqma, hamisha yeb kelishgan. Yeb kelishgandan keyin himoya ham qilinadi-da. O'zlari yeydigan taomni o'zlari qo'riqlamasa bo'lmaydi.

Pochcham haligi muzqaymoq yuqi ro'molchasi bilan terlab turgan bo'ynini arta-artatib bekatga qarab yurib ketdi. Qo'rqoq, hecham kattalarga xabar bergani oshiqayotgani yo'q. Oyijonim ne mashaqqatlar bilan topgan tilla tangalardan qanchasini sotib olgan edi, o'shalarni berkitgani chopyapti u. Nega endi oyijonimning singlisi Barno xolam kelib-kelib shu qo'rqoqqa tekkan ekan?

— Men nima qilay? — deb baqirdim orqasidan. Pochcham yelkasi osha qarab qo'l siltadi:

— Uylaringga yugur.

— Taksiga pulim yo'q-ku?

— Nasiyaga ketsa ham bo'ladi.

Xasis, sen-hali shoshmay turgin, dadam eson-omon qutulib olsin, ta'ziringni shunday beraylikki! Taksi oldim, haydovchiga bor gapni aytdim. Boshimizga shunaqa tashvish tushib qoldi dedim. Aytib turib yig'lab yubordim. Qattiq yig'ladim. Keksagina kishi ekan.

— Hammasi xudoning irodasi bilan, — dedi-yu, nazarimda mashinani joyidan uchirib yuborgandek bo'ldi.

Ko'cha eshigimiz oldida tumonat odam, forma kiygan militsiya xodimlari ham borga o'xshaydi. Nariroqda yoniga qizil chiziq tortilgan ikkita jiguli ham turibdi. Qo'ni-qo'shnilar, begonalar...

— Oyijon! — to'rt hatlab borib bag'riga otildim. Badani misdek qizigan, yuragi dukillab urayotgani shundoq eshilib turibdi.

— Yig'lama, — dedi oyijonim o'ng qo'li bilan boshim aralash yelkamni silab. — O'zingni qo'lga ol, toylog'im.

Oyijonim meni ohista chetga itarib, qarshisida turgan militsiya xodimiga:

— Bolalarimning ham yuragini yorib yubordilaring, — dedi beparvogina bir ohangda. Qiziq, oyijonimning yuragi dahshat bilan uryapti-yu, vujudi to'la hayajon-u, ammo ko'rinishi osoyishta edi.

— Kalitni bering deyapman, — do'q aralash dedi kimdir. Ovoz chiqqan tomonga qaradim. Kapitan ekan — pogonidagi yulduzi to'rtta. Bo'yi behad baland, voleybolchilarnikiga o'xshaydi. Kallasi katta, yuzi to'rtburchak, ko'zlari chuqur botgan, peshonasi keng va yana moy surtilgandek yiltiroq. Odam bolasining qiyofasi ham shunaqa vahimali bo'ladimi, degan fikr o'tdi boshimdan.

— Kalit menda yo'q, — dedi oyim negadir kulimsirab.

— Ichkarida odam borga o'xshaydi, — dedi kapitan, — ayting, ochishsin.

— Kalit menda yo'q deyapman.

— Darvozani buzamiz bo'lmasa.

— Buza qoling, — shunday deb oyijonim oyog'i toldi shekilli, darvozaxona yonidagi supachaga o'tirib oldi.

Kapitan darvozani jahl bilan taqillata boshladi. Uzoq taqillatdi, kim bor, deb baqirib ham ko'rdi, javob qaytmadi. Akam ukam bilan singlimni bag'riga olib, vahima ichida jimgina o'tirgan bo'lishi ham mumkin. Ochma, akajon, ochma! Ochsang, tintuv boshlanib, uyimiz ostin-ustun bo'ladi.

Odamlar yog'ilib kela boshladi. Hangomatalablar, achinganlar pichirlab nimalarnidir gaplashib ham turishibdi. Sudyaning xotini ko'rindi. Oti — Qozi xola. Ehtimol, boshqa

ismi bordir. Lekin hamma uni shunday deb chaqiradi. Qozi xola oyijonim bilan tengdosh, yaqin dugonasi. Shiringina davralari ham bor, gap o'ynashgan. Qozi xola odamlarni yorib o'tib oyijonimni qo'lidan tortib turg'azdi. Ko'ksiga bosib iliqqina ko'rishdi. Yuzlaridan o'pdi. Negadir o'pkam to'lib, ko'zimdan yosh chiqib ketay dedi. Xayriyat, yolg'iz emas ekanmiz, tarafimizni oladiganlar ham bor ekan.

— Nima gap o'zi, dugonajon? — so'radi Qozi qolam.

— Ko'rmaysizmi, tuhmatga qolib o'tiribman, — oyijonimning ovozi endi titrab ketdi.

— Militsiyaning odati o'zi shunaqa, do'ppini ol desa, bosh kesishadi,— ovozi balandlatib dedi Qozi xola. — Kasalmand ayolni shunaqa qiynaysizlarmi, uyat-e!

— Opajon, iloji bo'lsa sal nariroq turib gaplashsangiz, — kapitan andak dag'dag'a qilgan bo'ldi.

— Men bilan ishingiz bo'lmasin, — dedi qoshlarini g'alati kerib Qozi xolam.

— Hozircha yaqinlashishga haqqingiz yo'q deyapman.

— Bekorlarni aytibsiz, yulduzim ko'p deb do'q urishini qarang-a,— bo'sh kelmadi xolam, — siz militsiya bo'lsangiz, men katta sudya Muhamedovning xotini bo'laman.

Kapitan yana baland keldi:

— Bosh prokurorning xotini bo'lsangiz ham bizga xalaqit bermang.

Qozi xola shu gapga ham munosib javob aytishi mumkin edi-yu, lekin shu payt o'rtaga to'planganlarni yorib mahallamizning raisi Qosimjon aka kirib keldi, hamma o'girilib o'shanga qaradi. Aftidan, men kelmasimdan oldin unga odam yuborishganga o'xshaydi. Kelgani yaxshi bo'ldi. Obro'yi baland, institutda dekan, oilamizning qadrdoni. Xotini oyijonim bilan gap o'ynagan. Ularga ham oyim uncha-muncha taqinchoqlar, tilla tangalar olib bergan.

Kapitan raisga nima maqsadda kelganlarini, u kishini, ya'ni mahalliy hukumatning el saylab qo'ygan vakilini ne vajdan yo'qlaganlarini odobli, nazokatli bir ohangda, hatto ishonsangiz, xuddi xijolat bo'layotgandek, xiyol kulimsirab tushuntirgach:

— Nachora, — deb ikki qo‘lini ikki tomonga yozdi, — vazifamiz shunaqa bo‘lgandan keyin.

— Demak, tintuvchilar ekansizlar-da?— so‘radi raisimiz.

— Boshqa ilojimiz yo‘q. Qonun talablariga ko‘ra...

— Mening ishtirokim shartmi? Prokurordan sanksiya olinganmi?

— Marhamat, — kapitan qo‘ltig‘iga qisib turgan papkasini ochib, bir parcha qog‘oz olib ko‘rsatdi. Qog‘oz raisning qo‘lida uzoq turib qoldi. Bir o‘qiydi, bir kapitanga, bir oyimga qaraydi, yana o‘qiydi.

— Darvozani ochishga yordam bersangiz, — iltimos qildi kapitan.

— Menmi? — hayron bo‘ldi rais, — darvoza meniki emas-ku.

— Ha egasi siz emassiz. Lekin Yoqut Karimova qonunga zid borib qarshilik ko‘rsatyapti. Oqibati xunuk bo‘lishini opamiz tushunmayapti shekilli. Qaysarlik jinoyatni yengillashtirmaydi...

Xuddi shu asnoda xiyonat yuz berdi. Darvozaxonada shundoqqina eshik yonida singlim: «Oyijon, keldingizmi, akamni qarang, eshikni ochtirmayapti, deb dodlab qolsa bo‘ladimi!

Oyijonim darvozaga yaqinlashib qaltiroq ovozda, “nega tentaklik qilasan, ocha qol”, deb buyurdi. Buyurdimi, iltimos qildimi, har qalay shunday dedi-da. Men bu voqealarni ipidan ignasigacha erinmay hikoya qilganimdan hayron bo‘layotgandirsiz. Yo‘q, hayron bo‘lmang. Bundan ko‘ra o‘n chandon dahshatli, qalbingizni vayron qilib, borliq dunyongizni ostin-ustun qilib yuboradigan voqealar, garchi, ko‘p sodir bo‘lgan va hammasiga o‘zim guvoh, goho ishtirokchisi bo‘lsam-da, qiziq, birinchi kungi kechinmalarim xotiramga negadir juda qattiq o‘rnashib qolgan. Keyingilari sodir bo‘lganda loqaydmidim, etim o‘lib qolganmidi, uncha qattiq hayajonlanmaganman. Lekin bunisi o‘zining butun dahshati bilan hali-haligacha ko‘z ungimda turibdi. Ko‘pincha tushlarimga ham kirib chiqadi. Oyijonimning vahima to‘la ko‘zlarini olib qochishi, ukalarimning mungli nigohi, achingan, goho ich-ichidan quvonayotgan odamlarning tund yuzlaridagi

ajabtovur ifodalar... Darvoza ochilishini poylab turgan odamlarning shivir-shiviri hali-haligacha quloqlarim ostida jaranglab turibdi.

— Nima bo‘pti o‘zi?

— Yoqutxon qo‘lga tushibdi.

— Tilla bilan deyishadimi?

— Erini ham ushlashgan emish.

— Baribir chiqib ketishadi.

— Bularda pul ko‘p. Militsiya kambag‘alni qamaydi. Puli ko‘pdan qo‘rqishadi.

— Lekin qo‘li ochiq odamlar edi-da.

— Sadaqa ulashuvchilar desangiz-chi.

— To‘g‘ri aytasiz, mahallaning og‘zini yopish uchun hayru xudoyilar ham qilib turishardi.

Oyijonim sha‘niga aytilayotgan gaplar qulog‘imga kirardi-yu, ta‘siri yo‘qdek edi. Boshqa paytda «Sadaqa ulashuvchilar» deganlarini eshitsam yoqasidan olgan bo‘lardim. Hozir butun fikru xayolim darvoza ochilgandan keyin yuz berishi kerak bo‘lgan dahshatli voqealarda. Tintuv... U qanaqa bo‘ladi o‘zi, nimani axtarisharkin?

Darvozaxonaga odamlar yopirilib kirayotgandi, kapitan, militsiya boshlig‘i tasdiqlab bergan ro‘yxatdagi kishilardan boshqasiga ruxsat yo‘q, dedi. Mayli, mahalla raisi kira qolsin, dedi qo‘l siltab. Qozi xolam to‘polon ko‘tardi. Sudya Muhamedovning xotiniman, jensovet a‘zosiman, deb hech biriga gap bermay, yelkasi bilan itarib ichkariga o‘tib oldi. Xolamning fe‘lini yaxshi bilaman. Oyijonim boshiga tushgan tashvishni yengillatish uchun sur-sur qilayotgani yo‘q. Tintuv paytida boyliklari oshkor bo‘ladi, ana shularni bilib olamanu mahalla xotinlariga maqtanaman, deb shunday qilyapti u.

Darvozaxona ostidayoq ukam bilan singlim chopqillab kelishib oyijonimning bag‘riga otilishdi. Biri oldidan, boshqasi orqasidan achomlab olgan. Oyijonim kulimsirab turibdi-yu, lekin ko‘zlarida yosh qalqillaydi. Ukalarimning ko‘ziga qarashga botinolmayman. Dunyoda qancha g‘amginlik, qancha vahima bo‘lsa hammasi shu ko‘zlarga joylashib olganga o‘xshaydi. Hiqillab yig‘lashyapti, uh tortishyapti.

— Hech gap yo‘q, qizginam, — dedi hamon oyijonim kulimsirab.

— Oyijon, — dedi singlim o‘zini tutolmay.

Qani endi qo‘limdan kelsa-yu, dunyodagi jami boylikni sarflab bo‘lsa ham oyim bilan dadamga tikilib kelgan baloni daf qilib, singlim bilan ukamning ko‘zlaridagi tubsiz g‘amni, dahshatli vahimani sidirib olsam yoki shaharning bosh prokurori bo‘lib qolsam-u, kirib kelayotgan tintuvchilarni orqalariga qaytarib yuborsam, degan gaplarni ham o‘yladim.

— Hoy, eshityapsanmi? — degandek bo‘ldi oyim. Cho‘chib tushib oyimga qaradim. — Domovoy bilan uyning planini so‘rashyapti.

Tintuv boshlandi. Hasaddanmi, havasdanmi odamlarning ko‘zlari charoqlayapti. Bosh chayqashadi, iljayishadi. Vakillardan biri qari. Ustidagi kiyimi allaqachon modadan qolib, yuvilaverganidan nuri ketib qolgan. Ehtimol, muallim bo‘lgandir. Muallimlar nafaqaga chiqqanda mana shunaqa modadan qolgan kiyimlarini kiyib yurishadi... Lekin bu odamning qarashlari yumshoq, nigohida achinish bordek, xomush bo‘lib o‘tirgan oyijonimga tez-tez ko‘z tashlab olyapti... Mebeldan tortib kumush qoshiqqacha, gilamdan tortib tukli sochiqqacha, zargar boboimdan qolgan mis lagandan tortib, yigirma yil oldin sotib olganimiz kitobgacha hamma-hammasi ro‘yxatga tushyapti, dadamning xonasidan topilgan o‘n yetti ming pul, oyijonimning shkafidan olingan yigirma ming so‘mlik zayom, tilla taqinchoqlar ro‘yxatning o‘n yettinchi sahifasiga yozildi. Qiziq, har sahifa to‘lgan-da oxirroq‘iga xonadon egasi imzo chekishi kerak ekan...

Nega oyijonimni qiynashadi, nega? Axir qo‘llari qaltirab, yuragi zirqirab ketayotganini ko‘rib turishibdi-ku. Ana, pristup ham boshlandi shekilli, rangi dokadek oqarib, nafas olishi qiyinlashib qoldi. Tomizg‘i dori iching emish, sening maslahatingsiz ham bilamiz uni. Bechora oyijonim! Mahallamiz raisidan xafa bo‘lib ketdim. Azaga kelgandek tumshayib o‘tirishini qarang. Hech narsaga aralashmaydi. Ayyonda o‘tirganicha ketma-ket sigaret chekyapti. Qaytaga hammayoqni tutunga to‘ldirib yuborgani qoldi. Hozir xolamning chiqqani

axshi bo'пти. Oyijonimga dalda beryapti. Tomizg'i dorini ham o'sha ichirdi. Qo'rqmang, o'rtoqjon, Muhamedov hammasining ta'zirini berib qo'yadi, deb shivirlaganini shitdim.

Oyijonimning kumush qutichasidagi taqinchoqlarga navbat kelganda Qozi xolam shartta o'rnidan turib kapitanning yo'lidan tortib oldi. «Qaysi ayolda taqinchoq yo'q deb o'ylaysan, onangda yo'qmi, xotiningda-chi? Borib singlingni bir kuzatgin, nahotki, qulog'ida sirg'ayu bo'ynida marvarid yo'q bo'lsa. Taqinchoqsiz, zebi-ziynatsiz ayol ayol bo'ptimi? Hammang go'zallikka intilasan. Axir bu qurmag'ur taqinchoqlar ayolning husniga husn qo'shadi, huzurini senlar ko'rasan... Muhamedovga telefon qil, ruxsat bersa ana undan keyin ro'yxatingga kiritasan», degan gaplarni ham aytdi.

— Qutichani bering! — andak siyosat bilan dedi kapitan.

— Do'q urma menga, — bo'sh kelmadi Qozi xolam. — Do'qingni borib bo'yni to'la marvarid xotiningga qilasan. Oyimchangni yaxshi taniyman, oyog'idan boshigacha tilla. Har taqinchoqlar, uncha-muncha odamning tushiga ham kirmaydi. Barini poraga olgansan. Menga unaqa do'q urma, sharmandangni chiqaraman.

— Ustingizdan hoziroq oblsudga arz qilaman! — yer tepindi kapitan.

— Voy-voy, do'qini qaranglar, arz qilsang, meni emas, o'zingni fosh qilasan-ku. Odilovlar ishini imi-jimida yopib yuborganingni Muhamedov gapirib bergan. Nega uni qamoqdan chiqarib yubording?..

Baribir qutichani olisholmadi. Ichida nima bor, aniq bilmayman. Ehtimol liq to'la tilladir. Ehtimol, bir hovuch sadaf tugmadan boshqa hech narsa yo'qdir. Lekin olisholmadi. Yaxshi bo'ldi. Oyijonim kulimsiraganicha jim turardi. Ko'zlari charoqlaganini, yuzlarida nur yonganini ko'rdim.

Ammo akamga jabr bo'ldi, aravachasini choptirib goh hovlining u chekkasiga, goh bu chekkasiga boradi. Qo'lidagi hassachasini jahl bilan sindirgudek qilib yerga uradi. O'sha daqiqalarda akajonimning ohunikidek qop-qora ko'zlarida ko'rganim anduh, ta'riflab bo'lmaydigan darajadagi g'ussa,

yahima aralash achinish hamon yodimda. Akam tik turgancha yonayotgandek edi.

Tintuv tugadi. Oxirgi sahifaga xonadon nomidan yana o'zin imzo chekdim. Oyijonim xushi uchib ketgandek karaxt bi ahvolda o'zirardi. Endi bu dahshatli harakatlar tugagandir, del turgan edik, yo'q, hali bor ekan. Kapitan qora chamador ko'tarib kirgandek bo'luvdi, qappaygancha ayvonda turuvdi ichida sapyorlarning mina qidiradiganiga o'xshash apparat bo' ekan.

Oltin qidira boshladilar. Ishni darvozaxonadan boshlashdi Uchovlari yonma-yon turib olishgan. Tavba, xuddi topiladigan oltinni bittasi olib, boshqasi quruq qolayotgandek. Qiziq, shu paytda men g'alati-g'alati o'ylarni o'ylay boshladim Egningizdagi yap-yangi kiyimingizni birov olib qo'ymoqch bo'lsa, lazzatli taomni ochiqib yeb turganingizda ustiga axla tashlab yuborishsa, chanqab ichayotgan suvingizni kimdi qo'lingizdan tortib olsa qanaqa ahvolga tushasiz. Qahr-g'aza kuchayadi. Meni ham xuddi shunga o'xshash tuyg'u qamrai oldi. Borib hammalarini kaltaklagim, bo'g'ib tashlagim kelyapti Oltin qidiradigan apparat ishga tushishi bilan oyim yana taraddudlanib qoldi. Bezgak tutgandek dag'-dag' qaltirashga tushdi.

— Akangni ko'chaga olib chiqqin, — iltimos qildi mendan.

— Kerak emas, — mendan oldin javob qaytardi qaysar akam, — jim bo'ling endi, menga desa o't qo'yib ketishsin. Mana, niyatingizga yetdingiz. Chaqiring endi o'sha himoyachilaringizni... Bilardim shunaqa bo'lishini.

— Qizishma, o'g'lim, — oyim o'rnidan turib arang qadam tashlab akamning yoniga bordi, — iltimos qilaman, shirinim, bir nafas toza havo olib kelgin. Axir har kuni chiqarding-ku, chiqadigan vaqting ham bo'ldi-ku.

— Nari turing deyapman!

— Bo'lmasa zo'rlab olib chiqaman. Huv seni... Bola emas to'ng'iz tuqqan ekanman.

Oyijonim yig'lab, aravachani darvoza tomon o'zi itarib deyarli choptirib keta boshladi. Qiziq, voqea yuz berdi. Shu qiziq voqea dahshatga to'laligini hali xech birimiz sezganimiz

yo‘q edi. Kapitan qo‘lidagi iskovichini cho‘zganча arava ortidan yugurgilab kela boshladi-da, darvozaxonaga yetganda:

— Tuxtang, aravada metall bor! — deya qichqirib yubordi.

Hammamiz o‘sha tomonga yugurdik.

— Voy, sho‘rim, — o‘h tortdi bechora oyijonim. So‘ng aravachaning orqa suyanchig‘iga boshini qo‘ydi-yu, shilq etib yiqilib tushdi.

VIBOB

Qiziq bo‘ldi-ku.

Yo‘q, dahshat-ku bu.

Majruh akam ertaklardagi ajdahoga o‘xshab xazinani bosib o‘tirgan ekan. Hamma hangu mang bo‘lib qoldi.

Akamning oq alyuminli aravachasini tanish ustaga yasatganmiz. O‘n olti yoshga to‘lgan kuni oyijonim sovg‘a qilgan. Demak, o‘rindiqning orqa suyanchig‘iga, ikki yonidagi qo‘l tashlab rohatlanadigan joylariga, alyuminlar orasiga tilla tangalar berkitilgan ekan. Oyim ko‘p sirlarini mendan yashirmasdi. Dilimiz, fikrimiz, kelajakdagi orzularimiz bir bo‘lgani uchunmi yoki oilaning ishga yaroqli to‘ng‘ichi bo‘lganim sabablimi, ishqilib, oyijonim hatto dadamdan berkitgan sirlarini ham menga aytardi. Lekin, bu tilla tangalar...

Akamni yerga o‘tqazib qo‘yishgan. U hayrat va vahimadan bamisoli och ilonga duch kelgan baqadek qotib qolgan. Singlimning ko‘zidan mo‘lt-mo‘lt yosh oqyapti. Qozi xolam chinakamiga dovdirab qoldi. Bir necha bor talpinib tangalarni ushlab ko‘rmoqchi bo‘luvdi, yo‘q, kapitan yo‘l bermadi. Biron taqinchoq formasiga kirmagan tilla davlat mulki deb e‘lon qilingan ekan. Uni saqlagan, vositachilik qilib qo‘ldan qo‘lga o‘tkazishga yordamlashgan, saqlab bergan har qanday kishi O‘zbekiston jinoyat kodeksining qaysi bir moddasi bilan javobgarlikka tortilar emish. Kapitan bu gaplarni ovozi balandlatib aytdi. Qozi xolamni nazarda tutdimi, yerda anqayib o‘tirgan akamni ogohlantirmoqchi bo‘ldimi — harqalay, ovozi to‘la g‘azab, tahdid edi uning. Qiziq, bir nafas oldin bu sarg‘ayib turgan tangalar boyligimiz edi. Endi ular jinoyatga aylandi.

Jinoyat qarshimizda sovuq yiltirab turibdi. Boylik bilan jinoyatning orasi bir bahya ekan-da.

— Bu tangalar rahmatli dadamdan qolgan, — ingragandel dedi oyijonim.

— Buning hozircha ahamiyati yo‘q, — sovuqqina qilib dedi kapitan.

Qozi xolam yerda bukchayib qolgan oyijonimning boshini ko‘tarib, yana tomizg‘i dori ichirdi:

— Tinchlaning. Hech narsa bo‘lgani yo‘q.

— O‘rtoqjon...

— Tinchlaning deyapman, Muhamedov tirik hali.

— Tangalar meniki emas, — yana kapitanga murojaat qildi oyim, — qarang, o‘sha yerda vasiqa xati bo‘lishi kerak rahmat dadamdan qolgan. Nabirasiga, Akbarjonga vasiyat qilgan.

Aravachaning oldingi o‘ng g‘ildiragi ichidan alyuminda ishlangan barmoqdekkina naycha topildi. Ichida shildiro qog‘oz bor ekan. Yuzidan chakillab zahar tomib turgan kapita sovuq jilmayib qog‘ozga uzoq tikildi. Orqa-o‘ngini ag‘dari ko‘rdi. Hidladi. Ko‘rib turibmiz: xat arab alifbosida bitilgan

— O‘qiy olasizmi? — dedi nihoyat qog‘ozni men nafaqad bo‘lsa kerak deb o‘ylagan kishiga uzatib. Keksa kishi qog‘ozni ola turib:

— Ovoz chiqarib o‘qiyimi? — deb negadir cho‘chibros so‘radi.

— Yaxshi bo‘lardi, — deyishdi boshqalar baravariga.

«Men kim Ollohning inoyati birla ushbu vasiqani qoldiruvch Uloqchopar ko‘cha oltmish to‘rtinchi hovlida yashab turuvch Mulla Nusrat zargar Mullo Orif o‘g‘lidurman. Binobarin Xoja Tarashkon masjidining mutavallisi Odilxon Olimxon o‘g‘li, imom Asqarxo‘ja Karimxo‘ja o‘g‘li zoti oliylarining guvohliklarida qazu fursatim yaqinlashishi oldidan imonli va diyonatli umrim davomida to‘plagan boyligimni ellik ikki tillo tangaga jamlab qizim — Yoqutbibining majruhi, notavon o‘g‘li, ya‘nikim o‘zinning zuryochi pokizam Akbarali Saidjon o‘g‘liga qizim orqali xolisan lillo vasiya qiladurmen. Iloyo ovmin.

Mulla Nusrat zargar Orifxon o'g'li. Guvohlar: Xo'jai Tarashkon masjidining mutavallisi Odilxon qori Olimxon o'g'li, imomi — Asqarxo'ja Karimxo'ja o'g'li».

G'alati, tasvirlab bo'lmaydigan juda ham g'alati jimlik cho'kdi. To'planganlar gilam ustiga sochib qo'yilgan, xuddi bizni masxara qilayotgandek, ajab bo'ldi, qo'lga tushirib berdimmi, deyayotgandek sovuq yiltirab turgan tangalarni unutib, nazarimda hammalarining xayoli endi Vasiqa xatida bo'lib qoldi. Ikki ko'zim yuzida yasama jiddiylik kuchayib borayotgan kapitanda. Vasiqa uning muzdek sovuq qalbiga qanday ta'sir qildi ekan, nima deb xulosa chiqararkin. Shularni bilгим keladi. Uning bir og'iz so'zi tangalarni yo jinoyatga, yo boylikka aylantiradi. Tezroq, tezroq gapirsang-chi! Yo'q, shoshmayapti. Qog'ozni yana aylantirib ko'ra boshladi.

— Vasiqa ham aktga tirkab qo'yilsin, — dedi nihoyat tilga kirib.

— Hoy, qanaqa odamsiz. Ko'rib turibsiz-ku, — arang gapirdi oyim,— tangalar birovniig mulki. Menga uning hech dahli yo'q...

Kapitan negadir juda muloyim, juda samimiy gapira boshladi:

— Men ham bular sizniki deyayotganim yo'q. Shunchaki ro'yxatga olyapmiz, xolos. Tegishli idoralar bor. Qonuniy xulosani o'shalar chiqaradi. Opajon, biz xizmat vazifamizni o'tayapmiz xolos. Qonunga xilof harakat qilayotgan bo'lsak, arz qilishingiz mumkin. Qaytaga o'zingizga jabr qilyapsiz, bolalaringizni qo'rqitib yuboryapsiz. Ehtimol, bularning hammasi yaxshilik bilan tugar. Endi iltimos, itning inini ham tekshirmoqchimiz, o'g'lingizga ayting, itni boshqa yoqda olib tursin. Qarang, yeb qo'yaman deb turibdi. Bitta-yarimtamizni yeb qo'ysa militsiya azador bo'lib qoladi-ya.

— Lekin, takror aytaman, tillolar meniki emas, o'g'limizniki, — dadillanib gap qo'shdi oyijonim, — ana, Akbarjonning o'zidan so'rang. Aytgin, jon bolam, nega ishshayib turibsang? Gapirsang-chi! Onang tuhmatga qolib o'tiribdi-yu, sen bo'lsang... Gapirsang-chi, meniki degin!

Akam hamon karaxt bir ahvolda, hali aytganimdek, baqadek qotib turibdi. Uzun kipriklari pirpiraydi, qora ko'zlari to'la yosh... Yo'q, u bechora, bu tillalardan mutlaqo xabarsiz. Dadam bilan oyim bizning baxtu saodatimiz uchun boyluk to'plashlaridan u norozi, tish-tirnog'i bilan qarshi. Shu xususda urishmagan kunlari, arazsiz ovqat yegan paytlarini eslolmayman. Lekin, qanday bo'lganda ham, hozir, shu daqiqada oyijonimning taqdiri hal bo'lyapti-ku, gapirsa-chi, buncha bag'ri toshlik qilmasa!

— Jon bolam, bir narsa degin! Akam boshini ilkis ko'tarib:

— Nima diy axir? — deb qo'rs ohangda so'radi.

— Tangalar meniki degin.

Yo'q, u boshini battarroq solintirib, miq etmay turaverdi...

Tintuv qorong'u tushguncha davom etdi. «Iskovuch» apparati suqilmagan bironta teshik, bironta kavak qolmadi. Bobom solib bergan uyning poydevori orasida temir truba qolib ketgan ekan. O'shaniyam ochib ko'rishdi. Boshqa tilla topilmadi. G'ira-shira paytida oltin tangalar-u, buzilgan aravachani o'zlari bilan olib jo'nab ketishdi. Nimaniki olishgan bo'lsa, besh kishining imzosi bilan tilxat qoldirishdi, pullaru zayomlar ham ketdi...

— Tez yordam chaqiringlar, — dedi oyim biz ayvonga to'shab bergan o'ringa cho'zilib. — G'alati bo'lib ketyapman... Ko'zing mo'ltiramay o'lgur, o'z bolam-a, bir og'iz so'zini ayadi-ya... Ko'cha eshikni bekitinglar, hech kim kirmasin. Dugonajon, siz ketmang, yonimda bo'ling, Mazam qochyapti.

Akamning qilig'i hammamizni birdan g'azabga keltirdi. Urishib, achchiq-achchiq gapiray deb yoniga bordim. Hamon baqadek baqrayib o'tirardi. Ko'ziga ko'zim tushdi-yu, qo'rqib ketdim. Dunyoda qancha mung, qancha g'ussa bo'lsa hammasi uning qora ko'zlariga to'plangandek, piq-piq yig'layapti. Alamdanmi, tasodifdanmi, bilmayman, xo'rsinib-xo'rsinib yig'lamoqda. Achindim, achinmay bo'ladimi? Axir u majruhku, yarim jon-ku gul bargidek nozik qalbi iztirobni ko'tara olmaydi-ku. Opichlab yotoqxonasiga olib kirdim. Ko'nglini ko'taradigan, yupatadigan biron so'z aytgim keldi.

— Suv ochib beraymi? — deb so'radim, javob qaytmadi.

— Qorning ham ochgandir?

Yana jim.

— Oyog'ingni uqalab qo'yaymi?

Yotgan o'rnida boshini teskari o'girib oldi. Yana yig'layotganini yelkasi uchib-uchib qo'yayotganidan sezib turibman. Negadir shu akamning yig'isiga hecham chiday olmayman. O'zi-ku diydam qattiq, ko'pincha rahmsiz, beshafqat hamman, lekin uning yig'isiga toqat qilolmayman.

— Axir kunbo'yi och yotibsan.

— Yo'qol, yo'qol deyapman! Oltinfurushlar, o'g'rilar, poraxo'rlar, daf bo'l hammang.

Boshqa ilojim qolmadi, chiqib ketdim. Endi uni yupatib bo'psiz. O'zi shunaqa tutqanog'i bor, xuruji ketguncha gap ta'sir qilmaydi.

Ko'cha eshik taqilladi. Ehtiyot bo'lib ochdim. «Tez yordam» ekan. Bosh vrachning o'zi kelibdi. Bu opa ham oilamizning qadrdoni. Qachon chaqirsak o'zi keladi. Oyijonimning qo'li ochiq emasmi, ishqilib quruq jo'natmaymiz. Bundan tashqari bu opamizning taqinchoqlari ham oyijonimning qo'lidan o'tgan.

— Voy-bo'y, Yoqutxon opa, nima bo'ldi, bo'ron turdimi, — oyijonimga erkalanib yaqinlashdi do'xtir opam, — hammayoq ag'dar-to'ntar bo'lib ketibdi-ku?

Uzoq tekshirdi. Jiddiy kasal yo'q ekan. Asabiylikdan emish. Ukol qildi. Qimirlamay yotsa yarim soatda o'tib ketar emish.

— Militsiya shunday baobro' xonadonni nega bezovta qilarkan? — so'radi oxirida.

— Tillo qidirishdi, — axborot berdi Qozi xolam.

— Voy o'lmasam, ishqilib topisha olmadimi?

— Singiljon-ey, bir narsaning isini bilishmasa kelisharmidi?

— Topishdimi?

— Arzimagan oltin tangalar.

Doktor opa negadir bilagidagi yuqori sifatli oltin bilaguzugini shoshilib chiqarib, gap orasida sumkachasiga joylay boshladi. Oyijonim olib bergan-da uni, o'shandan qo'rqdi shekilli.

— Iloji boricha uxlashga harakat qiling, — doktor opaning oxirgi so'zi shu bo'ldi.

Darvozani yana berkitdik. Telefon yonida o'tirgan Zufar ukamni chaqirib, uy yig'ishtirishga tutindik. Qaytib chiqsam xiyla o'ziga kelib qolgan oyijonim Qozi xolam bilan ohista-ohista suhbatlashayotgan ekan.

Kumush quticha o'rtalarida. Ichi to'la oltin albatta. Ikkovlarining ko'zi o'shanda.

— Yoqutxon, qiz o'rtog'imisiz. Rost gapni men aytmasam, kim aytadi, — bosqlik bilan dedi Qozi xolam.

— Tushunib turibman, — xo'rsindi oyijonim.

— Buncha oltinni uyda saqlash... — Qozi xolam kumush qutichani nariroq surib qo'ydi, — mayli, taqinchoq ham bo'la qolsin. Taqinchoqqa hukumat ruxsat ham bergan bo'la qolsin. Hay-hay, shuncha oltinni uyda saqlash... Muhamedovning nomini aytib militsiyani qo'lidan tortib oldim. Bo'lmasam-chi, boshingiz naqd balolarga qolardi-ya. O'sha sho'ring qurg'ur kapitanga ham javr bo'ldi. Ko'rasiz, ertaga uni nega taqinchoqlarni ro'yxatga kiritmading, deb boplab jazolashadi. Kelganlardan bittasi chaqimchilik qilmaydi deb o'ylaysizmi? Voy dugonajon, Muhamedov akangiz biram gaplarni aytib beradiki, yuragingizga vahima tushadi-ya. Tezroq berkiting bu falokatni...

— Qayoqqa ham berkitardim? — beholgina dedi oyijonim.

— Hamma gap shunda-da, Yoqutxon. Hozirgi zamonda hech kimga ishonib bo'lmaydi. Ayniqsa, mana bu zormanda aralashganda aka-uka bir-birining ko'ziga cho'p suqqanini ko'rganmiz.

— Ishonarli odamim ham yuq.

— Ishonsangiz, mayli, dugonajon, biznikiga bekitib qo'ya qoling. Har qalay Muhamedov bor uyga har kim ham yurak yutib bostirib kirolmaydi. Yana o'zingiz bilasiz, menga baribir. Sizga achinganimdan aytyapman... Akangizning uylari ham, hoynahoy nazoratga olingandir. Uyoqqa olib borsangiz... yana o'zingiz bilasiz.

Oyim naq kipriklarini pirpiratib jim qoldi. O'y surib ketdi. Shuncha boylikni, bir umr yiqqan xazinasini duch kelgan odamga ishonib bo'larmikin? Yo'q, bermagani yaxshi. Agar ishonsa, uni o'zim tinchitaman.

Qozi xolam qo'lini to'shakka tirab sekin o'rnidan tura boshladi:

— Endi men boray.

Oyijonim chuqur xo'rsindi. Qozi xolam xuddi orqasidan chaqirib qolishlarini kutayotgandek istamaygina qadam tashlab darvoza tomonga yo'naldi.

— Ibodxon! – dedi oyijonimga bir to'lg'anib.

— Nima deysiz? – dedi Qozi xolam orqasiga o'girilib, jilmayib.

— Qayting, muncha shoshmasangiz.

— Dugonaginam-ey, qaytmay-chi, qaytaman-da. Sizni shu ahvolda qoldirib qayoqqa ham borardim.

Oyim qutichani Qozi xolamga topshirishga qaror qilgan ekan. Ona-bola ichkari kirdik. Dorixonalarda ishlatiladigan ixcham tarozimiz bor, o'shanda taqinchoqlarni birma-bir tortib ro'yxat qarshisiga, juda aniq bo'lmasa ham narx qo'ydik. Halidan beri oyijonim ikkimizni shubha ezib turgandi: olganidan tonsa-chi, bir qismini o'g'irlab qo'ysa-chi, aslini olib o'rniga qalbakisini bersa-chi... Qozi xolam shubhamizni sezib turgan ekanmi, o'z qo'li bilan tilxat yozib, nechtaki narsa olgan bo'lsa hammasini nomma-nom ko'rsatib, oxiriga Ibodxon Muhamedova deb imzo chekdi.

VII BOB

To'satdan ko'tarilgan bo'ron to'satdan tinchigandek bo'ldi. Hovlimizda yurakni ezib yuboradigan jimlik. Hatto it ham akillamay qo'ydi. Ko'cha eshikni yana qulflab oldik. Yolg'iz qolib bo'lgan voqealarni bir o'ylab olmoqchimiz. Oyijonim ayvonda yotibdi. Hamon behol, xayoli ham parishon. Gapimizni ham eshitmayotganga o'xshaydi. Do'xtir opaning dorisi ta'sir qilib, ko'zi ochiq holda uxlab qolgan bo'lishi ham mumkin. Beg'amu beparvo ukam Zufar, jajji singlim Nigora, majruh akam, barchamiz atrofdamiz. G'am daryosiga g'arq bo'lganmiz. Uh tortamiz, xo'rsinamiz. Nigora ovozsiz yum-yum yig'layapti. Akam, qilg'iliqni qilib qo'yib, endi ko'zini bizdan olib qochyapti.

Qiziq, shu paytgacha, Zufarni men to'nka, hissiz, qalbi yog'ochdan, birovning baxtsizligini sezmaydigan bir bola deb yurardim. Unaqa emas ekan. Shu ukam ham yig'lashga tushdi hozir. Ovoz chiqarmaydi. Har zamonda quyilib kelayotgan ko'z yoshlarini yengi bilan artib, shilq etkazib burnini tortib qo'yadi, xolos.

Oyijonim hamon behol, karaxt. Shu paytda men bir afsonani esladim. Buni oyijonim aytganmidi, dadamdan eshitganmidim, aniq esimda yo'k. Guzarda katta choyxona bo'lib, yuz metrcha nariroqda baland bir tepalik ham bor ekan. Bir mo'ysafid guzarga odamlar ko'plab yig'ilgan paytda kelib, to'ppa-to'g'ri tepalik ustiga chiqarkan-da, qo'lini shop qilib: «Ellikboshingni yo'qotaman, palonchi boyni yerini tortib olaman, qozi-yu kaloningni ishdan haydayman» deb do'q-po'pisa qilaverar ekan. Obro'si to'kilganlar vaysaqi muysafidning bunchalik katta gapirshi sababini bilib bering deb bir donishmandga murojaat qilishibdi.

— Mo'ysafid katta gapini uyida gapiradimi? — so'rabdi donishmand.

— Yo'q,— deyishibdi obro'si to'kilganlar.

— Choyxonadagi so'rada o'tirib gapiradimi?

— Yo'q. Choyxona qarshisidagi tepalikda.

— O'sha tepalikni bir kavlab ko'ringlar, — maslahat beribdi donishmand.

Tepalikni buzishgan ekan, ikki xum tilla chiqibdi. Mo'ysafid ertasiga kelib tepalikka chiqibdi-yu, lom-mim demay bo'shashib o'tirib qolibdi.

— Mo'ysafidning tilini burro, so'zini o'tkir, ovozini baland qilgan xumdagi tillolar edi, — debdi donishmand...

Oyijonim ham kuni-kecha aytgani-aytgan, degani degan, kapitan ekan-ku, generali kelganda ham hayiqmasdi. Mana endi bo'lsa... nahotki qutichadagi taqinchoqlar, aravachaga berkitilgan tillalar mehribonimning qoni-yu joni bo'lsa? Yo'q, ishonmayman. Doktor opaning ukoli tufayli karaxt bo'lib o'tiribdi. Hozir boshini ko'taradi. Yana so'zlari keskir, o'zi o'ktam, quvnoq bo'lib qoladi. Hammamizni kuldirib, yuragimizdagi tubsiz g'am-anduhlarni kafti bilan sidirib oladi.

Taxminim to'g'ri chiqdi. Oyijonim boshini ko'tarib kulimsiradi:

— G'alati dori ekan.

— Boshingiz aylanyaptimi?— mehr bilan so'radi Zufar ukam.

Nigora oyijonim o'zini tutib olganini ko'rib ko'ngli xiyla tinchidi shekilli, hiqillashdan to'xtadi.

— Oyijonim, — deya bo'yniga osildi, — men juda qo'rqib ketdim.

— Nega qo'rqasan? — oyijonim ham singlimni bag'riga olib suydi.

— Sizni qamab qo'yishadi deb qo'rqdim. Uyimizni olib qo'yishmaydimi?

— Qo'rqma, oppog'im. Nega unday deysan? Hakimlarning ham uyini oldin mana shunaqa tintuv qilib, keyin olib qo'yishgan-ku?

— Ular jinoyatchi edi, shirinim... Unaqa yomon o'ylarga borma. Bor, yuzingni yuvib kel.

— Biz jinoyatchi emasmiz, to'g'rimi, oyijon? Mebellarimizni ro'yxat qilishdi, olib qo'yishmaydimi? Jon oyijon, bermaymiz, xo'pmi? Arab mebellarini menga atab olgansiz. Tug'ilgan kunimda o'rtoqlarimga ham ko'rsatganman. Rosa maqtashgan. Hech kimga bermaymiz. Oyijon, nega Qozi xolamga qutichani berib yubordingiz?

— Qo'y, bunaqa ishlarga aralashma, qizim.

— Taqinchoqlarning yarmi seniki devdiz-ku?

— Haliyam seniki ular. Xudo xohlasa hammasini beraman. Bu uylar, bu boyliklar, dadang bilan nimaiki topgan bo'lsak, hammasi sizlarniki. Sizlarni deb shu ko'ylarga tushib o'tiribman. Bor endi, yuz-qo'lingni yuvib, uyoq-buyog'ingga qarab ol. Qiz bola degan popukdekkina bo'lib yurishi kerak.

Majruh akam shundoqqina oyijonimning yonginasi-da, ko'tarib olib kelib qayerga o'tqazgan bo'lsam, o'sha yerda, yonboshlagan ko'yi o'y suryapti. Go'yo bizni unutgandek, gapga ham aralashmaydi, ahyon-ahyonda oyimga yeb yuborgudek xumrayib qaraydi-yu, yana teskari o'girilib oladi.

— Tagingga to'shak solib beraymi? — deb so'radim.

— Keragi yo‘q, — to‘ng‘illadi yana. — Undan ko‘ra eski aravamni topib ber. Chordoqdami, darvozaxonaning ustidagi uydami, qaraginchi. Tez bo‘l. Yozilgim kelyapti.

Aravachasini topib, yuvib, artib ham berdim. Yuragi siqilganda odatda, goho ko‘chaga chiqib yozilib kelguchi edi. Bugun ham shunday qilsa yaxshi bo‘lardi. O‘ziyam yuragi zardobga to‘lib ketgandir.

Aravachasini g‘ildiratib oyijonimga yaqin keldi-da, ko‘zlarining paxtasini chiqarib shunaqangi xunuk xo‘mraydiki, yuragim orqaga tortib ketdi.

— Voy, o‘g‘ilginam-ey, nega bunaqa chaqchayasan? — dedi oyijonim ham cho‘chib.

— Nima qilib qo‘ydingiz? — entikib dedi akam.

— Voy tavba!

— Yana tavba deydilar. Hamma ishni rasvo qilib qo‘ydingiz-ku. Biz kim degan odam bo‘ldik endi? Ko‘cha-kuyga qanday chiqamiz, odamlarning ko‘ziga qanday qaraymiz? Onasi chayqovchi, tillafurush, otasi poraxo‘r, bazani otaman deydi, deyishmaydimi? Dadamniyam siz rasvo qildingiz, sizning ochko‘zligingiz rasvo qildi uni.

— O‘g‘lim...

— O‘g‘lim demang meni, jinoyatchi deng endi. Nega mening aravachamga tilla bekitdingiz?

— Sekinroq, qo‘shnilar eshitadi.

— Nega bekitdingiz deyapman?

— U bobongdan qolgan, o‘g‘lim. Bobong, mendan keyin nabiram xor-zor bo‘lmasin, deb ularni senga qoldirgan. Hammasi seniki edi.

— Yolg‘on, hammasi yolg‘on, hammasi qalbaki. Bobojonimdan oltin qolgani yo‘q, vasiyat ham qilmagan, masjiddan mullalarni chaqirtirib kelib, ziyofat qilib, pichir-pichir qilayotganlaringni ko‘rgan edim. O‘shanda qalbaki vasiyat yozdirgan ekansiz-da.

— Og‘zingni yum! — oyijonim sakrab o‘rnidan turib ketdi, — Sharmanda qilma meni, jim bo‘l!

— Bo‘lmayman, baqiraman. Butun dunyoga aytaman bu gapni.

— Seni tuqquncha ilon tug'sam bo'lmasmidi.

— Ilon bo'lib tug'ilganimda bu azoblar yo'q edi menga.

— Bo'g'ib tashlayman hozir.

— Bo'g'ing, jonga tegdi chayqovchi bilan poraxo'rning uyida yashash.

Oyijonimning oltin tishlari g'ijirlab ketdi. Qulochkashlab akamning yuziga shunaqangi qattiq urdiki, aravachasi bilan ag'anab tushdi. Bolam demay, aravacha demay duch kelgan joyiga tepa boshladi. Hammamiz oyijonimga yopishdik. Yo'q, kuchimiz yetmayapti. Majruh akam aravadan ajralib tushdi. Yuzini nimjon qo'llari bilan berkitib goh o'ngga, goh chapga dumalayapti. Dumalagan joyiga tepki yeyapti. Oyim-oyimga o'xshamaydi. Uning qiyofasida devmi, alvastimi paydo bo'lgandek sochlari to'zg'igan, og'zidan ko'pik sachrayapti.

— Oyi! — hovlini boshimga ko'tarib baqirib yubordim.

— Akajonim, — deya uv tortib yubordi Nigora ham.

Oyim polga o'tirib qoldi. O'tirgan joyida xuddi xamir qorayotgandek to'shakni g'ijimlab, xudoyo senlarga ona bo'lmay o'lay, xudoyo zargarga qiz bo'lmay o'lay, o'lgan otam emizik o'rniga og'zimga tilla solib so'rdirmay o'lsin, qalbinga oltin ishqini solganlarga la'nat, ruhimga boylik vahimasini solganlarga la'nat deb shikoyat qila boshladi.

Javray-javray charchadi shekilli, surgalib, tarsaki yegan chakkasidan qon sitib turgan akamga yaqinlashib, boshini yerdan ko'tarib, bag'riga mahkam bosib oldi:

— Bolaginam, majruhginam, — deb silab-siypab yum-yum yig'lashga tushdi, — kechir meni, tentak onangni kechir. Axir seni umrimda biron marta ham chertgan emasdim-ku! Jon bolam, kechir meni. O'zimni yo'qotib qo'ydim. Nima bo'lganini bilolmay qoldim.

Oyim akamning yuz-ko'zlaridan, peshonasidan, hozirgina o'zi tepgan yelkalaridan o'par, entikar, allaqanday so'zlarni aytib shivirlar edi. Nihoyat, akam boshini ko'tarib oyimni xuddi birinchi bor ko'rayotgandek, yanagi safar ko'rsam yanglishib qolmay deyayotgandek yoki qarshisida butunlay begona bir odam o'tirganday uzoq tikilib qoldi. Nihoyat:

— Oyijonim, — deb ingrab yubordi-yu, bo‘ynidan mahkam quchoqlab oldi.

— Bolam, arslonim...

— Oyijon.

Ona-bola bir-birlarining bag‘rida erib borayotgandek edilar.

Darvozaxonada qo‘ng‘iroqning tanish ovozi eshitildi: ikki marta qisqa bir marta uzun. Yo dadam, yo Lutfi xolam. Boshqasi bunaqa chalmaydi. Ha, yanglishmabman, Lutfi xolam ekan. Hayajonda yonib turibdi. Qulochini keng ochib javrab kelyapti.

— Yoqutxonim, jannat makonim, qanday kunlarga qoldik-a. Yaratganga nima qilmishimiz yoqmagan ekan, kambag‘alga qayishdingiz, yetim-yesirning boshini siladingiz, xudoyi-yu sadaqa, hammasi joyida ediku... Voy egam, qanday kunlarga qo‘yding bizni.

Ko‘rishib, oyijonimning yuzlarini dag‘al qo‘llari bilan silab qo‘ygach, fotiha o‘qidi:

— Iloyo ovmin, tiqilib kelgan baloni o‘zi daf qilsin! Endi gapning po‘st kallasi, jannatmakonim, xudo xohlasa bizdan ko‘nglingiz tinch bo‘lsin. Qizil shapkalilar uyni tintuv qilishayotganda hammamiz ko‘chada edik. Qo‘shnilar ham chiqishdi. Biram achinishdiki sizlarga. Shodiyoxon qo‘shningiz kerak bo‘lsa hoziroq kirib, arab mebellari meniki edi, qiz chiqaraman deb oluvdik, uyimiz tor, o‘sha yoqqa chiqarib qo‘yuvdik deb, tilxat beraman dedi-ya. Yaxshi juvon ekan. Darvozani rosa taqillatdi, qo‘ng‘iroqlariniyam chaldi... Ruhingiz tushmasin. Qo‘shnilarning hammasi, xudo xohlasa siz tarafda... Yonboshlab oling. Rangingiz allanechuk bo‘lib ketyapti. Ha, ana... Qaynoqqina choy damlab kelaymi?.. Keyin Saidjon akamdan ham ko‘nglingiz to‘q bo‘lsin. O‘zim borib keldim. Pol latta bilan kir chelakni ko‘tarib to‘g‘ri kirib boraverdim. Hay-hay, orqaga qayting deganlariga ham parvo qilmadim. Men bu yerda farroshman, dedim. Attang, baribir Saidjon akamlarning oldilariga kirolmadim.

— Nima bo‘libdi u kishiga? — xavotir bilan holsizgina so‘radi oyijonim.

Biz dadamning boshiga tushgan tashvishni oyimni ortiqcha iztirobga qo‘ymaslik uchun ataylab aytmay o‘tirgan edik. Laqma

Lutfi xolam bo'lsa, hali aytdim-ku bir qop yong'oq, shaldir-shuldir, sirni fosh qilib qo'ydi.

— O'sha qizingiz eshitgan gap, — dedi yana hech narsaning fahmiga bormay.

— Nimani eshitibman? — hayron bo'lib so'radi oyijonim.

— Axir u kishini ham tekshiruv bosgan-ku!

— Voy sho'rim, qachon? Nega bosadi?

— Sakkiz ming so'm qalbaki pul berib aldashibdi. Voy, xudoyim-ey, odamlar biram yomon bo'lib ketgan-ki, hech kimga ishonib bo'lmaydi-ya. O'zidan mol olib yurgan ekspeditor shunday qilibdi-ya... Lekin, hoy, o'zingizni qo'lga oling deyapman, boshingizni ko'taring.

Bechora oyijonim bunchalik og'ir tashvishni ko'tara olmas ekan. Cho'zilib yotib qoldi.

VIII BOB

Do'xtirning dorisi zo'r ekan, oyijonim rosmana oyoqqa turib ketdi. Turganidan buyon telefon yonida o'tiribdi. Kimlar bilan gaplashyapti, bilmayman. Avvalgidek qattiq-qattiq so'zlab, gap orasida qah-qah urib kulib qo'yayotganidan sezdimki, ish yaxshi tomonga burilishi ham mumkinga o'xshaydi. Solih tog'am, xotini, oyijonimning singlisi Barno xolamlar ham kelishgan. Solih tog'amning kelgani yaxshi bo'ldi. Yaxshi ko'ramiz uni. Mard, jasur odam. Ikki marta qamalib chiqqan. Ikki safar ham qamoq muddatini shartliga aylantirib tezgina qutulib kelgan. Chiqa solib yana magazinini qaytarib olgan. Gardkamchi, hech narsadan tap tortmaydi. Yana tag'in qiziqchi, askiyachiligini aytmaysizmi! Magazinga qachon kirsangiz to'rt-besh ulfatini yoniga olib sharoqlab kulishayotgani ustidan chiqasiz. Militsiyada ham o'rtog'i ko'p. Tekshiruvchilarning kam deganda yarmi grek apelsini, kuba mandarini, hind choylarini tog'amning magazinidan olishadi.

Darvozaxonada ko'rinishi bilan nazarimizda bizni qutqargani xuddi shahar prokurorining o'zi kelayotgandek dilimiz yayrab, ko'nglimiz tog'dek ko'tarilib ketdi.

— Namuncha daragingiz yo'q? — o'pkalanib dedi oyijonim.

— Nega daragim bo'lmas ekan, ertalabdan buyon senlarni deb chopib yuribman,— dedi Solih tog'am. — Bo'пти, sal qovog'ingni ochibroq ol. Nima, osmon uzilib yerga tushibdimi? O'zi hammang ham chumchuq chir etsa, yuraging pir etadigan bo'p qolibsanlar... Qani, o'tiringlar, bir fотиha qilaylik. Hoy, Lutfixonim, qayerdasiz, keling, bir duo qiling. Duoingizni sehri bor. Anovi kuni, esingizdami, kechqurun ketayotganimda duo qilib xudodan menga bir echki so'ragan edingiz. Ertalab o'rnimdan tursam, hovlida bir tuya turibdi. Bo'g'oz ekan, tug'sa bolasini o'zingizga beraman. Bozor-o'charga minib yurasiz. Qani, qo'lingizni keng ochib, bir fотиha o'qing-chi.

Hammamiz ayvonga cho'kib davra qurdik. Bosinqi fотиha o'qildi. Tiqilib kelgan balo tezroq daf bo'lsin, mazmunida shivirlashib oldik.

Tog'am bo'lsa baland ovoz bilan:

— Iloyo bizni jangga chorlayotgan tekshiruvchilarning joni omon bo'lsin! — dedi-da, ketidan sharoqlab kulib yubordi.

Barchamiz yasama jilmayishib qo'ydik.

Lutfi xolam moshugra pishirgan ekan. Dadajonim mana shunaqa kunlar isib ketgan paytlarda bu ovqatni xush ko'rardi, xolam u kelib qolar deb ataylab pishirgan bo'lishi mumkin. Jimgina o'tirib ichdik. Xo'rsinamiz, bir-birimizning og'zimizni poylaymiz. Dilimizda bir xil gap: boshimizga tushgan tashvishning tafsilotlarini bilgimiz keladi. Birinchi bo'lib og'iz ocholmaymiz. Qovoqlar solingan, dillar to'la tashvish. Tog'am labini kafti bilan artib, chinni kosani nari surdi:

— Lutfixonim, lekin ajoyib pazandasiz-da. Pensiyaga chiqsam, xudo xohlasa, sizni uyimizga oshpaz qilib olib ketaman. Bular qadringizga yetishmaydi... Endi turaylik, yalpayib o'tiradigan payt emas. Yoqutxon, tur, holiroq joyga o'tamiz.

O'tirganlar bugungi voqealarning ikir-chikirini tog'am bilan oyijonimning o'zlaridan batafsilroq eshitish umidida edi. Hafsalalari pir bo'lib, bir-birlariga ma'noli qarab olishdi. Qo'shnilar keta boshladilar. Menga alam qildi. Axir, oilaning ishga yaroqli tung'ichiman-ku, kelajakda qonunshunos bo'lmoqchiman-ku, o'yinlarning qanday borishini kuzatishim, qonun bilan jinoyat olishganini o'z ko'zim bilan ko'rishim

rak-ku! Yarimlab qolgan choynakni ko'tarib orqalaridan kirib
ordim.

— Sen nega kelding? — o'shqirib berdi tog'am.

— O'tira qolsin, — sekingina dedi oyijonim.

Nega bunday dedi, bilmayman. Ehtimol, shu paytda meni
og'amdand ko'ra ham o'ziga yaqinroq deb bilganidandir.

— Bir jihatdan to'g'ri qilasan, — dedi tog'am oyimga
uzlanib, — bu gaplardan shumtakang xabardor bo'lgani yaxshi.

Gap bunday, singiljon, so'zimni tugatmagunimcha menga savol
berma. Eringning boshiga tashvish tushganini hammangdan
biladindin eshitganman. Maymoq qorovul bor-ku, Orifmida oti, ha,

Orif cho'loq hammadan avval menga telefon qildi.
Militsiya bosdi, bir gap borga o'xshaydi, Said akam sizga
hipshitib qo'yishimni iltimos qildilar, dedi. Uchib bordim.

Qanish militsiya xodimlari. Lekin, hamma balo shundaki,
umandan emas, shaharniki. Yaqiniga yo'latishmadi. Eringga,
Orif qishloqi pandivoqiga necha bor aytganman, hozir zamon

uzozik, bir-ikki yil nafsingni tiy deb. Ochko'z besh panjasini
og'ziga tiqqan ekan. Fakturasiz gilamlar, yana qanchadan-
qancha o'g'irlik atlaslar ham olgan deyishyapti. Uyoqda mollar

yaroqsiz qilingan deb hujjat qilingan, ochko'z ering bo'lsa o'z
narxida magazinlarga pullab turgan. O'g'irlik, guruhlashgan
o'g'irlik bu. Yana tag'in pismiq ering bugun ertalab pora ham

olgan.

— Yo'g'-e! — dedi oyijonim.

— Gap qo'shmay tur dedim-ku. Olgan, lekin men
borganimda qo'limga ushlaganim yo'q, xonamga tashlab qochib
chiqib ketdi, deb hujjatga imzo chekmay turgan ekan. Agar
shu gapida qattiq turolsa, yaxshi bo'lardi. Bo'lmasa ish chatoq,
yana bir ayb qo'yiladi u pismiqning bo'yniga.

— Pora kattaroqmikin? — xavotirlanib so'radi oyijonim.

— Aniq bilolmadim, — davom etdi tog'am, — lekin singiljon,
hozir zamon chirsillab turibdi. Porami, tamom! Summasi
kattami, kichikmi, ahamiyati yo'q.

— Kim ekan u... dadasini chalg'itgan?

— Ekspeditor deyishyapti.

— Dadasi juda ehtiyotkor edilar-ku?

— Men ham shunga hayronman, o'sha ekspeditor ikki-uch yildan buyon eringdan mol olib yurarkan. Orif cho'loq aytdi Said akam bilan apoq-chapoq edi-ya, deydi.

— Demak, agent ekan-da?

— Bilo'ladim deyapman-ku. Singiljon, gap qo'shmay tur men tezroq ketishim zarur, boradigan joylarim ko'p. Shu kechadar qolsa ish barbod bo'ladi. Bu o'yinning qoidasi shunaqa. Kir oldin ulgursa — o'sha yutib ketadi. Lekin hujjatga qo'l qo'ymay tuhmat qilyapsizlar, deb turib olishi kerak. Bu gapni mensiz ham yaxshi biladi u pismi. Puxtalikka kelganda hammamizga dar berardi. Bir narsadan tashvishdaman, pulni ushlagan bo'lsa barmog'ining izi tushib qolgan bo'lishi ham mumkin. Ana bu juda xavfli. Ana, singiljon, ranging oqarib ketdi. Demak masalaning nozik joyini sen ham fahmlading. Lekin podadar oldin chang chiqarmay turaylik, harqalay ering tulkidek ayyo odam. Pulni olgan bo'lsa ham qo'li bilan emas, yetti qava ro'molcha bilan ushlagan bo'lsa ajabmas. Tuman militsiyasiga yugurdim. Bilasanku, tanishlarim ko'p. Hech bo'lmasa maslahat olishim zarur edi-da... Menga qara, Yoqutxon, eringdan yet yuradiganlar ko'p edi, oralarida suyansa bo'ladigai bormi?

— Bor, juda ko'p.

— Masalan?

— Shahar savdo markazi raisi...

— Sadir Badalovichmi? Ishonsa bo'ladimi?

— Bo'lmasa-chi, topganlarining yarmini o'sha baloxo'rlar yeyishadi-ku. Xo'p desangiz, hoziroq gaplashaman. Xotinlari biz bilan gap o'ynagan, yaqinmiz.

— Mayli, kerak bo'lsa undan ham foydalanamiz? Qonunshunoslardan yo'qmi? Ular bir-birining tilini yaxshi tushunadi-da. Yo'l topishga usta bo'lishadi. Shariatda yo'l ko'p deganlaridek, qonunda ham yo'l ko'p ekan. Bormi yordam beradiganlaridan?

— Sulton Muhamedov...

— Sudyami? Juda katta og'iz-da.

— Ilojimiz qancha, katta og'iz katta yutadi-da.

— Buning ustiga lanjligi ham bor deb eshitgaman. Ha mayli, bunaqa lanjlarni ham hisobga olib qo'yganimiz yaxshi. Etik

or kelib qolganda, nachora foydalanamiz-da. Ering haqida naslahatlashgani borib, e tavba, xuddi ataylab borgandek sening g'alvangni ham o'sha yerda eshitib qoldim... Hay mayli, buni alohida gaplashamiz. Bu yo'l-yo'lakay, gap orasida bitadigan ishga o'xshamaydi. Ering, agar qutulishni istasa, chiqimi katta bo'ladiganga o'xshaydi.

— Aka, siz nima desangiz shu-da. Axir ko'ra-bila turib bizni o'tga tashlamassiz.

— Qo'rqma, pismiqli eringda pul ko'p. Kamida yarim million jamg'armasi bor uning.

— Qaydam, menga bir tiyinini ham ko'rsatmaydilar.

— Pismiqlarning hammasi ham shunaqa bo'ladi o'zi. Tiynlab yig'ishadi-yu, minglab topshirishadi.

— Xo'p, qancha so'rayapti o'sha tanishingiz?

— O'ttiz ming.

— Ishni butunlay tinchitarmikan?

— Butunlay tinchitadi.

— Baribir ko'p-da.

— Eringning jinoyati ham katta-da, singil... Hay mayli, bu haqda yana qayta-qayta gaplashamiz. Muhimi, yordam berishga va'dasini oldim uning. Jiyani, qani, choydan quy-chi, hamma gapni eshitib olyapsan-a. Lekin tashqariga chiqara ko'rma. Ota-onangning taqdiri hal bo'lyapti-ya! Esli bolasan, buni tushunishing kerak. Qani, singiljon, sen ham choydan bir ichib ol-chi, ich deyaрман!.. Mana endi sening masalangga o'tamiz. Militsiyaga borganimda hamma tafsilotini eshitdim. Tavba qildim, sen nega bunaqa ehtiyotsiz bo'lib qolding? Ming marta aytdim, zamon ko'tarmaydi, bu ishingni tashla deb, qaysarsan. Eringga o'xshab sen ham molparastsan.

— Nima qilay, kuyovingiz bir tiyinini ham ko'rsatmaydi. Mening ham tengqurlarim qatori yaxshi kiyingim, yaxshi yashagim keladi.

— Bekorlarni aytibsan. Eringning topgani sendaqa yaxshi kiyinadigan tannozlardan sakkiztasiga bemaol yetarli. Bas, siqilma, bo'lari bo'пти endi. Bu ishlarni tinchitib olaylik, senlar bilan boshqacha gaplashaman. Kam-kam xo'r, hamisha xo'r, degan ekanlar. Er-xotin ikkovlarning besh panjani og'izga

tiqadigan bo'p qoluvdilaring... Bir tiyinini ham ko'rsatmaydilar emish, bekor aytibsan. Ha mayli, donishmandlar avval cho'kayotganni qutqar, so'ng qulog'ining tagiga tarsaki tashgan degan ekanlar. Sening ham bir tarsaki yeyishing bor hali... Qanaqa bir boshdan gapir-chi, nima bo'ldi o'zi? Tez bo'l, vaqt ziq, lekin kechadan qolmay hammasiga ulgurishimiz shart.

— Aka, juda beholman, hozir gapirolmayman.

— Gapir deya pman!

— O'zingiz eshitibsiz-ku, o'sha gap-da.

— Yo'q, sening og'zingdan ipidan ignasigacha eshitishim militsiya nazaridan chetda qolgan ba'zi bir nozik holatlarni bil olishim kerak. Voqea qanday yuz bergan bo'lsa, shundayligicha gapir. Hissiyotga berilma, hech narsa qo'shma, hech narsa olmagan.

— Aka, meni tinch qo'ying. Nima bo'lsa endi peshonamdan ko'rdim.

— Bolalaringni o'ylasang-chi, tentak!

— Bolalarimni deb shu ahvolga tushib o'tiribman-da.

— Gapirmaysanmi? Bo'lmasa men ketdim, bo'lsa bilganlaringni qillaring. Nima, mening boshqa tashvishi yo'qmi?

— O'tiring, aka, sal o'zimni bosib olay, o'tiring. Zargariya qizi bo'lmay o'lay, oltinning ishq qalbinga cho'g' tashlamoq o'lsin. Har gal shu ishga qo'l ursam vujudim terak bargide qaltirab, qalbimni qorong'i vahima bosadi. Bo'ldi, bu oxirgi gap deya pman. Qayda, ertaga tag'in o'shaning ishqida ko'chaga chiqib ketaveraman.

— Gapning bo'ladiganini gapir deya pman. Bo'lmasa hozir jo'nab qolaman.

— Uch kun oldin Buxorodan mijozim telefon qildi.

— Uydagi mana shu telefongami?

— Ha.

— Erkakmi, ayolmi?

— Ayol.

— Ilgaritdan aloqang bormidi u bilan?

— Ha. To'rt yildan buyon bordi-keldimiz bor. O'sha tomonlardan tilla tanga, qo'pol ishlangan, modadan qolgan ketgan tilla-kumush taqinchoqlar olib keladi. Men bu yerdan

ularni ishonchli odamlaringa pullab beraman. Qaytayotganida bu yerdagi zargarlarning toza molidan olib ketardi.

— O'sha toza mollarni sen olib berarmiding?

— Shaharda tillaning sofligini bilib beradigan mendan boshqa ayol yo'q.

— Senda bu kasal borligini bilaman. Rahmatli dadamiz ham hayron qolardi. Ellik yil zar kukuni, oltinning dudi ichida o'tirib, shu qizim bilganning yarmini ham bilolmayman-a, singlingda ilohiy bir sir bor, derdilar. Ha, senda shunaqa bir kasallik bor edi. Bir kun boshingga yetmasa deb xavotirda ham yurardim.

— Siz kasallik deysiz, qaydam. Boshqalar fazilat deydi. Axir zargarlar ham shuni aniqlab bering deb xoli-joninga qo'yishmaydi-da.

— Xo'p, o'sha buxorolik mijozingning oti nima edi?

— Mohira.

— Haqiqiy ismi shundaymi? Pasportini ko'rganmisan?

— Ha.

— Mohira bilan oldi-sottini shu uyda qilardilaringmi?

— Yo'q.

— Bu uyga o'zi hech kelganmi?

— Uch yil oldin bir kecha yotib ketgan, xolos.

— Oldi-sotti qayerda bo'lardi?

— Chorsudagi oshpaz uyg'urnikida.

— Hamisha o'sha yerda bo'larmidi?

— Ba'zan ko'chada, ba'zan xilvat xiyobonlarda ham uchrashib ish bitirganmiz.

— Oshpaz uyg'urning uyida oxirgi marta qachon savdo bo'luvdi?

— Roppa-rosa bir oy oldin.

— Mohirang o'shanda tilla olib kelganmidi?

— Yo'q, zargarlik buyumlari olib ketgani kelgan ekan.

— Yaxshi. Endi yana bitta savol. Sizlarning oldi-sottilaringdan oshpaz uyg'ur xabardormidi?

— Yo'q, hech narsa sezmasdi.

— Shubha ham qilmasmidi?

— Qaydam.

— Endi, singiljon, shoshmasdan bo'lgan voqeani birma-bir gapirib ber.

— Mohira yarim tunda telefon qilib, u hamisha kechasi telefon qilardi, ul-bul narsa olib boryapman, siz ham olib qo'ysangiz sakkizinchi chisloida, soat o'n birlarda lag'monxo'rlik qilamiz, dedi. Ertalab, voy akajon-ey, hayajonlanib ketyapman, yurak qurg'ur yana urib ketdi. Zafar, choyingdan quy... Ertalab tanish zargarnikiga borib tayyor mollaridan olib, Mohira aytgan vaqtda oshpaznikida hozir bo'ldim. Yaxshi haq to'laymiz. Shuning uchun hamisha alohida xona ajratib beradi. Lag'mon yeb o'tirishib ish bitirardik. Kirsam Mohira kelgan ekan, hayajonlanib turibdi. Shuni aniq sezdim. O'rtoqjon, ishni tezroq bitiraylik, samolyotga biletim bor, dedi. Eshikni ichidan berkitib, derazaning pardasini tushirdik. O'n ikkita so'lkavoy olib kelgan ekan. Toza, har narsa bular, bunaqasi kam uchraydi. Donasini besh yuzdan kelishib, 6 ming sanab berdim. Keyin men olib borgan taqinchoqlarni savdolashdik. Ko'pam talashib-tortishganimiz yo'q, avvalgi narxlar atrofida bo'ldi. Yetti ming so'mlik mol oldi. Qo'llari dir-dir qaltirayotganini ko'rib, voy dugonajon, namuncha hayajonlanmasangiz desam, samolyotdan kechga qolyapman, dedi yana. Ikkovimiz ham lag'monga qo'l urmadik. Fotiha o'qib, o'rnimizdan turib hovliga mo'raladik. Ochiqib kelgan lag'monxo'rlar ishtaha bilan ovqatlanishyapti. Birov bilan birovning ishi yo'qdek. Eshikni ochishimni bilaman, voy xudoyim, osmondan tushdimi, yerdan chikdimi, bilmay qoldim. Uch kishi xonaga bostirib kirib keldi. Avvaliga bular ham lag'monxo'rlar bo'lsa kerak deb o'yladim. Nega desangiz, ichkarida, mana shu biz o'tirgan xonada, ko'pincha militsiya xodimlari ham ovqatlanib ketishardi, ilgari ko'p ko'rganman. Ovqatlanib ketishgani uchun ham lag'monpazga indashmasdi. Hatto jigarkaboblar ham yeyishardi.

— Hozircha kabobni qo'ya tur, gapning bo'ladiganini ayt.

— Kira solib kapitan ko'krak cho'ntagidan qizil guvohnomasini olib ko'rsatdi, militsiyadanmiz deb.

— Boshqalari ham militsiya formasida edimi?

— Kapitandan boshqasi oddiy kiyimda edi. Keyin, voy xudoyim-ey, choyingdan quy, bolam, yuragim kuyib ketyapti...

Keyin qo'limizdagi sumkalarni tortib olishib, o'zimizni militsiya idorasiga olib borib protokol yozishdi.

— Protokolni o'qib berishdimi?

— O'qib berishdi.

— Mazmuni esingda bormi?

— Mohira Jo'rayeva Yoqutxon Karimovaga o'n ikki dona oltin tanga sotib, yetti ming so'mlik, jami yigirma bir dona zargarlik buyumlari sotib olayotganda qo'lga olindi... Xullas, shunga o'xshash gaplar yozilgan.

— Sen protokolga qo'l qo'ydingmi?

— Qo'ymadim.

— Sen nimaga qo'l qo'ymayman deding? Mohira-chi?

— Qo'ydi.

— Zargarlik buyumlari meniki emas, biz bilan lag'mon yeb o'tirgan boshqa bir ayolniki. U tashqariga chiqib ketuvdi, dedim.

— Miyang ishlabdi, singil. Tilla tangalar haqida nima deding?

— Ular ham meniki emas, dedim.

— Bu gapingga hech kim ishonmaydi-ku?

— Ishonarli gap aytdim.

— Nima deding?

— Militsiya eshikni taqillatayotganda mana bu ayol tillasini mening sumkamga solib qo'ydi shekilli, dedim.

— Tangalarni qo'lingga ushlab ko'rganmiding?

— Ushlab ko'rganman.

— Demak, singiljon, barmoqlaringning izi bor u yerda. Ana shunisi xomroq bo'libdi. Mayli, o'limdan boshqa hamma narsaning iloji bor. Shaharning bosh eksperti ishonsa bo'ladigan yigit. Qani, ayt-chi, sizlarning xuddi o'sha lag'monpazning ichkari uyida uchrashuvlaringni Mohiradan boshqa yana kim bilardi?

— Hech kim.

— Lag'monpazdan shubhang yo'qmi?

— Yo'q, u unaqa ayol emas.

— Unda seni Mohira sotgan bo'ladi, shundaymi?

— Qaydam.

— Protokolga eng avval sening familiyang yozilgan, shundaymi?

— Ha, shunday.

— Sen qo'l qo'yishdan bosh tortding, shundaymi?

— Ha.

— Mohira qo'l qo'yishdan oldin, qo'ymayman deb qarshilik qildimi yoki darrov ko'na qoldimi?

— Nazarimda esini yo'qotib qo'ygan edi. Dir-dir qaltirab turuvdi. Qarshilik ko'rsatmay uchov nusxaga ham tezgina qo'l qo'ydi.

— Demak, singiljon, Mohira bundan bir oy oldin sendan zargarlik buyumlarini olib ketgach, qo'lga tushgan. Sheriklaringni fosh qilsang, jinoyating yengillashadi, deb ishontirishgan uni. Demak, jinoiy ish Buxoroda ochilgan. Bizning militsiya xodimlariimizni esa yordamga chaqirishgan. Mohiraga ham sen qatori javob berib yuborishdimi?

— Yo'q, bir-ikki kun mehmonxonada yashab turasiz, deb qog'oz qilib berishdi.

— Yaxshi, ayt-chi, Mohira sen bilan ko'rishganda, seni ilgaritdan tanirdim, deb aytdimi?

— Ha, aytdi.

— Sen nima deding?

— Men bu ayolni tanimayman, birinchi ko'rishim, dedim.

— Sen, singiljon, umuman savodli ayolsan. Yana bir gap, faqat hiqillamay tur. Nazarimda, biron narsa qilsak bo'ladiganga o'xshaydi. O'sha sizlar lag'mon yeb, oldi-sotdi qilib yuradigan xonada ko'cha tomonga ochiladigan derazasi bormidi?

— Bor, nazarimda ikkita edi shekilli.

— Yaxshi. Reshyotkasi-chi, e'tibor bermaganmiding?

— Reshyotkasiz edi shekilli.

— «Shekillimi» yoki aniqmi?

— Aniq, ko'pincha derazani ochib qo'yardik, guvillab muzdek shaboda kelardi.

— Yaxshi, mana endi singiljon, ishonarli bir bahona topsak bo'ladi. Buning uchun senga zargarlik buyumlarini qoldirib, derazadan sakrab qochgan noma'lum ayolni ko'rgan kamida ikkita guvoh topish kerak. Topamiz ham! Keyin lag'monpaz ayol, men haqiqatan ham uch kishiga ovqat olib kiruvdim, degan gapni ham aytishi shart. Aytiramiz ham! Mehmonxonaga borib

o'sha Mohirangni hoziroq topib, u bilan ancha-muncha masalalarda kelishib olishim kerak. Ha, hozir borishim kerak, ertaga kech bo'ladi. Eng muhimi bu o'yindagi eng katta kozer ya'ni tuz kozer kapitan Jo'ra Usmonovich bo'ladi. Uning ham tanishlarini, ishonarli odamlarini topishim shart, bo'lmasligi mumkin emas... Tungi tergovni ataylab chala-chulpa, birov anglamaydigan darajada mujmal qilgan bo'lishi ham mumkin. Kimdan nima unishini biladi u. Olib yurgan odam-de. Xo'p, men boray endi. Tintuv paytida olib ketilgan pul, zayom, kolyaskadan chikqan tangalar xususida qaytib kelganimdan keyin bafurja gaplashamiz. Lekin bir narsaga tushunmayapman, tintuv paytida ro'yxatga olingan qimmatbaho mollarni nega tashlab ketishdi ekan? Bu mumkin emas-ku! Buning uchun Jo'ra Usmonovning o'zini ishdan olishadi-ku. Esingdami, menikini tintuv qilishganda, ikki safar ham qo'lga ilinadigan hamma narsani mashinaga yuklab ketishuvdi. Qaytarib olguncha ona sutim og'zimga keluvdi. O'shanda ham yarmini zo'rg'a undirganman... Tavba, kapitan nega bunday qildi ekan?

— Muhamedovning xotini shu yerda edi.

— Qozi xolami?

— Ha.

— E ha, gap buyoqda degin. Bu xotin balo. Undan foydalansa bo'ladi. Qonunshunoslarning xotinlari, ko'pincha, eridan zo'r bo'ladi. Lekin kapitan Jo'ra Usmonov katta bir maqsadni uylab mollarni qoldirib ketgan. Ehtimol bizni kutayotgandir ham... Kech bo'ldi, nazarimda eringni olib qolishdi shekilli. Qo'rqma, u pismiqa jin ham urmaydi. Bazaning bosh omborchisi ekanini bilib qolishsa qaytaga unga yaxshiroq qarashadi. Militsiyaning ba'zi bir xodimlari ham ovchilarga o'xshaydi. Semizini tanlab otishadi. Semizidan yog' ham, go'sht ham ko'proq chiqadi-da. Xo'p, men ketdim. Bu kecha uxlash yo'q. Yeganlar, yog'li-yog'li yeb yurganlarning hammasini oyoqqa turg'izaman, uxlatmayman.

IX BOB

Tog'a uyda ekanligida, nazarimizda tiqilib kelgan baloni daf qila oladigan balogardon yonimizda o'tirgandek ko'nglimiz ko'tarilib, qalbimizda quvonch ham bordek edi. Chiqib ketishi bilan yana mung'ayib qoldik. Oyim yana xo'rsinishga tushdi. Dadam kelmadi, demak uni qamashdi. Hozir zax, qorong'u qamoqxonada mung'ayibgina o'tirib, bizni kutayotgandir, yordamdan umidvor bo'lib ko'zlari javdirayotgandir. Biz bo'lsak bu yerda un oshi ichib o'tiribmiz...

Yo'q, tog'am yolg'on gapiryapti. Dadam pismiq ham, xasis ham emas. Mahallaning yarim amaldorlarini boqib kelyapti u. Axir Sadir Badalovich, Muhamedovlar eh-he, qancha-qanchasining maishati, katta-katta xarajatlari bizning zimmamizda-ku! Yo'q, dadajonim qizg'anchiq emas... Bechora hozir qay ahvoldaykin? Yo'q, hoziroq oldiga boraman, mayli, qamashsa meniham qo'shib qamashsin.

— Bekorlarni aytibsan, — urishib berdi oyijonim. — Bozorvoy amaking biron tayin gap topib kelmaguncha jim o'tir. Qaysi qamoqxonada ekanligini qayoqdan bilasan, yaramga tuz sepma.

— Telefon qiling bo'lmasa, — dedim yig'lamoqdan beri bo'lib.

— Telefon... qurib ketsin telefoniham. Hech narsani bilib bo'lmayapti.

— Tanishlaringiz-chi, maqtanib yurgan o'rtoqlaringiz-chi?

— Voy o'g'ilginam-ey, ikki o't o'rtasida yonib turibman-u, senikini qanday ko'taraman. Undan ko'ra yonimga o'tir. Xudoga shukur, tanishlarim yo'q emas. Militsiyaga ham birinchi bor ishim tushayotgani yo'q. Dadang yonimda bo'lganda edi... Sizlar bilmaysizlar, tadbirkor ham aqlli odam, u ishning ko'zini biladi. Qayerga qancha sarflashni, kimdan nima unishini chamalab, yetti o'lchab bir kesadi. Tog'ang hovliqmaroq. Bizni kattaga tushirmasa edi, deb qo'rqib turibman. Ilgari dadangning boshiga tashvish tushsa o'zim yugurardim. Menga bir gap bo'lgudek bo'lsa, dadajonim yeng shimarib ishga kirishardi. Qanday yaxshi kunlar edi-ya! Mana endi ikkovimiz ikki o't orasida qolib o'tiribmiz. Bizni kim qutqaradi endi? Kim?

— Biz-chi, oyijon?

— Sizlar hali juda yoshsizlar.

— Oyijon, men axir to'qqizinchiga o'tdim, yosh emasman.

— O'zimning asalginam, beriroq kel, peshonangdan bir o'pay. Chindan ham katta yigit bo'p qopsan, quchog'imga sig'mayapsan, toylog'im. To'g'ri aytasan, endi senga ishonsam bo'larkan. Bu ishlar bir yoqli bo'lguncha hamisha yonimda turgin. Negadir yuragimda vahm bor. Tog'ang yaxshi, mehribon, lekin ko'rasan, ko'p ishni buzib qo'yadi. Endi akangdan xabar ol, och o'tirgandir. Tavba, o'z bolang o'zingga dushman bo'lib o'tirsa-ya!

— Oyijon, unga ko'pam parvo qilavermang.

— Dadang to'g'ri aytadi. Ataullo muallim buzdi uni. Tavba, o'z onasini chayqovchidan olib chayqovchiga solib o'tirsa-ya... Mayli, bor, ovqatlantirib chiq. Sal qorong'u tushsin, bir-ikki joyga borib kelamiz. Borasanmi?

— Jon-jon deb boraman, oyijon.

— Sen ishqilib, akangga o'xshab meni kamsitmaysanmi?

Oyijonim hovliga, gulzor yonidagi karavotga o'tdi. Ko'ngil so'ragani chiqayotgan qo'ni-qo'shnilarning keti uzilmasdi. Gap nimadaligini bilib turishibdi-yu, yana qayta-qayta surishtirishadi. Tavba, odamlar g'alati-ya. Biz buyoqda o'z yog'imizga o'zimiz qovrilib o'tiribmiz-u, ular bo'lsa voqeaning ikir-chikirlarigacha tezroq bilib olsam deyishadi.

Zufar bilan Nigora akamning xonasida ekan. Xavfdan qochib berkingan quyunchadek dir-dir qaltirab o'tirishibdi. Televizor qo'yig'liq, lekin tomosha qilayotganlari yo'q. Akam teskari o'girilib yotibdi. Yoniga o'tirib boshini o'zim tomonga burdim, haliyam yig'layapti.

— Tagma,— deb qo'limni siltab tashladi.

— Akajon!

— Yo'qol! Tinch qo'y meni deyapman,— baqirib yubordi akam. Keyin tirsagiga suyanib boshini ko'tardi-da, ko'zlari kosasidan chiqqudek bir alfozda davom etdi.— Mana endi ko'ngillaring joyiga tushdimi?

— Nega unday deysan?

— Dadam bilan oyimni mana shu kuyga solgan senlar bo'ldilaring. Oliftalar, tekinxo'rlar...

— Xaddingdan oshyapsan, aka.

— Biz hammadan boymiz, chiroyli kiyinamiz, baxtlimiz deb kerilib yurgan senlar emasmidilaring?

— Aka!

— Sakkizinchini bitirguncha o'nta velosiped pachoqlading, uchta maped, bitta mototsiklning boshiga suv quyding. Bir xillarini uyga olib kelishga or qilib, kultepaga otib yubording, boyvachcha! Mana bu to'mshayyab o'tirgan Zufar-chi? Halitdan «Volga» minishni o'rganib olibdi. Cho'ntagini qara, yashirincha kalit yasatib olgan. Uning cho'ntagida boshqa kalitlar ham bor. Oyim bilan dadamning g'aladonini ochib pul o'g'irlyadi. Cho'ntagi to'la pul. Nasha ham chekadi, og'zini hidlab ko'r. Boyvachchalar, senlar nafsingni tiyib, kamroq maqtanganlaringda, oyim bilan dadam pul topish uchun o'zlarini bunchalik qiynamagan bo'lishardi...

Akam haddidan oshib ketdi. To'g'ri, ilgari ham burnini jiyirib hammamizning kayfiyatimizni buzgani buzgan edi. Lekin bugun... E tavba, quturib ketyapti. Yaqiniga borganning qo'lini tishlab olyapti. Yo'q, majruh bo'lsang o'zingga, siylagan sari boshimizga chiqib olyapsan!

— O'zing-chi, — dedim g'azabimni bosolmay, — o'zing tekinox'r emasmi? Mana bu magnitofoning qo'lda ikki yarim ming so'm turadi. Yapon magnitofoni deyдилar buni! Oyijonim bunga chek sanab berdi, tekinox'r.

— Harom hammasi, — akam alam bilan hassasini karavotning chetiga qarsillatib urdi.

— Harommi? — battar g'azablandim, — mana bu kitoblar-chi, bir xillarini seni xursand qilaman deb, bechora oyijonim o'ttiz so'mdan olgan-a.

— Harom hammasi!

— Harom emish. Sog' bo'lganingda bo'g'ib tashlardim hozir. Nega boshqalarga indamaysan? Sulton Muhamedovning o'g'li-chi, sakkizda o'qiydi. Jiguli minib yuribdi. Sudyaga mumkin-u, bizga mumkin emas ekan-da. Sadir Badalovich ikkala kuyoviga ham bir xil rangda «Volga» olib bergan. Qizlari bir kun ham o'qimasdan diplomli bo'lishdi...

— Hammasi harom!..

— Pishqirma deyaqman!

— Ket hozir, bo'lmasa boshingga hassa bilan solaman.

— Ketmayman. Sen bilan bir gaplashib qo'yay. Qani aytchi, kim halol yashayapti o'zi? Univermag direktorini, oyim bilan dadamning gapini eshitmadingmi? Uyida har kuni bazm. Olgan maoshi bir soatlik xarjiga ham yetmaydi. Qolganini qayerdan olyapti u? O'g'illarining yurishini ko'r. Biz ularning oldida gadoydan ham battarmiz. Yo ularning pul zavodi bormi? Nega ularga indamaysan, tergovchi? Prokurormisan, nega ota-onamizga kun bermay qo'yding?

— Haromxo'rlar, — yana pichirladi akam.— O'g'rilar...

— Tilingni tiy! Hozir bo'g'aman seni. Sen bizning oilamizga g'irt begonasan. Yo'qol, chiqib ket uyimizdan. Bor, o'sha cho'loqlar uyida yashayver. Hozir bir sirni ochib sharmandangni chiqaraman sen ablahni, — deya entikib davom etdim, — seni ota-onamiz tug'ruqxonadan olib kelishgan, bilmasang bilib qo'y. Majruh tug'ilganing uchun o'z ota-onang tashlab ketishgan ekan...

— Yolg'on, yolg'on!

— Seni ehtiyot qilib bu sirni aytmayotgan edim: kelgindisan, begonasan.

— Yo'qol, — degan qichqiriqni eshitdim. Shu asnoda akamning qo'lidagi alyumin hassa boshimga kelib tushdi. Ko'zimda o't chaqnagandek bo'ldi. Gangib ketdim. Xayriyat. Yiqilmadim. Ustiga tashlanib, bo'g'a boshladim. Gavidam bilan ezib tashlamoqchiman uni. Halidan buyon tomirlarimda yonayotgan g'azab alangasi es-hushimni olib qo'ygandek edi.

Zufar ukam yelkamdan tortib turg'azdi-da, yoqamdan mahkam siqib oldi. U garchi mendan uch yosh kichik bo'lsa ham, hirsdek kuchi bor. Avlodimizda polvon o'tgan emas. Zo'ravonligiga allaqachon tan berganman. Hatto mahalladagi katta-katta bolalar ham undan cho'chibroq yurishadi.

— Hozir akamdan kechirim so'raysan, — shunday deb Zufar ukam tomog'imdand qattiqroq siqa boshladi. Nafasim chiqmay qoldi.

— Kechirim so'ra!

Yo'q, gapirolmadim. Izzat-nafsim yo'l bermadimi, ovozim chiqmadimi, bilmayman, gapirolmadim. Ukam shunday bir zarb

bilan itarib yubordiki, tisarilib borib orqam bilan polga gursillab yiqildim. Turishga ulgurolmay qoldim. Qorninga minib oldi:

— Kechirim so‘ra!

O‘zi mendan o‘tdi, yolg‘on gapirdim. Hecham birovning bolasi emas u. Buning ustiga ojiz, nogiron. O‘zi-ku hozirgina oyijonimdan kaltak yeb bo‘lari bo‘lib yotuvdi-ya, nega bunday qildim, nega?

Patnida ovqat olib Lutfi xolam kirdi. Yaxshi bo‘ldi. Bo‘lmasa katta mushtlashuv bo‘lardi.

— Voy sho‘rim, — dedi xolam, — mana bu esi yo‘qlarni qaranglar. O‘zimiz qay ahvolda-yu, karatega balo bormi? Jonimga tegdi tapir-tupirlaring, qachon qarasang bir-birining iyagini mo‘ljallab turishadi-ya. Tur o‘rningdan ikkoving ham, esi yo‘qlar.

Zufar, sen bilan keyinroq gaplashaman deb, qarsillab sekin o‘rnidan turdi. Ayiqpolvon gavgamni ezib tashlagan ekan, yengil nafas oldim. Majruh akamga qo‘pollik qilganim uchun qalbimning bir chekkasi zimiston edi. Dilim to‘la g‘ashlik, tashqariga chiqib ketdim.

Hovli to‘la odam.

Nega kelishdi ekan tag‘in, nega?

Ayvonda qarindosh-urug‘larimiz. Hovli o‘rtasidagi katta karavotda esa tavba, ularni kim aytib chiqdi ekan, oyijonimning gapdagi ulfatlari. Xuddi navbatdagi bazmga to‘planishgandek bexato kelganlarini qarang. Nahotki, boshimizga tushgan tashvish uch-to‘rt soat ichida hammalarining qulog‘iga yetgan bo‘lsa. Nahotki hammalari bizga uyinib, achinib kelishgan bo‘lsa?! Ko‘pam unaqaga o‘xshamaydi. Nazarimda, kuni kecha tiktirgan yangi ko‘ylaklari-yu, durlariyu platinali uzuklarini ko‘z-ko‘z qilgani kelishganga o‘xshaydi. Ha-ha, xuddi shu maqsadda to‘planishgan. Yasan-tusanlarini qarang, upa-atirlarining xushbo‘y hidini aytmayisizmi, hovlini qoplab ketibdi-ya!

Sakkiz ayol gap o‘ynagan. Oralarida qo‘li kaltalar yo‘q. Hammalari ham osmondagi oyni olgudek. Yiliga ikki davra o‘tadi. Qishda uylarida, yozda dalalarda, goho tog‘lar bag‘rida, lolalardan gilam to‘shalgan adirlar tepasida o‘tadi. Har gapga yangi kiyim kiyib borishlari shart. Oh-oh, ulfatchiliklari shunaqa

serzavq o'tadiki, bir-biridan lazzatli, tansiq taomlar, o'yin-kulgi, askiya, ashulachiyu o'yinchilar, noyob ichimliklarni aytmaysizmi, konyaklar suv bo'lib oqqanini ko'rganman. O'yijonimning ham baxtli, saodatli onlari ko'p bo'lgan...

Hammalari yig'ilib kelishibdi. Sakkiz ayol, mahalladagi sakkiz ustunning xotinlari. Yo'q, unchalik qo'rqmasak xam bo'larkan. Yolg'izlatib qo'yishmas. Har birining uyida qo'sha-qo'sha telefonlar. Telefonlar bir ishga tushsa bormi, ha, albatta, tushadi! Kelganlaring uchun rahmat, ming rahmat, opajonlarim. Karavotning to'g'risida gumbazdek bo'lib Qo'mondon xolam o'tiribdi. Erlari «shahar savdo markazi» direktori. Ikki yuzu saksonta tochkasi bor ekan. Dadamning aytishicha, har tochkadan ellik so'mdan olgandayam oyiga o'n to'rt mingni sanab olarkan. Qiziq, Sadir Badalovich shahar savdosining boshlig'i-yu, butun somsapazu kabobpazlar tasarruffida-yu, o'zini ko'rsangiz shunaqangi ozg'in, shunaqangi qotmaki, umrida ovqat yemaganmi deysiz. Xotinlari bo'lsa — gumbaz. Shunaqa semizki, jigulining eshigidan sig'maydi. Negadir bu xolamni ulfatdagilar Qo'mondon deb atashadi. Hayronman, askar boshlab jangga kirmagan bo'lsa, nega unaqa laqab qo'yishdi ekan? Qo'mondon xolam hindcha ko'ylak kiyib kelibdi. Bu hali shahar savdosiga chiqmagan bo'lsa kerak, chiqqanda kiyib kelmagan bo'lardi. Ayollar tez-tez ko'z tashlab qo'yishyapti.

Qo'mondon xolamning yonida, xo'sh, chap tomonlarida Inobat opam o'tiribdi. Qotmagina, xushro'ygina, yuzida kuldargichi bor. Qaragan sari qaraging kelaveradi. Eri Ziyod amakim univermagda direktor. Dadamning qalin o'rtog'i. Bu opamiz ham yangi, butunlay yangi «Shakar sepdi» ya'ni xuddi shakar sepilgandek zarlari yaltirab turadigan kuylak kiyib, o'shaning oltin rang tovlanishiga moslab taqinchoqlar taqibdi. O'zi shu opamiz chiroyli, haddan tashqari go'zal-da. Yaqinda juda qiziq bo'libdi. Sovchilar kelib qizi bilan o'zini ajratolmay, sizni kelin qilgani keldik, deyishibdi-ya. Ana kulgi-yu mana sizni kelin qilgani keldik, deyishibdi-ya. Ana kulgi-yu mana kulgi! Inobat opamning yonida Shahodat ammam o'tiribdi. U ham bir yangilik bilan kelibdi. Egnidagi zar bilan ipak aralash to'qilgan ko'ylagini o'tirganlar «zefir» deb ta'riflashyapti.

Ta'riflashyapti-yu yana ushlab-ushlab ham ko'rishyapti uni. Ushlab ko'rishganda nimani aniqlasharkin, hayronman. Lekin shu ko'ylak menga ma'qul bo'lmadi. Xayriyat, opamiz ko'ylak ostidan yana bir mato kiyib olgan ekan, bo'lmasa naq ichak-chavog'igacha bemalol ko'rinib turgan bo'lardi. Shahodat ammam ham kichkina ayollardan emas. Aeroportda kassir. Eri bo'lmasa ham, eri bordan ko'p topadi. Yozgi mavsumga bir zo'r bersam yetti yilga yetadi, deydi. Qanaqa qilib zo'r berarkin, bilmayman. Lekin o'zi juda dilbar, quvnoq ayol-da. Ulfatning guli. Ashula aytadi, o'yinga tushadi. Konyak to'la kumush qadahni kaftiga qo'yib she'r o'qiganda ulfatdagilarni sel qilib oqizib yuboradi. Shu ammam kelmasa, oyimning aytishicha, gap xuddi azaga o'xshab zerikarli o'tarkan.

— Shunday dilbar ayolni tashlab ketgan erkak ko'r bo'ladi,
— deyisharkan dugonalari.

Shahodat ammam bo'sh kelmay:

— Qo'ysalaring-chi, o'sha uyquchi erni boshimga uramanmi,
— derkan.

Bu gaplarni men oyijonimdan eshitganman.

Endi yana Qo'mondon xolamga qaytaylik. Egnidagiga e'tibor berishlarini istab, ko'ylaklarini pashshaxonadek baland ko'tarib, to'xtamay yelpinib o'tiribdilar. U kishining o'ng tomonlaridan o'ninchi bog'chaning mudirasi, yaqinda eri bilan uzil-kesil ajrashib olgan Xolisxon opam joy olgan. Oyijonimning aytishicha, uning oyiga bor-yo'g'i ming so'mga yaqin daromadi bor ekan. Shuning uchun ham uni ko'pam mensishmaydi. Orqasidan «Tilanchi» deb laqab qo'yishgan. Agar o'zi eshitib qolsa bormi, aytgan odamning naq tillarini sug'urib olardi-ya. Lekin shunday bo'lsa ham bugun Xolisxon opam hammasini dog'da qoldiradiganga o'xshaydi. Nega desangiz egnilarida fin ko'ylagi-yu, quloq va qo'llarida narxi yetti ming so'm turadigan taqinchoqlar, har birining ko'ziga yonib turgan brilliant qo'yilgan. Bekorga yetti ming so'm bo'ladimi axir. Opamiz sal gerdayibroq o'tiribdi-yu, lekin, umrida yangi ko'ylak ko'rmagan bola yangi kuylak kiyib ko'chaga chiqqanda uyalib, tortinib turgandek u kishi ham xuddi o'g'rilik narsalarni taqib kelgandek andek xijolat bo'lib

o'tiribdi. Ayniqsa, dugonalarining e'tibor bermayotganlari ilam qilayotgan bo'lsa kerak.

Agar men Qo'mondon xolaning o'rnida bo'lganimda:

— Voy, Xolisxon, ko'ylagingiz biram yarashiptiki, qayoqdan opa qoldingiz, xuddi quyib qo'ygandek-a! Uzuqlaringiz yonib uribdi. Bizga ham toptirib bersangiz-chi, — degan bo'lardim.

O'lay agar shunday degan bo'lardim. To'g'ri-da, bularga yetishishning o'zi bo'ptimi? Qanchadan-qancha bog'cha bolalarining rizqini qiyib, yulib-yulqish, oyijonimga o'xshab ishga borib-bormay yurganlar nomiga pul yozib olish, bog'chaga yangi joylashayotganlarning ota-onasidan qizarib-bo'zarib ulbul narsa undirish, tekshiruv bosib qolmasmikan, bitta-yarimtasi yuqori idoralarga arzi dod qilib bormasmikin, deb kechalari uxlay olmay alahsirash... Yo'q-yo'q, Xolisxon opamga oson bo'lmagan. Mashaqqatlarini o'zgina bo'lsa ham qadrlashmayapti-ya, beparvogina o'tirishlarini qarang! Go'yo garniturning bahosi yetti ming emas, yetti puldek. Yo'q, bu insofdan emas... Yoki men nohaq fikr yuritayotgandirman. Ehtimol bugun yangi kiyimlarini, yangi taqinchoqlarini ko'z-ko'zlagani, kim badavlatroq, kimning qo'li uzunroq ekanligini takror va takror aniqlagani emas, chindan ham oyijonimga hamdardlik bildirgani kelishgandir.

Avstriya, xitoy, seylon matolaridan ko'ylaklar kiygan boshqa opajonlar haqida, yaxshisi indamay qo'ya qolay. Ularni sizga keyinroq tanishtiraman. Albatta, tanishtiraman. Negaki, hammalari ham oyijonimning qadrdonlari... Oyijonim bechora halidan buyon telefon yonida o'tiribdi. Kimlarga yolvoryapti ekan? Eh, hozir, to'satdan bir mo'jiza yuz berib shahar prokurori bo'lib qolganimda edi!

— Odamlarda insof qolmayapti, — deyapti Qo'mondon xolam.

— Betga chopar bo'lib ketishyapti, — dedi boshqasi.

— Topganingni oshkor yeb, ko'z-ko'zlab kiyolmasang qanaqa zamonlarga qoldik-a, — deydi uchinchisi.

— Arizabozning ko'payganini...

— Tavba, duch kelgan odam nazoratchiman deb ko'kragiga uradi-ya.

— Bu hammasi ichi qoralikdan, dugonajon.

— Chaqimchining zamoni keldi o'zi...

Oralarida ana shunaqangi gaplar ham bo'lib turibdi. Lekin hadeb gap poylayverish ham odobdan emas, qiziq, aslida gap o'g'irlagar odamni yomon ko'raman-u, shu paytda, negadir, nari ketgim kelmayapti. Choylarini yangilab berdim. Lutfi xolam chuchvara tukkan ekan, un oshidan qolgan xamir isrof bo'lmasin, degan bo'lsa kerakda, yarim kosadan tarqatdik. Endi ketishsa kerak degan edim, qayda. Nazarimda chuchvara fikrlarini chuvalashtirib, har biriga yana ilhom ham bag'ishlaganga o'xshaydi. Gap qizib ketdi. Mavzu o'zgardi. Militsiya nishonga olindi. Xayriyat, aytishlaricha, ularning ko'pchiligi yaxshi odamlar ekan. Yo'lga yurarkan. Olganda, ham insof bilan olarkan. Lekin bittasi bor emish, Qo'mondon xolam uning ismini aytmayman dedi, hay-hay, dahshat emish. Na qochib qutulib bo'larmish, na qo'lga tushirib bo'larmish. Boyligingiz ko'payib ketganini sezsa, sezmay iloji ham yo'q ekan, maxsus odamlari kuzatib yurarkan. O'sha boyligi ko'payib ketgan odam ustidan maxsus odamlari qo'mondon xolam nomini sir tutayotgan militsioner amaki nomiga uzundan-uzoq ma'lumotnoma yozarkan. Ma'lumotnoma ro'yxatdan o'tmas ekanu ammo tergov shiddat bilan boshlanib ketarkan, boyib ketgan amaki dovdirab qolarkan. Qamalmaslik uchun bor narsasidan voz kechishga tayyor bo'larkan... Uyog'i esa yarash-yarash bo'larkan. Bir amaki boyib ketarkan, boshqasi ikki qo'lini burniga tiqib qolaverarkan.

Oziq-ovqat do'konining direktori shu ahvolga tushibdi.

— Dahshat-ku!— dedi Inobat opam.

— Nahotki qo'lga tushirisha olmasa? — deb so'radi boshqasi.

— Puli bor odamni qo'lga tushirish qiyin-da, o'rtoqjon, — degan javob qaytdi.

Yuragim shuv etib ketdi, ha-ha, xuddi shunday bo'ldi. Ketidan oyoq-qo'lim ham bo'shshib, behollana boshladim... Nahotki, biz ham o'sha tovlamachining tuzog'iga tushib qolgan bo'lsak, nahotki oyijonim bilan dadajonim jonlarini jabborga berib yiqqan boyligimizni shundayligicha topshirib o'sha

o'konning landovur direktoriga o'xshab ikki qo'limizni
urnimizga tiqib qolaversak?

Yo'q, olishish kerak, jon chiqquncha olishish kerak.

Muzdek suv ichdim. Tanimga rohat yugurgandek bo'ldi.
Ammo qo'rqinchli fikrlarim to'xtamayapti. Yana suv ichdim...
O'q, biz tovlamachining qo'liga tushmadik shekilli. Ikki tuman
nilitsiyasi tengdan shug'ullanyapti. Ishbilarmon tog'am aytdi-
ku, har ikki tuman ham bir-biridan mustaqil ish boshlagan deb...

Shisha ochib, opajonlarga xam muzdek-muzdek suv
ulashdim. Rahmat deyishdi. Yaxshi kelin buyursin, to'yingda
o'zimiz yor-yor aytamiz, degan gaplarni ham aytishdi.

— Shunday qilaylik, dugonajonlar, — Qo'mondon xola
gapini davom ettirdi, — Yoqutxonni ko'plashib qutqarishimiz
kerak, erini ham. Axir hammamiz bir odammiz-a. Bekorga ulfat
bo'ldikmi? Ko'pdan quyon qochib qutulmas, deydilar.
Birlashsak, bir ilojini toparmiz. Bordiyu Yoqutxonning ishi
judgacha borsa, xudoyo o'sha kundan o'zi asrasin, naq
hammamiz ham sharmanda bo'lamiz-a. Bo'ynimizdagi duru
barmog'imizdagi uzuklarni Yoqutxon olib bergan-a, buni
unutmaylik. Hammamizda ham ozmi-ko'pmi tanish-bilish bor.
Axir erlarimiz ham qarab turishmas. Saidjon akam ularga ham
qadrdon. Bir ulfatda gap o'ynashgan. Shunaqa bo'lsin,
erlarimizni ham ishga solaylik.

— Voy, opajon, mening erim yo'q-ku, — kulib hazil qildi
kassir ammam.

Qo'mondon xolam ham kuldi:

— Sen o'ynashingni ishga solasan.

Opajonlar bosinqi kulib olishdi...

Kassir ammam tizzalariga shapatilab-shapatilab kula
boshladi. Boshqalar ham qo'shildi. Ayvonda o'tirgan
qarindosh-urug'larimiz nima gap bo'ldi ekan deb bo'ynilarini
cho'zib qarashdi.

Kulgi ta'siridanmi yoki boshimizga tushgan tashvishni
bartaraf qilishga hammalari yeng shimarayotganlaridanmi,
qalbinga quvonch qo'yilgani, dilim yayraganini qis qildim.
Ammo shu zahotiyoq yuragimni qora vahima bosdi yana.
Ichkaridan eski aravachasini g'ijirlatib chiqib kelayotgan akam

opajonlar yonida to'xtab, xuddi yeb yuborgudek xo'mrayib, hammalariga birma-bir tikilib chiqdi-da, baland ovoz bilan:

— Tekinxo'rlar! — deb qo'ydi.

Opajonlar jinnimi bu degandek bir-birlariga qarab olishdi.

Akam aravachasini darvozaxona tomonga qarab haydadi.

To'xtab, orqasiga o'girildi-da, haligidan ham qattiqroq ovozdada:

— O'g'riboshilar! — deb qichqirdi yana.

Tovoningacha zirqirab ketdi.

X BOB

Akamning mahallamiz kazo-kazolarining suyuqli xotinlar bo'lmish shunday mo'tabar opajonlar sha'niga «o'g'riboshilar» deyishi odobdanmi, insofdanmi? Yana tag'in mushkulimizni oson qilishga yeng shimarib turgan bir paytlarida-ya!

Insofsiz!

Orqasidan borib yoqasidan olmoqchi edim. Shu payt ichkarida telefon bilan band bo'lib o'tirgan oyijonim chiqib:

— Hoy, Zafarjon, qayoqdasan? — deb chaqirib qoldi, — yerto'lada yashikda handalak bor. Yashigi bilan olib chiqib vodoprovod ostiga qo'ygin. Yangilik, mehmonlar xursand bo'lishadi.

Ishga ovunsam, akamga nisbatan qo'zg'algan g'azabim bosilar deb o'ylagandim. Bosilmadi. Qaytaga kuchaygandek bo'ldi, uni qaytarib kelib opajonlardan kechirim so'ratishim zarur. O'g'ri bo'lib ular birovning cho'ntagiga tushibdimi, ketmonini olib qochibdimi, hujjatga qo'l qo'ydirib pulini bermabdimi? Hammasi ham toparmon-tutarmon kishilarning ayoli. Yaxshi topgandan keyin yaxshi yashaydi, yaxshi kiyinadilar-da.

Ko'chaga yugurdim. Kech qolibman. Akam oilamiz bilan bir umr chiqisholmay kelayotgan Ataullo Isayevich bilan allaqachon topishib olibdi. Uning uyi ko'chaning narigi yuzida, qarang, uyi ham qarama-qarshi, o'zi ham. Shu muallim haqida sizga bir oz gapirib bersam maylimi? Yo'q desangiz, do'st kim, dushman kim, tushunolmay qolasiz. Ehtimol, bugungi baxtsizligimizga ham mana shu muallim sababchidir. Ilgari ham

boshimizga ko'p kulfatlar yog'dirgan. Bizni birinchi bo'lib «haromxo'r» degan ham mana shu ichi qora Ataullo Isayevich bo'ladi.

Yoshi ellik beshlarda. Muxbir bo'lib muxbirmas, usta bo'lib ustatas, muallim bo'lib muallimmas — hammasi chala. Qomati devnikidek, sergo'sht, yuzi-silliq, peshonasi do'ng, yurganda bir narsadan quruq qolayotgandek xalloslab yuradi. Shunaqa qattiq kuladiki, uyning shiftini ko'chirib yuboray deydi. Boshlang'ich sinfni o'qitadi, birdan to'rtgacha. Beshinchiga o'tkazib, yana orqasiga qaytaveradi. O'zidan kattalarni ham bolam deb chaqiradigan odati bor. Yozuvchi ham deyishadi. Lekin kitobini hech kim ko'rmagan. Dadamning aytishicha, biz ilgari shu odam bilan juda inoq ekanmiz. Hovlimizni qurayotganimizda hasharga chiqib, shimini tizzasigacha qaytarib olib, ha bo'l, ha bo'l, deyaverib usta-mardikorlarni naq o'ldirib qo'yayozgan ekan. Aytdim-ku, gavdasi devnikiga o'xshaydi deb, o'zi ham o'sha paytlarda devdek kuchli ekan-da. Dadam unga arzon bahoda yog'och, taxta topib berarkan. U ham uchastka qurayotgan ekan.

Bir kuni Ataullo muallim ko'chaga chiqsa, akam darvozaxonamiz yonida o'zi bilan o'zi shaxmat o'ynab o'tirgan emish. O'shanda akam endigina olti yoshga kirgan, dadam ishda, oyim qayoqkadir ketgan, yolg'iz o'zi zerikkan ekanmi, Lutfi xolam ostiga to'shak solib darvozaxona yoniga chiqarib qo'ygan ekan. O'tgan-ketganni ko'rib ovungin, degan bo'lsa kerak-da.

— Ha, mulla Akbar, nima qilyapsiz? — deb so'rabdi Ataullo muallim.

— Shaxmat o'ynayapman, — debdi akam boshini ko'tarmay.

— Kim bilan o'ynayapsiz?

— O'zim bilan o'zim.

— Adashib ketsangiz-chi?

— Adashmayman.

— Shaxmatni kimdan o'rgangansiz?

— Televizordan.

— Ha, darvoqe, shahmat darsi beriladi-ya! Bolalar bilan o'ynasangiz bo'lmaydimi?

— Unaqa bolalar yo'q-ku.

— Darvoqe, ko‘chamizda shunaqa bolalar yo‘q hisobi. Mulla Akbar, xo‘p desangiz, ikkovimiz bir partiya surishardik-da.

— Voy amaki, siz kattasiz-ku!

— Shahmat o‘ynayotganda kichkina bo‘lib qolaman.

— Voy, qanday qilib?

— Donalarni tiking, qanday bo‘lishini ko‘rsataman.

O‘yin boshlanibdi. Uch partiya davomida tortishuv bo‘libdi. Uchovida ham akam g‘olib chiqaveribdi. Ataullo muallim ataylab qolib bergan bo‘lishi ham mumkin. Kattalar kichiklarni rag‘batlantirish uchun ko‘pincha shunday ham qilishadi-ku, to‘g‘rimi? Lekin shunday bo‘lsa ham Ataullo muallim akamni ko‘tarib, peshonasidan o‘pibdi:

— Barakalla, sizdan ajoyib shaxmatchi chiqadiganga o‘xshaydi.

Voqea xuddi shunday bo‘lganmi, boshqacharoq kechganmi, aniq bilmayman. Men sizga eshitganimni aytyapman.

Boshqa bir kuni muallim akamni yana darvozaxonada ko‘rib qolibdi. Lutfi xolam to‘shab bergan palosda muk tushib kitobga tikilayotgan ekan.

— Salom, — debdi muallim. — Nima qilyapsiz?

— Salom, — debdi akam. — Kitob o‘qiyapman.

— Kitob o‘qiyapman?!

— Ha.

— Hali o‘qishga borganingiz yo‘q-ku?

— Bormasam ham o‘qiyveraman.

— O‘qishni kim o‘rgatdi sizga?

— Lutfi xolam.

— Qani, bir o‘qing-chi.

Suhbat xuddi mana shu yerga yetganda ikkilanibroq turgan muallim akamning qo‘lidagi kir «Alifbe»ni olib oxirroq‘idan bir sahifa ochgan. Akam «Yorug‘ darsxona» sarlavhali maqolani sharillatib o‘qib bergan, yana ochgan, yana o‘qigan. Yana, yana, yana...

Muallim akamni dast ko‘tarib, bag‘riga bosib nogiron oyoqlarini salanglatgancha hovlimizga olib kirgan. Dadajonim dushda yuvinib chiqib, uyoq-buyog‘ini paxmoq sochiq bilan artib turgan ekan:

— Tinchlikmi? — deb so‘ragan dadam.

— Mana bu o‘g‘lingiz balo-ku, — degan muallim qalbidagi zavqu iftixorini mana shu «balo-ku» degan so‘zga joylab.

— Nima qipti? — degan dadam bo‘ynini arta turib.

— Nega buni o‘qishga bermaysiz?

— Hali yoshi yetganicha yo‘q.

— Kitobni sharillatib o‘qiyapti buningiz.

— Lutfixon o‘rgatgandir-da.

— Bolada qobiliyat kuchli. Yigirma yil muallimlik qilib bunaqasini hali uchratmaganman. To‘g‘ri, maktabga borolmaydi. Lekin Saidjon bolam, ruxsat bersangiz, Akbar bolamni o‘zim o‘qitaman. Uyingizga chiqib, uyimga olib kirib ketib tarbiyalayman. Xo‘p deng. Bunaqa bolani darvozaxona oldiga yotqizib qo‘yib bo‘lmaydi. Buyuk odam chiqadiganga o‘xshaydi bu nogiron o‘g‘lingizdan. Anovi kuni shaxmatda bopladi buningiz, endi o‘qishini ko‘rib hayratda qolib o‘tiribman.

— Qani endi shunday qilsangiz, — degan dadam xursand bo‘lib, — biz ham sizni quruq qo‘ymasdik. Mehnatingizni qadrlardik Oyisi, qayerdasan, sho‘rvangni quy, yarimta konyak och. Ataullo Isayevich ishchan o‘g‘limizni o‘qitmoqchi. Muallim bilan bir otamlashaylik. Muk tushib har xil kitoblarga tiqilib yotardi, obbo Akbarjon-ey, o‘shanda «alifbe»ni o‘qiyotgan ekansan-da?

— «Alifbe»ni allaqachon tugatib qo‘yibdi bu azamat o‘g‘lingiz. — degan yana Ataullo muallim. Dadam ko‘ksini to‘ldirib xoxolab kulgan:

— Ataullo Isayevich, bo‘lmasa bugun ikkovimiz «Alifbe bayrami»ni o‘tkazamiz.

Konyak ichishgan, shunaqa ko‘p ichishgan ekanki, gazagi ham shunaqa mo‘l bo‘lgan ekanki, oxiri Ataullo muallim mast bo‘lib qolib, durildoq ovoz bilan hovlini boshiga ko‘tarib ashula aytgan ekan.

Aynan shunday bo‘lganmi yoki boshqacharoq bo‘lganmi, bilmayman. Men takror aytaman, eshitganimni aytyapman. U paytlarda men yosh edim-da, suhbatlarga ko‘pam ishtirok etmasdim. Uch g‘ildirakli velosipedimni choptirib ko‘chadan

beri kelmasdim. Keyin Ataullo muallim akamni to'rtinchi sinfni bitirguncha uyda o'qitgan, goho yelkasiga mindirib uyiga olib kirib ketar, yelkasiga opichlab shaharda o'tgan shaxmat musobaqalariga olib borar ekan.

Akam Ataullo muallimning yelkasiga minib katta bo'lgan ekan.

Muallim butun oilasi bilan yog'ochdan bezakli gultuvak qilib sotardi. Shu hunarni akamga ham o'rgatibdi. Mahalladagi bir xil odamlar akamni muallimning o'g'limi, deb ham yurarkan. Mana shu narsa dadamga yoqmaydi. Izzat-nafsiga tegadi. Hatto oyijonim ham tashvishga tushib qoladi.

— Akbarjon, shirin o'g'lim, ayt-chi, nega hadeb Ataullo muallimnikiga chopaverasan? — yotig'i bilan so'raydi dadam.

— Chiqqim keladi-da, — deydi akam. — Ular kitobni ko'p o'qiydi-da.

— Biz-chi, biz o'qimaymizmi, o'g'lim? Biz ham o'qiyimiz, lekin yolg'on-yashiqlar bitilgan bemaza kitoblarni emas, turmush kitobini o'qiyimiz. Xo'sh, yana nima uchun chiqqing keladi?

— Ular har kuni bahsli suhbatlar qilishadi.

— Qanaqa suhbat?

— Rostgo'ylik, halollik, birovning haqini yemaslik to'g'risida-da. Ularnikiga chiqsam negadir yayrab ketaman. Majruhligimni ham unutaman. Keyin, dada, ular negadir quvnoqroq.

— Biz-chi?

— Biz nuqul uf tortamiz. Keyin, dada, ochiq aytganimga xafa bo'lmang, ularning noni halol.

— Bizniki-chi?

— Bizniki... harom bo'lsa kerak...

— Kim aytdi bu bema'ni gapni senga? Hamma aytyapti.

— Ataullo muallimnikiga kirib ilm o'rganyapti deb yursam, sen, o'g'lim, oilamizga qarshi bo'lgan fitnaga qo'shilib yurgan ekansan-da. Esi yo'q! Tamom, bugundan boshlab unikiga qadam bosmaysan. Sen o'sha isqirt, ovqatiga pul yetkazolmay yurgan gadoyvachchanning o'g'li bo'lib qolibsən, tamom, endi aloqani uzasan, chiqmaysan.

— Chiqaveraman!

— Boshqa fitnachi pastkashni bu uyga ham kiritmayman endi. Seni butunlay tamom qilibdi u. Bolani otaga qarshi qilib qo'yibdi.

— Ataullo muallimni bu yerga chiqarmasangiz, unda, dadajon, ularnikiga butunlay ko'chib o'taman.

— O'sha tuvakfurushnikiga-ya?!

— Dadajon, siz qizishmang. Endi men ham yosh bola emasman. Yaxshi bilan yomonni ajrata olaman. Ular tuvakfurush emas. Go'zallik tarqatuvchilar, to'g'ri, kechalari shirin uyqusidan kechib, o'g'li, qizi, kelinoyim hammalari qipiqqa ko'milib, yog'ochdan tuvak yasab arzon-garovga sotishadi, goho tekinga ham berishadi. Sinfdagi hamma o'quvchilarning tug'ilgan kunida, gul o'stirgin, diling ravshan bo'ladi, deb ularga ham gul tuvaklar sovg'a qilgan. Dadajon, gul go'zallik, poklik ramzi. Ataullo muallim butun shaharni go'zallikka burkamoqda. O'g'illariga ham shunday deydi. Muallimim halol, pokiza odam. Endi usiz yashay olmayman. Meni ajratmang undan. Bo'lmasa, butunlay ketaman.

— Qayoqqa ketasan?

— Cho'loqlar uyiga.

— Meni sharmanda qilib-a? Yo'q, Akbarjon, chuchvarani xom sanabsan. Dadangning gapini ikki qiladigan odam hali tug'ilmagan. Bas, bugundan boshlab aloqang uzildi.

Dadajonim bilan majruh akam o'rtalaridagi dili-siyohlik shu bilan tugadimi yoki o'sha kecha tong otguncha davom etdimi, bunisi menga qorong'u. Hatto o'sha kungi dahanaki jang aynan men sizga bayon qilgan tarzda bordimi — buni ham tasdiqlab berolmayman. Harqalay shunday bo'lgandir deb o'ylaymanga.

Sal kun o'tgach Ataullo muallim bilan dadajonim o'rtasida chinakam jang boshlanadi. Dadam bir so'zli kishi. Yomonlik qilganni jazosiz qoldirmaydi, qanchadan qanchasining ta'zirini berib qo'ygan. Akamni bizga begona qilib tarbiyalayotgani yaxshi emas-da, axir. Buni kechirib bo'ladimi? Kim o'z farzandini birovga berib qo'yarkan... Ataullo muallim uyini gazlashtirayotgan ekan, suv qaynatadigan qozon so'rab uning oldiga boribdi.

— Unaqa qozon yo‘q, — debdi dadam.

— Hovlida qalashib yotibdi-ku? — debdi Ataullo muallim.

— Ular puli ko‘pga sotiladi.

— Bizda ham pul bor, qo‘shni.

— Ishtoningning yamog‘iga pul topolmaysan-ku, «AGV»ni kim qo‘yibdi senga, — baqirib beribdi dadam!

— Hazillashishni yaxshi ko‘rasiz-da, Saidjon. Xo‘sh qancha turadi o‘sha apparat?

Aytdim-ku dadajonim yomon ko‘rib qolgan kishisini qattiq jazolaydi deb. Kambag‘alni urma, so‘kma, kiyimini yechib ol, qabilida ish tutib cho‘ntagini qoqlab qo‘ya qoladi.

— Ikki yuzu ellik so‘m, — deydi dadam yuzini teskari o‘girib.

— Bor-yo‘g‘i shumi, — deydi Ataullo muallim cho‘ntagini kavlab.

Kunduzi oralarida taxminan ana shunday suhbatu, ana shunday oldi-sotti ham bo‘libdi. Muallim «AGV»ni keltirishi bilan gazchi, xo‘sh, qanchaga oldingiz, deb so‘raydi. Shunchaga oldim, deydi muallim. Gazchi yo‘g‘-e, bu zormandaning bahosi bor-yo‘g‘i yuz yigirma so‘m turadi, ana, yozuvini ko‘ring, deydi. Muallim, bunday bo‘lishi mumkin emas, qo‘shnim yaxshi odam, deydi. Engashib qarasa, narxi chindan ham gazchi aytganidek o‘yib yozilgan emish. Agar dadam ertalab to‘nini teskari kiygan bo‘lsa, peshin vaqtida muallim ham to‘nini teskari kiyadi. Ikkita teskari to‘n kiygan qo‘shnilar kechqurun to‘qnashishadi va chinakam portlash yuz beradi.

— Bu nima qilganingiz? — qaltirab so‘raydi muallim.

— Sening jazoiing shu, — deydi dadam senlab.

— Qaysi aybim uchun jazolaysiz meni?

— Akbarni tarbiyalayman deb menga qarshi qilib qo‘yding, majruh o‘g‘lim bizga begona bo‘lib qoldi.

— O‘g‘lingizni men yomon yo‘lga boshlabmanmi, halol bo‘lgin, vijdonli bo‘lgin, birovning haqini yeyishga o‘rganmagin desam buning mimasi yomon?

— Yo‘qol, bitliqi!

— Kim bitliqi?

— He, o‘rgildim o‘sha sendaqa tuvakfurushdan. O‘g‘limni nobud qilding!

— Haqorat qilyapsiz meni.

— Qilganimda qo'lingdan nima kelardi, yo'qol deyaipman. Bor, qo'lingdan kelsa osmonni tashlab yubor.

O'sha kechasi Ataullo muallim teskari to'nini yechmaydi. Dadamning ustidan ming xil tuhmatni to'qib yuqori tashkilotga shikoyat yozadi. Xayriyat, tekshiruvda tasdiqlanmaydi. Yana yozadi, yana tasdiqlanmaydi. Uchinchi bor yozganda, dadamning militsiyada o'rtoqlari ko'p emasmi, o'shalardan bittasini ishga solib muallimni tuhmatchi sifatida bir yarim yilga qamatib yuboradi. Battar bo'lsin, dedik biz. Nega desangiz, bir yil davomida hech birimizga tinchlik bermovdi-da. Hatto, ishonsangiz, sudya Sulton amakim, shahar savdo markazi raisi Sadir Badalovichlar ham xursand bo'lishibdi. Ilgari o'shalarining ustidan ham yozib rosa enka-tinkasini chiqargan ekan.

— Lekin Saidjon, yozuvchini rosa bopladig-da, deyishibdi o'rtoqlari.

— O'shaning dastidan ko'chaga ham chiqolmay qoluvdik,— debdi yana bittasi.

Shu bilan uyimizdagi dilsiyohlik tugar, yeganimiz ichimizga tushar, deb o'ylagandik. Yo'q, bo'lmadi, aksincha kuchayib ketdi. Majruh akam uydan qochib ketadigan odat chiqardi. Bir qochdi, ushlab keldik. Ikki qochdi, tutib keldik. Dadam nohaq, vijdonli odamni nohaq qamatdi, puli ko'pligi uchun zo'rlik qildi, o'zimni o'ldiraman, emish. Gapni qarang. Uyimiz motamga to'ldi. Majruh desak, jinni ham ekan u. Hech yo'lga solib bo'lmadi, yana qochdi! Axtarmagan joyimiz, ishga solmagan tanish militsiya xodimlarimiz qolmadi. Elu yurtning nadomatini aytmaysizmi?! Bu yurtda kim ko'p desangiz, og'ziga kuchi yetmagan ko'p ekan. Gap-so'zlar hammamizni ezib tashladi. Oyim, bolaginam, deya yig'lagan, singlim, akajon, deya bo'zlagan, ayiqpolvon Zufarni aytmaysizmi, dadamga musht o'qtaldi-ya, nonko'r! Uch kun deganda yana daragi chiqdi. Qabristonda ekan, go'rkov ko'rib qolibdi. Ochiq go'rga aravasi bilan tushib olgan emish. Qachon bordi, qanday qilib bordi, bilib bo'lmaydi. O'lmabdi, lekin o'lgandan battar. Hushi kirarli, chiqarli, ko'zi qotib qolgan, til yo'q, har zamonda o'sha mungli ko'zlaridan miltillab yosh oqadi deng.

Dadam taslim bo'ldi. Muallimni qamoqdan chiqarib olishga so'z berdi. Bilasiz-ku, dadajonim bir so'zli odam. Aytganini albatta bajaradi. Yana tanish bilishlar. Bechoralar, ularga ham qiyin. Biriga pat gilam, boshqasiga «Zil» xolodilnigi kerak ekan. Prokuror ham darrov ko'nibdi. «Bitta kajavali mototsikl sovg'a qilsin, aytgan odamini qayta sud qildirib, shartliga chiqarib yuboraman», debdi.

«Xayriyat, — debdi dadam, — men jiguli so'rarmikan, deb qo'rquvdim».

Ataullo muallim qamoqdan chiqib keldi.

X I B O B

Ataullo Isayevich, baribir, olti oygacha muallimlikka qo'yilmadi. Xotining yonida qo'g'irchoq fabrikasida ishlab yurdi. Battar bo'lsin, nega akamni yo'ldan uradi, nega ahil oilamizga rahna soladi. Muallim bo'lsa o'ziga, unaqalar shaharda qalashib yotibdi... Lekin akam o'zgarmadi. Majruhligi, ojiizligidan foydalanmoqchi-da! Endi, harom deb, uch kunlab ovqat yemaydigan, gultuvak yasab magazinning oldiga olib chiqib sotadigan odat chiqardi. Peshonasini terlatib, halol yashamoqchi emishlar. Obro'yimiz ikki pul bo'ldi. Dadajonim yonib ketdi, oyim yig'ladi.

Bir kun, hali-hali esimda, kech payt, qorong'i ham tushib qolgan edi. Akamning xonasida televizor ko'rib o'tirgandik, o'zi kitob o'qib yotuvdi. Dadam gursillatib qadam tashlab kirib keldi. Mast, oyoqda turolmaydigan darajada mast. Ehtimol, bazada bitta-yarimtasining tug'ilgan kunini nishonlashgandir. Lekin, ko'p ichibdi. Yonimdan o'ta turib boshimni siladida akamning tepasiga borib peshonasidan o'pdi:

— Nima o'qiyapsan?

— Qissa, — dedi akam negadir xijolatnamo bir ohangda.

— O'rischami? Nima to'g'risida ekan?

— Vijdon azobi to'g'risida.

— Yana piching qilyapsanmi?

— Yo'q, dadajon, haqiqatan ham vijdon azobi. Konovalov degan bir yigit akasining ustidan prokurorga arz qilgandi. Arz

qilishga qilib qo'yib, ish kattalashib ketgach, endi uni qutqarmoqchi bo'lyapti. Akasini qutqara olmadi, qamalib ketdi. Endi vijdon azobiga tushib qoldi. Eh-he, shunaqa qiynalyapti-ki... O'zini o'ldirmoqchi bo'lib turuvdi... O'qib beraymi?

— Bunaqa kitoblarni o'qimagin degandim-ku.

— Boshqasidan qanoat hosil qilmasam-chi?

— Qo'y bunaqa gaplaringni, o'g'lim. Yosh bola emassan, endi hayotga ko'zingni kattaroq ochib qaraydigan payting keldi. Yaxshisi... yaxshisi, kechir meni, jindek ichuvidim... Ochig'i, sen bilan gaplashay deb ichdim. Dadilroq bo'lib olib orani ochiq qilib olaylik, dedim-da, o'g'lim.

O'zingizga aytuvidim, gap poylashni yomon ko'raman-u, lekin baribir eshitgim kelaveradi. Hozir ham shunday bo'ldi. O'rnimdan qo'zg'algim kelmeyapti... Televizorni berilib tomosha qilayotgandek o'tiraverdim... Ektranda ikki otliq, ikki raqib, qo'llarida yalang'och qilich, bir-birlarini quvlayapti. Bu yerda esa qizg'in suhbat, ko'zim ektranda-yu, qulog'im suhbatda.

— Bunaqa bemaza kitoblarni o'qib vaqt o'tkazguncha institutga kirishga tayyorgarlik ko'rsang bo'lardi, o'g'lim. Mana, o'nni yaxshi bitirding. Muallimlar xursand, o'g'lingizda iste'dod zo'r, katta olim chiqadi, deyishyapti. Hech bo'lmasa rasm chizsang ham mayli edi. Rasmdan ham naf ko'p deyishyapti. Menga chizib bergan rasmingni idoramga osib qo'rganman. Kirganniyam, chiqqanniyam ko'zi o'shanda, o'g'limning ishi desam, ishonishmaydi. Buni katta rassomlar chizgan deyishyapti.

— Endi o'qimayman ham, rasm ham chizmayman. Ishlayman.

— Qayerda senga bop ish qarab turgan ekan?

— Qo'g'irchoq fabrikasida, buyoqchi kerak ekan.

— Nima?!

— Qo'rqmang, dada. Uyda o'tirib ishlayman. Shartnoma tuzsa bo'larkan. Qo'g'irchoqlarni o'zlari bu yerga keltirib berishadi...

Buyoqda dadam bilan akamning suhbatini qizib boryapti — eshitgim keladi. Uyoqda kino tomoshasi ham avjga chiqdi — ko'rgim keladi, o'ziyam chet el filmida. Amakivachchalar meros

talashishyapti. Qochib borayotgan oq otlisi yosh, akam tengi. Quvib borayotgan ko'k otlisi o'ttiz besh yoshlarda. Bobomizdan qolgan xazina qayerga ko'milgan, deydi. Yoshi — qaysar, boylik meniki, deydi... Dahshat, dahshat! Oq ot qoqilib ketdi. Yigitcha uchib tushdi... Yana qilichbozlik boshlandi...

— O'g'lim, — deyapti dadam boshini chayqab, — yurak bag'rim ezilib ketyapti. Nega biz bunday bo'lib qoldik, nega meni yomon ko'rasan, nega?

— Bazadan keting.

— Menga o'xshagan savodsiz odamga ish topish oson bo'ptimi, o'g'lim?

— Diplomingiz bor-ku!

— Sotib olganman uni.

— Egasiga qaytarib bering. Dadajon, men sizni joni dilimdan yaxshi ko'raman, oyijonimni ham. Qo'rqaman bugun-erta sizlarni qamab qo'yishadi deb. Kechalari uyqum qochib ketadi. Sizlarni qamab qo'yishsa, bizning ahvolimiz nima kechadi, tirik yetimlarning holidan kim xabar oladi? To'g'ri, men ko'p o'qidim, shahrimizdagi kitobning yarmini o'qib tushirdim hisob. Dadajon, miyamga, faqat, miyamga emas, butun ruhimga bir tushuncha o'rnashib qolgan. Siz pora olasiz — bu aniq. Oyijonim oltinfurushlik qiladi. Bu — jinoyat! Ehtimol men xato qilayotgandirman, ruhiy kasalga chalingandirman. Axir dadajonim, ota-onang jinoyatchi degan fikr tunu kun menga tinchlik bermasa nima qilay, ayting, nima qilay? Poklikka nima yetsin, halolikka nima yetsin?! Ertayu kech meni qiynagan narsa ana shular... Dadajon, mayli, roziman, meni yo cho'loqlar uyiga yoki jinnixonaga eltib tashlang. Chindan ham kasaldirman... Nega unaqaman, dadajon. Nega ukalarimga o'xshab o'ynab-kulib yashay olmayman, boyligingiz bilan faxrlanib, ko'kragimni kerib yurolmayman? Yeganim zahar, kiyganim kafan bo'lib tuyulaveradi. Bilaman, sizni ham, oyimni ham qiynab yubordim.

— Seni kitob buzdi, o'g'lim. Ataullo muallim yo'ldan urib qo'ydi.

— Dadajon, Ataullo Isayevich pok inson. Men hammaning o'sha kishiday bo'lishini istayman, sizni ham, oyimni ham.

— Mayli, o'g'lim, yig'lama. Mening ham yig'lagim kelyapti. O'zi odatim shunaqa, ichsam yig'layman. Yetimligim esimga tushib ketadi, xoru zor bo'lgan kezlarimni eslab qolaman.

Dadajonim, ishonsangiz, chinakamiga yig'lab yubordi. O'zi aytganidek xo'rlangan kunlarini eslayaptimi, qaysar akamga uchinyaptimi: bilmayman, yig'layapti. Boshini chayqab-chayqab yig'layapti. Buyoqda qilichbozlik ham avjiga chiqib ketdi. Yopiray, odam bolasi o'lim talvasasida, hayot uchun olishganda, xazinaning taqdiri hal bo'layotganda shunaqangi yovuzlashib ketadimi-a? Amakivachchalar-a, bir boboning nabiralari-ya! Yoshrog'i charchab qoldi bechora, zarbni arang qaytaryapti. Entikiyapti, vujudidan sharros ter quyilyapti.

— Xazina qayerda? — do'q bilan so'rayapti kattasi.

— Sen vijdotsizsan, — deyapti holsizlanib qolgan yigitcha.

— O'liming yaqin qoldi, ayt!

— O'lsam bir vijdotsizni boylikdan mahrum qilib o'ch olgan bo'laman. O'ch, qasos, shirin tuyg'u. Undan lazzatlanaman. Sen bir umr gadoy bo'lib yashaysan...

Dadam karavot yoniga, shundoqqina polga cho'k tushib, qo'lini akamning boshi ostidan beozorgina o'tkazdi-da, quchoqlab oldi. Yelkasi uchuyapti, demak yig'isi hali bosilmapti. Mayli, yig'lasin, ilgari ham mana shunaqa ichib kelgan paytlarida ko'p yig'lardi. Meni, goho ukam Zufarni ham bag'riga bosib yig'lagan, to'yib-to'yib yig'lagan. O'g'lim, Zafarim, zafarli ishlarimning davomchisi, hamma umidim o'zingdan. Akang, baribir odam bo'lmaydi. Nimaiki topgan bo'lsam, xudo xohlasa, hammasiga o'zing ega bo'lasan. Mayli, prokuror bo'l, mayli savdo xodimi bo'l, faqat davomchim bo'lsang bas, deb yuzu ko'zlarimdan ko'p o'pardim. Nimadandir qalbim g'ururga to'lib borayotganini his qilib turardim. Hatto, ishonsangiz, bir marta, dadam to'satdan o'lib qolsa bu boyliklarni qanday boshqarar ekanman, deb ham o'ylaganman. O'ylaganmanu qo'rqib ketganman...

Dadam yig'layapti, yelkasi silkinib-silkinib yig'layapti.

— Mayli, Akbarjon, bugun senga bir dardimni aytib yuragimni bo'shatib olay, — deyapti, — sen o'g'lim bo'laturib meni molu dunyoga o'chlikda ayblayapsan. Aslida bolaning

otaga shunday deyishi odobdan emas. Lekin nachora, aslida ham shundayman. Pul topishni, pulni pulga urishtirishni yaxshi ko'raman. Kitob sening joning, pul mening jonim, hayotimning mazmuni. Nima qilay, shunga o'rganib qolganman. Mayli, hammasini aytaman, senga aytib yuragimni yozib olay deb bugun ataylab ichib keldim... Bir mahallar men ham senga o'xshab kitobga o'chroq edim. Sendagi shu fazilat mendan o'tgan bo'lsa ham ajab emas. Otam o'ldi, onam ham ertaroq olamdan ko'z yumdi. Eshityapsanmi, ko'z yumdi deyapman. Qishloqqa borgansan, otamdan qolgan uyni ham ko'rgansan. O'sha hovlida ikkita amrang bilan uchovimiz huvillab qoldik. Ilmga tashna edim. Tirikchilik, ro'zg'orni boshqarish, kolxoz ishi, maktab... qiynalardim, qiynalsam ham qattiq o'qirdim. Ammalaringdan biri, xuddi rahmatli onamga o'xshardi, fojiali o'ldi. Eshityapsanmi, fojiali o'ldi deyapman. Ikkovimiz poda boqardik, ho'kiz suzib qornini yorib qo'ydi uning... Eh, o'g'lim! Lekin Bibiqiz amrang ko'p mehribon, aqlli edi. Akajon, mayli, siz o'qing, odam bo'lsangiz bizga ham nafingiz tegar, dedi.

Akbarjon, yaramni chakki tirnading. Mana endi o'zimni to'xtatolmay qoldim. It azobida kechgan kunlarimni eslatib qo'yding... Qishlog'imizdan uch bola o'qishga otlantik. Oramizda ancha-muncha ilmi bori men edim. Axir ular bilan birga o'qiganman, nimaga yarashini bilardim-da. Yo'q, ular o'tdi, men qolib ketdim. Bittasi, hozir ham uyimizga kelib yuradigan Shokir amaking, qishda ham bolalarini olib keldiku, o'sha qulog'ing qani desa, burnini ko'rsatardi. Dadasi fermada mudir edi, boy, puli ko'p, besh mingga gaplashib ketgan ekan. Men galvars bo'lsam rektorga kirib janjal qilib yuribman. Ikkinchi sherigimiz kela solib to'ppa-to'g'ri bir do'stining uyiga tushgandi. Uning niyati oson ko'chdi. Eng yomoni ikkala o'rtog'im ham pul bilan o'tganini mendan yashirishmasdi. Hatto maqtanishardi ham. Alam qildi, yig'ladim. Lekin qishloqqa qaytmadim, o'qishga kirmaguncha bormayman deb ahd yuk tushirib bersang, uch so'm to'lashadi. Sakkiz, o'n tonnalab yuk tushirgan kunlarim bo'lardi, bellarim qayishib, yelkalarim shilini ketardi...

Ey, o'g'ilginam, meni noqaq ayblayapsan. To'g'ri, pulga o'chman. Lekin besabab emas... Yanagi yil o'sha institutga yana ruyjat topshirdim. Zootexnik bo'lmoqchi edim. Bolalikdan tayvonga ishqim tushgan. Molsiz, yashay olmayman, deb o'ylardim. Birinchi imtihon arafasida bir o'ringa sakkiz kishi bo'lganini eshitib qoldim. Buyoqda puldorlar, amaldorlar yengib chiqarib ishga tushib ketishgan. Demak, yana bilim xoru pul bozorida bo'ladi. Ozgina jamg'armam bor edi. Oq lattaga tugib naykamning ostidan qorninga bog'lab yurardim. Ish bitiradigan korchalon bir yigitning uyiga bordik. Shokir o'rtog'im boshlab bordi. O'tgan yili shu yigit orqali ish bitirgan ekan. Korchalon yoshgina, mendan uch-turt yosh katta xolos. Lekin burganing ko'zini ko'rganga o'xshaydi. Ko'zlari chaqnaq, yelkalari uchib turibdi. Dardimni aytgan edim, besh barmog'ini keng yozib ko'rsatdi:

— Besh mingmi? — kapalagim uchib so'radim.

— Shunday, — korchalon ko'zlaridan o't chaqnaq dedi.

— Meniki, juda oz-ku, — deb rahmi kelarmikan degan umidda ataylab yig'lamsirab gapirdim. Ahmoq bo'lmasam otanamning o'lib ketganini ham gapirib beramanmi.

Korchalon yana besh barmog'ini yozib ko'zimga yaqin keltirdi:

— Beshta deyapman!

Tamom, endi o'z kuchimga ishonishdan o'zga iloj yo'q, baribir, yana bo'lmadi. Eshityapsanmi, Akbarjon, bo'lmadi deyapman. Mudrama, o'g'lim, bu gaplarni sen uchun aytyapman, To'xta, boshingni sal ko'tar, qo'lim tolib ketdi. Ozgina suvingdan ham ichib olay, yuragim yonib ketyapti.

Dadajonim o'rnidan turib idishga mineral suv quya boshladi. Kayfi hali tarqamaganga o'xshaydi. Qo'li qaltirab shisha bilan stakanni bir-biriga yaqinlashtirmayapti. Bir xayolim yordamlashib yuboray ham dedim-u kinoni ko'zim qiymadi. Negadir, yosh qilichboz yigitga astoydil achinyapman. Bechoraning hayoti qil ustida qoldi. O'zi shunaqangi yoqimtoyki, kiyimlari ham o'ziga shunaqangi yarashib turibdiki, qani endi shunaqangi akam bo'lsaydi, degim kelyapti. Ana, ochko'z amakisi surib borib qoyaga qisib qo'ydi uni, chekinib

bo'lmaydi endi. Biron tasodif bo'lmasa qutulishning ham iloji yo'q.

— Xazina qayerda?

— Aytmayman.

— Oxirgi marta so'rayapman.

— Sen gadoy bo'lib yashashga loyiqsan!

— Ayt!..

— Shunaqa gaplar, o'g'lim, — to'yib suv ichib olib davom etyapti dadajonim,— matematikadan yiqitishdi. Esizgina, uchinchi imtihon edi-ya... Yo'q, deyman o'zimga o'zim, institutga kirmaguncha qo'ymayman. Pul bo'lsa pul-da, topaman unil! «Xo'jalik mollari» bazasiga ishchi bo'lib kirib oldim. Unchamuncha chayqov bilan shug'ullanishni o'rgatishdi. Chayqovchining ham ustoz, suyanchig'i bo'larkan, o'g'lim. Omborchimiz Sadir Badalovich rahnamolik qildi, yo'l-yo'riq o'rgatdi... Qo'lga tushib qoldim. Uch so'mlik termosni olti so'mga pullayotganimda. Militsiya xodimi pixini yorgan odam ekan. Ertalabgacha ikki ming topib kelsang protokolni yirtib tashlayman, bo'lmasa uch yilga ketasan, dedi. Boradigan joyim, yordam so'raydigan kimsam yo'q. Sadir Badalovichning oyog'iga yiqildim. Yolvordim. Ustoz, o'la- o'lguncha xizmatigizda bo'lay, dedim. Ming so'm foydasi-yu, uch oyda qaytarish sharti bilan nihoyat, so'raganimni berdi. Sal kun o'tmay yana bir tuzoqda ilindim. Ustozim, o'rinbosarim boshqa ishga o'tyapti, o'rniga seni olaman, pul menga emas, palonchiga, bo'lmasa tasdiqdan o'tkazmaydi bir amallab uch ming top, deb qoldi. Yolg'onligini bilib turibman, qaltirayman. Lekin qanday bo'lsa ham o'sha vazifaga o'tgum bor. O'tsam oyoqqa turib olaman. O'zidan yana uch ming qarz ko'tarib o'sha zahotiyoyq yana o'ziga qaytardim. Qarzim olti ming bo'ldi, eshityapsanmi, o'g'lim, olti ming deyapman.

Bir kechada o'zgarib ketdim. Institut pulga, jinoyatni yopish pulga, vazifaga o'tirish pulga, pul, pul, pul... hammayoqda ish faqat pul bilan bitarkan-da... O'sha kechasi qalbinga ham, ongimga ham pulning surati qattiq muhrlanib qolgandek bo'ldi. Tomirlarim ham pul, pul, deb tepayotgandek edi...

Dadam o'rnidan turib, boshini silkitganicha, chayqala-chayqala hovliga chiqib ketdi. Men, xayriyat, kinoning qolgan

qismini xayolimni bo'lmisdan tomosha qilarkanman, deb turgan edim, Yo'q, dadajonim tezgina orqasiga qaytdi. Qo'lida bir shisha konyak. Yo'l-yo'lakay tishi bilan tiqinini chiqarib kelyapti. Yana ichsa kerak. Ichsa ichar. Ichsa, mana shunaqa shiringina bo'lib qoladi.

Ektranda dahshat yuz berdi. Amakivachchasi yigitchaning ko'ksiga qilichning uchini sanchdi, qattiq sanchdi.

— Ablah! — qichqirib o'rnimdan turib ketdim.

Xayriyat, dadam ham, hushini yo'qotib qo'ygandek yoki ko'zi ochiq uxlayotgandek jimgina o'tirgan akam ham menga e'tibor berishmadi.

Dadam piyolani to'ldirib konyak quydi.

Yaralangan yigitcha qon oqayotgan ko'ksini changallab.

— Sen ochko'z eding, — deya shivirlay boshladi, ochko'zlar niyatiga yetmasligi kerak. Endi gadoy bo'lib yashaysan.

Yigitchaning boshi shilq etib yerga tushdi, jon berdi shekilli.

O'rnimdan turib ketdim, suv quyib ichdim. Dadajonim akamni tizzasiga olib, bag'riga mahkam, bosgancha boshini silay-silay:

— Mana, o'ttiz yil bo'ldiki, — deya xuddi nafasi qisayotgandek to'xtab-to'xtab so'zlayapti, bazadan-bazaga, magazindan-magazinga o'taman, hammasiga pul kerak. Necha martalab ishim melisaga tushdi. O'z jinoyatimni necha martalab sotib oldim. Bizning dunyomiz o'zi shunaqa. Xohlagan kishimizni sotamiz, ertasiga yana sotib olamiz. Boshliqqa pul, revizorga pul...

— Dada, — deb akam ham dadamning yuzini ohista silab qo'ydi, — sizga juda-juda ham rahmim kelyapti.

— Rahming kelmasin, o'g'lim.

— Sizni baribir qamashadi.

— Akbarjon, yuz marta aytdim-ku, meni ehtiyot qilishadi deb. Qamalsam, mendan yeb yurganlar mo'may daromaddan mahrum bo'lib qolishadi. Keyin, o'g'lim, shuni ham bilib qo'y, puli borni qamashmaydi. Uning qo'li hamisha baland, gapi rost bo'lib chiqadi... Kel, qo'y endi, yaxshisi, yarashaylik, o'g'lim.

— Ishdan ketsangiz yarashamiz.

— Yana qora ishchi bo'lib, vagondan semon tushirishimni istar ekansan-da.

— O'shanda, dadajon, bexavotir yashardik.

— Men... men senlarni baxtli qilsam deyman, sen qashshoq bo'lsak deysan... Yo'q, sening ichingga Ataullo muallim joylashib olgan.

Dadam chayqalib o'rnidan turdi-da, yarimlab qolgan konyak shishasini olib qulochkashlab yerga urdi. Tupirdi, tepindi, so'ng gursillatib qadam tashlab hovliga chiqib ketdi. O'sha yoqqa chiqqandan keyin ham uning bir-ikki bor tupurganini eshitdim.

XII BOB

“O'g'riboshilar» deb oyijonimning qadrdon dugonalarini haqorat qilgan akamning orqasidan chiqib, uning Ataullo muallim bilan birga ko'rib, mana, qancha xotiralarga berilib ketdim. Aslida akam nohaq. Buni o'zingiz ham ko'rib turibsiz, lekin nima qilaylik, majruh. Dadam aytganiday vaqti-soati kelib tushunib ham qolar. Orqamga qaytdim. Oyijonimning dugonalari fotiha o'qishib o'rinlaridan turishdi. Qo'zg'alishlari bilan hovlini yana doimiy mast qilib, dilni erkalaydigan xushbo'y atir-upalar hidi qopladi. Qani endi, tong otguncha bu hidlar tarqalmay hovlimizda turib bersa, to'yib-to'yib hidlasang. Barno xolam bilan tog'amning xotini Fotima kelinoyim ham, endi biz ham boraylik, ko'pam kuyunavermang, erlarimiz sizlarni deb zir yugurib yurishibdi. Xudo xohlasa hammasi joyiga tushib ketadi, deb o'rinlaridan turishdi.

Oyijonim ularni jimgina kuzatdi. Bolalarim ovqatsiz o'tirgandir, bir oz turib yana chiqarman, deb Lutfi xolam ham chiqib ketdi. Hovli jimjit bo'lib qoldi.

Qiziq, shu kungacha hovlimizning kattaligi va qorong'i tushganda vahimali bo'lishini sezmagani ekanman, hozir, shu paytda, nazarimda, yutib yuboraman, deyayotgandek dod devorgim kelyapti. Qaysi burchakka qaramay, tavba, qora vahima og'zini ochib turgandek.

Hovlidagi jamiki chiroqlarni yoqib yubordim, atrof charog'on bo'lib ketdi.

Vahima chekinmadi. Endi daraxtlarning ola-chalpoq soyasi bilan aralashib, dahshatli ko'zlarini menga, faqat menga tikib turgandek. Yutadi. Hozir yutib yuboradi.

Yugurib uyga, televizor qo'yilgan xonaga kirib ketgim keldi. Oyijonim yana telefon yonida o'tiribdi. Bozorvoy amakim keldi. Odatdagidek gunohkorona kulimsirab turibdi. Hamisha shunaqa u, qiziqroq bir gap eshitgandek, yoki o'sha gapni o'zi aytmoqchidek kulimsirab turadi. Joni dilimiz u. Dadandan kam sevmaymiz uni. Yigirma yildan buyon biz bilan birga, ro'zg'or ikir-chikirlari, bozor-o'char, uylarning remonti, soliqlarni to'lash, allakimlardagi qarzlarimizni undirish — hamma-hammasi uning bo'ynida. Ukalarimni bog'chaga olib borgan, biron sabab bilan dadajonimni maktabga chaqirishsa o'rniga borgan. Meni ham, ukalarimni ham ko'tarib katta qildi u. Hali-hali esimda, kechqurunlari bizni ot bo'lib mindirardi, goho televizor tugaguncha yelkasidan tushmasdim, minib turib tomosha ko'rishni yaxshi ko'rardim.

— Bormisiz, Bozorvoy, — ginaxonlik bilan dedi oyijonim, — qayerlarda yuribsiz?

Amakim, e, so'ramang, degandek bosh chayqab ayvonga o'tirdi, ko'kragini keng ochib, terlab ketgan bo'lsa kerak, yelpindi:

— Bay-bay, havo yomon dimladi-ku, lekin dimlagani ham yaxshi, meva shirin bo'ladi.

— Hoy, gapirsangiz-chi, qayoqlarda yuribsiz? — xafa bo'lgandek dedi oyijonim.

— E, kennoyijon, qayoqlarda yurardim, militsiyadan kelyapman.

— Nima gap bo'ldi o'zi?

— O'sha o'zingiz eshitgan gap.

— Tushuntibroq gapirsangiz-chi, hammalaring uzuq-yuluq gap qilasizlar, tavba.

— Nahotki haligacha eshitmagan bo'lsangiz.

— O'z yog'imga o'zim qovurilib o'tiribman. Qulog'imga gap kiradimi?!

— Qo'rqmang, kennoyi, xudo xohlasa hammasi joyida bo'ladiganga o'xshaydi. Hoy, Zufarjon, obbo, kunbo'yi televizor ko'rganing-ko'rgan ekanda. Ehtiyot bo'l, ekrani peshonangga yopishib qolmasin tag'in. Suv deyaqman, bir shisha suv ochgin... Kennoyi tashvishlanadigan joyi yo'q. Saidjon akamlarning

militsiya bilan birinchi bor to'qnashuvi emas. Hamisha qutulib chiqqanlar. Bekorga mana bu o'g'limning otini Zafarjon qo'yaganlar-ku axir. Zafar, obbo o'g'lim-ey, sen ham mening bolalarimga o'xshab gap poylashni yaxshi ko'rasan, shekilli. Ko'chaga chiqib bir o'ynab kelmaysanmi?

— Hoy, gapni bo'ladiganini aytasangiz-chi, — chinakamiga jerkib berdi oyijonim.

— Qisqasi, qo'rqmang, direktorlari-yu, akamning yog'li palovini yegan jo'ralarining hammasi paytavasiga qurt tushib zir yugurib yurishibdi. Saidjon akamga bir gap bo'lsa bormi, direktorning ham oyog'i osmondan bo'ladi-da. Lekin direktor zo'r odam, chinor! Ancha-muncha arra yiqitilmaydi uni...

— Nima bo'пти o'zi deyapman?

— Bay-bay, Zafar, suvni chovgumda isitib keldingmi deyman, iliqligini qara, boshqasini och. Gap shu, akam ozgina pul olibdilar.

— Ko'pam ozgina emasdir?

— Sakkiz ming deyishyapti.

— Bor-yo'g'i shumi?

— Obbo kennoyijon-ey, eshitibsiz-ku, tag'in so'raysiz-a. Fakturasiz, ya'ni bizning tilimiz bilan aytadigan bo'lsak «leviy» mollar masalasi ham bor.

— Bunga direktor javob berishi kerak-ku?

— Biz ham shuni aytyapmiz-da. Asosiy javobgarlik, xudo xohlasa, direktorning bo'ynida. Kennoyijon, ertalabdan buyon it quvgan soqovdek men ham yugurib yuribman. Saidjon akam xotamtoy kishida, hazil-huzil bilan ko'p narsa berib qo'ygan ekanlar. Yugurib yelib, shularni tinchitdim.

— Ishonarli joyga olib bordingizmi, axir?

— Qo'rqmang... Zafar, suv deyapman! O'zimning eski mijozlarim, ehtiyotkor odamlar., «Volga»niyam tinchitdim.

— Nima? — qoshlari allanechuk chimirilib ketdi oyijonimning. — Sotdingizmi?

— Nega sotar ekanman, — shishasi bilan ko'tarib suv ichib oldi amakim, — sizlardan ruxsatsiz-a, hech qachon. Lekin kennoyijon, bazaning oddiy bir qorovulida «Volga» bo'ladi-yu, bazaning omborchisida bo'lmasligiga kim ishonadi. Hech

kim. Aylanib kelib gap yana sizlarga tegadi. Yaxshisi, «Volga» ko'zdan nariroq turgani ma'qul. Sizlarga gap tegmasin, deb shunday qildim. Qo'rqmang, tagli-joyli odamlarnikiga berkitdim... Mol topish bir mashaqqat, uni saqlash o'n mashaqqat. Shunday zamon ekan-da, kennoyijon...

Bozorvoy amakimning aytishicha, to'xtamay yuguribdi. Yuguraverib oyoqdan qolibdi. Kech bo'lganiga qaramay, orqalaridan poylab borib dadamni qaysi tuman militsiyasi olib ketgani, olib borgach, qaysi xonaga qamaganlarigacha aniqlabdi. U hatto navbatda turgan militsiya xodimining ism-familiyasigacha bilib kelibdi. Kechroq kelishsa, qarindoshlaridan birini oldiga kiritaman, ovqat olib kelishsin, ovqat bahonasida kirish osonroq bo'ladi, debdi tanish melisa. Albatta tekinga emas ekan, o'sha jonidan kechib yaxshilik qilmoqchi bo'lgan militsionerga nimadir berish kerak ekan.

Oyijonim xursand bo'ldi. Bering, iloji boricha ko'proq bering, o'sha odam keyinchalik bizga yana asqotib qolishi mumkin, dedi. Bu gaplarni aytayotganda bechora oyijonimning yuzlari gul-gul yashnab, ko'zlaridagi g'amu tashvish chekinib, umid, ishonch porlagandek bo'ldi.

Lutfi xolamni chaqirib chiqdik, dimlamaga unnashdi.

— Bozorvoy, bir narsa so'rasam ochiq aytasizmi?— to'satdan gap boshladi oyijonim.

— Xizmatingizga hamisha tayyorman. — Bozorvoy amakim katta kaftini ko'ksiga qo'yib xiyol egildi.

— Buxgalter ayol haqida... O'sha ko'zing o'yilgur bilan dadasining aloqasi hali ham bormi?

— Endi... — Bozorvoy amakim menga g'alati bir qarash qilib qo'ydi. Turib ketsang-chi, demoqchi bo'ldi shekilli. Turib bo'pman. Nega endi dadamga tegishli gapni tinglamas ekanman?

— Gapiravering, — dedi oyijonim, — Zafardan yashiradigan gapim yo'q. Bu shumtaka hammasini biladi.

— Endi... kennoyi...

— Chaynalmang.

— Buxgalter bo'lgandan keyin... Bir-biriga ishi tushib turadi-da.

— Yo'q, men anovi tomonini aytyapman.

— Uyog‘idan xabarim yo‘q.

— Bilasiz!

— Endi, kennoyijon, bilsam-bilmasam hozir bu gaplarning mavridi emas. Hammamizning hayotimiz xudo ko‘rsatmasin, qil ustida turibdi-yu, rashkka balo bormi?! O‘zi, kennoyijon, hamma ayollar ham shunaqa bo‘ladimi deyman, besh minut kech qolsam, Lutfingiz ham qayerda qolding deb, hovlini boshiga ko‘taradi, bolalardan uyalsa-chi. Kennoyijon, qo‘ying bu gaplarni!

— O‘sha megajin shu balolarga giriftor qilib qo‘ydimi deyman-da, — oyijonim xo‘rsindi.— Akangiz ikki-uch yildan buyon menga sir aytmay qo‘ygan. Pulini ham ko‘rsatmaydi. Kiyimlaridan ko‘pincha begona atirning hidi kelib qoladi. Unaqa atirni biz ishlatmaymiz. Mayli, menga desa o‘sha olifta bilan qo‘shmozor bo‘lsin. Lekin Bozorvoy, o‘zingiz o‘ylang, bir yo‘la ikki balo tiqilib keldi. Buni daf qilish uchun ozmuncha pul kerakmi? O‘zi ochiqda bo‘lsa ham go‘rga edi, tinchitardi. Akangizning qo‘l-oyog‘ini bog‘lab qo‘yishdi. Uncha-muncha to‘plaganini o‘sha ayolnikiga berkitganmikan deyman-da.

— Kennoyijon, puldan tashvishlanmanglar, xudo xohlasa qarab turmaymiz.

— E, Bozorvoy, — oyijonim umidsiz qo‘l siltadi, — bu janjalda sizniki urvog‘ ham bo‘lmaydi. Olishuv katta bo‘ladiganga o‘xshaydi.

Oyijonim to‘ovqat pishguncha dadangning oldiga o‘zim boraman deb turgandi, ovqat suzilayotganda to‘satdan aynab qoldi. Voy, Lutfixon, qo‘l-oyog‘imda jon yo‘q, yetolmayman, dedi. Shunday dedi-yu, piqillab yig‘lab yubordi.

Bozorvoy amakim ikkovimiz jo‘nadik. Dadam qamalgan melisaxona uzoq emas, avtobusda borilsa bor-yo‘g‘i besh bekatgina ekan, xolos. Xayriyat, deb o‘yladim, kerak bo‘lsa tez-tez kelib turaman endi. Negadir o‘pkam to‘lib ketdi. Dadajonimga qanday ro‘para bo‘laman, nima deb ko‘ngil so‘rayman, umuman, biron narsa so‘rash mumkinmikin o‘zi? Melisaxona zinasidan ko‘tarilayotganda ko‘z yoshlarimni obdan artib o‘zimni ham xiyla bosib oldim. Lekin bu holatim vaqtincha ekan. Ichkariga qadam bosishim bilan butun vujudimda o‘zimga

haligacha begona bo'lgan, ilgari hech his qilmagan g'alati bir qaltiroq turdi, bo'shshib ketdim.

Ishimiz o'ngidan keldi. Navbatda turgan melisa hammahallamiz Turob aka ekan. Uyi maktabning yonida, qizi men bilan o'qiydi, o'g'li akam bilan o'rtoq ustaxonasiga tez-tez kelib qo'g'irchoq, gultuvak yasagan paytlari ham bo'ladi. Xotini mashinachi. Goho oyijonimning buyurtmalarini bajarib turadi. Turob aka bizdan gap so'ramadi. Demak, butun voqeadan xabardor. Labini tishlab, e, attang, degandek boshini sarak-sarak qildi.

— Bolalarga jabr bo'libdi-da, — dedi Bozorvoy akamga yuzlanib.

— Nimasini aytasiz, — deb fikriga qo'shildi amakim.

— Ham ota, ham ona-ya, — yana bosh chayqadi Turob aka. — Aslida-ku, qonun bo'yicha tergov tugaguncha oldiga qo'yish mumkin emas-a. Lekin nima qilamiz, odamgarchilik ham bor-ku bu dunyoda. Bozorvoy, cho'ntagingni kavlama, xafa qilaman.

Turob aka «xafa qilaman» degan so'zlarni xuddi peshonangdan otib tashlayman, degandek bir ohangda aytdi. Bozorvoy amakim chindan ham shimining cho'ntagiga tez-tez qo'l suqib, oyim berib yuborgan pulni paypaslab-paypaslab qo'yayotgan ekan. Beraymi, bermaymi deb ikkilanayotuvdi shekilli.

— Qani, yur-chi, — Turob aka menga yuzlandi. — Oting Zafar edi shekilli? Lekin uzoq o'tirmaysan. Menga gap tegib qoladi. Ishdan olib tashlashlari ham mumkin. Qonun taqiqlaydi bunaqa uchrashuvni.

Temir panjarali eshikdan kirdik. Ichkari nim qorong'u. Dadam bechora yolg'iz o'zi yog'och karavotda osmonga qarab yotgan ekan, sakrab turib ketdi.

— Dadajon!

— Ie-ye, — dedi dadam kutmagan ekan shekilli hayron bo'lib.

Ko'ksiga boshimni qo'yib, quchoqladim. Ich-ichimdan yana yig'i keldi. Bu gal ko'z yoshlarim tomirlarimdan oqib chiqyaptimi, butun borlig'im zirqirab og'riyotgandek bo'ldi.

— Bas, bas, — dedi dadajonim boshimni silab.

— Dadajon, — deyman o'zinni tutolmay.

Kishi bunaqangi paytda gapni nimadan boshlashni bilmas ekan. Yog'och karavotga yonma-yon o'tirib, anchagacha gap boshlolmadik. Hammasi tushunarli-ku, nimani ham so'rayman, yarani tirnashning nima hojati bor.

— Shunaqa gaplar, — dedi nihoyat dadam yelkamdan mahkam siqarkan chuqur xo'rsinib. — Ko'pam tashvishlanaver manglar, bir-ikki kundan keyin chiqib ketsam kerak. Ortiqcha shov-shuv ko'tarib yurmanglar.

— Hamma eshitib bo'пти, — dedim o'pkam to'lib.

— Odamlar o'zi shunaqa, birga o'nni qo'shishni yaxshi ko'rishadi. Oying qalay?

Aytaymi, aytmaymi? Oyijonim hamma gapni ayt, deb tayinlagan. Maslahat bersin, kimlarga uchrashaylik, sarfu xarajat qanaqa bo'ladi, barchasini so'ra, qulog'ingga qo'rg'oshindek qo'yib kel, degan. Lekin shu paytda...

— Dada, oyimni xam qo'lga tushirishdi, — dedim sekingina.

— Nima? — dadajonim tok urgandek bir sakrab tushdi.

— Tilla sotib olayotgan ekan...

— Ix! — dadam meni itarib o'rnidan turib ketdi.

— Keyin qo'lida zargarlik buyumlari ham bor ekan. Oyim bo'yniga olmabdi.

Lag'monpazning uyidan tortib hovlimizda bo'lgan tintuvgacha, tog'am kelib yo'l o'rgatganigacha, tintuvda olib ketilgan pulu zayomlar, akamning aravachasidan olingan tilla tangalargacha hamma-hammasini aytdim. Dadam, qiziq, jimgina o'tirar aytayotgan gaplarimning unga aloqasi yo'qdek, hatto kiprik xam qoqmasdi,

— Tilla dedingmi? — to'satdan uyqudan uyg'ongandek shoshilib so'radi dadam.

— Ha, ellik ikkita, hammasi so'lkavoy ekan.

— Tavba, shu akang minib yurgan aravachada-ya? Obbo onang-ey, obbo Yoqutxonim-ey, mendan berkitib qiladi u. Shuncha tillasi bo'laturib menga aytmagani qiziq. Mana endi bunisi ham meni boshimga balo bo'ladi. Boshqa hech narsa topishmadimi?

- Yo‘q.
- Kapitan dedingmi?
- Ha.
- Otini bilolmadingmi?
- Jo‘ra Usmonovich deyishdi.
- Peshonasi do‘ngmi?
- Ha.

Dadajonim jim bo‘lib o‘yga toldi. O‘ylari og‘ir, qo‘rqinchli bo‘lsa kerak, burun kataklari kengayib, yuzlarida reza-reza ter ko‘rinib, lampochkaning xira nurida yiltiray boshladi. Dadam, turgan gap, qiynalyapti hozir. Qanday qilsam yordamim tegadi?.. Yo‘q, la‘nat bo‘lsin o‘sha boyliklarga! Mayli, hammasini olishsin, faqat dadajonim bilan oyijonimni tinch qo‘yishsa bas. Mayli, och bo‘laylik, mayli, Ataullo muallimning o‘g‘illariga o‘xshab yamoq ko‘ylak kiyaylik, faqat o‘sha bolalarga o‘xshab kechqurunlari ota-onamizni yonida erkalanib o‘tirsak bas... Yo‘q, yo‘q, pulsiz yashab bo‘lmaydi. Bu dunyoda pulsizning qo‘li kalta, rangi siniq, ovozi xasta bo‘ladi. Bu qiyinchiliklar vaqtinchalik, ozgina chidasak bas! Yana hammasi iziga tushib ketadi... Pul bilan qonun, jinoyat bilan qonunshunoslar o‘rtasida o‘yin boshlanyapti. Ha, o‘yin, shunchaki o‘yin xolos. Bu o‘yinda katta-katta pullar tikiladi. Kim hushyor bo‘lsa, boylik o‘shaning qo‘liga o‘tadi. Dadajonim hushyor, bo‘sh kelmaydi... Dadam o‘rnidan turib ketdi. G‘alati ovoz chiqarib kula boshladi:

— Eh-he, he-he...

Xonada gir aylanyapti, devorlarni mushtlayapti, yog‘och karavotni tepayapti. Tutqanoq tutib qoldi shekilli. Ko‘zlari ilgari men hech ko‘rmagan darajada olayib ketdi. Yuzlaridan sharillab ter quyila boshladi.

— Dadajon!

— He-he... He-he... Zayomlarni olib ketishdi degin, he-he, he-he. Pulniyam-a?

— Dadajon!

Yig‘layaptimi, kulyaptimi, bilib bo‘lmaydi. Nima qilsamiykin, qanday qilsam mehribonimning tutqanog‘i bosilarkin?

Eshik sharoqlab ochildi. To‘pponchadan otilgan o‘qdek, qattiq ovoz eshitildi:

— Uchrashuv tugadi!

Dadam xona o'rtasida to'xtab menga tikilib qoldi. Labida kulgi qotib qolgandek, ko'zlari hamon bejo. Qalbi va miyasida kechayotgan ming xil o'y shu bejo ko'zlarda akslanib turibdi.

— Dadajonim...

— Tog'angga ayt, bir ilojini topib menga ro'baru bo'lsin. Oyingga tayinla, bu kechadan qolmay Muhamedovga uchrashsin. Ukalaringni o'pib qo'y. Akang qalay?

— Yaxshi.

— Xafa qilmanglar uni.

— Xo'p.

— Ke endi, bir achomlashaylik. Oyingni yolg'iz qo'yma, yuragi kasal. He, oltinning ishqini tushmay o'lsin. Tergovga chaqirishsa, birga bor, bo'lgan gapni menga yetkazib turasan. Ayt, hech narsani bo'yniga olmay tursin. Iloji bo'lsa kasalxonaga yotsa yaxshi bo'lardi. Ungacha o'zim chiqaman. Albatta, chiqaman.

Yig'lab-yig'lab xayrlashdik.

XIII BOB

Qaytishimizni kutib ukalarim ham uxlamay o'tirishgan ekan. Chopqillashib kelib xuddi dadamning o'zi kelgandek bo'yingga osilishdi. Qo'rqqoq pochcham kelibdi. Ayvonda oyijonim bilan suhbatlashib o'tirishgan ekan, o'shalarning oldiga o'tdim.

— Saidjon akamning oldiga Zafarjon kirdi, — axborot berdi amakim, — begonaga mumkin emas emish. O'zimizning Turobjon navbatchi ekan, ishning o'ngidan kelganini qarang. Mang, omonatingizni olmadi. Cho'ntagingdan qo'lingni chiqarsang xafa qilaman, deydi. Halol yigit-da, shuning uchun ham o'smadi u.

Dadamning oldiga qanday kirganim, qanday ko'rishganimiz, nimalar to'g'risida so'zlashganimizni xotiramda qolganicha aytdim.

— Kayfiyati qalay? — shoshilib so'radi oyim.

— Yaxshi, — dedim.

— Rangi ro'yi-chi?

Rang-ro'yi yomon edi, lekin shunday deb aytolmayman. Oyimning o'zi qay holatda-yu, yana dadamning ham dardini qo'shaymi, qo'shmayman! Ukalarim og'zimni poylab yig'lavoray-yig'lavoray deb turishibdi. Ularga, dadamni tutqanoq tutib qoldi deb aytib bo'larmidi?!

— Yaxshi, — dedim quvnoq bir ovozda, — xonasiga televizor ham qo'yib berishibdi.

— Xayriyat, — deb yuborishdi ukam bilan singlim. Pochcham melisaxona oldida ajralganimizdan buyon bekor o'tirmagan ekan. Oyim bilan aloqada bo'lgan zargarlarnikiga borib Yoqutxonning ishi militsiyaga tushib qoldi, o'zlarini ehtiyot qilinglar, deb tayinlabdi. Zargarlar ham o'z navbatida, Yoqutxonga ayting qattiq tursin, og'zidan gullab qo'ymasini, mayli, barcha xarajat bizning bo'ynimizga, deyishibdi... Pochcham qochib yuribdi desam, mana shunaqa ishlar qilib yurgan ekan.

Pochcham ketgach, oyijonim, qani tez bo'l, bir-ikki joyga borib kelamiz, deb turib oldi. Kech bo'ldi, uyqum kelyapti, deyishim kerak edi, aytolmadim. Chunki ota-onamning umidlari hozircha mendan. Shu g'urur uyqumni haydab, charchoqni ham yenggandek bo'ldi. Tog'am to'g'ri aytadi, hamma narsa shu kecha hal bo'ladi.

Oyijonimning orqasidan jimgina ergashdim. Kimnikiga boryapmiz deb so'ramadim ham. Baribir emasmi, foydasi tegsa bo'ldi-da. Hammahallamiz Sadir Badalovichning baland darvozasi yonida to'xtadik. Demak, ishni shundan boshlar ekanmiz-da, yaxshi! Avvalo, shuning uchun ham yaxshiki, dadajonim hozir egallab turgan lavozimini shu amakimizdan sotib olgan. Qanchaga olgan, bilmayman. Lekin shundan olgan. Undan keyin, yana shuning uchun ham yaxshiki, uni har bayramda qimmatbaho sovg'alar bilan yo'qlab turganmiz. Eshiklari ochiq ekan, qo'ng'iroq chalmasdan kirib bordik. Ilgari ham aytganman, mahallamizda o'nta dang'illama hovli bo'lsa, eng a'losi shularniki.

— Ie, iye, Yoqutxon, jonginam, qanday shamol uchirdi? Qadamlariga hasanot, xush kebdilar! — deb bir arava keladigan Qo'mondon xolam quchog'ini keng yozib qarshiladi. Garchi,

bir-ikki soat avval ko'rishgan bo'lsalar-da, yana bag'riga oldi. Oyijonim uning keng quchog'ida yo'q bo'lib ketdi. — Ie-iyey, mana bu o'g'limni qarang, kel, seni ham bir achomlab qo'yay. Qani, yuqoriga, xonim. Sadir akangiz bilan hozirgina sizlarni gaplashib o'tirgan edik. Jabr bo'ldi deb, g'amu tashvishga botib o'tiruvdik...

Er-xotin ikkovlari kunga betgay solingan katta, bahavo, ustunlariga o'ymakor naqsh berilgan ayvonda yonboshlab, rangli televizor tomosha qilib o'tirishgan ekan. Xizmatkor ayol ichkaridan atlas, kimxob ko'rpachalar chiqarib bizga ham to'shab, yonboshimizga parqu bolishlar qo'yib berdi. Bu xonadonga ilgari ham ko'p kelganman. Uchta qizlari bor — uchovlariyam yosh-yosh turmushga chiqib ketishgan. Bu qizlarni kelin qilaman, deb talashib shahrimizning ne-ne kazo-kazolari naqd bo'lmasa pichoqbozlik qilishgacha borib yetishgan. Oyijonimning aytishicha, Qo'mondon xolam har bir qiziga ellik ming so'mlikdan tilla buyumlar sovg'a qilgan. Yakka-yu yolg'iz o'g'illari Nasimbek akam hozir Moskvada, yurfakda o'qiydi.

— Iloyo tekshiruvchilarga insof bersin, — kulimsirab fotixa o'qidi Qo'mondon xolam.

Men yonboshlab yotgan Sadir Badalovichga zimdan nazar tashladim. U biz kelganda, negadir, o'rnidan qo'zg'almadi. Fotiha ham o'qimadi. Bir narsalar haqida o'ylanib yotganga o'xshaydi. Ikkovlarining poyma-poy kalishdek bir-birlariga nomunosibligini qarang. Xotini bir arava, o'zi esa, yopiray, shunaqa ozg'in, shunaqa qotma va yana nimjon hamki, puf desangiz uchib ketadigandek. Nahotki, ikki yuzu sakson tochkasi bo'lgan shahar savdo bo'limi rahbarligiga savlatliroq odam topilmagan bo'lsa?! Lekin, hay-hay, qarashlari shunaqa o'tkir, ko'zlarida gipnozchilarniki singari odamning hushini olib, esankiratib qo'yadigan nur borga o'xshaydi. Hali yalt etib qaraganimda o'sha nur ko'zimga urgandek bo'ldi. Darrov teskari qarab oldim.

Sadir Badalovich shoshmasdan chordona qurib, par yostiqlardan birini bag'riga bosdi:

— Obbo Yoqutxon-ey, chatoq bo'pti-ku, a? — dedi nihoyat tilga kirib. Nazarimda ovozida achinish, rahm-shafqatdan ko'ra ta'na, e'tiroz ohanglari ko'proq edi.

Oyijonim xo'rsinib qo'ydi.

— Saidjon hushyor yigit edi-ku? Mayli, bo'lari bo'пти endi. U dunyoda o'limning iloji yo'q, xolos. — Sadir Badalovich ag'ridagi yostiqni olib o'ng tomonga qo'ydi-da, suyanib, o'roznikidek ingichka oyoqlarini rosmana uzatib oldi. — Bu o'g'limizning oti nimaydi? Ha, Zafarjon edi-ya. Zafarjon, shxonaga kirgin, opoqing televizor qo'yib beradi. Birgalashib omosha qilasizlar. Kattalarniig gapiga aralashma, yoshsan hali.

O'tiraversin dermikan deb oyijonimga qaradim. Boshi bilan ora qol, deya imo qildi. Juda alam qildi. Hamma gapni shitmoqchi edim. Ehtimol, o'rtaga yana pul aralashar, adamning jinoyatini necha so'mga baholashar ekan, bilmoqchi dim. Bo'lmadi. Erinibgina o'rnimdan turdim. Televizorda boks musobaqasi bo'layotgan ekan. Tikilyapman-u, baribir hech narsani ko'rmayotgandekman. Xayolim ayvonda, tez-tez o'sha tomonga ko'z tashlab olyapman... Ehtimol, pul so'ramas. Axir, Eurob aka aytganidek, bu dunyoda rahm, shafqat, odamgarchilik degan narsalar ham bor-ku!

Suhbat uzoqqa cho'zilmadi. Oyimning qo'llarini to'shakka tirab turayotganini ko'rib qoldim. Yugurib chiqdim. Uzoqdan bo'lsa ham Sadir Badalovichning ko'ziga yana qaradim — lahshat! Cho'yan soqqadek yiltirab turibdi.

Qo'mondan xolam darvozaxonagacha kuzatib chiqdi.

— Akangizning maslahatiga yuring, — deb yo'l-yo'lakay shivirlab keldi, — boshingizga urasizmi o'sha temirni. Molding dunyoning oshkorasidan pinhonasi yaxshi. Oshkorasini yo'qoting. Akangiz ko'pni ko'rgan, har bir so'zi tilla u kishining. Butun respublika taniydi-ya...

Oyim miq etmadi. Sovuqqina xayrlashdik. Vaqt allamahall bo'lib qolgan. Onda-sonda miltillab turgan xira chiroqlarni hisobga olmaganda, ko'cha qorong'gu, goho o'z uylarining darvozaxonalari oldida domino o'ynab o'tirgan maykachan erkaklar ko'zga tashlanib qoladi.

Hamma uyquga ketgan...

— Yordam beramiz deyishdimi? — qo'rqa-pisa so'radim.

— O'g'riboshi aslida mana shu arvohning o'zi, — dedi oyim xuddi o'ziga-o'zi gapirayotgandek, — dadangni poraga

o'rgatgan ham, qalloblikka boshlagan ham mana shu ko'zing o'yilgur bo'ladi. Birovni qo'li bilan pora olishadi, birovning qo'li bilan o'g'rilik qilishadi, qoch-qochga kelganda o'zlarini bir chekkaga olib turaverishadi. Xudoyo uying kuyib, kultepada o'tirgurlar.

— Yordam bermayman dedimi?

— Juda katta so'rayapti, o'g'lim.

— Qancha axir?

— «Volga»mizni so'rayapti, uying kuygur. O'shandayam jinoyatning hammasini olib tashlab bo'lmas emish. Bu aravangiz menga emas, o'rtada turganlarga deydi-ya, tiling go'rda chirigur.

— Siz nima dedingiz?

— O'ylab ko'ramiz, dedim.

— Volgani bermaymiz, — bu gap beixtiyor og'zimdan chiqib ketdi. Lekin shu daqiqadayoq aytganimga pushaymon bo'ldim. Chunki ikkovlariga nafi tegadigan bo'lsa, men butun dunyoni hadya qilishga ham tayyor edim.

Oyim indamadi. Xo'rsinib qo'ydi, xolos. Yana jim bo'lib qoldim. Qizig'-a, deb o'yladim, uchta kuyovida uchta «Volga», biznikini nega olarkin? Insofsiz! Yoki Moskvada o'qiyotgan o'g'liga atab qo'yarmikin?.. Yana kim biladi. O'rtada turib jinoyatni yengillatib berganlarga hadya qilar. Shu mulohazamni oyijonimga aytsammikin? Yo'q! Ulgurmadim. Sudya Muhamedovning darvozasi yoniga kelib qolibmiz. Demak, buyoqqa ham kirar ekanmiz-da? Kirmay ilojimiz qancha, xonadonimizning suyangan tog'laridan-ku!

Darvoza berk, qo'ng'iroqni bosdik. Bir, ikki, uch — javob yo'q. Yotib qolishgan bo'lsa-ya! Unda nima bo'ladi? Bir-birimizga qarashib oldik. Yana, yana chaldik. Xayriyat, yoshgina ovoz «kim?» — deb so'radi.

— Yoqutxon xolangman, — dedi oyijonim.

Chiqqan Guli ekan. Mendan bir sinf keyin o'qiydi. Oyijonim ko'pincha uni senga olib beraman, deb hazillashib yurardi. Televizor ko'rishayotgan ekan. Qayta-qayta uzr so'rab ichkari boshladi. Hovlilari to'la odam. Nima balo, tug'ilgan kun nishonlashyaptimi, deb o'yladim. Yo'q, unaqa emas, katta qizlari uch bolasini olib mehmonga kelgan ekan... Sulton

makim oltmishlarga borib qolgan, novcha, qaddi tik, qoshlari siq, tepakal, ulug'sifat bir kishi. Yo'l-yo'l pijamada biralarini tizzasiga olib bokschilarning so'nggi olishuvini 'rayotgan ekan. Chehrasi ochiq, oyim bilan qo'l berib 'rashdi. Qozi xolam hushyor-da, nima maqsadda kelganimizni tahlil qilib, darrov joyni ajratdi. Muhamedov amakim ham gapni o'zib o'tiradiganlardan emas ekan. Darrov muddaoga o'ta oldi.

— Endi Yoqutxon poshsho, meni ham to'g'ri tushuning, — ayuq qoshlari chimirila boshladi, — bir jihati begona emasmiz, balkam o'ttiz yillik qadrdonmiz. Tomoshabin bo'lib o'tirish sofu odamgarchilikka to'g'ri kelmaydi. Yana bir jihatdan gunda men xalq sudyasiman, qonun bilan huquq o'rtasida turuvchi vakilman. Qonunning ham, huquqning ham imoyachisiman. Albatta militsiya xodimlari bilan ham, prokuraturadagilar bilan ham bir-birimizga iltimoslar qilib turamiz. Bu — bor gap. Lekin keyingi paytda, mana o'zingiz ham necha marta ko'rdingiz, o'rta pul aralashadigan bo'lib oldi. Tavba, yil sayin jinoyatning bahosi oshib boryapti-ya. Undan to'rt-besh yil oldin Saidjon bilan sizning boshingizga tashgan mana shunaqa tashvishni yetti-sakkiz ming bilan tinchitsa bo'lardi. Qonunda yo'l ko'p. Biri to'g'ri kelmasa, boshqasi mos tushaveradi. Lekin hozir nazorat kuchayib ketdi. Ishlarning ishlaringizni ko'rish menga topshiriladimi, boshqaga topshiriladimi, ehtimol, kollegiyaning o'zi ko'rar. Hali bu ham ma'lum emas. Shu ishni men ko'ray deb so'rab ololmayman. Bu o'rtada hali tergov bor, prokuratura nazorati, jamoatchilik bo'lgandek. Yoqutxon singlim, ishlaring juda chalkash. Oltin davlat mulki deb e'lon qilingan. Saidjonning ishi ham qaltisroq. Ko'p, men obro'yim va tanish-bilishlarimdan foydalanib ishga kirishdim ham deylik. Darrov, xo'sh, qancha olding, bizning talushimiz qancha bo'ladi, deb so'rashadi ular.

Ilgari nasiyaga ish bitirsa bo'lardi. Hozir — yo'q. Odamlar insofsiz bo'p ketyapti. Shuning uchun, singlim, qanchaga qurbilaring kelishini men bilishim kerak.

— Qancha desangiz shu, — dedi bechora oyijonim boshini ko'tarolmay.

— Yo‘q, singil, men aniq bilishim kerak. Toki kerakli odamlar bilan gaplashganda tilim uzun bo‘lsin.

— Bilasiz-ku, bunaqa paytda adasi pulni ayamaydilar.

— Har qalay og‘zingizdan eshitsam durust bo‘lardi. Mana, non hurmati, menga sizning bir tiyiningiz ham kerak emas. Yordam bersam, oramizdagi do‘stlik hurmati yordam beraveraman. Lekin har ajdaholar borki, ularning og‘zini ancha-muncha narsa bilan to‘ldirib bo‘lmaydi. Menga baribir, to‘rt-beshta bolalaring bor, orqalaringdan chuvillashib qolmasin deyman-da.

— Qaydam, — hamon ikkilanib turardi oyijonim.

— Ha mayli, — sovub qolgan choyini ho‘plagani eshitildi Muhamedovning, — hozir qattiq tashvishdasiz, hayajoningiz kuchli. Faqat bir narsani so‘ray. Ishga kirishaversam maylimi?

— Voy, Sulton aka, shuni iltimos qilib keldim-ku, — bu gal oyijonimning ovozi ancha dadil eshitildi.

— Barakalla, — Muhamedov yana choy ho‘pladi, — dugonangizga ishonib taqinchoqlaringizni berib yuborib yaxshi qilibsiz. Agar ro‘yxatga tushganda yo boshingizga balo bo‘lardi, yo paqqos yo‘qolib ketardi, bunaqa ishlar ko‘p bo‘lgan. Dugonangiz sizni qutqarib qolibdi, ustidan chiqib qolganini qarang.

— Rahmat, o‘lguncha unutmayman bu yaxshiliklarini.

— Endi bo‘lmasa, singil, ishni bitirguncha shu narsangiz bizda garovda tursa.

— Qaydam...

— Qo‘rqmang, hech narsangizga tegilmaydi. Qo‘lingizda dugonangiz bergan tilxat turibdi. Ish bitgach, biz kirishsak bitmasdan qolmaydi, hisob-kitobni qilib, omonatingizni olib ketaverasiz, ma‘qulmi?

— Mayli.

— Hoy onasi, biz gaplashib bo‘ldik, — baland ovoz bilan dedi Muhamedov, — ayt, tarvuzdan so‘yishsin. Yangilik, bir karchdan yeylik.

Oyijonim uyga kelguncha shilq-shilq yig‘lab keldi. Zufar bilan Nigora singlim ayvonda, mehmonlarga solingan ko‘rpachalar ustida uxlab qolishibdi. Akamning uyida chiroq yoniq. Rasm

hlayotgan bo'lsa kerak. Qiziq, rasmni faqat kechasi chizadi u.
Lunduzi kitob-u, kechasi — surat. Qizig'-a?

XIV BOB

Quyoshga betkay tushgan uyimizning guldor ayvoni yerdan
iyala baland. Shuning uchun ham bahavo. Yozda kunlar isib,
avo dimlab bergan paytlarda ayniqsa, rohatijon bo'ladi.
oqilari ham yuksak emasmi, tunu kun g'ir-g'ir shabada
y'naydi. Tunlari shudring mo'l-ko'l tushadigan paytlarda
dadajonim hammamizni shu yerda uxlashga ko'ndirardi. Ochiq
yerda yotsalaring yelkalaringga shudring tushib shamollab
qolasizlar, deydi. Uyog'ini surishtirsangiz, dadamning o'zi
qishloqi bo'lgani. yotgani karavotlari bo'lmagani uchun kigiz
ustida dumalab katta bo'lgan ekan. Hozir ham karavotda
yotolmaydi. Polga to'shak tashlab, qattiqroq o'rinda uxlashni
kush ko'radi.

— Qishloqi-pishloqi,— deb hazillashib qo'yadi goho
oyijonim.

— Qishloqi bo'lsam ham shaharning men deganlarini
qo'linga qaratib yuribman,— deydi dadam ham bo'sh kelmay.

— Qo'ying, xudo urgan bo'shangsiz.

— Bo'shang emasman. O'zimni bo'shang qilib ko'rsata
olaman.

— Buning ustiga qo'rqoq hamsiz.

— Qo'rqoq ham emasman, ehtiyotkorman.

— Qo'ysangiz-chi, adasi, sizning o'rningizda akamga
o'xshagan yuragida o'ti bor yigitlar bo'lganda biz hozir, eh-he,
shunaqa boyib ketardikki, Sadir Badalovichga o'xshaganlar
soyangizga salom berishardi.

— E, onasi, qo'ysang-chi, o'sha tavakkalchi akangni.
Donishmandlar kam xo'r, hamisha xo'r, degan ekanlar.

Hozir ayvonda chalqancha yotib dadajonim bilan oyimning
shu gaplarini esladim. Ukam bilan singlim mushuk boladek
beozor pishillashib tinchgina uxlashyapti. Akam ham chirog'ini
o'chirdi. Demak, endi u ham uyquga ketdi. Men bo'lsam uxlay
olmayman. Osmonda oyu, hovlida men uyg'oqmiz, xolos. Qiziq,

shu yoshgacha biron marta ham o'ying to'lganini, oydir kechani tarovatini kuzatmagan ekanman. Osmondan oqib sarg'ish, ipakdek mayin nurlar mo'lu ko'l oqib tushmoqda. To'kilayotgan narsalar nurmikin yoki shudring zarralarimikini Ehtimol, ikkovi qorishib tushayotgandir. Vujudimda oromning, atrofdagi sehrli sukunatning sirlari shundandir. Yulduzlar ham jim, oy nurlaridan yuzlariga harir parda tutib olishganga o'xshaydi. Osmonning kengligini qarang. Kenglik ichida yulduzlar tinchgina uxlashayotganga o'xshaydi.

Oyim xonadan xonaga o'tib, nimalarnidir axtarib nimalarnidir o'rnini almashtiryapti. Xo'rsinadi, e, attan degandek goho boshini alamli chayqab qo'yadi. Bechora oyijonim! Endi uyog'i nima bo'larkin?

Ko'cha eshik qo'ng'irog'i chalindi. Tog'am, tog'ajoni bo'lsa kerak! El yotarda boshqa kim ham kelardi. Yanglishmabman, mashinasida kelibdi. Darvozani och, dedi buyurdi. «Volga», yap-yangi «Volga»! Tog'am zo'r-da, xohlas ertaga yana bittasini olishi mumkin.

— Oyingni uyg'ot, — shoshilib ovozi to'la quvonch bilan dedi. Keyin ayvonda tik turgan oyimga ko'zi tushdi shekilli qani, suyunchini chiqaraver, dedi. Nazarimda uning ana shu so'zlari bilan oy nuriga cho'milib, mudrab yotgan g'amgiri hovlimiz quvonchlarga to'lib ketgandek bo'ldi. Zo'r bo'pti kutganimizdan ham a'lo bo'pti. Kapitan Jo'ra Usmonov yumshabdi, ishni yengillatishga so'z beribdi.

— Tanirdim, ilgari ham ko'p ko'rishganmiz u bilan. Uyiga bordim, shahar chekkasida turadi, — sevinchi oshib-toshib gapiryapti ishbilirmon tog'am, — avvaliga eshigini ochmadi. Ochasan, boshqa ilojing yo'q, deb turib oldim. Kech bo'ldi, ertaga idoraga boring, deydi. Bekor aytibsan, ertaga ishni sensiz ham bitirishim mumkin, o'rta ichida tillalardan, pullardan quruq qolasan, dedim. O'lardek ochko'zda, tillaning daragini eshitib, asta darvozaning zanjirini tushirdi. He, yoqmay o'lsin! Ko'nmasang Oziq-ovqat do'koni direktori Odilovning jinoyatini qanday yopib ketganingni, qancha olganingni, kimlar o'rtada turganini ochib tashlayman, dedim. Jon aka, kech bo'ldi, singlingizning ishi ochilgan, dastlabki so'roq

protokollari ham yozilgan, ularni yo'qotib bo'lmaydi, deydi. Yo'qotasan, ilojini topasan, deb turib oldim. To'satdan, xo'p, qancha berasizlar, deb so'rab qolsa bo'ladimi! Ana uyog'iga, singiljon, ish yurishdi-ketdi. Bizning o'yinimizda hamma narsani dadillik hal qiladi. Pirlarimiz, katta bossang katta olasan deb, o'rgatishgan. Uyog'iga, nafsing qurg'urning o'zi yo'l o'rgata boshladi. Xo'p, singiljon, suhbatimizning eng qaltis joyiga kelib qoldik. Yana bir ayt, tintuvda qancha pul chiqqan?

— O'n yetti ming, — deb qo'ydi oyijonim.

— O'ntasidan kechamiz.

— Voy, aka, nimalar deyapsiz?

— Sabr qil, zayoming qancha edi?

— Yigirma ming.

— Bundan ham o'nta kam hisobla.

— Xonavayron qilmoqchimisiz meni? — oyijonim betoqatlana boshladi. — Ayt, insof bilan ish tutsin o'sha Jo'rangiz.

— Singiljon, o'tir, o'zingni bos. Boshida aytganman, qaltis o'yin boshlanyapti deb. Bu o'yinning qoidasi shunaqa. Mol va jon o'yini bu. Ayt, mol shirinmi yo jon shirinmi?

— Bilmadim...

— Xo'p, aravachadan qancha tilla chiqqan edi?

— Tillaga til tekkizmang.

— Tezroq ayt deyaqman.

— U majruh o'g'limniki.

— U ashulangni katta xolangga borib aytasan. — Tog'am jahl bilan o'rnidan turib ketdi. Borib vodprovoddan suv ichib qaytdi. — O'rnidan turolmaydigan, yozilsa ishtonbog'ini bog'lay ololmaydigan bir majruh bolada shuncha tilla bo'larmishu, bir umr tillafurushlik qilgan bu xonimda biror tangasi ham yo'q emish. Bu gappinga kim ishonadi, militsiyami, chuchvarani xom sanabsan! Vasiyatnomang qalbaki ekanini, kerak bo'lsa militsiya bir soatda isbotlab beradi... Ayt, qancha so'lkavoy bor edi?

— Elik ikki dona, — yig'lamoqdan beri bo'lib dedi oyijonim.

— Jo'ra Usmonovich ko'nganiga shukr qilsangchi.

— Qanchasiga ko'ndi u?

— Tilla tangalarni o'ttiz ikki dona deb hisoblaymiz.

— Men o'lib qolaman.

— Xudo xohlasa, hali-veri o'lmaysan. Dengizda kema cho'kayotganda aqlli odamlar jonini saqlab qolish uchun ortiqcha yuklarini uloqtirib tashlashadi. Er-xotin ikkovlaring ham cho'kyapsizlar hozir. Kemalaring chayqalib turibdi. Yo mol, yo jon! Pismaning ering ochiqda qolsa, bir yilda topadi bunaqa temir-tersaklarni. Singiljon, yig'lama, bolalaringni o'yilasang-chi. Jo'ra Usmonovichga ham oson emas. Seni, qolaversa meni, mana shu tentak akangni deb jinoyatga qo'l uryapti u. Yolg'iz emas, sheriklari bor. Bir o'zi bo'lganda shuncha so'ramasdi.

— Aka, boshim aylanib ketyapti.

— O'zingni qo'lga ol, faqat tezroq bo'l, rozimisan? Rozi bo'lsang hozir borib aytaman. Tintuv protokoli qaytadan yozilib, ishtirokchilar imzo ham chekishi kerak. Ertalab ish boshlanmasdan oldin avvalgi protokol yo'qotilishi zarur. Jo'ra Usmonovich uxlamayman, kutaman, dedi. Rozimisan?

— Akajon!

— Uh-uh, ayol bilan ish bitirguncha do'zaxga tushgan yaxshi ekan. Zafar, erkak zotidansan-ku, onangga ayt, hozir molu dunyo talashadigan payt emas.

— Bir protokolni qaytadan yozish uchun o'ttiz ming so'rasa... Insofi bormi o'zi!— baqirib yubordi oyijonim.

— Tushunsang-chi, singlim, bugun insof, odamgarchilik haqida gap bo'lmaydi. Bugun o'rtaga tikilgan pulu qo'lingdagi kozer qarta haqida gap ketadi. Kimning qo'lida katta kozer bo'lsa, pul o'shaniki. Hiqillama hali men o'zimning haqimni so'raganim yo'q... Menikiyam unikidan kam bo'lmasligi kerak. Ko'zingni ola-kula qilma, singlim. Men cho'talchi emasman. Bu qaltis o'yinning teng huquqli ishtirokchisiman. Qo'lga tushsam qamalaman. Ko'ra-bila turib o'zimni o'qqa tutib berayotgan ekanman, demak, katta mukofotdan umidvorman. Eringda pul ko'p. Millioner u.

— Aka, uyalmaganingizni qarang.

— Yo'q, singiljon, bugun uyat, nomus, aka-ukachilikni yig'ishtirib turamiz. O'yinning temir qoidasi shuni talab qiladi. O'rtada pulu qo'lda qarta. Mayli, ko'z yoshlaringni oqizma, bu haqda ering bilan o'zim gaplashaman. Bozorvoyning

nomidagi uylaring bekor yotibdi. O'shani menga sovg'a qilasanlar. Jiyaning katta bo'lib qoldi, uylantirishga joy yo'q...

Oyijonim alam bilan bosh chayqadi:

— O'z akamsiz-a, bir qorindan talashib tushganmiz-a!

— Demak, mening ishtirokimga rozi emasmisan?

— Qanaqa kunlarga qoldim-a...

— Bo'пти, uyinni bas qilamiz, ketdim. Menga desa qamoqxonada chirib ketlaring.

— Aka!..

— Akalayverma hadeb.

— O'ylab olay. Boshim aylanib ketyapti. Dadasi bo'lgandayam boshqa gap edi. O'g'lim, Zafarjon, ayt, dadang nima dedi o'zi? Aka, o'tiring, o'tiring deyaрман. Mayli, o'sha zormanda hovli sizga bo'la qolsin, lekin Jo'ra Usmonovichni sharti og'ir, juda og'ir. Siz jigarimsiz, qo'ynidan to'kilsa qo'njiga. Mayli, roziman. Lekin yetti yot begona odam bitta protokol uchun o'ttiz ming so'rab tursa-ya. Tag'in hukumat nomidan ish ko'rishadi-ya bular.

— Ularni uncha-muncha ta'minlab turganimiz uchun ham sen bilan menga sharoit yaratib berishyapti-da. Bo'lmasa hammamiz allaqachon qamoqda yotgan bo'lardik. Gapni cho'zmaylik. Demak, Jo'ra Usmonovichning shartiga rozisan?

— Sal pasaytirishni iloji yo'qmikin?

— Bir tiyiniga ham ko'nmaydi.

— Muttaham ekan.

— Muttaham bo'lgani uchun ham qalloblikka rozilik berdi, xo'p, rozimisan?

— Mayli, bilganingizni qiling.

— Barakalla, singlim, bunaqa paytda mard bo'lish kerak. Endi, yur, Jo'ra Usmonovichnikiga olib boraman. Rozi ekanligingni o'z og'zing bilan aytishing zarur. U senga ba'zi bir narsalarni tushuntiradi, ertaga tergovda o'shalarii aytasan.

Oyijonim o'rnimdan turishga holim yo'q, borolmayman, roziligimni Zafar orqali aytaman deb, meni qo'yarda-qo'ymay tog'amga qo'shib jo'natdi. Jo'ra Usmonovichning uyi yangi qurilayotgan imoratlar qavatida yoyilib oqadigan anhorning yonginasida ekan. Vaqt allamahol bo'lib qolgan. Butun olam

oromli uyqu og'ushida. Bu yerdan, shahar chekkasidan to'lin oy yana ham katta, yerga yana ham yaqinroq ko'rinarkan. Xuddi yugurib borib ushlab olsang bo'ladigandek... Uyquasi sergak ekan, birinchi qo'ng'iroqdayoq temir darvozasining bir qanotini qiya ochdi.

— UZR, yana bezovta qildim, — dedi tog'am.

— Bizning ishimiz o'zi shunaqa, — dedi esnab Jura Usmonovich, — goho haftalab uxlamaymiz, o'rganib qolganmiz.

Tog'am oyim bilan bo'lgan suhbatning mazmunini bayon qildi. Hammasiga rozi ekanligini aytib, o'zi pristup bo'lib yotibdi, kelolmadi, o'g'lini jo'natdi, dedi. Jo'ra Usmonovich menga negadir uzoq tikildi. Yo'l-yo'l pijama kiyib olgan ekan. Qo'lini cho'zib yelkasini qashlab oldi-da, uch-turt bor, «tak, tak» deb qo'ydi. Nazarimda nimanidir o'ylayotganga o'xshaydi. Oxiri guvohlar masalasi qanday bo'ladi, uchrasha oldingizmi, deb so'radi. Tog'am, tashvishlanmang, bunaqa ishni birinchi bor qilayotganim yo'q, degan javobni aytdi. Endi jo'nasak kerak, borib qo'l-oyog'imni uzatib uxlayman, deb o'ylagandim. Yo'q, ish hali bitmagan ekan. Jo'ra Usmonovich, burga kirib qolganmi deyman, yelkasini yana qashlashga tushdi. Qashlayotib aravachaning egasi Yoqutxonning o'g'li edi shekilli, o'sha yigitcha militsiya boshlig'i nomiga mening ustimdan shikoyat yozsin, bobomdan qolgan, shaxsan mening boyligim bo'lgan va bu bobomning vasiyati bilan tasdiqlangan 32 ta tangamni nohaq oldi, zudlik bilan qaytarib berishlarini talab qilaman, desin.

— Tanga o'ttiz ikkita, esingizdan chiqmasin, — deb tayinladi yana.

— Aytganingizdek bo'ladi, — dedi tog'am.

— Endi lag'monchi xotin masalasida... Uni ham tergovga chaqiraman.

— Yaxshi.

— Hali kelishganimizdek lag'monchi ayol ichkariga uchta kosada lag'mon berganman, chunki ayollar uchta edi desin.

— Shunga albatta, ko'ndiraman.

— Tashqariga, derazadan qochib chiqqan ayolni ko'rganlar, yaxshisi, erkaklar bo'lsin.

— Bor o'shanaqa yigitlar.

— Yoqutxon masalasida bo'lsa, hali kelishib olganimizdek, men so'roqqa tutayotganda hech narsani bo'yniga olmasinlar. Qiynayman, qo'rqitaman, aldayman ham. Lekin qo'lga tushgan paytdagi tilla tangalar ham, taqinchoqlar ham derazadan tashlab qochgan ayolniki, deb turib olsinlar.

— Yaxshi.

— Yo'q, to'xtang, muncha shoshasiz, — yelkasini yana bir qashlab oldi Jo'ra Usmonovich, — mehmonxonadagi Mohira bilan ham ertalabgacha qolishingiz zarur. U ham kecha bergan ko'rsatmalaridan tonsin, bugungisi rost deb turib olishi shart. Unutmaysiz-a? Uning ko'rsatmasi keyingi ishlarimiz uchun hal qiluvchi bo'ladi. Lekin mening yelkamga og'ir vazifa yukladingiz-da. Qurib ketsin o'sha berayotgan sariq chaqalaring... Boring endi. Yo'q, to'xtang, bu ukamning oti nima edi, Zafar? O', juda zo'r ism ekan-ku! Bundan keyin Solih Qosimovich, siz biznikiga kelmasangiz, shaharda otning qashqasideksiz. Bir-birimizni ehtiyot qilishimiz kerak. Yaxshisi, Zafarjon orqali bog'lanib turamiz.

Yana yo'lga otlandik. «Volga» qing'ir-qiyshiq ko'chalardan tez yurib boryapti. Zog' uchmaydi, hamma uyquda, goho adashgan it, yo'lni kesib o'tgan mushukka ko'zimiz tushib qoladi.

— Ish degan mana bunaqa bo'ladi, — tarsillatib tizzamga urdi tog'am. Mudray boshlagan ekanman, cho'chib tushdim.

— Sen hali mulla Zafar, tog'angning kimligini bilmaysan. Militsiya urug'i bormi, bek desa qo'linga qo'nadigan qilib qo'yanman. Donga o'rgatganman-da ularni, kaftimda beraman, kaftimda!

Uyqu zo'r narsa-da. Qattiq suyanchiq par yostiqdek tuyula boshladi. Uyqu bilan uyg'oqlik o'rtasida turganimni, hamma narsa xira tortib nursizlanayotganini, mashina, tog'am, ko'chalar tuman ichida chayqalayotganini arang eslayman. Keyin uxlab qolibman. Nimadandir cho'chib uyg'onib ketdim. Ko'zimni yirtib-yirtiq ochib atrofqa qaradim, tong o'tay deb qolibdi. Hali ilohiy bir go'zalligi bilan maftun etib, qalbinga behisob quvonch bag'ishlagan to'lin oy endi osmonda

ko‘rinmayapti, uxlagani uyiga ketganga o‘xshaydi. Tog‘am tashqarida, yonida ikkita begona odam ham turibdi. Yo‘q, begona emas, tanidim. Tog‘am bilan birga ishlashadi. Biri qariroq, boshqasi yosh. Boshi ingichka ekan, sariq sochi makka so‘taning popugidek yuzini o‘rab turibdi.

— Gap shu, — deyapti tog‘am, — sizlar soat o‘n birlarda uyg‘ur xotinnikiga lag‘mon yegani borgansizlar. Axir har kuni borib turasizlar-ku!

— Yo‘q, kunora boramiz, — deyapti keksarog‘i.

— Xullas, ikkovlaring kecha borgansizlar...

Demak, bular guvohlar. Tog‘am ularni ham uyqusini buzib uyg‘otib chiqibdi. Xayriyat, oyijonimning ishi o‘nglanib ketadiganga o‘xshaydi. Qaytib mashinaga kirdim-da, yana uxlab qoldim.

XV BOB

Uyg‘onsam quyosh ko‘tarilib qolgan ekan. Lutfi xolam ajoyib-da, hovlini yog‘ tomsa yalagudek tozalab supurib, suv sepib, so‘riga nonushta tayyorlab qo‘yibdi. Negadir turgim yo‘q. Tungi yugur-yugurdagi charchog‘im hali tarqamabdi... O‘y surib ketdim. Qiziq ekan bu dunyo. Kecha ertalab hammamiz shodu xurram edik. Hozirgi ahvolimizni qarang endi, hammayoq ostin-ustun bo‘lib ketdi-ya. Dadam bilan oyijonimning xomtalashga tushib qolganini aytmaysizmi?! Qiziq, juda qiziq-a... Bitta kino ko‘ruvdim, o‘rmondami, Afrika sahrolaridamidi — kuchli bir hayvon kasallanib, ojiz bo‘lib qolgandi. Boshqa paytda yaqiniga yo‘lolmaydigan yirtqichlar ustiga tashlanib, biri oyog‘idan, biri biqinidan, uchinchisi yelkasidan tishlab ko‘z yumib ochguncha go‘shini yeb, quruq suyagini qoldirishadi. Ha, esladim, «Hayvonot olami» ko‘rsatuvida shunaqa bo‘luvdi... Qiziq, dadajonim bilan oyimning shu paytdagi ahvollari o‘shanga o‘xshab ketyapti. Bittasi o‘rtada turib ishni sal yumshatib berish uchun bir quticha tillo taqinchoqni garovda ushlab o‘tiribdi. Sadir Badalovich bo‘lsa, dadamning qadrdon o‘rtog‘i-ya, «Volga»mizni so‘rayapti. «Volga»ya, «Volga»! Uchinchisi, e, tavba, bitta protokolni qaytadan yozish uchun qanchadan-

qancha tillalarimizni cho'ntagiga urmoqchi. Xo'p, ular begona, mayli, bilganini qilishsin. Tog'am-chi, oyijonimning akasi-ya! Gapni qarang, xizmatimga falonchining nomidagi uchastkangni berasan emish. Bu qandoq bo'ldi-a? Yo'q, to'xtang, o'zi qanaqa odamlar bular, yaxshimi, yomonmi?

Hammalari ham ota-onamning qadrdonlari, to'yu ma'rakalarini birga o'tkazishadi, kurortdan qaytganda muborakbod qilgani kelishadi, kasal bo'lib qolishsa bir-birlariga tog'orada qazili norinlar olib borishadi... Yo'q, bular yomon odamlar emas, yomon deyishga haqqim yo'q... Unda shular davrasida yurgan oyijonim bilan dadamni ham yomon otliqqa chiqargan bo'laman. Men ularni ikki dunyoda ham yomon demayman. Yo'q, ular mehribon, saxiy, rahmdil. Kecha boshlangan o'yinni o'rmondagi yirtqichlarning harakatiga o'xshatib chakki qildim. Yirtqich emas, madaniyatli, saxiy, rahmdil hammalari. Faqat tog'am aytganidek, o'rtalarida bexosdan qaltis o'yin boshlanib qoldi. Jinoyat — qonun — pul o'yini bu. Tog'ajonim haq, katta bosgan katta oladi. Jinoyat bilan qonun olishadi, shafqatsiz olishadi. Pul goh vositachilik, goh sudyalik qiladi.

— Oyim qani? — deb so'radim darvozaxonada pishillab mopedining g'ildiragini almashtirayotgan Zufardan.

— Uyg'ondingmi? — so'radi ukam ham.

— Allaqachon uyg'onganman.

— Oyinni yana militsiyaga chaqirib ketishdi.

— O'zlari kelib olib ketishdimi yoki telefon orqali chaqirishdimi?

— Bitta mo'ylovli militsioner keldi.

— Nega meni uyg'otmadilaring?

— Uyg'otdik, o'zing uyg'onmading.

Ko'pam tashvishga tushmadim. Tuni bilan qilgan harakatlarimiz tufayli endi oyijonimning ishi ancha oson ko'char, Jo'ra Usmonovich jinoyatni yengillatuvchi protokolni qayta yozgan bo'lsa, o'shanga imzo chektirish uchun olib ketishgandir, deb o'yladim. Nonushtaga o'tirgim kelmadi. Ishtaha yo'q.

Tomog'im quruqshab qolgan ekan, suv ichdim.

Akamning oldiga kirdim. Taxta randalab o'tiribdi. Ishni xiyla barvaqt boshlaganga o'xshaydi — qiqiqlarga ko'milib ketibdi.

Nega kirding, degandek bir xo'mraydi-yu, darrov boshini egib oldi. Keyingi paytlarda u rangli gultuvaklardan tashqari yog'ochdan qushlar, hayvonlar shaklini yasashga ham berilib ketgan. Xonasi hayvonot bog'ining o'zi deysiz. Uchib borayotgan, yerga sho'ng'iyotgan, men nomini bilgan, bilmaydigan katta-kichik qushlar, dumli, dumsiz, shoxli, shoxsiz to'qol hayvonlar... yog'ochdan nima yasash mumkin bo'lsa, nimaning qiyofasini o'xshatish qo'lidan kelsa hammasini yasay beradi. Keyin akam rang tanlashga ham usta. Parranda yoki hayvonning rangini aynan bera oladi. Ayniqsa, qochib ketayotgan quyon bilan qanotlarini keng yozib quvib borayotgan burgutning qiyofasini qilib qo'ygan. Har narsa bo'lay, bunaqa hayajonli, odamning rahmini keltiradigan darajada achinarli manzarani hech yerda ko'rmaganmiz. Bechora quyoncha o'lim changaliga tushmaslik uchun jonu jahdi bilan oldinga talpinyapti. Burgutning baquvvat, o'tkir tirnoqli panjalari quyonchaga yetay-etay deb turibdi. Hayot bilan o'lim uchrashgan! Qaysi biri zo'r bo'lsa o'sha yengadi. Suratga yana tikilib qoldim. Nega tikildim, bilmayman. Qiziq, qachon tikilmay o'zimcha biror ayanchli voqeani o'ylab ketaman. O'lim to'shagida yotgan bemornimi, ishqilib fojiali bir manzarani ko'z o'ngimga keltiraman-da. Bu gal, negadir, oyijonim bilan dadamni esladim. Chindan ham, o'zingiz o'ylab ko'ring, ular ham qochib borayotgan, ko'zlari javdirab atrofdan himoya axtarayotgan quyonchaga o'xshashmaydimi?! O'xshashadi! Akam quyonchani ko'zini behad katta qilib ishlabdi. Demak, hayvonning ko'zlari ham xuddi odamnikiga o'xshab qo'rqqanida katta bo'lib ketarkan-da. Akam shuni bilarkan. Men esa hozirgina sezdim... Ha, biz ham xuddi shu quyonchaga o'xshab hammayoqdan himoya kutyapmiz...

— Bor, nonushtangni qilib ol, — dedi akam qumqog'oz bilan silliqalayotgan bir parcha taxtachami yerga qo'ya turib, — bor, menga xalaqit beryapsan.

— Ishtaham yo'q, — dedim chiqib ketgim kelmay, — oyimni yana olib ketishibdi, endi nima qilamiz?

— Bilmayman.

— Nega bilmaysan?

— Menga qara, Zafar, sen o'zi g'alati bolasan-da. O'ylagin, axir, men melisa bo'lmasam, prokuror bo'lmasam, qayoqdan bilaman?

— Ataullo muallimdan so'ramadingmi? Ustozing hamma narsani biladi-ku!

— Piching qilma.

— Rostdan ham so'ramadingmi?

— So'radim, ishlaring bu gal hiyla chalkash, deyapti.

— Demak, bu gal ham bizning ustimizdan o'sha mualliming yozibdi-da bo'lmasa?

— Nega unday deysan?

— Chalkash depti-ku.

— Ukajon, sen o'zi aqllisanu baribir, hali ko'p narsaga tushunmaysan. Muallim yozmasa boshqasi yozardi. Boshqasi yozmasa davlatning o'zi tartibga chaqirib oladi. Axir o'zing o'ylagin, haromxo'rlik bugun bo'lmasa ertaga fosh bo'ladigan narsa-ku. Jon uka, bu haqda gaplashmaylik, men qiynalyapman. O'zimni osib qo'ygim kelyapti... Bor, nonushtangni qil, choy sovub qoladi.

Chindan ham boshimizga tushgan tashvishni hadeb muhokama qilavergan bilan akam o'zgarib qolmaydi, men ham o'zgarayman. Undan ko'ra dili vayron bo'lib o'tirgan shu akamga ikki og'izgina bo'lsa ham shirin so'z aytganim ma'kul. Unga qiyin, juda qiyin. Kechadan buyon kuyunaverib adoyi tamom bo'ldi o'ziyam. Nima desam ekan?

— Qush yasayapsanmi? — deb so'radim boshqa so'z topolmay.

— O'xshaydimi? — dedi akam suhbat mavzui o'zgarganidan mamnun bo'lib.

— O'xshaydi, faqat qanaqa qushligini bilib bo'lmaydi.

— Bulbul yasamoqchiman.

— Bulbulni ko'rganmisan o'zi?

— Bir marta ko'rganman. Hayvonot bog'iga qushlar keltirishganda, esingdami, dadam hammamizni olib boruvdi. O'shanda ko'rganman. Faqat ko'ziga yaxshi qaramagan ekanman. Uning ko'zlari qanaqa bo'ladi, sariqmi, ko'kmi, qisiqmi, dumaloqmi — bilolmayapman.

It qattiq vovulladi. Deraza tomonga shunday o'girilib, chuvalashib kirib kelayotgan odamlarni ko'rdik. Tinchlikmikin? Ie, dadam, dadajonim kelyapti-ku! Zufar ukam bilan achomlashib ketishdi. Oldilariga yugurdim. Orqa tomonidan men ham achomlab oldim.

— Dadajon!

— Bas, o'g'illarim, bas!

Uch minut chamasi o'pishib, yalashib turdik. Dadam o'pkasi to'lib, tomog'iga nimadir tiqilib gapirolmayapti. Kuylaklari g'ijimlangan, soqollari o'sgan, yosh mo'ltirab turgan ko'zlari ich-ichiga botib ketibdi.

Kelganlar militsiyadan ekan. Bittasida forma bor — mayor bo'lsa kerak. Pogoni qo'sh chiziqli, bitta yulduzi bor, xolos. Qolganlari formasiz, ozg'in, qotma odamlar. Qovoqlari soliq, g'amgin ko'rinishadi. Aftidan bajarmoqchi bo'lgan ishlaridan o'zlari mamnun emasga o'xshaydi. Ikki-uch daqiqadan so'ng yana bir mo'jiza yuz berdi, ha, ha, chinakam mo'jiza! E, xudoyim-ey, shunaqasi ham bo'lar ekan-da. Militsiya xodimlari qurshovida, yo'q kechagilar emas, butunlay begona militsiya xodimlari qurshovida oyijonim kirib keldi. Kira solib, hali bizning quchog'imizdan bo'shshga ulgurmagani dadamga qarab talpindi. Ko'ksiga boshini qo'yib shunaqangi dodlab yubordiki, biz-ku farzandlarimiz, hatto yetti yot begona bo'lgan militsiya xodimlarigacha bosh chayqab, xo'rsinib olishdi. Axir ular ham inson, qalbi bor, achinishgan bo'lsa ham ajab emas. Yo'q, achinishgani aniq. Bo'lmasa, ikkovlari gaplashib, mehrlariga qonib olishlariga bunchalik ko'p muhlat berishmagan bo'lardi, yaxshi odamlar ekan!

— Bas qilinglar endi, — hali men mayor deb atagan odam aytdi bu gapni.

Oyijonim bilan dadamni bir-biridan uzoqqa, o'ttiz metrlar chamasi nariga o'tqizib qo'yishdi. Nega bunday qilishdi, bilmayman. Ehtimol, ikki xil jinoyati bor, yaqin qo'ysak jinoyatlar bir-biriga qo'shilib ketadi, deb o'ylashayotgandir.

Qaytadan tintuv boshlandi. Menga desa endi uyning pollarigacha ko'chirib ketishsin. Faqat ota-onamizni tashlab ketishsa bas. Oyijonimning yuragi yana yomon bo'lyapti. Dori

hirdik. Qiziq, ichgan dorisi bilan militsiyaning necha pullik hi bor ekan? Qo'liga olib, hidlab ko'rib, so'ng ruxsat beryapti. Nega bunday qilisharkin, yo zahar ichib qo'yadi deb bo'rqishyaptimikin?

— Opajon, o'zingizni qo'lga oling, — dedi dorini hidlab bergan yigit.

— Bekorga bolalaringizni qo'rqityapsiz. Rostini aytsam, unaqamanzarani tomosha qilish bizga ham oson emas. Bo'ldi, ori ichishni ham bas qiling.

Yaxshi yigit ekan, rahmdil, mehribon. Ahvolimizga chinayotgani shundoqqina ko'zlaridan bilinib turibdi. Qani endi oyijonimni shu yoqimtoy yigit tergov qilsa, qanday soz bo'lardi-ya. Singlim ikkimiz oyijonim yonida, Akbar akam bilan Zufar dadamning oyoqlari ostida o'tiribmiz. Bir-birimizga arab mo'ltirashamiz, qani endi sehrli bir kuch paydo bo'lib, ammamizni bir yo'la faiokatdan qutqarsa. Axir, shunaqa boqealar ertaklarda ko'p bo'lgan-ku... Yo'q, yo'q, umidsizlikka erilmaylik. Tuni bilan yugurib-yelib salkam yuz ming so'mni hadya qilishga so'z berdik. Ana shu yuz ming mo'jizaga yilanadi. Qudratli kuchini ko'rsatadi. Shirin, totli hayotimiz ana iziga tushib ketadi... Jo'ra Usmonovichning o'zi nega elmadi ekan, hammasini tinchitaman devdi-ku? Ehtimol, tinchitish uchun bechora tog'amga o'xshab u ham oyog'ini o'liga olib, it quvgan soqovdek yugurib yurgandir. Shuncha adqovoq, jiddiy qiyofali militsiya xodimlari orasidan yijonimni qutqarib olib chiqib ketish osonmas axir.

Oyim bilan dadam goho odam bolasi chiday olmaydigan arajada g'amgin ko'z urishtirib olishyapti. Nigohlari mungli, o'zlarida yosh yiltillab turibdi. Nimalarni o'ylashyapti ekan? Oyim xo'rsinadi, tishlarini sindirgudek g'ijirlatib qo'yadi. Oyliklar ketib qolishidan qo'rqayotgandir. Tintuvchilar u onadan-bu xonaga juda sekin o'tishyapti. Ro'yxatga olinmagan hech narsa qolmadi hisob. Oyimning yetmishta o'yilmagan ko'ylagi, o'ttizta xalati, o'n ikkita modniy paltosi bor ekan. Akamga bir sandiq, menga bir sandiq mol tayyorlab, aylansak bizga hadya qilishni mo'ljallab qo'ygan ekan. Singlim Nigora tug'ilishi bilan oq unga alohida sandiq ajratib, topgan-

tutganini o'shanga tashlab yurganini hammamiz bilardik. Nigora, xudo xohlasa boy kelin bo'ladi, deb ko'nglimizdan o'tkazardik. O'sha sandiq ochilayotganda oyijonim oh deb yana o'zini tashlab yubordi.

XVI BOB

Tor ko'chaga yetguncha militsiya mashinasi ortidan Zufar, Nigora uchovimiz dodlab yugurib bordik. Qiziq, nega bunday qildik ekan, axir endi har qancha dodlaganimiz, ko'ksimizni yirtib har qancha faryod chekkanimiz bilan ota-onamizni tashlab ketishmaydi-ku! Nimadan umidvor bo'ldik ekan? Mayor qonundan tashqari harakat qilmayman deb bir necha bor aytdi-ku. Qonun... nima o'zi u? Tintuvga kelganlarning xohishi, mayorning irodasimi? Jinoyat deb ataladigan harakatga qo'yilgan tuzoqmi? Yo'q, aqlim yetmayapti. Nima deb ta'riflashni bilmayman. Axir men hali yoshman-ku, ko'p narsa o'qimaganman. Akam bo'lsa boshqa gap, u hamma narsani biladi. Lekin bir kechaga, faqat bir kechagagina bo'lsa ham ota-onamizni qoldirib ketishsa, mayli, besh mashina molimizni bermay qo'ya qolishsin, mayli, hovlimizni ham o'zlariga ola qolishsin. Baribir, unday qilishmaydi, har qancha yolvorsak ham ko'ksimizdan itarib tashlashdi-ku, demak qonundan ular ham qo'rqar ekan... Qiziq, qonun nima ekan o'zi? Nahotki bizning chumchuq boladek chirqillashimizga quloq solmaydigan, diydasi qattiq, shafqatsiz bir narsa bo'lsa! Axir biz bolalar jinoyatchi emasmiz-ku! Mana, Zufar faryod chekyapti, mana, Nigora yerda dumalab, tuproq changallab, boshini alam bilan uryapti, darvoza tagida majruh akam chalajon bo'lib yotibdi. Nahotki, qonun buni ko'rmayotgan bo'lsa, ko'z yoshlarimiz, faryodlarimiz unga zig'irchalik ta'sir qilmayotgan bo'lsa...

O'qimishli akam, qonunlar adolat va haqiqat yig'indisi, millionlarning birlashgan haqiqati, millionlarning adolati deydi. Bu gapni u kecha aytuvdi shekilli, ha, kuni kecha aytdi. Qiziq, bunaqa mening aqlim yetmaydigan gaplarni akam qayoqdan bila qoldi ekan?.. Qiziq, qonunlar millionlarning hukmi, irodasi bo'lsa unda dadam bilan oyijonim ana shu, millionlarning xohishi bilan

noqqa olib ketilayotgan ekan-da. Demak, ota-onamizning rakatida millionlarga ma'qul tushmaydigan, asabini buzib, dini qo'zg'aydigan jihatlari bor ekan-da, bizni ko'cha tasida bo'zlab turishimizning bosh sababchisi qonunlar emas, hukli dadajonim, mehribon oyijonimning qilmishlari ekan-da? Ihtokki shunday bo'lsa! Yo'q, bu gaplarni akam ichidan to'qib qarayotganga o'xshaydi. Oyijonim bizni yaxshi ko'rardi, yeru'kka ishonmas edi. Dadam biz uchun jonini berishga tayyor edi. Nimaiki qilayotgan bo'lsam hammasini sizlarni deb aytipman, sizlarni deb o'zimni o'tga, cho'g'ga uryapman, sizlarni bog'zi katta ajdaholar bilan olishyapman deb, bir emas bir cha bor aytgan. Goho kayf bilan, goho kayfsiz, goho kulib, goho ko'zida yosh bilan aytgan...

— Dadajonim, — deb alam bilan bosh chayqayapti Zufar.

— Oyijonim! — deb yer mushtlayapti Nigora.

O'zim esa serrayganimcha turibman. Chuvalashib kelayotgan qizlarimni, uncha aqlli ham, uncha ahmoqona ham bo'lmagan qizlarimni ulohazalarimni to'xtatolmayapman. Yo'q, akam, ota-onamizni qayginsiz ayblab kelayotgan majruh akam nohaq, deb o'ylayman. Ana. Ular biz uchun jafo chekishdi, biz uchun qamoqqa ketishdi. Ular hibatli bilarmon tog'am aytdi-ku, qonun va jinoyat o'yinida goh unisi, goh buni ustun kelib turadi deb. Pul, boyluk vositachi. Kimning qo'li baland kelishi ana shu vositachiga bog'liq. Tog'amga qo'lonam, tajribasi ko'p, ikki bora qamalib, olishaverib puxta qo'lib ketgan. Kechadan buyon ozmuncha yugurdimi? Hozir ham qo'lonalloslab yurgandir. Jo'ra Usmonovich ham qarab o'tirmas. Hozir huncha pul uni tinch qo'yarmidi?! Jinoyatni yo'qqa chiqarish uchun yo'l axtarayotgandir. Ehtimol, kunbotarga qolmay ota-onamizni qaytarib olib kelar. Tog'amning mashinasida kelishsa, qo'lonanday soz bo'lardi-ya!

Atrofimizni odamlar qurshab olganini sezib qoldim. Qo'ni-ning o'shnilar, o'tkinchilar... birovi vodoprovoddan hovuchlab olib, qo'lonufarga suv ichiryapti, birovi Nigorani turg'izib, chang-chungini qo'lonqoyapti.

— Bas qilinglar, yig'i bilan ish bitmaydi, — deyapti yana qo'lonpittasi.

— Ona qizim-ey, — deyapti boshqasi.

Singlim turg'izishlari bilan yana o'zini tashlab yuboryapti. Kimdir ko'tarib oldi. Zufarning ham qo'ltig'idan olishdi. Bu yerda turishimizni uyatga yo'yishdi shekilli, uyga boshlashdi. Qabristonga dunyodagi eng mehribon odamini qo'yib kelayotganda kishi qay ahvolga tusharkin, nimalarni o'ylarkin? Yaqin kishimiz o'lmagan, tobut ortidan ergashib qabristonga ham bormaganman. O'sha paytda qanaqa kechinmalar bo'lishini bilmayman. Lekin hozirgi ahvolim, nazarimda, o'shandan ham battar edi. Vujudimni yolg'izlik, xo'rlik hissi qamrab oldi. Odamlarni ko'rmayman, nima deyishyapti, eshitmayman. Ehtimol, bechoralar tirik yetim bo'lib qolishdi-ya, deyishayotgandir, ehtimol, bu kuningdan battar bo'l, deyishayotgandir. Xo'sh, endi baribir emasmi?

Oyijonim yo'q!

Dadajonim yo'q!

Bechoralar, bizni deb qamoqqa ketishdi.

— E, bas qil yig'ini, kap-katta yigitsan-a! — xolam, Barno xolam aytdi bu gapni. Ko'zim yaraqlab ochilib ketgandek bo'ldi. To'g'ri-da, xonadonning kattasiman. Yig'layversam uyat bo'lar. Ko'chaga to'plangan tomoshabinlar mashina ortidan yugurib ketganimizda yopirilib hovliga kirishgan ekan. To'p-to'p bo'lib suhbatlashishyapti. Qiziq, nimalarni gaplashishayotgan ekan, hoynahoy bizning ustimizdan kulishayotgan bo'lsa kerak. Ana, tog'amning xotini Barno xolamning qulog'iga nimanidir shivirladi. Ikkovining ham qoshi chimirilib ketdi. Qatiqchi Sharofat opa nonvoyning xotiniga hovlining o'rtasida turgan qopqog'i ochiq chamadonni ko'rsatib yelkasini qisib qo'ydi.

— Yo'qol hammang! — qichqirib yubordim, — yo'qol deyapman.

Barno xolam yonimga yugurib keldi:

— Hoy, o'zingni bossang-chi.

— Siz ham yo'qoling! — battarroq qichqirdim.

— Voy bolaginam, sizlarga ham osonmas! — shunday deb qatiqchi xolam birinchi bo'lib chiqib ketdi.

Kech kirdi. Hovlidagi katta karavotda Bozorvoy amakim, xasis pochcham, yana ikki-uch erkak nimalarnidir maslahat qilishyapti.

— Beri kel, — deb meni chaqirdi Bozorvoy amakim.
— Gapingizni aytavering, — dedim yonlariga borgani egadir yuragim betlamay.

— Qovoq-tumshuq qiladigan paytmikan hozir, beri kel deyapman. Endi, ukam, mana bu amakilaring bilan ko'p arsalarni maslahatlashib oldik. Qarab turarmidik, qo'limizdan elgancha yordam beramiz. Said akam ham, Yoqutxon opamlar ham hammamizning valine'matimiz edi. Agar oyoqda turgan bo'lsak, o'shalar orqali oyoqqa turdik. Xabar olish kerak, shityapsanmi?

— Eshityapman, — dedim xo'rsinib.

— Qovog'ingni solintirma, jon uka. O'zimizniki o'zimizga yetib ortadi. Ha ana, mana bu boshqa gap. Sen Barno xolang kkkoving ovqat olib borasizlar. Bugun-erta oldilariga kirish oson, osmana tergov boshlanganicha yo'q. Nazorat ham uncha qattiq emas. Kunduzi ikkovlari ham militsiya xodimlari kurshovida edi, oldilariga borib bo'lmadi. Aytadigan zarur gaplari bo'lishi kerak. Biz, mana, amakilaring bilan maslahatlashib, o'zimizni panaga ola turganimiz ma'qul, degan qarorga keldik. Bunaqa paytda oshkora yordamdan pinhona yordamning nafi ko'proq tegadi. Tushundingmi?

— Tushundim.

— Borasanmi?

— Boraman.

— Lutfi, ovqating tayyormi? — deb so'radi mehribon amakim. — Barno xolang bilan birga borasanlar...

O'ngidan kelsa navbatchiga ellik-oltmish so'm beringlar. Bugun olsa, ertaga yana poylaydi. Maoshi ko'p emas u bechoralarning. Uncha-muncha "leviy" qilishmasa kunlari o'tmaydi. Lutfi, beri kel deyapman.

Barno xolam yo'l-yo'lakay bir-ikki yig'lab oldi, o'ksib o'ksib yig'ladi. Tug'ishgan opasi qamalib qoladi-yu, yig'lamaydimi? Yig'idan to'xtab, negadir, oyijonimni yomonlashga tushdi.

— Shu opamga hech tushunmadim-tushunmadim-da. Buncha molparast, buncha dunyoparast bo'lmasa. Bir dakki yedi, ikki dakki yedi — bas qilsa bo'lardi. Dunyodagi hamma

ayol zotidan ustun kelaman deydi. Nima keragi bor taqinchog' kiyimlik bilan shuhrat qozonishning. Voy tavba, voy tavbangdan ketay. Akam ikkovining tuprog'ini bir joydan olgan ekan-a, umrim shularning tashvishi bilan o'tib boryapti.

Ishimiz o'ngidan kelmadi, na dadamni topdik, na oyijonimni. Tuman militsiyasiga borsak, shaharnikidan xabar olinglar. deyishdi, shaharnikiga borsak, viloyat militsiyasida bo'lishlan mumkin, degan gapni aytishdi. Viloyat militsiyasining navbatchisi bunaqa ishlar bilan kunduzi shug'ullanish kerak. deb eshikni betimizga tarsillatib yopib oldi. Endi nima qildik. qayoqqa boramiz? Barno xolam yana vaysashga tushdi. Endi oyim uyoqda qolib, dadamni qarg'ashga o'tdi. Dunyoda qancha qarg'ish bo'lsa, hammasini bilarkan.

— Ochopat qishloqi, besh panjangni og'zingga tiqmay o'l, pismiqlik. Bolalaringni o'ylamabsan-da, mana bunaqangi sarson bo'lib yurishimizni ko'nglingga keltirmabsan-da. Oz-oz yesang ko'p yeysan, deb nasihat qilganlariga o'laymi. O'zlari esa oshaganda kirsovundek qilib oshar ekanlar. Hu, badnaf bo'lmay o'l, pora olgan qo'llaring go'rda chirisin.

— Xolajon, — dedim chiday olmay yer tepinib, — bas qiling.

— Nimani bas qilay?

— Dadamni qarg'ayapsiz-ku.

— Dadangni emas, aptekamizning mudirini qarg'ayapman. Ko'zingni qarg'alar cho'qigur hech birimizga kun bermay qo'ydi. Xudoning bergan ko'pi sotuvchilardan o'n so'mu tayyorlovchilardan besh so'mdan, oladi-ya. Uying kuygur, shuncha pulni nima qilar ekan. Xudoyo topgan puling yil oshingga buyursin.

— O'zingizning eringiz-chi pochcham-chi, u qilmaydimi bunaqa ishlarni?

— Pochchangni ham hozir kimlardir qarg'ayotgandir.

— O'zingiz ham qilarkansiz, har kuni o'n so'mdan beraman dedingiz-ku.

— Voy, jiyanginam-ey, kuygan yuragimni battar kuydirma. Bu zolimlar bizni majbur qilishadi-da.

— Dadamni ham majbur qilishgan bo'lishsa-chi?..

Barno xolam javob qaytarmadi. Qaytarmasa qaytarmas, nima deyishni o'zim ham yaxshi bilaman. Qaytaga biron achchiqroq

so'z aytsa, dilimning og'rigani qoladi. Nima bo'lganda ham u mening dadam, dadam haqida yomon gap aytishga hech kimga ruxsat bermayman... Bordi-yu, hozir to'ppa-to'g'ri mahallamizdagi Turob militsiyalikiga borsak-chi? Uyida bo'lsa, hamma gapni o'shandan bilsak-chi? Kichkina odammas — starshina! Starshina bo'lgandan keyin katta melisalar bilan aloqasi bo'ladi-ku, axir!

Fikrim xolamga ma'qul tushdi...

El yotar payt bo'lib qolgan. Endi avtobus yo keladi, yo kelmaydi. Taksist ham cho'ntagini pulga to'ldirib, uy-uyiga kirib ketganga o'xshaydi. Yo'lovchi mashinani o'n so'mga arang ko'ndirdik. Xayriyat, yotishmagan ekan, darvozalari lang ochiq. Ko'p kelganman, meni ham, xolamniyam yaxshi tanishadi. Yo'tala-yo'tala kirib boraverdik. Hovli o'rtasidagi karavotda jamuljam bo'lib o'tirishgan ekan. Ayvonga ekrani katta rangli televizor, avvalgi kungi boks musobaqasining yakuni ko'rsatilyapti. Hammalari o'shanga mahliyo.

— Voy, Barnoxonmisiz, qanday shamol uchirdi? — popopchi xola ko'rishish uchun ikki qo'limi keng yozib karavotdan tushib kela boshladi, — anovi mushtlashayotganlarga mahliyo bo'lib, voy tavba, kirganlaringni payqamay ham qolibman. Keling, opasi o'rgilsin! Voy, mana bu yigitcha Yoqutxonning erkasi-ku! Voy xudoyim-ey, xush kelibsizlar. Yuringlar, ayvonga o'ta qolaylik. Hoy, Arofat, ko'rpacha olib chiq, qizim. Boshlaringga tushgan tashvishni eshitib, kechadan buyon ko'ngil so'rab boraylik deyman. Dadasining vaqti bo'lmaydi.

Popopchi xola deymiz uni. Gulli palaklar tikadi, mashinachilikdan ham xabari bor. Oyijonim ba'zi kiyimlarini shoshib qolganda tiktirib turardi. Qo'li gul xola ham deyishadi. O'zi bog'chada ishlaydi. Oyijonimning aytishicha, bolalardan ortgan ovqatlarni mollariga olib ketish uchun shu qora ishga rozi bo'lgan ekan. Hozir ham hovlilarining etagi to'la mol. Ikki novvos, bir sigir erinchoqlik bilan kavshanishib biz tomonga qarab qo'yishyapti. Hovlidan gung, yangi urilgan pichan hidi kelyapti. O'zlari o'rganib qolishgan bo'lsa kerak, mening esa ko'nglimni aynitib yuboryapti. Arofat kosada qatiq olib chiqqandi, ho'play turib, o'qchib yubordim. Bog'chadan keladigan yuvindi aralash

sarqitlarni esladimmi, dimog'ni achitadigan go'ng hididanmi, bilmayman, o'rnimdan turib ketdim...

Xayriyat, xolam tezgina qo'zg'aldi. Turob militsiya yo'q bo'lgani uchun dostonimizni yozmay qo'ya qoldik. Nimadandir yuragimga g'ashlik tushdi. Oila jamuljam bo'lib g'amsiz, tashvishsiz, rohat-farog'atda o'tirgani uchunmi, mehribonlarimiz haqidagi eng so'nggi ma'lumotni ololmay, ovqat solingan ikkita qora sumkani salanglatib qaytayotganimiz uchunmi, bilmayman, oyog'im ostidagi yerni tepib-tepib yuboryapman.

Lutfi xolam boshliq qo'ni-qo'shnilar kutib o'tirishgan ekan, hech qanday xabar keltirmaganimizni eshitib, hafsalalari pir bo'ldi shekilli, asta-sekin tarqala boshladilar.

Barno xolam biznikida yotib koldi.

Ayvonga qator joy qildik. Majruh akam ham yonimizga chiqdi. Hamisha bizdan qochib begonasirab yashardi. Bugun nega chiqdi, bilmayman. Hech birimizdan sado chiqmaydi. Biron narsa so'ragani botinolmaymiz. Nigora har kuni oyijonim bilan achomlashib yotardi-da, xolaning yoniga yota turib, o'shani qo'msadi shekilli, yana yig'lab yubordi.

Oy bugun ham juda yaqindan chiqdi. Xuddi tomimizning tepasida turgandek. Oq, ko'kish nurlar hovlimizni qoplab ketdi. Allaqanday xayoliy, yumshoq, kishini allalab taniga orom beruvchi poyonsiz bo'shliq ichida qolgandekmiz. Uyqu elita boshladi shekilli.

Darvozaxona qo'ng'irog'i chalinib, itimiz vovillab yubordi.

— Oyim!

— Dadajonim! — hammamiz sakrab turib darvozaxonaga yugurdik.

Kelgan Turob aka ekan. Uf, ha mayli. Popopchi xola ham birga kelibdi. Qo'lida katta tugun, tog'ora bo'lsa kerak. Oq dasturxonga o'rab olishibdi. Hovlidagi chiroqlarni yoqib, ayvonga joy qildik. Keltirganlari shirguruch ekan. Aftidan otanalari qamoqda, g'irt yetimchalar ochu nahor o'tirishgandir deb o'ylashgan bo'lsa kerak. Xo'rligim kelib, bir luqmasini ham yutolmadim. Og'zini poylayapmiz. Tezroq gapira qolsa-chi...

— Ha, endi, — nihoyat gap boshladi Turob aka, dunyo shunaqa ekan-da. Qayoqdan ham shu xizmatga kirgan ekanman,

har kuni dilisiyohlik, ko'zyoshi. Yurak qurg'ur chidamay qoldi. Yana ikki yil sabr qilsam nafaqaga chiqib ketaman. Bitta-yarimta kolxozga borib molboqarlik qilsammi deb turibman. Keng dalalarda bir yayrab yashay. Endi, bolalarim, dunyo shunaqa ekan. Yaxshi kunlarda hamma ham yashay oladi, og'ir kunlarga esa odamning mardi chidaydi. Mard bo'linglar, onalaring ham, afsuski, qamoqqa olindi.

— Nima?! — Nigora bilan Zufar o'rinlaridan turib ketishdi.

— O'tir, bolam, ehtimol bir-ikki kundan keyin chiqarib yuborishar. Tog'alaring Solih boyvachchaga ham order yozishdi.

— Uniyam qamashdimi?

— Qamab qo'yishdi.

Tovonimgacha muzlab ketdi. Nafasim qisilganini sezdim. Turob akaning og'ir, bosiq, xuddi allakimning qatli haqidagi xabarga o'xshash g'amgin ovozi qulog'imga yo kiriyapti, yo kirmayapti. Vujudimda o'qtin-o'qtin qaltiroq turib, tishlarimni taraklatib yuboryapti.

...Bir necha kundan so'ng eshitdim. Jo'ra Usmonovich bilan bechora tog'ajonimning harakatlarini zimdan, izma-iz kuzatib yurishgan ekan. Tilla tangalar, zayomlar, pullarni bo'lishib olishayotganda, to'g'rirog'i bo'lishib olib uylariga endi yetganda qo'lga tushishibdi. Eng xunugi, ha, ha, hammasidan xunugi tintuv haqidagi protokol bilan kechasi yozilgan qalbakisi ham barobar qo'lga tushibdi...

— Endi, bolalarim, chidaysizlar. Boshqa iloj yo'q. Qonunlarimiz adolatli, hukumatimiz adolatparvar, nohaqlikka yo'l qo'ymaydi. Dadalaring bilan onalaring haq bo'lsa — qo'yib yuborishadi. Jinoyat qilishgan bo'lsa, nachora, jinoyat jazolanishi kerak. Yig'lamanglar, foydasi yo'q endi. Mana, popopchi xolalaring, mana men xabar olib turamiz, sizlarni yolg'izlatib qo'ymaymiz, yig'lamanglar deyapman. Bo'lmasa men ham yig'lab yuboraman. O'zimni zo'rg'a ushlab turibman. Nachora, kasbimiz shunaqa, o'zimiz qamab, o'zimiz yig'lab o'tiramiz...

IKKINCHI QISM

JAZO

I BOB

Nega endi tog'amni qamashadi, nega? O'rtada turib qarindoshlariga yordam bergani uchunmi, bir-birini axtarib topolmay yurgan ikki odamni uchrashtirib, hojatini chiqargani uchunmi, yaxshilik qiladi-ku axir, yaxshilik qilgani uchun nega qamashadi? Xo'sh, o'sha bir-birini axtarayotganlarni uchrashtirganda besh-o'nta tilla tanga, besh-o'n ming pul olibdi, olsa nima. Birovniki emas, bizniki, biz rozimiz-ku! Turob aka, hay-hay, tog'alaring katta jinoyatga qo'l uribdi, jinoyat bilan qonun bir-biriga qattiq tikilib turganda o'rtaga tushib vositachilik qilish bir jinoyat bo'lsa, shu vositachilik paytida ta'magirlik qilib pul yoki shunga o'xshash biror narsa olsa - bu ikkinchi jinoyat bo'ladi. Tog'alaring Solihboyvachcha uchinchi jinoyatga ham qo'l urgan. Ya'ni halol ishlab turgan kishilarni yo'ldan urib, jinoyatga yetaklagan. Hay-hay, boyvachcha tog'alaring o'n yildan kam olmaydi, degan gaplarni aytdi.

Kecha ertalab Zufar ikkovimiz tog'amnikiga xabar olgani borsak, hammalari yig'i-sig'i qilib o'tirishgan ekan. Kelinoyim, hu katta yeb, chiroyli kiymay o'llaring, erimni ham jinoyatchi qilib qo'ydinglaring, deb bizni oldiga solib haydab yubordi.

Nima qildik endi, qayoqqa boramiz?

Dadam bilan oyijonim hozir shahar militsiyasida. Bir binodayu, boshqa-boshqa xonada yotishibdi. Oldilariga kirish uchun Zufar ikkovimiz harchand urinsak ham bo'lmadi. Tergovchi ruxsat berishi kerak ekan. Tergovchining kimligini bilib bo'lmayapti. Hammasi yelka qisadi. Zufar ukam birov bilan gaplashganda pastu-balandini surishtirib o'tirmaydi. Gardkamchi, xuddi tog'amning o'zi-ya, tavba! Ana shu ukam andak bo'lmasa ishni yana chatoqlashtirib qo'yishga sal qoldi.

Shahar militsiyasining navbatchilar xonasiga bir kirdik, ikki kirdik, ruxsat ololmagach, tashqariga chiqib ketayotgan edik, ukam:

- To'xta, bir ilojini qilaman, — dedi.
- Nima qilasan? — shoshilib so'radim.
- Ishing bo'lmasin.
- Menga aytgin axir.

Yo'q, Zufar qaysar, aytganini qilmasdan qo'ymadi. Orqasidan ergshadim.

— Amaki, dadamning oldiga qo'ysangiz, xudo ursin agar, juda katta pul beramiz, — deyotganini eshitib qoldim.

— Pullaring ko'pmi? — beparvogina so'radi melisa.

— Juda ko'p.

— Qani, chiqar-chi.

— Hozir yonimda yo'q-da.

— Yo'q pulni gapirayotgan ekansan-da?

— Nega bo'lmasin, bor. Kassada, dadam hammamizning nomimizga alohida-alohida pul qo'ygan.

— O'h-ho', boy ekansizlar-ku. Xo'sh, qancha berasan menga?

— Qancha desangiz shuncha.

Halidan buyon melisa amakining jundan to'qilgan arqondek qalin qoshlari g'alatiroq chimirilib turuvdi. Endi to'satdan past-baland bo'p ketdi. Kafti bilan peshtaxtani bir urib, to'siqdan aylanib o'tdi-da, ukamni yelkasidan changalladi:

— Qani, yur, dadangning oldiga bir yo'la olib kirib qo'yaman. Qaytib chiqmaydigan bo'lasan. Qamoqqa o'z oyog'i bilan kelganlarni yaxshi ko'raman. Pora berarmish-a, e, poraxo'ring bolasi, yur buyoqqa!

Qamoq degan so'z ikkimizga bir xilda ta'sir qildi. Mening borlig'im muzlab ketgandek bo'ldi.

— Zufar bo'lsa melisaning qo'lidan chiqib shunaqangi qochdiki, bekatgacha orqasidan yugurib bordim.

— Ahmoq, nima qilib qo'yding! — dedim entikib.

— Nega knijkadagi pulni aytding?

— Pul o'zimizniki, bilganimni qilaman.

— Bekorlarni aytibsan.

Uyga yetguncha bir-birimizga xo'mrayishib bordik. Qishloqdan Bibiqiz ammam bilan pochcham kelishibdi. Ammam bizni jonidan ortiq ko'radi. Qachon bormaylik yig'lab ko'rishadi. Sizlardan otam bilan onamni hidi kelib turibdi, deb bag'riga uzoq bosadi. Kechasi yonida olib yotadi. Eh, borganimizda uning yayrab ketganini bir ko'rsangiz edi... Ming xil ovqat, ming xil ho'lu quruq meva, ayniqsa yog'li qurtni aytmaysizmi?! Yoshligimdan qurtni yaxshi ko'raman. Buni ammam biladi. Borgunimizcha xaltalarni to'ldirib qo'yadi. Keyin mana shu ammam yil osha bizga ichiga oq jun solib tikilgan yengsiz nimcha tikib keladi. Goh kiyamiz, goh kiyamaymiz. Ko'pincha oyijonim qo'shnilarining bolalariga hadya qilib yuborardi. Qishloqi bolalarga o'xshab qornilaringni qappaytirib yurasizlarmi, uyat-ey, deb urishib bergan paytlari ham bo'ladi.

Pochcham... yo'q, to'xtang, avval sizga uni ham tanishtirib qo'yay. Tanishtirmasam bo'lmaydi. Juda kamgap, gapirganda kulib gapiradigan odati bor. Hikmatli maqollarning zo'rini biladi. Goho gapirmoqchi bo'lsa maqol aytib qo'ya qoladi. Ammamning aytishicha, mana shu pochcham molxonada tug'ilib, ho'kizlarning tagida katta bo'lgan ekan. Hozir ham fermada ishlaydi. Bita-yu bitta ordeni bor. Kechasi-yu kunduzi taqib yuradi. To'yga borgandayam, azaga borgandam ko'kragida yiltirab turadi.

Duradgorlik, bog'bonlik, yamoqchilik, eh-he... qo'li gul-da uning. Ammamning aytishicha, qushda tinim bor, qumursqada tinim bor, unda tinim bo'lmas ekan. Mana hozir ham ammam majruh akam bilan tirik yetim Nigora singlimni bag'riga bosib o'tiribdi. Pochcham bo'lsa gulzor oralab o't yulyapti.

Hatto yangi kiyim kiyganida ham hamisha molxonaning hidi kelib turgani sabab oyijonim pochchamni uncha xushlamaydi. Kuyovingizga ayting, biznikiga kelayotganda avval hammomga tushib olsin, derdi. Dadam bu gapni pochchamga bir emas, bir necha bor aytgan bo'lsa kerak. Bir kuni pochchamning: "E, Saidjon aka, biz sizlarga o'xshab yiltiroq stollarda o'tirmaymizki, yoqamizni oppoq qilib, yuzimizga atir sepib olsak. Uyog'ini surishtirsangiz, aslida erkak kishidan atirning

hidi emas, molxona-yu, terning hidi kelib turgani ma'qul. Eskilar, hamma mullo bo'lsa, podani kim boqadi, degan ekan", deb kesatiq aralash gapirayotganini eshitib qolganman.

Hoynahoy ko'ngil so'ragani kelgan ular. Bunaqa paytda dalada ish qizigan bo'ladi. Hozirgina kelishibdi shekilli, keltirgan sovg'alari bo'yi ikki qarich keladigan alyumin bidonda suzma, qatiq, to'rtta bankada shirava qaymoq, endigina rang urgan chillaki uzum, handalak... hamma hammasi shundoqqina ayvonning raxida turibdi, ichkariga olishga ulgurishmabdi. Ammam hali aytganimdek, kap-katta bo'p qolgan akamni yoniga o'tqizib, boshini tizzasiga olgan ko'yi silab-siypalab o'tirgan ekan:

– Voy, ana, toyloqlarim ham kelib qolishdi, – deb o'rnidan turdi, – ammalaring o'rgilsin, bo'ylaringdan girgитton bo'lay.

Qayta-qayta ko'rishdik. Ammaginam-ey, hamon avvalgidek qotma, oriq, yuzlari to'la tirish. Dadamdan yoshu, lekin ancha qari ko'rinadi. Qo'llari xuddi erkaklarnikidek katta, kaftlari dag'al. Pochcham gap-so'zsiz galma-gal bag'riga bosib yelkamizni ohista silab qo'ydi, xolos.

– Qani, gapir, toylog'im, nimalar bo'ldi o'zi? – dedi ammam entikib.

– O'sha o'zingiz eshitgan gap, – dedim.

– Yakka-yu, yolg'iz akaginamni nima qilib qo'yдилaring?

– Biz qilganimiz yo'q.

– Nima bo'ldi o'zi, gapirsang-chi, ammaginang o'rgulgur. Akangdan so'rasam, hiqillab yig'lab berdi. Ertalab eshitdik. Eshidig-u, buyoqqa qarab yugurdik. Kelsak, yana shumxabar... kelinoyim Yoqutxonniyam qamab qo'yishgan emish. Gapir tezroq.

Voqeani qisqagina so'zlab berdim.

– Ustilaridan chaquv tushibdimi? – so'radi ammam.

– Shunaqaga o'xshaydi.

– Qaysi go'ringda to'ng'iz qopgur qildi ekan bu ishni?

– Bilolmadik.

Ichkaridan Zufar bilan Nigora quvalashib chiqdi. Singlim selofan xaltadagi har bittasi mushutumdek mushtumdek keladigan qurtни bag'riga mahkam bosganча himoyachisi – ammam tomon yugurib keldi.

— Ammajon, ayting, bu qurtlarni menga keltirgansiz-a?
— Senga popugim, senga.
— Ayting, mana bunga, bitta bersam tag'in berasan deydi.
— Bera qol qizim, hammasini yeyolmaysan, iching achib ketadi.

— Achimaydi.

Ammam quchog'ini keng ochib Nigorani bag'riga olib, himoya qildi. Qurt to'la xaltani olib bizga ham hovuchimiz siqquncha ulashdi. Ko'nglim g'alati bo'p ketdi, yig'lagim keldi. Singlim qurtga ovunib bir nafas bo'lsa ham boshimizdagi tashvishni unutgani uchunmi, har qalay yolg'iz emasmiz, dunyoda ammamdek mehribon kishilarimiz ham bor, degan quvonchli fikr boshimdan yarq etib o'tgani uchunmi, ishqilib, ko'nglim allanechuk bo'lib yig'lagim keldi.

— Yoqutxon kelinoyimni nega qamashdi? — surishtirishda davom etyapti ammam.

— Taqinchoqlar sotgani uchun.

— Voy tavba, taqinchoq sotganni ham qamasharkanmi?

— Qaydam.

— E, xudoyim-ey, qanaqa kunlarni solding boshimizga... Magazin to'la taqinchoq, oydek-oydek juvonlar sotuvchi bo'lib o'tirishibdi. Ularga tegmay, borib-borib mening kelinoyimni qamashibdi-da.

— Oyim... zargarlarnikini sotayotgan ekan.

— Voy tavba, zargarlarnikini sotsa nima qipti? Qaytaga ularniki pokizaroq bo'ladi, bismillo deb ishlashadi. Tumanimizda Eshon zargar degan yigit bor. Besh vaqt namoz o'qiydi. Yo'q, ammaginang o'rgilsin, gap boshqa yoqda. Dadang bilan onang keyingi paytda xudoni unutilib qo'yishdi. Yotgan-turganda bismilloni aytishmaydi. Arvohlar haqiga fotiha o'qimay qo'yishgan. Anavi kuni borganida onangdan xafa bo'ldim. Qirqqa kirgan juvon sochini kalta qirqtirib, tirnoqlarini bo'yatib olibdi. Axir, buning kasofati urmaydimi?

Mana endi kasofatiga yolg'izgina akaginam giriftor bo'lib o'tiribdi. Kasofat yomon narsa. O'ziga urmasa, yetti pushtiga uradi... Hoy dadasi, beri keling, shu yerda tinch o'tiring.

Pochcham qaddimi ko'tarib, ikki qo'lini beliga qo'ydi:

— Gullar, essizgina, nobud bo'пти-da, onasi.

— Beri keling deyaпman.

— Bu o'tlarni qara, xo'ra molga uch kunlik ovqat bo'ladi-ya. Iloji bo'lganda olib ketardim.

— Shahardan o't ko'tarib ketgani uyalmaysizmi?

— E, onasi, kerakli toshning og'iri bormi? Borguncha moling och yotadi, buni o'ylamaysan-da.

Pochcham qo'lini yuvib, belidagi oq belog'iga arta-gapira boshladi:

— Uyimga qaytib bormay, mushkulkushod o'qittiraman. Ko'rasan yetti marta o'qitsam mushkullari kushod bo'ladi. Buxgalterimiz ham qamalib qoluvdi, onasi o'qitgan edi, ellik kun deganda chiqdi-ketdi.

Pochcham qo'lini yuvгани ketdi. Ammam yana kuyinib orqa karavotga chiqti-da, ikki oyog'ini tagiga tortib chordana qurdi.

— Nima deysan? — deb so'radi ammamdan.

— Axir bu yerga o't yulgani kelmagansiz-ku.

— Nima qilay bo'lmasa?

— Axir bunday bir jiyanlaringizdan hol-ahvol so'rang, yordam-pordam kerakdur.

— Sen so'rayapsan-ku, ikkovimizga shu bo'ladi-da. Kerak bo'lsa, mana, hammalarini olib ketamiz. Ota-onalari eson-omon chiqquncha bag'rimizga bosib o'tiramiz, tashlab qo'yarmidik.

— Pul haqida bir narsa deng axir.

— Uniyam o'zing ayta qol, men o'rniga qo'yolmayman.

Goh ammam, goh pochcham chala-chulpa qilib so'zlay boshlashdi. Dadam, kerak bo'lsa ishlatarsizlar, bo'lmasa biror qora kunimizda asqotib qolar deb, uch-to'rt marta pul tashlab kelgan ekan. Pulni sanashmasdan shundayligicha kuya sandiqqa (bu sandiq rahmatli buvimiz bilan bobomizdan qolgan) tashlab qo'yishavergan ekan. O'shani qora brezent sumkaga solib olib kelishibdi.

— Nahotki, haligacha sanab ko'rmagan bo'lsangiz? — dedim xayron bo'lib.

— Pul sanashni uncha xushlamayman, jiyan, — dedi pochcham negadir hijolat bo'lgandek, yuz so'mdan uyog'iga adashib ketaveraman.

— Siz-chi, amma, siz ham sanab ko'rmaganmisiz?

— Akam sanagan bo'lsa bo'пти-da...

Qiziq, shuncha pulni, shuncha yillardan buyon sandiqlarida saqlab, loaqal sanab ko'raylik ham deyishmabdi. Ikkilanib qoldim. Olib qolsammikin yoki qaytarib olib ketganliklari ma'qulmi? Yo'q, bir sumka pulni olib qololmayman. Bir sumka-ya! Tintuvchilar yana kelib qolishlari mumkin. Yo bo'lmasa daragini eshitishsa, bitta-yarimta tovlamachi ilib ketishi ham hech gap emas... Lekin qancha ekan, o'n mingmi, o'n besh mingmi. Ehtimol, hammasi yuz so'mlikdir. Yo'q, nima bo'lganda ham dadamdan bir og'iz maslahat eshitmagunimcha o'zlarida turgani ma'qul.

— Voy-voy, qanday shamol uchirdi, egachi, — deya qulochlarini keng yozib Lutfi xolam kirib keldi. Ketidan Barno xolam, oyijoninning uzoq qarindoshlaridan yana ikki-uch ayol ham kelishdi. Suhbatlari aylanib borib yana qamoqxonaga taqaldi. Hozirgi qamoqxonalar xuddi kurortga o'xsharmish. Oppoq choyshablar, yumshoq o'rinlar, kunora kino, televizor, olimlar borib xalqaro ahvoldan ma'ruza ham o'qib turarkan. Bola-chaqaning intizorligi demasa, qaytaga o'sha yer ham durust emish. Bu gaplarni ataylab qattiq-qattiq ovoz bilan bizga qaratib aytishdi. Chekka-chekkada mung'ayishib turuvdik-da. Ko'nglimizni ko'tarmoqchi bo'lishdi shekilli.

— Endi bizga fотиha qilinglar, — dedi ammam qo'zg'alib. — Kechgacha yetib olmasak bo'lmaydi, aylanaylar. Sigirim sog'ilmasa, yelini emlanib qoladi.

— Voy, hali erta-ku, — dedi Barno xolam.

— Ovqatga unnayapman. Javob yo'q sizlarga, egachi, — dedi oshxonadan yengini shimarib chiqib kelayotgan Lutfi xolam, — bir cho'qimdan osh yeb ketasizlar. Uzoq yo'lga och-nahor jo'natmayman.

Fotihani ammamning o'zi o'qidi. Yo'l olis, jo'nashmasa bo'lmas emish. Pochcham ham ferma mudiridan ruxsatsiz kelgan ekan. Mollar xashaksiz qolsa, bo'kirib qishloqni boshiga ko'tarib yuborarmish.

— Endi, egachilar ruxsat bersanglar, jiyanlarimni olib ketsam, — dedi ammam. So'ng menga qarab, — hoy Zafarjon, tezroq bo'l akangni ham kiyintir, — deb qo'shib qo'ydi.

Hammalari hang-mang bo'lib qolishdi.

— Voy, nimalar deyapsiz? — dedi Barno xolam.

— Endi qudajon, — yotig'i bilan gap boshladi ammam, — o'zingizdan qolar gap yo'q, ko'pni ko'rgan, aqlli juvonsiz. Ota-onasiz bolalar mung'ayib qoladi. Akaginamning tilab-tilab olgan arzandalarini mung'ayib o'tirishiga qanday chidayman. Ota-onalari eson-omon chiqib kelgunchap bag'rimda bo'lganlari ma'qul. Hoy, dadasi, gapirsangiz-chi. Hali bular kelguncha nima deyotgan edingiz, o'sha gapingizni ayting.

— Sen aytding bo'ldi-da, — dedi pocham.

— Erkak kishining aytgani boshqa, — erkak so'zini qattiqroq aytdi ammam.

— Opajonlar, ruxsat bersanglar, jiyanlarni olib ketsak, — pochcham bundan boshqa gap aytolmadi.

Sal qoldi janjal chiqib ketishiga. Barno xolam, men o'lganim yo'q, xolalari bo'laman-a, hali tirikman-a, deb bobillab berdi.

Ammam bilan pochcham, biz endi sirasi gapni aytdik-da, deyishib qatitqdan bo'shagan, bidonu uzumdan bo'shagan qora sumkalarni salanglatishib, xijolat bo'lgandek xayrlashib ketishdi. Akam xonasini ichidan berkitib olgan ekan, negadir xayrlashgani chiqmadi.

To'planganlar anchagacha ammam bilan pochchamning to'poriligidan kulib, masxara qilib o'tirishdi.

— Pandavaqi qishloqilar, — dedi Barno xolam, — sodda mug'ombir bo'lmay o'llaring. Jiyanlarimni olib ketib bog'larida ishlatishmoqchi, shuni ochiq aytishsa bo'ladi-ku!

Osh tayyor bo'lgan ekan. Lutfi xolam karavotdagi ayol mehmonlarga alohida suzib, bizga ayvonga joy qildi-da:

— Cho'loqqinamni o'zim olib chiqay, kechadan buyon ovqat yemayapti, — deb akamning xonasi derazasidan qarab, shu zahotiyuq dodlab, hovlini boshiga ko'tardi.

Hammamiz o'sha yoqqa yugurdik. Eshik berk, deraza raxidan galma-gal sakrab ichkari kirdik.

Akam o'zini-o'zi osib qo'yibdi!

Bobomizdan meros tekkan ikki cheti baland qubballi temir karavotimiz bo'lardi. O'shaning tepasiga kaltagina chilvir bog'lab, tomog'iga olib o'zini yerga otibdi. Bechora akam! Hamma birdan chilvirga yopishdi.

Tirik ekan, nafasi og'irlashib xirillab turibdi. Ko'zlari olaygan, og'zining chekkasidan so'lak oqyapti.

— Cho'loqqinam, nega bunday qilding! — dodlayapti Lutfi xolam, — derazadan qaramaganimda ayrilib qolardik-ku, sendan. Bolaginam, shiringinam, boshimizdagi tashvish kammidi?!

Barno xolam dorixonada ishlaydi, doktorlikdan ham xabari bor ekan. Akamni dast ko'tarib, hovliga olib chiqib ayvonga yotqizdi-da, o'pkasiga ko'proq havo yuborish maqsadida bo'lsa kerak, ikki qo'lini ikki tomonga yozib, tushirib, ko'kraklarini silab, uqalay boshladi.

Nihoyat, akamning yuqoriga tortib ketgan ko'zlari o'rniga qaytgandek bo'ldi. Bizga, nima deyishini bilmay vahima ichida qotib turganlarga ma'nosiz, uzoq tikilib qoldi.

— Men o'lishim kerak, — arang shivirladi lablari. Keyin yana ko'zlarini yumib oldi.

Bir nafasda hovlimizga odam to'lib ketdi. O'zi uch kundan buyon mana bunaqa bosti-bostilarning ichida o'tiribmiz. Tavba, mahallamizning raisi Qosim akagacha yetib kelibdi-ya! Kimdan eshita qoldi ekan? Akamning tengqurlari, qo'shnilar, Turob akaning katta o'g'liyam kelibdi, o'rtog'i-da. Qamalib chiqqandan buyon Ataullo muallim akamdan boshqa hech birimiz bilan gaplashmas, uyimizga qadam bosmay qo'ygan edi. O'shayam chiqibdi. Akamning yoniga o'tirib, goh nimjon oyoqlarini silaydi, goh engashib yiltirab turgan peshonasida o'pib qo'yadi.

— Biznikiga chiqasanmi? — deb so'radi.

— Akam "ha" degandek yengil bosh silkib qo'ydi. Ataullo muallim akamni dast ko'tardi-da, Barno xolamning hay-haylashiga qaramay, chiqib ketdi.

II BOB

Akam esli yigit edi-ku, nega dunyodan ko'z yummoqchi bo'ldi, boshimizga tushgan tashvish kammidi, bir-birimizning ko'nglimizni ko'tarish, dalda berish o'rniga bizni tashlab ketmoqchi bo'ldimi, nega? "Men o'lishim kerak", hammamizga mo'ltirab turib shunday dedi-ya. Bu gaplar ota-onamizning

qulog'iga yetgudek bo'lsa, sochlarini yulib, boshlarini devorga urib yorishmaydimi!

Qo'ni-qo'shnilar chiqib ketgach, hovli huvillab qoldi — yutaman deydi-ya. Barno xolam Zufar bilan Nigorani olib uyiga ketdi, bolalarini olib kelmoqchi, ukalarimga ko'tartirib kelsa kerak. Oyijonimga o'xshab u ham bola ko'tarolmaydi. Nafasi qisib harsillab qolarmish. Ehtimol, shundaydir. Men ham ko'tarolmayman-ku, axir. Esimni taniganimdan buyon bu hovlida birinchi bor yolg'iz qolishim bo'lsa kerak. Boshimizga ketma-ket tushayotgan falokatlar tirik maxluqqa aylanib chekka-chekkadan menga xo'mrayib turganga o'xshaydi. Lutfi xolam ham nega darrov chiqib keta qoldi ekan? Qo'rqib ketyapman. Akamning og'zidan so'lak aralash ko'pik chiqib, xirillashi ko'z o'ngimdan ketmayapti... Qiziq, Ataullo muallim chiqishi bilan akam ko'zini ochdi, jilmaydi, qo'llarini uqalayotganda dokadek oqarib ketgan yuzlariga qizillik yugurdi-ya! Mana, hammaga ko'z-ko'z qilib, ikki qo'lda ko'targancha olib chiqib ketdi uni. Bu xonadonda joningdan to'ygan bo'lsang, menikida yayrab yashaysan, demoqchi bo'ldimi?

Yo'q, bu yutaman deb turgan hovlida ortiq yolg'iz qololmayman. O'rnimdan turib televizorni o'chirdim. Axir meni haydab yubormas deb, Ataullo muallimnikiga otlandim. Darvozalari ochiq ekan. Sizga, gultuvak yasashadi, deb aytuvdim shekilli. Hozir ham shu ishlarni tashlashmabdi. Hovlida gultuvaklar ko'pligidan qadam bosib bo'lmaydi. Ayvonda jamuljam bo'lib ovqatlanib o'tirishgan ekan. Bolalari gur etib o'rnilaridan turishdi.

— Ke, o'g'lim, kelaver, — deb Ataullo muallim ham qo'zg'alib qo'ydi. Xotini Zarifa xolam o'rnidan turib yelkamga qo'l tashlab ko'rishdi. O'tirishga taklif etib, akamning yoniga ko'rpacha to'shab berdi. Akam ma'yus, qilgan bema'ni harakatidan xijolat tortayotgan bo'lsa kerak, boshini egib olgan. Nazarimda ishtahasi ham yo'qqa o'xshaydi, oldidagi ovqatga qo'l ham urmabdi.

— Onasi, Zafarjonga ham ovqatingdan olib kel, — dedi Ataullo Isayevich, — chuchvaraga tobing qalay?

Muallim negadir quvnoq ko‘rinadi. Akamning ko‘nglini ko‘tarish uchun ataylab shunday qilayotgan bo‘lsa kerak. Bolalariga ish taqsimladi. Biri hovlidagi nimjon-nimjon gul ko‘chatlari o‘tqazilgan behisob tuvaklarga suv quya boshladi. Boshqasi hovli o‘rtasidagi gulzorga kirib nihollar ostiga hovuchlab go‘ng soladi. Ustaxonalari kengayib ketibdi. Yog‘och kesadigan stanok gurillab ishga tushdi. Katta qizi ataylab menga ko‘z-ko‘zlab, qo‘l mashinada chok tika boshladi. Qo‘g‘irchoqlarga ko‘ylakcha-yu lozimchalar tayyorlagan bo‘lsa kerak. Bosh barmoqdek-bosh barmoqdek mayda qo‘g‘irchoqlarga lozimni qanday tikar ekan, yuragi tars yorilib ketmasmikan? Nazarimda endi o‘g‘il bolalar ham hu o‘rtoq, mana ko‘rib qo‘y, biz o‘z mehnatimiz bilan kun ko‘ramiz, senlar tekinox‘r... mana endi ko‘radiganlaringni ko‘rasanlar, bu kunlaringdan battar bo‘llaring, deyishayotganga o‘xshaydi. Xo‘rligim keldi, siqila boshladim. Qornim och edi, lekin keltirgan chuchvaralariga qo‘l ham urmadim. Ovqating boshingdan qolsin, maqtanchoqlar, deb turib ketgim keldi...

— Xo‘sh, Zafar bolam, ot sayriga qalaysan? — to‘satdan so‘radi Ataullo muallim.

— Qanaqa sayr? — deya qiziqib so‘radim.

— Ertaga, — muallim boshini hamon egib o‘tirgan akamga nazar tashlab oldi, — ertaga, mana akang ham rozi, tog‘ sayriga otlanyapmiz. Giyohlarning tomiriga shira to‘planadigan payt bo‘ldi, bolam. Bir yilligini g‘amlab kelamiz.

Har yili toqqa chiqib giyoh g‘amlab kelishadi, qaynatib, hosil bo‘lgan yopishqoq suyuqlikni yasayotgan tuvaklarning ichi va tashidan surtishadi. Nam yaxshi saqlanarmish, tuvakni chirishdan ehtiyot qilarmish. Akamni har yili toqqa birga olib ketishadi, unga ham shunaqa giyohlar ko‘p kerak bo‘ladi-da.

— Lekin yana o‘zlaring bilasizlar. Tog‘ sayrini kechiktirsak ham bo‘laveradi, — yana akamga ko‘z tashlab oldi muallim, — boshlaringga tushgan tashvish, bolalarim chakana emas. Akang chiqsammi, deb turibman. Ham otani, ham onani bir vaqtda qamab qo‘yish yaxshi emas-da. Xo‘p ana, jinoyatchi bo‘lsa, avval tekshirsin, sud qilsin, keyin qamasin. Bo‘lar-bo‘lmasga

oborib tiqib qo'yaverar ekan-da. Ehtimol, bularning hammasi tuhmatdir. Bolalar qarovsiz, tarbiyasiz qolishini o'ylashmaydimi? Mayli, qonunga qarshi bir narsa deyolmaymiz, lekin sud oqini oqqa, qorasini qoraga ajratib berguncha otanimi, onanimi ochiqda qoldirishlari mumkin edi-ku!

— Prokurorga borsak-chi? — deb so'radim. Chunki nazarimda va oyijonimning ta'kidlashicha, prokurordan zo'rroq odam yo'q edi.

— Qamashga sanksiyani prokurorning o'zi bergan, bolam.

— Bersa nima qipti?

— O'z qarorini o'zi bekor qilolmaydi.

— Gazeta bekor qiladimi?

— Qiladimi, yo'qmi, hozircha bir narsa deyish qiyin. Lekin bolam, gazetada haq bilan nohaqlikni, qonun bilan jinoyatni tortib ko'radigan katta adolat tarozisi bor... eh-he, bolam, sizlar bilmaysizlar, ilgari men am tупpa-tuzuk muxbir edim. Ishchi muxbir deb atashardi bizni. Katta-katta majlislarga taklif qilishardi. Endi onda-sonda qatnashaman, qarib qolyapman qilishardi. Buning ustiga, mana ko'rib turibsan, ro'zg'or katta, shekilli. Buning ustiga, mana ko'rib turibsan, ro'zg'or katta, maktab, o'quvchilarimning tashvishi, vaqt ham yo'q. Eh, bolam, qonun organlarida ham goho shoshma-shosharlik, goho ta'magirlik, goho tavakkalchilik degandek kamchiliklar ham yuz berib turadi. Bir marta, ancha yillar bo'ldi bunga, respublika gazetasiga maqola yozib, shahar sudini ishdan oldirib tashlaganman...

Zarifa xolam oldimizga eski, bo'yoqlari ko'chib ketgan klyonka yozib, har xil shaklda qirqilgan laxtak-laxtak taxtalar, katta-kichik ish asboblari keltirib qo'ygach:

— Choylaringni yangilab beraymi? — deb so'radi.

— Yaxshi bo'lardi, — deb qo'ydi Ataullo muallim.

Suhbat uzildi. Muallim kesilgan taxta ustiga gul nusxasi tushirilgan qog'ozni yozib rang surta boshladi. Qog'ozni ko'targan edi, o'rnida men nomini bilmaydigan, g'alati bir gul paydo bo'ldi. Akamga ko'rsata turib:

— Qalay? — deb so'radi Ataullo Isayevich.

— Zo'r, — dedi akam. Xuddi shu payt uning jilmayganini ko'rdim. Xayriyat, dilidagi g'ussa tarqabdi, xursand bo'ldim.

— Qani, bittasiga o'yib ko'r-chi, — akamning oldiga taxtachani surdi muallim.

— Sizning asbobingizda ishlay olmayman, — akam rosmana jilmayib qo'ydi.

— Qo'polmi?

— Qaydam.

— Ustaning zo'ri har qanday asbobda ham ishlay olishi kerak.

— Yolg'onchi ekansiz, — deb kuldi akam.

— Nega?

— Ishni asbob qiladi, egasi lof uradi, derdingiz-ku! Shaklingiz menga yoqmayapti, — dedi akam gul nusxasi tushirilgan taxtachani qo'lga olib.

— Nima deyishga hayronman.

— Ana, o'zingiz ham hayron bo'lyapsiz. Qani, ayting-chi, bu qanaqa gul o'zi?

— O'zim o'ylab topgan gul.

— O'zingiz o'ylab topgan gul tomosha qilayotgan kishini o'ylantiradi-yu, lekin zavqini keltirmaydi.

— Qani-qani?

— Tabiatdagi aniq bir gulning shaklini tushuntirsangiz, shu shakl o'z asliga nechog'lik o'xshashligiga qarab zavq qo'zg'aydi. O'xshashlik aniq bo'lsa, zavq ham yuksak bo'ladi. Buningiz hech qanday gulga o'xshamaydi, to'g'rimi?

— Mulohazang to'g'ri, bolam. Shunaqa narsalarni chizishga mazam yo'qroq, shuning uchun ham ustaxonamizni birlashtirib olaylik deyman-da. Sendan shaklu mendan ijro.

Suhbat, men qiziqmaydigan tomonga burilib keta boshladi. Shakl, rang, asl nusxa... O'lay agar, tushunmayapman. Lekin bir necha soat oldin hayotdan ko'z yumay degan akajonim berilib suhbatlashayotganidan, ustozidan nimasi bilandir ustun kelayotganidan mamnun edim. Shunday bo'lsa ham muallimning o'sha ishchi muxbir bo'lib yurgan paytida sud janjaliga aralashgani meni ko'proq qiziqtirdi.

— Haligi gapingiz chala qoldi-ku, — dedim esiga solish uchun.

— Qaysi gapim?

— Shahar sudidagi ish-chi.

— Eh-ha, aytganday, o'sha sudya nohaq edi. O'z o'quvchisini urdi, deb menga tanish bo'lgan muallimni bir yarim yilga qamab o'tiribdi-ya. Hukmni eshitib lovullab ketdim. Borib, hoy odil sudya, axir bu bola xudo urgan bezori, tilini chiqarib muallimni masxara qilsa, doskaga o'girilib turganda naychadan muallimning bo'yniga suv sochib obro'yini to'ksa, nega urmas ekan, axir! Boshqalar ham urgan-ku, desam, bor, bo'lmasa o'zingni ham qamab qo'yaman, deydi-ya! Yomon boplab yozdim-da, o'ziam. Jinoyat bilan jinoyatni keltirib chiqaradigan sharoitning farqiga bormaydigan, jinoyat sodir bo'lishiga turtki bo'ladigan holatlarni tahlil qila olmaydigan g'irt savodsiz sudya deb yozdim. O'n to'rtta muallimga qo'l ham qo'yirdim. Maqola bosilib chiqqandan keyin bechoraning paytavasiga qurt tushib qoldi! Ha, bolam, gazeta haqiqat oynasi. Unga bir murojaat qilib ko'raylik. Sen nima deysan, usta Akbar?

— Hali aytdim-ku, o'zingiz bilasiz deb.

— O'zim bilsam gap shu, bolalarim. O'zim tarbiyalayotgan o'quvchilarimni mana bunaqa sarson bo'lishini ko'rib tomoshabin bo'lib o'tirolmayman. Qarovsiz qolgan bola davlatga qimmatga tushadi.

Nigora singlim darvozaxona oldida to'xtab, buyog'iga o'tishga botinolmadi shekilli, "hoy aka, shu yerdamisiz, axtarmagan joyimiz qolmadi, xolam bilan pochcham sizni kutib o'tirishibdi", deb xabar qildi. Qiziq, negadir hovlimizga kirgim kelmayapti. Bunaqa tuyg'uni ilgari hech his qilmagan edim. Nega bunday bo'ldi ekan? Pochchamni xushlamayman, shundanmikan, kirsam yana dilisiyohlik, yana yig'i-sig'i bo'ladi. Bu yerda ozgina bo'lsa ham tashvishlarni unutib, qalbimga orom indi. Muallimning bolalari mehnat qilib, bir-birlariga ko'z qisib, hazillashib, bajarayotgan yumushlaridan zavqlanishib, ota-onasi yonida baxtli o'tirishibdi, shularga o'xshashni pinhona orzu qilganimdanmi, bilmayman, chiqib ketgim kelmayapti. O'rnimdan og'rinib, ijirg'anib turarkanman, akamga ham yur, dedim. Akam yalt etib muallimiga qaradi-da:

— Haliroq chiqarman, — dedi.

— Akbar bolamni o'zim olib chiqib qo'yaman, — shunday deb muallim meni hurmat qildimi, yo shu bechora tirik

yetimchaning ko'ngli ko'tarilsin deb o'yladimi, darvozaxonagacha kuzatib chiqdi.

Xolamning o'g'il-qizlaridan tashqari, shumxabarni eshitdi shekilli, tog'amning qizlari ham kelishibdi. Bir hovli bo'lib o'tirishibdi. Yana bir ikkita begonadan battar uzoq qarindoshlarimiz ham bor. Aftidan akam o'zini osmoqchi bo'lgani butun shaharga tarqalganga o'xshaydi.

— Akbarjon qani? — hammalarining savoli shu bo'ldi.

— Bir oz turib chiqarkan, — dedim.

— O'zi tirikmi axir? — nimagadir kesatib so'radi xasis pochcham.

— Hozircha tirik, — deb men ham piching qildim.

— Tirik bo'lsa nega chiqmaydi?

— Sizni ko'rgisi kelmayapti shekilli.

— Tilingni achchiqligi hech qolmadi-da, jiyan.

— Sizning ham pastkashligingiz hech qolmayapti-ku, pochcha, — anovi kuni taksiga pul bermay ko'chaga tashlab ketgani haliyam alam qiladi. Keyin dadamning ham bir gapi esimga tushdi. Uniyam o'ylamasdan aytib yubordim. — Mehmonda qovun yesangiz po'chog'ini ro'molchangizga tugib uyingizga olib ketasiz.

— Tilingni tiy, — Barno xolam ko'zini g'alati olaytirib qo'ydi.

— Siz do'qingizni uyingizga borib qilasiz, — shunday deb teskari o'tirib oldim. Sezib turibman, to'planganlar bir-biri bilan ko'z urishtirib olishdi. Bola buzilibdi-ku, deb o'ylagan bo'lishlari ham mumkin. O'ylashsa o'ylayverishsin.

Hali akam o'zini osganda laganlarga suzilgan qip-qizil palov shundayligicha qolib ketgan edi. Barno xolam o'shani isitib, achchiq-chuchuk ham tayyorlab keldi. Ovqat asnosida tog'amni g'aflat bosib, qo'lga tushib qolishi tafsiloti haqida gapira boshladilar. Tuhmat bo'lsa kerak, u odam juda hushyor, ehtiyotkor edi. Lekin nima bo'lganda ham qamoqda uzoq yotmaydi. Eshigidan bo'lmasa teshigidan chiqib ketadi. O'sha chiqquncha Saidjon bilan Yoqutxonning ishiga begonalarini aralashtirmay turganimiz ma'qul, deyishdi.

Akamni opichlab Ataullo muallim chiqdi. O'tirganlar miyig'ida kulib, bir-birlariga pinhona nigoh tashlab olishdi. Demak, dadam bilan ikkovlari o'rtasida bo'lgan olishuvni ular hali unutishmabdi, deb o'yladim. Buning ustiga o'tirganlarning ko'pchiligi boshimizga tushgan falokatning aybdori mana shu muallim, mahallada chaquv yozadigan boshqa hech kim yo'q, deb hisoblashardi.

— O'h-ho', jamoat jam-ku, — dedi muallim beg'ubor, quvnoq bir ohangda.

— Ha, siz yetishmay turuvdingiz, — qovog'ini solintirib oldi pochcham.

— Yetishmayotgan bo'lsak, mana, keldik-da.

Muallim akamni yelkasidan tushirib, o'zi ham bir chekkaroqqa omonatgina o'tirdi. Qo'lini baland ko'tarib fотиha o'qidi:

— Ovmin, qadam yetti, balo yetmasin.

Muallim ikkimizdan boshqa hech kim fotihaga qo'l ochmadi. Demak, xushlamaganlarini o'ziga ham bildirib qo'yishmoqchi. Nega chiqding, tezroq chiqib ket, deganlari bu.

— Boshimizga balolarni yog'dirib, endi tomoshamizni ko'rgani chiqibsiz-da? — dedi pochcham, qani, mushtlashsang o'rtaga chiq, degandek bir ohangda.

— Ie, juda qiziq gap qildingiz-ku, muallim, — dedi Ataullo Isayevich xuddi himoya axtargandek bir menga, bir o'tirganlarga qarab.

— Haqorat qilmang meni, — pochcham bir qo'zg'alib qo'ydi.

— Kim haqorat qildi sizni?

— Muallim dedingiz-ku.

— Tavba, muallim desam haqorat bo'ptimi?

— Muallim deb sizga o'xshaganlarni aytishadi. Odamlarning ustidan ig'vo qo'zg'ab, oilalar tinchligini buzib, yaxshi yashayotganlarni ko'rolmaydigan ichi qoralarni aytishadi. Saidjon akam bilan Yoqutxon opamni olib boradigan joyingizga oborib qo'ydingiz-ku.

— Nahotki siz, tuppa-tuzuk odam, shunday deb o'ylasangiz.

— Bu mahallada sizdan boshqa buzg'unchi yo'q.

— Otingiz Asadullomidi?

— Nima, otimni bilsangiz meni ustimdan ham yozarmidingiz? Ataullo muallim dovdirab qoldi shekilli, anchagacha javob qaytarmay kulimsirab turdi. Do'ppisini olib, kaftiga qoqa-qoqa yana kiyib oldi.

— Asadullojon, o'rinsiz qizishyapsiz, — og'ir, bosiq gap boshladi Ataullo Isayevich. — To'g'ri, nohaqlikni ko'rsam chiday olmayman, yozaman, jonu jahdim bilan yozaman... Mahalladagi korchalonlar bilan olishaverib charchadim. Men ularni tartibga chaqirmoqchi bo'luvdim, oxiri ular meni qamoqqa tiqishdi. Haqiqatni isbotlab berolmadim. Keyin o'ylab qarasam, atrofimizdagi illatlarga qarshi mendek oddiy bir muallimning kurashishi bamisoli bostirib kelayotgan tankka qarshi rogakaga kesak solib otgan bilan barobar ekan... Bu gal qarindoshlaringiz ustidan men yozganim yo'q. Oltita farzandim haqi rost aytyapman. Siz o'rinsiz ayb qo'ydingiz menga. Men hozir boshqa niyatda chiqdim. Saidjon bilan Yoqutxon haq bo'lsa — hukumat ularni oqlaydi. Nohaq bo'lishsa — nachora, jazolanishadi. Boshqa iloj yo'q. Lekin meni, keksa bir muallimni mana bu bolalarning taqdiri o'ylantirib qo'ydi. Endi nima bo'ladi? Uch-to'rt kun otanasiz qolib mana bu esi yo'q o'g'lim o'zini osib o'tiribdi. Men tarbiyachiman. Bolaning baxtsizligiga chiday olmayman. Dunyoda bolalarning ko'zidek rostgo'y ko'z bo'lmaydi. Bu bechoralarning ko'zlaridagi g'ussa-yu tubsiz g'amni qarang, dod deb yuborgim kelyapti! Yo'q, Asadullo bolam, meni chakki aybladingiz. Men chaqimchi ham, ig'vogar ham emasman. O'ttiz besh yildan buyon mana shunga o'xshaganlarning ma'naviy boyishi uchun kurashib kelayotgan ekanman, endi ularning ko'zyoshini ham ko'rmasam deyman. Bola yig'lasa, ko'p yig'lasa, ma'naviy jihatdan mayib bo'lib qoladi. Qalbidagi g'am tezroq tarqalmasa, alamzada bo'lib o'sadi. Alamzadalik jinoyatga yo'l ochadi... Saidjon ikkovimiz o'rtamizda bo'lib o'tgan gaplar o'tdi-ketdi. Endi eslash yo'q. Bolalarning qalbini butun saqlab qolish uchun yo otasi yo onasi yonida bo'lishi zarur. Ehtimol, qonun bunga yo'l qo'ymas. Bu bor gap. Lekin Asadullo bolam, unutmangki, hukumatmiz adolatparvar, bolaparvar. Xalqimiz insonparvar.

Ana shu mehru shafqatdan foydalanib, mana bu dildirashib o'tirgan bolalarni saqlab qolish kerak. Men haqimda kim qanaqa fikrga borsa boraversin, men baribir muallimman, tarbiyachiman. Ko'z oldimda bola yig'lab tursa uyimda tinch uxlay olmayman. Tinch uxlasam o'ttiz besh yildan buyon yegan nonim harom bo'ladi-ya!.. Endi men turay. Ertalab gazeta idorasiga mana shu bolalar nomidan ariza ko'tarib boraman. Sudgacha yo otalarini yo onalari yonida bo'lishi kerak... Akbarjon, bolam, men bilan chiqib ketasanmi yo ukalaring bilan qolasanmi?

Akam, nazarimda, aytilayotgan gaplarning mag'zini chaqish bilan mashg'ul edi. Hadeganda javob beravermadi.

— Xo'sh, nima deysan? — yana so'radi muallim.

— Qaydam.

— Yaxshisi, yura qol, bu kecha bir otamlashamiz.

Ataullo muallim akamni yana orqasiga ko'tarib, ichiga latta tiqilgan nimjon oyoqlarini salanglatib olib chiqib ketdi. Anchagacha bir-birimizga gap qo'sholmay o'tirdik. Nihoyat, jimlikni pochcham buzdi.

— Bulbuligo'yo bo'lib sayrashini qarang, — dedi yoniga tupurib, — qilg'ilikni qilib qo'yib, endi mahalla-ko'y oldida nomini oqlab olmoqchi. O'rgildim sendaqa zakonchilardan. Cho'ntagida hemirisi yo'g'u sudyalar bilan olishaman deydi-ya, olifta! Zafar, kiritma uni bu yerga.

III BOB

Tuni bilan uxlay olmadim. Ko'zim ilindi deguncha yo dadajonimni yo oyimni ko'raman. Oyijonimning sochlari to'zg'igan, ko'ylaklari yirtilgan, ko'zi to'la yosh. Ikki qo'lini cho'zganicha faryod chekib biz tomonga talpinyapti. Ukalarim bilan biz ham talpinamiz. Yetay-etay deganda oyog'imiz ostidagi yer yoriladi-da, yerga qo'shilib orqaga keta boshlaymiz. Yer parchasi yana birlashadi. Dod faryod chekib yana bir-birlarimizga talpinamiz. Yaqinlashay deganda yer yana yoriladi...

— Oyijon! — deya baqirib yuboraman.

Chindan ham baqirgan ekanman. Ovozimdan uyg'onib ketdim. Ko'zimni yirtib-yirtib atrofga qaradim. Nigora yotgan o'rnidan turib, o'tirib olib piq-piq yig'layapti.

— Nega yig'laysan? — dedim ichim muzdek achishib.

— Qo'rqayapman, — dedi Nigora hiqillab.

— Qo'rqma, yoningda men borman.

— Qo'rqmay desam ham qo'rqib ketyapman.

— Uxlamadingmi?

— Uxlasam ko'zimga oyijonim ko'rinyapti. Biram yig'layaptiki.

— Men ham hozirgina ko'rdim.

— Aka, akajon, yuring, hoziroq o'sha qamoqxonaga boramiz. Axir yolvorsak oldiga qo'yar, jon aka.

— Qo'yishmaydi. Kel, yaxshisi, yonimga o'ta qol. Sochlaringni silab qo'yaman. Oyijonim silardi-ku, o'shanaqa qilib silayman.

— Baribir uxlagani qo'rqaman. Oyijonim tushimga kirib yana yig'laydi. Yig'laganiga hecham chiday olmayapman. Aka, oyijonim hozir qayerda yotgan ekan?

— Bilmadim.

— Tikanli sim ustiga yotqizishgan bo'lsa-chi? Qizlar aytyapti. Tergov tugaguncha aybdorni tikanli sim ustiga yotqizisharmish. Savoliga javob bermasa tovonini yorib tuz sepiharmish.

— Yolg'on.

— Iloym yolg'on bo'lsin, yana bir marta yolg'on deng.

— Yolg'on, yolg'on, yolg'on! Bo'ldimi, kel endi, yonimga o'ta qol, sochlaringni silab qo'yaman.

Nigora ko'pincha oyijonim bilan yotar, goho o'z o'rnida yotsa ham, qo'rqayapman deb yarim tunda yana yoniga o'tib olar, bunday paytlarda oyijonim uning boshini silab, erkalab uxlatardi.

Singlim yonimga o'tdi. Zufar boshini ko'tardi:

— Hamma gaplaringni eshitib yotibman, — deb qo'ydi.

— Eshitib yotgan bo'lsang, endi uxla.

— Uyquq kelmayapti-da.

— Yuzgacha sanasang uxlab qolasan.

— Bitta gap so‘ramoqchiman. Rostini ayt, «Volga»ni birovga bermoqchimisizlar?

— Qayoqdan topding bu gapni?

— Anovi kuni oyim bilan pichirlashayotganlaringni eshitib qoldim.

— Bordi-yu, dadamni qutqarish uchun kerak bo‘lsa-chi?

— «Volga» qutqaradimi?

— Qutqaradi.

— Men hech narsa bilmayman. Mashina meniki, tamom, vassalom. Dadam uni menga atab olgan. O‘z og‘zi bilan aytgan. Agar birovga beradigan bo‘lsalaring, oyim ikkovlaringni oyoqlaringni sindiraman, bilib qolsam.

— Bo‘pti, uxla endi.

— Yana bitta gap aytaman. Bu fikr miyamga shu kecha keldi. Ilgari esimdan chiqib ketgan ekan. O‘lay agar, hozirgina esladim. Bilasanmi, ota-onamizning ustidan chaquv xatini akam yozgan bo‘lishi mumkin.

— Nega bunday deb o‘ylaysan?

— Uylaganim yo‘q. O‘z ko‘zim bilan ko‘rganman... Bir kuni akamning stoli ustida turgan konvertga ko‘zim tushib qoldi. Men undan kley so‘rab keluvdim. Maktabdan jo‘natishuvdi. Konvertning ustiga «viloyat prokuroriga», deb yozib qo‘yilgan ekan. Ichida nima bor ekan deb, endi qo‘l uzatayotuvdim, akam konvertni yulqib olib qo‘yniga soldi.

— Qachon bo‘luvdi bu voqea?

— Qishda, o‘shanda tizza barobar qor yoqqan edi. Keyin esimdan chiqib ketgan ekan, o‘lay agar hozir esladim.

— Akam o‘z ota-onasini qamatib tomoshasini ko‘rib o‘tiradigan ablahlardan emas. Bu fikrni miyangdan chiqarib tashla. Birov eshitsu uyat qiladi. Akam bilib qolsa yana o‘zini osib qo‘yishi mumkin. Qani, bu haqda boshqa birovga gap ochmayman deb so‘z ber-chi.

— Endi bir aytdim qo‘ydim-da.

Birozdan so‘ng singlim ham, ukam ham pishillab uxlati. Fikrlarim tarqoq, nima haqda o‘ylamay, oxirini yo‘qotib qo‘yaverdim.

— Uyg‘oqmisan? — deb so‘radi bir mahal Barno xolam.

— Sizning ham uyqungiz kelmayaptimi? — deya sekin boshimni ko'tardim.

— E, jiyanim, uyqu qayoqda deysan?! Bu tashvishlar odamni uxlatadimi? Akamni qaragin. Akamdek xushyor odam ham qo'lga tushib o'tirsa-ya.

— Demak, militsiya tog'amdan ham hushyorroq ekan-da.

— Shunaqaga o'xshaydi... Menga qara, Zafarjon, opamning taqinchoqlarini Qozi xolaga nega berib yubordilaring?

— O'zi aytdi-da, menda tursa bexavotir bo'ladi deb.

— Shu ayolga hech ishonmayman.

— Oyim yaxshi ko'radi uni, birga gap o'ynashgan.

— Opaginam undan, o'sha dahshatli xotindan qo'rqardi. Bir kunmas-bir kun boshimga yetadi, deb aytardi. Nazarimda, qo'rqqanidan ham unga o'zini do'st deb ko'rsatib yurardi. Mayli, bo'lari bo'пти. Ertadan qoldirmay taqinchoqlarini olgin. Opaginam shuni iltimos qildi mendan. O'zim saqlab berarman.

— Yaxshi, — dedim esnoq aralash, — ertadan qoldirmay albatta olaman.

Xolam ham cho'zib bir esnadi-yu, jim bo'lib qoldi. Yana o'y surib ketdim. Endi, negadir, fikrlarim tiniq, kundek ravshan edi. Pismiq pochchamning Ataullo muallim haqida aytgan qalampirdek achchiq gaplari yodimga tushdi. Chindan ham bizning ustimizdan o'sha yozgan bo'lishi mumkin, deb o'yladim, axir ilgari ham yozib, tekinxo'rdan olib, tekinxo'rga solgan, yuzimizga qora chaplamoqchi bo'lgan-ku? Akamning fikrlarini o'zgartirib bizga qarshi qilib qo'ygan. Demak, pismiq pochcham ham, muallim qilig'ini bilib qo'yib, vijdoni azobda qolgan. Elu yurt oldida o'zini oqlab olmoqchi. Mayli, hozir yo'q demayman.

Uxlab qoldim. Kech uxlaganim uchunmi, kech uyg'onibman. Kun chiqay deb qopti. Nonushtani ayvonga xozirlashibdi. Ataullo muallim qattiq-qattiq gapiryapti:

— Shunaqa, Barnoxon, endi qovoq-tumshuq qilib o'tirmaylik. O'rtamizda nimaiki bo'lsa unut bo'lsin. Men mana shu bolalar uchun hammasini kechiraman. Oqshom eringiz menga o'rinsiz piching qildi. Mayli, bunaqa paytda pichinglar ham bo'p turadi. Bu dunyo o'zi shunaqa, xato qilamiz — tuzatamiz, yana qilamiz — yana tuzatamiz. Qabrga borguncha

ahvol shu. Odamlar bir-birini kechirib yashashi kerak, bo'lmasa hayot zahar-zaqqumdangina iborat bo'lib qoladi... Sizlarni bir mehmon qilay deb saharlab qaymoq bozoriga tushdim. Nonni ham tanish novvoydan oldim.

Bir nafasdan so'ng Barno xolamning bolalarigacha hammamiz dasturxon atrofiga o'tirib qaymoqxo'rlik qildik. Qaymoq chindan ham lazmatli, sedana sepilgan non qizarib pishgan ekan — huzur qildik. Ikki ko'zim akamda. Xayriyat, chehrasi ochiq, yuzidagi g'am-anduhlariiii tuni bilan muallim sidirib olibdi. Bir nafas bo'lsa ham kulishib, chaqchaqlashib o'tirdik.

Ataullo Isayevich gazeta tahririyati nomiga yozgan xatini baland ovoz bilan o'qib berdi. Ostiga akam, men, Zufar, Nigora — to'rttovimiz imzo chekdik.

— Zafarjon, endi o'tlan, bolam, — dedi muallim o'rnidan turayotib, — ishimiz o'ngidan kelib ertaroq qaytsak, toqqa jo'naymiz, «Jiguli»ning bir kunlik haqini to'lab qo'yganman.

Shahrimizda chiqadigan gazeta idorasi yonidan ko'p o'tganman. Ichiga kirmaganman. Umuman, gazetalar haqida tasavvurim ozroq. Bizda gazetani faqat akam o'qiydi. Ikkinchi qavatga ko'tarilayotganimizda muallim bosh muharrir o'zimning o'quvchim, muxbirlikka ham o'zim o'rgatganman, tortinma, dadilroq qadam tashla, deb qo'ydi. Tortinayotganim yo'q. Alanglab g'isht zinalar, yonma-yon tushgan eshiklarga ko'z tashlayotgan edim. Ustiga titilib ketgan dermantin qoplangan eshik oldiga yetganda, bordiyu ishimiz bitmasa-chi, degan vahimali fikr o'tdi boshimdan, hayajonlana boshladim.

Bosh muharrir yaxshi kutib oldi. O'rta bo'y, lo'ppi yuzli, istarasi issiqqina ekan. Xuddi kutilmagan baxt oldida to'satdan dovdirab qolgandek, iye-iyelab o'rnidan turib, kalta qo'llarini keng yozib muallim bilan quchoqlashib ko'rishdi. Ko'rishayotganda, obbo siz-ey, obbo ustoz-ey, bizni mana shunaqangi qiyin ishlarga rag'batlantirib qo'yib, endi tomoshamizni ko'rgani kelibsiz-da, degan gaplarni ham aytdi. Nihoyat o'tirdik.

— Gapni cho'zmaylik, — dedi Ataullo Isayevich, — iltimos bilan keldim.

— Bosh ustiga, — qo‘lini ko‘ksiga qo‘ydi muharrir.

— Saidjon Karimovlar voqeasini eshitgandirsan?

— Eshitmay-chi, ustoz, butun shaharda shov-shuv-ku. Lekin o‘zlarियam ja ketvorishgan ekan-da. Yetti kilo tilla chiqqan emish deyishyapti.

— Bu yigitcha o‘sha Saidjonning o‘g‘li bo‘ladi.

— Ie, anavini qarang! Shu daqiqada men bundan yigirma yil oldin ustoz meni ham xuddi shu yigitchadek mana shu xonaga yetaklab keluvdi, degan o‘yga borib turuvdim. Bemalol, uka, istagan paytingizda kelavering. Biror narsa yozib keldingizmi o‘zi?

— Yo‘q, bolam, biz boshqa ish bilan keldik. Bu bechoralarga yordam berish kerak.

Ataullo Isayevich, gapni qisqa qilaylik, degan edi, aksincha, cho‘zilib ketdi. Nima bo‘lganda ham bolalar ruhan mayib bo‘lmasligi kerak, keyin tuzatib bo‘lmaydi, xarakterida illati bor bolalarni qayta tarbiyalagandan, shu illatni tug‘diradigan sharoit yuzaga kelishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak, dedi. Men bosh muharrirning ko‘zlariga tikilib turardim, qorachig‘i goh qisqarib, goh kengayganini payqadim.

— Akalari o‘zini osib qo‘ydi dedingizmi? — so‘radi muharrir.

— Yoshligiga bordi-da.

— To‘g‘ri aytasiz, ustoz, tan azobidan ruhiy azob og‘irroq bo‘ladi, uni hamma ham ko‘tarolmaydi, mayib bo‘p qolishi mumkin. Mayib bo‘lib o‘sayotgan bolalar ozmi hozir? Ba‘zi bir ota-onalarga hayronsan, bolaga uning boyligi emas, iliq nafasi, mehri, qalb harorati kerak, buni tushunishmaydi. Qorni to‘q bo‘lsa, usti but bo‘lsa, ostida mashina-yu, nomida uchastka bo‘lsa bas, deyishadi. Lekin bilishmaydiki, xuddi shu paytda bola ma‘naviy jihatdan tubanlasha boshlaydi. Ustoz, ochiq aytganim uchun xafa bo‘lmang, boshqa shaharlarda qandayligini bilmayman, lekin bizning shahar ahli, mening kuzatishimcha, so‘nggi yillarda ma‘naviy jihatdan qashshoqlashib boryapti, molu dunyoga ruju qilish, mukofot talashishlar, amalparastlik... E, qaysi birini aytaman. Rahbarlarni aytadaysizmi, har bitta feleton uchun yuqoriga javob beryapman. Tavba, illatlarni ochishdan nega qo‘rqishar ekan?..

— Mening davrimda hamma narsa yaxshi bo'lyapti degilari keladi-da.

— Ha, mayli, bu boshqa masala. Kechirasiz, ustoz, bu ukamlar masalasida nega to'ppa-to'g'ri prokurorga bormadingiz?

— O'sha yoqqa borishimiz kerakmidi?

— Menimcha, yaxshi bo'lardi.

— Bolam, yaxshi bo'lishini o'zim ham bilaman. Lekin gazeta — haqiqat himoyachisi. Mening iltimosim — bolalarni saqlab qolish masalasi. Tahririyat ham o'z ovozi mening ovozimga qo'shsa bu haqiqat yanada kuchayadi. Endi tushungandirsan?

— Tushunib turibman.

— Tushungan bo'lsang harakatingni boshla. Esingdami, o'quvchiligingda qulog'ingni ko'p cho'zardim. Gapimga kirmasang bugun yana cho'zaman.

Bosh muharrir kulib o'rnidan turib ketdi:

— Buni qarang, — dedi chap qo'li bilan qulog'ini ko'rsatib, — chindan ham meni shalpanquloq qilib qo'ygansiz. Lekin ustoz, cho'zganingiz ham yaxshi bo'lgan ekan, xursandman. Rahmatli dadam shu mualliming ajoyib-da, bola desa o'zini o'tga ham, suvga ham tashlaydi, etagini mahkam ushla, derdi.

— Men, Odiljon bolam, maqtanish uchun emas, mavridi kelib qolgani uchun aytay, sizlardaqangi yoshlik pallamda pedagog bo'laman-u, baayni Yanosh Korchakning yo'lini tutaman, deb qasam ichganman.

— Yanosh Korchak... Eshitmagan ekanman. — Payti bilan uning kimligini senga aytib berarman. Tezroq prokurorga telefon qil, gapimiz cho'zilib ketdi, bolam.

Xayriyat, amaliy ishga o'tadigan bo'lishdi.

Bosh muharrir nazarimda shaharning eng buyuk, eng qudratli, bir og'iz so'zi bilan kishilar taqdirini hal qilib tashlaydigan prokuror bilan xuddi xolavachchasidek erkin, gap orasida hazillar ishlatib, goho kulib, goho stol ustidagi bizning arizamizdan parchalar o'qib berib gaplashdi. Nihoyat, telefon trubkasini o'rniga qo'yib, kulimsiradi:

— Said Karimovlar oilasining jinoyati g'oyat og'ir, deyapti. Hozircha hech kimning aralashishga haqqi yo'q emish.

— Ana xolos, — Ataullo muallim umidsiz qo‘l siltadi.

— Qani, kelishaversin-chi, deyapti.

— Xuddi shunday dedimi axir?

— Ha, xuddi shunday dedi.

— Ana, ko‘rdingmi, Odil bolam, sengaki, shahar gazetasining bosh muharririga, byuro a‘zosiga shunday degandan keyin bizga o‘xshagan xashaki kishilar... Eh-he, tahririyatning aralashgani yaxshi bo‘ldi. Xo‘p, biz bordik bo‘lmasa.

Prokuratura idorasi tahririyatdan to‘rt hovli narida, pishgan g‘ishtdan ishlangan, g‘ishtlarining orasi sho‘ralab oqarib ketgan bir qavatli pasttakkina binoga joylashgan ekan. Koridori ham odamning dilini g‘ash qiladigan darajada qorong‘i, qabulxonasi ham xiyla xarob, stol-stullari eski. Prokuror Ibodov yoshgina, nari borsa o‘ttizlarda, qotma, qovog‘i soliq, ko‘zi qattiq bir kishi ekan. Ko‘zim tushishi bilan etlarim junjikib ketdi. Xo‘mrayib kutib oldi. Bizga qo‘li bilan o‘tirishga ishora qilib, bir narsa o‘qiyotgan ekan, o‘shani o‘qishda davom etaverdi. Anchadan keyin qog‘ozni jahl bilan nari surib:

— Eshitaman, — dedi hozir ikkovingni ham yeyman, degandek bir ohangda.

— Shu... Odil Rahimov aytgan gap, — tortinibroq dedi Ataullo Isayevich.

— Bu yigitcha o‘shalarning o‘g‘limi?

— Ha. Yana uchta farzandlari bor.

— Kecha shu yigitcha o‘zini osganmidi?

— Yo‘q, buning akasi osgan. O‘zi majruh, ikki oyog‘i ishlamaydi u bechoraning.

Prokuror o‘rnidan turdi, juda novcha ekan. Yosh odam ham qotma, ham novcha bo‘lsa xunuk ko‘rinarkan. Gavdaga yarasha go‘shu qorin ham bo‘lgani yaxshi ekan, degan fikr o‘tdi boshimdan.

— Ismi sharifingiz? — xuddi tergov qilayotgandek qattiq tikilib so‘radi prokuror.

Ataullo muallim yoshiga yarashmaydigan bir chaqqonlik bilan shoshilib o‘rnidan turdi. Men ham xuddi tok urgandek sakrab turib ketdim.

— Yo‘q, sizlar o‘tiraveringlar.

— Ismim — Ataullo, familiyam — Isayev.

— Demak Otello deng?

— Yo'q, Ataullo.

— Otello so'zi shu arabcha Ataullo, ya'ni xudo berdi degan so'zning inglizcha talaffuzi. Otello, aslida xabash bo'lgan, to'g'rimi?

— To'g'ri bo'lsa kerak.

— Ataullo Isayevich, men yurtimizda yangiman. Bir oycha bo'ldi ishga tushganimga. Avval Leningradda edim. Tergovchi bo'lib ishlaganman. Sizni menga Odiljon hozirgina respublikada xizmat ko'rsatgan o'qituvchi, deb tanishtirdi. Demak, ziyoli odamsiz. Bir-birimizni tushunamiz, deb o'ylayman. Har kuni o'nlab odamlarni suhbatga chaqirib, shahar psixologiyasini o'rganyapman. Odamlar bu yerda prokuror desa albatta qamaydi, albatta javobgarlikka tortadi, deb o'ylasharkan. Yanglishmasam, siz ham shu fikrdasiz. Xato qilasiz. Qonunlarimiz asosiga jamiyat va davlat manfaatini olingan. Jamiyat esa yakka shaxslardan, oilalardan tashkil topadi. Yo men xato gapiryapmanmi? Demak, qonunlarimizda eng avval mana shu yakka shaxslar va oilalarning haq va huquqi nazarda tutilgan. Siz bir pedagog sifatida jamiyat va davlat manfaatini tushunadigan, unga zarar yetkazmaydigan, har tomonlama mukammal shaxslarni tarbiyalash bilan shug'ullanasiz, shundaymi? Biz qonunshunoslar esa ana shu mukammal shaxs va davlatning haq va huquqini himoya qilamiz... Iltimosingizning menga ma'qul bo'lgani, bolalarni ruhan mayib bo'lib qolishdan saqlash kerak, degan tomoni bo'ldi, shogirdingiz menga shunday deb tushuntirdi. Ma'qul, ma'qul gap! Qani endi boshqa pedagoglar ham o'z tarbiyasidagi o'quvchilari uchun ana shunaqa jon kuydirishsa?..

Qovog'i soliq prokuror Ibodovning gapidan men tushunganim shu bo'ldiki, biz, ya'ni tirik yetimchalar, hibsdan yotgan onamizni sudgacha ochiq turishini so'rab shahar prokurori nomiga ariza yozishimiz, ikkita deputatdan sudgacha qochib ketmaydi, degan ma'noda kafolat xati oldirishimiz, mahalla qo'mitasi, oyijonimning ishxonasidan tavsifnoma ham keltirishimiz shart ekan. Ana shularni jamlab olib kelsak, keyin o'rtoq prokuror u yog'ini o'ylab ko'rarkan...

— Jinoyatlaringni ochib, seniyam sudga tortaman. Tuhmatingni qaytib olmaysanmi?

— Xo'p ana, qaytib oldim. Lekin bilib qo'ying, tavsifnoma bermayman.

— Nega bermaysan, nima sababdan bermaysan?

— Senlamang meni deyaqman.

— Endi seni hech qachon sizlamayman. Senlashga ham arzimaskan. Xodiming boshiga tashvish tushganda o'zini panaga olib qochgan rahbar, senlashga ham arzimaydi... Hozir yozasan!

— Yoz-may-man! Men u xotinni tanimayman ham, ko'rgan ham emasman.

— O'-o', mehrsiz, shafqatsiz ayol ekansan. Sendan tarbiyachi chiqmaydi. Senga go'daklarni ishonib topshirib qo'yish katta xato bo'larkan. Prokuror Ibodov sendan o'n chandon a'lo odam ekan. Yo'q, sen endi bu yerda ishlamasliging kerak. Haqqing yo'q! Bu masalani ertagayoq gazetada ko'tarib chiqaman. Ehtimolki, Yoqutxon qo'shnimga o'xshaganlarni jinoyat yo'liga boshlaganlar ham senlar bo'lib chiqarsan. Sen, mudira, u ko'pincha ishlamasa ham haq yozib kelgansan. Mana sening jinoyating, ochib tashlayman endi.

— Mudira opam oyimga tegishli maoshning hammasini olardi, — deb og'zimdand chiqib ketdi.

Muallim yalt etib menga qaradi:

— Nima deding?!

— Oyijonim hujjatga qo'l qo'yardi, xolos.

— Ana jinoyatu mana jinoyat. Yo'q, buni shunday qoldirib bo'lmaydi. Zafarjon, ketdik bolam. Qo'yni ham, echkisini ham o'z oyog'idan osishadi. Bu xonimning ham jazosini berib qo'yadigan paytlar keb qolar. Prokuror Ibodov bunuqalarni tinch qo'ymaydi. Bor gapni hoziroq borib aytamiz.

Orqama-ketin eshik tomon yo'nalayotgan edik, mudira irg'ib o'rnidan turdi-da, xalloslab kelib eshikka ko'ndalang bo'ldi:

— To'xtanglar.

— To'sma yo'lni, — yer tepindi Ataullo Isayevich.

— Domlajon, qizishib ketdik. Ayb ikkovimizdan ham o'tdi. O'zingiz ham gapingizni silliqqina qilib aytmadingiz-da. Axir men ayol kishi bo'lsam...

— Yo‘q, bu gaplaringni endi borib prokurorga aytasan!

Mudira opa ho‘ngrab yig‘lab yubordi. Qiziq bo‘ldi-ku! Nega yig‘ladiykin, oyijonimga achinganidan yig‘lab yubordimikan?

— Axir, muallimjon, mening ham beshta bolam bor, — yig‘lab dedi mudira.

— Bolang bo‘lsa yaxshi, tarbiyala, odam qil ularni. Lekin yo‘limizni to‘sma.

— To‘xtang, qanaqa tavsifnoma kerak edi?

— Endi hojati yo‘q. Jinoyatchining jinoyatchiga bergan tavsifnomasi nima bo‘lardi?

— Zafarjon, sen aytgin, o‘g‘lim, muallimga tushuntirgin. Men qizishib ketdim. Xato qildim shekilli. Mayli, to‘xtang, maqto‘v qog‘oz ham bor. O‘shandan ham bittasini to‘ldirib beraman...

Ataullo Isayevich mudirani nari surib shiddat bilan tashqariga chiqib ketdi. Orqasidan men ham otildim. Anchagacha jim ketdik. Tayyor tavsifnoma bilan maqto‘v qog‘ozini olmaganimiz alam qilyapti. Hamma pulni mudiraning o‘zi oladi deb aytmamam bo‘larkan. Tilimni tiyganimda muallim bunchalik portlab ketmagan bo‘lardi.

— Jinoyat ustiga jinoyat! — dedi Ataullo Isayevich o‘ziga-o‘zi gapirgandek. — Yaxshilik ham ona tovuqqa o‘xshab turadi, — yana o‘ziga-o‘zi gapira boshladi muallim, — jinoyat ham zaharli ilonga o‘xshab ko‘payaveradi, unga qarshi kurashadiganlar uyasini topolmaydilar. Tavba, bog‘chada ham, magazinda ham, bazada ham bor ekan-a, bu jinoyatning uyasi. Nega endi ko‘payib ketaverar ekan-a? Shaharning yarim rahbari shunga qarshi kurashyapman deb ko‘kragiga uradi.

— Menga gapiryapsizmi? — deb so‘radim jim ketaverishga uyalib.

Ataullo Isayevich to‘xtab, ojizgina jilmaydi.

— Senga gapirgandan nima foyda, bolam? Bu imonsiz tavsifnoma berganda o‘shani deputatlarga ko‘rsatsak, ishimiz osonroq ko‘chardi-da.

— O‘zingiz yo‘q dedingiz-ku?

— O‘zi nopok ekan-u, uning yozganini qaysi yuz bilan mo‘tabar idoraga olib boramiz. Qalloblik bugun bo‘lmasa

ertaga fosh bo'ladi, bolam. Yaxshisi, yur, mahallaga boraylik. Rais yomon odammas. O'qimishli, fozil kishi.

Idora ochiq ekan. Raisimiz yaxshi kutib oldi. O'lay agar, juda yaxshi kutdi. Ataullo muallimni qo'yarda-qo'ymay yuqoriga, o'zining raislik kursisiga o'tqizdi. Sizdek mo'tabar odam poygakda-yu, men yuqorida o'tirsam, hammahallaga qaysi yuz bilan qarayman, dedi. Nima maqsadda kelganimizni eshitib o'zida yo'q sevinib ketgandek bo'ldi. Siz o'zi ajoyib odamsizda, qayerdagi majlis o'tkazmay, hamisha sizni misol qilib ko'rsataman, deb qo'shimcha ham qildi.

— Gullardan o'stirib turibsizmi?— deb so'radi eng oxirida.

— Baholi qudrat, — dedi muallim.

— Mana bu idoramizga xolisanillo qilgan sovg'alaringizni qarang. Kirgan odamni dili yayraydi-ya! Gul bir dunyo, tuvaklardagi bezagi bir dunyo. Ofarin! Agar qo'limdan kelganda sizga yana bitta xizmat ko'rsatgan, degan unvon berardim. O, qanday soz bo'lardi-ya! Endi Ataullo Isayevich, mahalla qo'mitasi nomidan beriladigan iltimosnoma masalasiga keladigan bo'lsak, men uni berolmayman. To'g'ri, bolalarga achinaman, lekin prokuraturadan yozma ravishda so'roq qog'ozi keltirmaguningizcha berolmayman.

— Nahotki, mana bu ko'zini mo'ltillatib turgan bolalarga achinmasangiz? Axir Saidjon meni emas, sizning ulfatingiz ediku?

— E, Ataullo Isayevich, zamonning qanaqaligini ko'rib turibsiz-ku!

— Qosimjon, aybni zamonga to'nkamaylik. Bunaqangi adolatli zamon bobolarimizning yetti uxlab tushiga ham kirmagan.

— Munozarani bas qilamiz,— Qosim Dadayevich o'rnidan turib tashqariga yo'naldi va eshikni qarsillatib yopganча tashqariga chiqib ketdi. Birpas kutdik — yo'q. Keldi-ketdi ko'payib, bizdan nuqul raisni so'rashadi deng.

— Nomard! — dedi nihoyat Ataullo Isayevich o'rnidan turib.

Biz tufayli ikki dargohdan haqorat eshitgan muallim, endi iltimosnoma so'rab boshqa joyga bormay qo'yishi mumkin edi. Akam, ukalarim, butun qarindosh-urug'larimiz mana shu

iltimosnomaga umid bog'lab o'tirishibdi. Shu umid chiroq bo'lib g'ussaga to'lgan qalbimizni yoritib turgandek edi. Dadam haq ekan, oyijonim rost aytgan ekan, demak qog'ozga o'rab biror narsa uzatmaguncha, bizning shaharda ish bitirib bo'lmas ekan!

Hozir vujudimni qamrab olgan umidsizlik, uyog'i endi qanday bo'ladi degan qora vahima, aslida kecha kechqurun boshlangandi. Ayollar nomidan iltimosnoma yozib berishlarini so'rab oyijonimning dugonalarinikiga ham birma-bir kirib chiqqanmiz. Birontasidan yorug'lik chiqmadi. Hatto bir xillari qo'rqib ham ketishdi. Eshiklarini ham ochishmadi. Nega, nega bunday qilishadi, a? Axir bo'yinlaridagi durlarni, quloqlaridagi brilliant ko'zli sirg'alarni, bilaklaridagi qubba bilakuzuklarni oyijonim topib bergan, hech bo'lmasa sofligini bilib bergan-ku. Nega endi ishlari tushganda xonim-xonim deyishib, boshimizga tashvish tushganda jon-jon o'zimning jonim, deb chekkaga qochishdi ekan, nega? Qanaqa opalar bo'ldi bular?

— Nimalarni o'ylab ketyapsan? — so'radi Ataullo muallim avtobusdan tushayotganimizda.

— O'zim shunday, — dedim chaynalib.

— E, bolam, ortiqcha o'ylarga berilma. O'y bilan ish bitadigan bo'lsa, hamma uyida o'tirib olib, erta-yu kech o'y surgan bo'lardi. Harakat qilish kerak, harakat!

— Hozir qayoqqa ketyapmiz o'zi?

— Deputatnikiga. Tanishim, aslida-ku, ishni o'shandan boshlamog'imiz kerak edi-ya, lekin bunisiyam chakki bo'lmadi, saboq oldik, bir umrga yetadigan saboq bo'ldi bu. Odamning kimligini ishing tushganda bilasan. Qovog'ingni solma, shahrimizda yaxshi odamlar ko'p, mana ko'rasan.

O'zbek maktablarida rus tilidan dars beradigan ayolnikiga borayotgan ekanmiz. Ataullo muallim bundan yigirma yillarcha oldin o'sha ayol bilan bir maktabda ishlagan ekan. Ismi — Margarita, familiyasi Markova bo'lib, o'zi hozir deputat ekan. Ismi darrov esimda qoldi. Lutfi xolam margarinni ko'p ishlatar, ko'pincha magazinga meni yugurtirar edi. Shuning uchun ham darrov eslab qoldim. Lekin familiyasi nega Markova, ya'ni Sabziboyeva ekaniga hech tushunmadim. Nega desangiz, deputat opam oshqovoqdek xo'ppa semiz bir ayol ekan.

Nazarimda uyidan yurib emas, dumalab chiqqandek bo'ldi. Egnida sariq atlas ko'ylak, bo'ynida oq shoda marjon.

— Ie, iye, qanaqa mehmon kelyapti o'zi? — deb o'zbekchalab so'rashdi.

Hovliga baland tok ko'tarilgan bo'lib, ostiga stol-stullar qo'yilgan ekan, o'sha yerda o'tirdik.

— Ishimiz tushganda sizni sog'inib qolamiz-da, — dedi Ataullo muallim.

Suhbatga tushib ketishdi. Hozirgi bolalar ilmga mutlaqo qiziqishmas emish, tarbiyasi buzilayotgan emish, ko'pchiligi tayyorga ayyor emish. Goh o'zbekchalab, goh o'rischalab gaplashishyapti. Betoqatlana boshladim. Turdim, o'tirdim, hovlida mo'jazgina fontan bor ekan. Suvi ko'zyoshidek arang miltirab chiqyapti. Yoniga borib ancha tomosha qildim. Bir mahal qulog'imga deputat opaning o'rischalab, bola otananing jinoyati tufayli mayib bo'lmasligi kerak, xaq gapni aytyapsiz, ularning taqdiri uchun siz bilan biz kurashmasak, mening deputatligimni-yu sizning xizmat ko'rsatgan degan sharaflini unvoningizni kimga keragi bor, degani chalindi. Shoshilib oldilariga bordim.

— Har qalay, prokuror bilan o'zim ham bir gaplashib ko'ray, — dedi deputat ona.

Ikkovlari bir-biriga qarab o'tirgan uzun stolning chekkarog'ida mallarang telefon apparati borligiga e'tibor bermagan ekanman. Deputat opa nomer terayotib, muallimga qarab negadir jilmayib qo'ydi. Gaplashib bo'lgach, mana bu boshqa gap bo'ldi, dedi-da, o'rnidan turib ichkaridan dadamnikiga o'xshagan qizil papka ko'tarib chiqdi. Deputatlarning alohida varaqasi bo'larkan, birinchi bor ko'rishim. Kafolatnomani o'rischalab o'shanga yozdi.

V BOB

Prokuratura qanaqa organ, militsiya qanaqa idora-yu, qanaqa huquqi bor, qaysi biri qaysi birining ustidan nazorat olib boradi-yu, qaysi birining so'zi boshqasi uchun majburiy bo'ladi, ilgari, yashirib nima qilaman, goho oyim bilan

dadamning ularga ishi tushganda, imo-ishoralari-yu, pichir-pichirlaridan tasavvur qilardim. Prokuror hammasining ustidan hukmini o'tkaza oladi deb o'ylardim. Shuning uchun ham katta bo'lsam, albatta, prokuror bo'laman, oyim bilan dadam to'plagan boylikni, ertaklardagi ajdaholardek qo'riqlayman, deb o'ylardim. Tasavvurim chala ekan. Prokurorning hamma so'zi ham militsiya uchun qonun emas, militsiya istasa, prokuror ustidan yuqoriga shikoyat yozishi, so'zini yo'qqa chiqarib tashlashi mumkin ekan. Bu tartibni hamma narsaga aqli yetadigan, o'ttiz yildan buyon muxbirlik qilib, qanchadan-qancha idoralarga kirib chiqqan Ataullo Isayevich ham bilmas ekan. Bilganda meni yetaklab arznomamizni ko'tarib prokurorga emas, to'ppa-to'g'ri militsiyaga boshlamasmidi?

Oyijonimning ustidan o'rta bo'yli, bug'doyrang, yuzi sergo'sht, qop-qora ko'zlari hamisha chaqnab turadigan, kalta qo'llari bokschilarnikiga o'xshab mushakdor, qamoqda yotgan tog'amga o'xshab harakatchan, betoqat bir kishi tergov olib boryapti. Poytaxtdan kelgan emish, shahrimizda hech kim tanimaydi uni. Tog'am, buxorolik oltinfurush Mohira opa, ehtiyotsizlik orqasida xatoga yo'l qo'yib, tilini tishlab o'tirgan kapitan Jo'ra Usmonovlarning tergov ham undaga o'xshaydi. Ehtimol qo'lida bir necha tergovchi ishlar. Lekin o'zini tutishidan, unvoni ham, huquqi ham juda kattaga o'xshaydi. Men o'zimcha uni bosh tergovchi bo'lsa kerak deb o'yladim.

— Ibodov chuchvarani xom sanabdi, — dedi Ataullo muallim ikkimiz xonasiga kirganimizda, — o'zi yozgan orderni o'zi bekor qilolmaydi. Viloyat yoki respublika prokurori ruxsat bermaguncha endi bu orderni hech kim bekor qilolmaydi!

Bosh tergovchi bilan prokuror o'rtasida order masalasidagi tortishuv bir necha kun davom etdi. Tergovchi haq bo'lib chiqdi. Prokuror, bor-yo'g'i bir oy ishlayapman xolos, bilmasdan xatoga yo'l qo'ygan bo'lishim mumkin, deganga o'xshagan gap aytdi.

— Xo'sh, siz o'zi kim bo'lasiz? — so'radi bosh tergovchi.

— Muallimman, — dedi Ataullo Isayevich.

— Muallim bo'lsangiz bu ishlarga nega aralashib yuribsiz?

— Aralashish taqiqlanganmi?

— Qonun ma'n etadi.

— Men begona emasman, muallimman deyaqman! Bu bolalarni o'zim o'qitganman. Ko'z o'ngimda ruhan mayib bo'lib qolishlarini istamayman. Sudgacha yo otasi, yo onasi ochiqda tursa osmon uzilib yerga tushadimi, sovet qonunshunosligi ostin-ustun bo'lib ketadimi?

— Tergovga xalaqit berishlari mumkin.

— Axir ochiqda turishlarini deputatlar so'rayapti-ku!

— Gapni cho'zib yubordik, muallim. Tergov tugaguncha sizning ham bu ishlarga, qanday maqsadni nazarda tutayotganligingizdan qat'i nazar, aralashuvingizni qonundan tashqari deb hisoblayman. Bolalarning eng odil himoyachisi qonunlarimizning o'zi. Aralashmang, aralashsangiz, sizni tergovga xalaqit beruvchi sifatida ayblashga to'g'ri keladi.

— Meni-ya! Men mana bu qizil tumshuq bolalarni deb yuribman.

— Qo'ysangiz-chi, bunaqa Don Kixotchilikni. Foydadan ko'ra zararingiz ko'proq tegishi mumkin. Bitta yordam beraman degan tog'alari Solih Qosimovmidi? Oyog'i osmondan kelib o'tiribdi. Mayli, hamonki bolalarni o'rtaga solayotgan ekansiz, shu bolalari tufayli, garchi tergovga ma'lum ma'noda xalaqit berishini bilsam-da, bunday hollar ko'p bo'lgan, mayli, Yoqutxon Karimovga bolalari bilan goho-goho uchrashib turishiga ruxsat beraman.

— Tilingizga novvot, tergovchi bolam.

— Shu shart bilanki, bundan so'ng bizni tinch qo'yasiz.

— Ko'chaning narigi yuzida to'rtta tirik yetim tong otguncha faryod chekib chiqsa, berigi yuzida men tinchgina uxlay olamanmi, ertalab turib ularning mungli ko'ziga qanday qarayman.

— Gapingiz to'g'ri. Mungli kuzlariga qarash og'ir... Go'daklar ko'zidagi mung ko'p jihatdan jamiyatning holati va kayfiyatiga bog'liq. Uyog'ini surishtirsangiz, bolalarning ko'zidagi mungga men ham toqat qilolmayman... Xo'p xayr, meni tinch qo'ying endi.

Uyga yurib emas, uchib bordik hisobi. Ataullo Isayevich darvozaxonamizga yetganda peshonamdan o'pdi-da, ana, ko'rdingmi, bolam, harakat qilgan odam quruq qolmaydi, dedi.

Bir yo'la ham oyijonimni, ham dadajonimni yo'qlashimiz kerak edi. Lutfi xolamni chaqirib chiqib ikki qozonda ikki xil ovqat tayyorlashga kirishdik. Hammamizning yuzimizda quvonch, ko'zlarimizda shodlik charoqladi. Bamisoli ota-onamiz qaytib kelgandek, ularning bag'rida erkalanib o'tirgandekmiz.

Majruh akam oyijonimni juda ham sog'inganini aytib, qiynalsam ham albatta, boraman, dedi. Lekin qanday qilib? Mashinamiz yo'q, berkitib kelganmiz, xonadonimizning mashinali, badavlat ulfatlaridan endi hech narsa so'ramayman, hecham, hech qachon! Iltimosnomaga imzo chekishmadi, o'zlarini olib qochishdi.

— Salimga bir telefon qilib ko'ray-chi, — dedi akam.

Salim — Turob melisaning o'g'li, akamning jonajon o'rtog'i bo'ladi. Birga o'tirishgan. To'g'risi, akam uyda o'tirganda u vositachilik qilib turgan. Maktabdan uy vazifalarini olib kelgan, bajarganlarini olib ketgan. Ham o'rtoqlik, ham muallimlik qilgan u. Popopchi xolam Salim o'rtog'ing uyda yo'q, Turob amakingni o'zi olib boradi, bunaqa ishlarga u kishining suyagi yo'q, debdi. Mashinaning daragini eshitib singlimni quvonganini ko'rsangiz. Yaylovda yurgan quyonchadek sakrab goh u uyga kiradi, goh hovliga chiqadi. Zufar ukam obdon yuvinib, yangi kiyimlarini axtara boshladi. Akam, qiziq, negadir to'satdan xomush bo'lib qoldi. O'ychan ko'zlariga g'am to'lgandek, qovoqlari ham solinib tushdi.

— Sen ham yangi kiyimlaringni kiyib olsang bo'lardi, — dedim unga.

— Nima, ZAGSga boryapmanmi, — deb g'uldiradi. Xiyol o'tmay darvozaxonada Turob akaning o'zi ham ko'rindi.

— Xo'sh, askarlar, tayyormisizlar?

Turob amakingning «407» markali Moskvichi borligini ilgari aytuvdim shekilli, lekin judayam eski, shaloq bo'lib qolganini bilmas ekanman. Akkumulyatori o'tirib qolibdi shekilli, itarib arang yurg'izdik. Ichidan molning go'ngi va yana pichan ham tashishgan bo'lsa kerak, yangi o'tilgan ko'katning aralash hidi kelib turibdi. Hamisha moyi artilmagan yangi «Volga»larda yurganimizdanmi, o'tirishimiz bilan aka-ukalar beixtiyor burnimizni jiyirib bir-birimizga ma'noli qarashib oldik.

Nigohimizda ham shukronalik, ham allaqanday qoniqmaslikka o'xshash ichki bir norozilik bor edi. Turob amaki yo'lga tushishimiz bilan o'g'illarining sha'niga e'tirozli gaplar aytga boshladi. Mashina qarov bilan mashina ekan, u ham xuddi sigirga o'xsharmish, sigir yesa sut berganidek, mashina ham yaxshi qarasang gijinglagan otdek yaxshi choparmish. Katta o'g'li, ya'ni akamning o'rtog'i Salimjon ishyoqmas emish, o'qishdan boshqasini bilmasmish. O'rtanchasi tayyorga ayyor emish, benzinni to'ldirib qo'ysa, tugatib kelarmish-u bunday bir mashinaga qarab qo'yay demasmish... Turob aka bu gaplarni mashinasi svetofor o'rnatilgan har chorrahada to'xtab, biz tushib itar-itar qilayotganimizdan xijolat bo'lib aytayotganini sezib turardim.

— Shu svetoforlari ham jonga tegib ketdi-da, kim ishlab chiqargan ekan, — dedi Turob aka yana bir chorrahadan itar-itar qilib o'tib olganimizdan so'ng. — Obbo qizim-ey, onajoningni ko'rgani borayotgan ekansan-da. Oting nima edi?

— Nigora, — dedi singlim.

— Isming ham xuddi o'zingga o'xshab chiroyli ekan. Nechanchi sinfda o'qiysan?

— Beshinchiga o'tdim.

— Ie, mening qizim bilan birga o'qir ekansan-da, otini bilasanmi?

— Bilaman, Sharifa.

— Sharifayu Nigora, bir-biriga dugona... Nega biznikiga bormaysan? Borsang mashina-chi xolang sutu qaymoqlar bilan rosa mehmon qilardi. Endi borib turgin, xo'pmi? Sharifa sigir sog'ishni biladi, sen-chi?

— Bizning sigirimiz yo'q-da.

— Ie, bunisi chatoq ekan. Buzoqchamiz bor, o'shani senga bersam bo'larkan, boqib katta qilib olarding...

Svetoforli chorrahada to'xtagan ekanmiz, mashina yana o'chdi. Aslida Turob akaning o'zi mashina haydashni yaxshi bilmas ekan. Gazni o'chirmaslik kerak edi, yana itarishga to'g'ri keldi.

— Lekin ota-onalaringdan tashvishlanmanglar, — to'satdan suhbatni biz xohlagan tomonga burdi Turob aka, — o'zim har

xil bahonalar bilan oldilariga kirib ko'ngil so'rab turibman. Qaymoq ham olib borib berdim. Odamlar mendan chakki shubhalanishyapti. Tavba, mahallada kim qamalsa, mendan ko'radigan bo'lib qolishdi-ya! Axir bunaqa ishlar bilan shug'ullanadigan tekshiruvlar bor, jinoyat qidiruvchilar bor. Men nari borsa qorovuldek bir gapman... Dadalaring ham mendan ko'ryapti shekilli. Tergov olib borayotgan yigit chaquv qo'shnilaringdan tushgan, deb ishontirib qo'yibdi. Kimligini aytmayman, o'zingiz bilib olasiz, debdi. Men birovning jinoyatini bilsam, ustidan yozib o'tirmayman, shartta betiga aytaman qo'yaman. O'rtoq, shu ishing chakki, tezroq etagingni yop, deyman... Saidjonning shubhasi o'rinsiz. Akbarjon, o'g'lim, dadangning oldiga kirganingda shu gaplarni yotig'i bilan aytgin, xo'pmi?

— Xo'p, — dedi akam.

— Nima deysan, qani, ayt-chi.

— Shu siz aytgan gaplarni aytaman.

— Rahmat, o'g'lim, sen o'zi esli yigitsan. Bekorga Salim sen bilan o'rtoq bo'lmagan. O'rtog'imning oyog'i cho'loqda, bo'lmasa dunyoni olardi, deydi... Lekin o'g'lim, ko'pam oyoqni o'ylayverma, kalla ishlasa bo'ldi. O'zing nima deb o'ylaysan, mahalladan kim yozgan bo'lishi mumkin?

— Qaydam...

— Yo'q, yaxshiroq o'ylab ko'r, o'g'lim, shubha yomon narsa. Odamni o'ldirib qo'yishi mumkin.

— Men... hech narsani bilmayman.

— Ehtimol, Ataullo muallimning ishidir bu?

— Yo'q, bu gal u kishi yozmagan.

— Qilg'iliqni qilib qo'yib, sizlarni ergashtirib idorama-idora chopib yurishi bejiz emasdir-ov... Yo ancha-muncha pul va'da qildilaringmi? Agar pul aralashsa ish yana chatoq bo'ladi-ya...

— Amaki, Ataullo muallim bizni yaxshi ko'radi. Yuragi toza, achinganidan qilyapti bu ishlarni.

— Ehtimol, bu gapingda ham jon bordir. U ham menga o'xshab cho'rtkesar, gardkamchi, pismiqlik emas. Aslida-ku, Saidjon taqdirga tan berishi kerak edi. Kim yozgan bo'lsa ham haqiqatni deb, sizlarni mana bunday sarson bo'lib

yurishlarining oldini olay deb yozgan. Dadalaringga aytinglar, bekorga odamlardan shubhalanavermasin...

Shahar militsiyasi qoshida tergov bo'layotganlarni vaqtincha ushlab turadigan qamoqxona bor ekan. O'sha yerda to'xtadik. Binosi ko'rimsizgina, bir qavatli. Kirib chiqayotganlar ko'p, binoning shundoqqina kiraverishida, o'ng tarafida torgina xona bor ekan. Tergov berayotganlar yo'qlovchilar bilan shu yerda uchrashishar ekan. Turob aka ancha mahal yo'q bo'lib ketdi. Kutish yomon bo'lar ekan, har daqiqasi bir kundek tuyulaverarkan. Ko'zimiz eshikda, nafas olgani qo'rqamiz. Bordi-yu bu yerda yo'q bo'lishsa-chi, uchrashuvga ruxsat bo'lmasa-chi, degan vahima hammamizning yuragimizni g'ijimlab turibdi.

Temir eshik ovozsiz ochildi, entikkan, hayajonli Turob aka ko'rindi. O'rnimizdan turib ketdik.

— Oyijon!!! — qichqirib yubordi Nigora.

Ha, Turob akaning ketidan iymanibgina oyijonim kirib keldi. Shu paytdagi holatimizni baribir ta'riflab berolmayman. So'roqlar qiynagan, bizni sog'inib tunlari uxlay olmagan, rangi siniqqan, ko'zlarining osti ko'karib, sochlari to'zg'igan oyijonimiz kirib keldi. Bir-birimizning bag'rimizda erib yo'q bo'lib ketdik. Quchoqlashamiz, o'pishamiz, yig'laymiz. Maktabimizda bahs bo'luvdi. O'rtada eng baxtli daqiqangiz, degan savol ham tashlashuvdi. O'shanda javob berolmovdim. Kishining eng baxtli daqiqasi intizor onaning issiq bag'riga bosh qo'shgan pallasi bo'larkan. Men ham, akamu ukalarim ham shu asnoda baxtli edik. Baxtiyorlikdan entikayotgan edik.

— Bas endi, — dedi oyijonim bizni ohista itarib, — endi birpas gaplashaylik.

— Yo'q, yo'q! — dedi Nigora battarroq yopishib, yana bir nafas achomlay, hidingizga to'ymayapman. Oyijon, har kuni tushlarimga kirasiz, sizni bu yerda qiynashmayaptimi?

— Nega qiynashar ekan?

— Qizlar aytyapti.

— Ishonma ularning gapiga. Tergovchilar... madaniyatli yigitlar ekan, sizlab gapirishadi. Endi nari tur. Akbar akangni ham birpas bag'rimga olay. Kelgandan buyon to'mshayib

o'tiripti sho'rlikkinam. Qani, o'g'lim, beri kel-chi, voy arslonim-ey, nega ranging bir ahvolda?

Akamni Turob amakim ko'tarib kirib silliq taxtaga o'tqizgan edi. Oyijonim yoniga surilib uning sochlari o'sib ketgan boshini ko'ksiga bosdi. Ohista-ohista silab, peshonasidan, yuzlaridan o'pa boshladi.

— Nega buncha ozib ketibsan, o'g'lim, tobing qochdimi?

— Sog'man, oyijon.

— Ko'zlaring ich-ichiga botib ketgan.

Zufar chaqimchilik qilishni yaxshi ko'rardi. Bu gal ham o'zini tutib turolmadi:

— Buningiz odam bo'lmay qoldi.

— Nima bo'ldi o'zi? — hushyor tortib so'radi oyijonim.

— Asabi buzilgan, hammaga baqirgani baqirgan. Keyin, oyijon, buningiz jinniga o'xshab kunbo'yi eshikni ichidan berkitib o'tiradigan odat chiqargan. Ko'pincha ovqat ham yemaydi. Urishib qo'ying.

— Ko'chalarga chiqib aylanib kelsang bo'lmaydimi, polvonim, nega bunday qilasan?

Akam oyijonimning ko'ksidan boshini olib, xo'rsindi.

— Odamlardan uyalaman.

— Parvo qilma, arslonim. O'zingni, ukalaringni o'yla. Odamlar o'zi shunaqa — boyib ketsang ko'rolmaydi, ochqab qolsang berolmaydi... Bizning yo'g'imizda bir-birlaringga mehribon, ahil bo'linglar...

Oyijonim o'pkasi to'lib gapirolmay qoldi.

Eshik ochilib navbatchi militsiya xodimi ko'rindi. Vaqtimiz tugabdi. Tortinibgina Turob aka ham kirdi. Akamni qo'liga ko'tarib oldi. Oyijonim, sen bir nafas sabr qil, aytadigan gapim bor, deb meni olib qoldi. Nigora ostonaga yetganda orqasiga qaytib oyijonimning bo'yniga osilib:

— Ketmayman, sizni tashlab hech qayoqqa bormayman, — deb chinakamiga dodlashga tushdi.

Navbatchi militsioner, garchi qovog'i soliq bo'lsa ham, rahmdilgina ekan. Ertaga kelsang yana oyingning oldiga o'zim kiritib yuboraman, har kuni kelgin, har kuni kiritaman, deb arang yupatdi.

Oyijonim ikkimiz yolg'iz qoldik. O'zini zo'rg'a tutib turgan ekan, ko'zlaridan duvillab yosh quyilib ketdi. Butun borlig'i zirqirab og'riyotgandek alam bilan bosh chayqay boshladi.

— Oyijon!

— Qo'y, bir yig'lab olay. Yurak-bag'rim ezilib ketyapti, bolaginam. Dadang o'lgur ochiqda bo'lsa ham go'rga edi. Bechora tog'angga ham jabr qilib qo'ydik. Bizni deb gunohsiz boshini baloga tiqib oldi... Bir kechada yuz mingdan ayrildik-a, yuz ming!!!

— Kuyinmang, oyijon, pul topilar, — dedim o'zimning ham o'pkam to'lib.

— Yo'q, yo'q, bolaginam, boyliklar dadang ikkimizning bag'rimizdan yig'ilgan edi. O'g'lim, esligim, sog'ligim yomonlashyapti, yurak o'ynog'im hech to'xtamayapti. Ha mayli, gap qo'shmay tur, aytadigan gapim bor. Zargarlarga ayt — hech narsani bo'ynimga olganim yo'q. Esingdan chiqmaydimi?

— Yo'q, esimdan chiqmaydi.

— Keyin, o'g'lim, bugundan qoldirmay borib Qozi xolangdan taqinchoqlarimni qaytarib olinglar, xolang ikkoving boringlar, tilxati uyda katta mis choynak bor-ku, o'shaning jo'mragida. Naycha qilib tiqib qo'yganman. Endi tur, qo'ltig'imdanda ol, yurak qurg'ur yana xuruj qildi shekilli. Yurolmayman, yaxshisi, ayt, doktorni chaqirishsin, tez bo'l...

VIBOB

Dadajonim Nigora bilan Zufarning peshonasidan o'pib, negadir taxtada o'tirgan akamni qo'liga ko'tarib oldi.

— Aqlli bolasan, — dedi uning ham yuzlaridan o'pa turib, — ukalaringga bosh-qosh bo'lg'in. Mendan tashvishlanmanglar, bir-ikki yil berishadiganga o'xshaydi. Bir-ikki yil, xolos. Suddan so'ng, muddatimni shartliga aylantirib, uyga kelib-ketib turaman. Gap shu, Turobjonga rahmat aytinglar. Yaxshiligini unutmang. Mendan qaytmasa, xudodan qaytar. Xo'p, xayr, dadil bo'linglar. Zafarjon, sen biroz sabr qil, keyinroq chiqarsan.

Navbatchi melisa hushini yo'qotgandek karaxt bo'lib qolgan akamni ko'tarib, Nigora bilan Zufarni ortidan ergashtirib tashqariga chiqib ketdi.

— Oying qalay ekan? — shoshilib so'radi dadam.

— Sizga salom aytdi.

— Yurakdan shikoyat qilmayaptimi?

— Unchalik emas.

— Gaplashib qo'ydim, bugun-erta gospitalga chiqarib yuborishadi. Quloq sol, o'g'lim, bu gaplarni aslida oilamizning kattasi akangga aytishim kerak edi. Lekin na chora, avvalo, nogiron, yugurib-elib ish bitirolmaydi. Qolaversa, fikrlarimiz boshqa-boshqa, mening yo'linga yurmadi u. Ehtimol, to'g'ri qilgandir... Ikkita topshiriq beraman senga. Bu ish qaltis, birovga ishonib bo'lmaydi.

— Oyijonim ham topshiriq berdi.

— Mayli, uni ham bajar... Qanaqa topshiriq?

— Qozi xolamdagi tilla taqinchoqlarni tezda qaytarib olib, ishonchli joyga berkitar ekanmiz.

— Hali olganlaring yo'qmi ularni?!

— Xolam bilan boruvdik...

— Xo'sh?

— Bermadi.

— Yovuz xotin u. Ajdahoning urg'ochisi u! Uning og'zidan bir narsani qaytarib olish, hay, hay... Bu onangning soddaligi... Tilxatga ehtiyot bo'! Quloq sol endi, esli o'g'lim, tog'angga o'xshab tavakkaliga ish tutma. Yetti o'lchab bir kesishni o'rgan. Tog'ang qimorvozigga o'xshab ish tutardi. Katta bossang katta olasan emish... Topgan gapini qarang... Senga ikkita topshiriq beraman, o'rirlata olarmikansan?

— Harakat qilaman, dadajon.

— Sadir amakingnikiga borasan. U seni yaxshi ko'radi. Shu o'g'lingizni, xudo xohlasa, o'zim kuyov qilaman, nabira kuyov bo'ladi, deb hazillashib yurardi. O'sha amakingni axtarib topasan, idorasida emas, uyida gaplashinglar. Iloji bo'lsa suhbatlaringni xotini — Qo'mondon xola eshitmasin. Amakingdan «Volga»ni kimning nomiga o'tkazaylik, deb so'ra.

— Dada!

- Gap qo'shma.
- Axir u oilamizning obro'yi-ku, — oyijonimning hamisha aytadigan gapi esimga tushib ketdi.
- Obro' qoldimi hozir, o'g'lim! — dadam ichi yonib ketayotgandek chuqur xo'rsindi, — modomiki «Volga» obro'yimiz ekan, boshimizga tashvish tushganda ana shu obro'yimizdan foydalanishimiz kerak.
- Bozorvoy amakim ko'nmasa-chi?
- Ko'nadi, hamma gapdan xabari bor. Sadir, amakingning bir og'iz so'zi ko'p narsani hal qiladi. Jazo muddatini ikki-uch yil kamaytiradi. Bu ishni ertadan qolmay tugatinglar, xo'pmi?
- Zufar rosa to'polon ko'tarsa kerak.
- Nega to'polon ko'taradi?
- «Volga» meniki deb yurardi, ichidan tushmasdi.
- Ukangga tushuntir. Dadam eson-omon chiqsa bunaqalardan yana nechtasini olib beradi, degin. Xo'p endi, topshiriqni ikkinchisiga quloq sol. Bibiqiz ammannikiga qora kunlarimizga kerak bo'lar deb ozgina pul tashlab qo'ygan edim.
- Yaqinda o'zlari ham kelishuvdi.
- Ammanni?
- Ha, pochcham ikkovlari. O'sha pulniyam olib kelishgan ekan.
- Olib qoldilaringmi?
- Yo'q, qaytarib olib ketishdi.
- Mashinani tinchitganingdan keyin qishloqda jo'naysan. O'sha pul qancha bo'lsa, hammasini olib kelasan. Qaytayotganingda yolg'iz qaytma. Yo pochchang, yo ammann kuzatib kelsin. Pulni keltirib Bozorvoy amakingga berasan. Jon o'g'lim, ehtiyot bo'lg'in.
- Dada, bosh tergovchi yomon odamga o'xshamaydi. Bolalarning mungli ko'ziga qaray olmayman, deyapti. Insofli ekan...
- Men ham uni yomon deyayotganim yo'q.
- O'sha amaki o'rtaga birov aralashsa tog'alaringni ko'yiga tushadi deyapti.
- Mayli, o'g'lim, u masalada har birimizning o'z nuqtai nazarimiz bor. Bir la'nati odam menga pora berganman deb tuhmat qilyapti.

— Haqiqatan ham... o'sha porani olganmidingiz o'zi?

— Ilgari olardim. Lekin o'sha kuni qo'limga ham ushlagan emasman.

— Demak, tuhmat qilyaptimi?

— Ha.

— Yomon odam ekan.

— Bizning davrimizda yaxshi odam o'zi kam topiladi. O'sha la'nati da'vosini qaytib olishga tayyor. Lekin katta pul so'rayapti. Boshqa ilojimiz yo'q. Muddat yana ikki-uch yilga kamayishi mumkin. Sen pulni keltirib ber, qolganini Bozorvoy amaking tinchitadi. Tur endi, eslik o'g'lim, xayrlashamiz. Barakalla, dadil bo'llaring. Uzoq yotmayman. Aytgandek, Ataullo muallimga rahmat ayt, hammasini eshitdim. Eson-omon chiqsam bir umr xizmatini qilaman.

Chorrahalarda tez-tez to'xtab, Turob akaning mashinasini itar-itari qilib, uning magazinlarda mashina uchun zarur ehtiyot qismlar yo'qligidan kuyinib, zorlanib aytgan so'zlarini eshitib uyga arang yetib keldik.

Endi nima qildik-a? Qanday qilsam yakkalanib, ojizu notavon bo'lib qolgan mehribonimga yordam uyushtirsa bo'larkin? Dadam qo'mondonlar o'z askarini jangga solgandek, pullarini ishga solib qonun bilan olishyapti. Oyijonim-chi, birinchi jangdayoq halok bo'libdi u. Qaytaga tog'amning qamalGANI qoldi. Ha, jang qurbonsiz bo'lmas ekan-da... Nima qildik endi? Oyijonimga beradigan birinchi yordamim uning taqinchoqlarini qaytarib olishdan iborat bo'lishi kerak, deb o'yladim. Shularga ilhaq bo'lib ham yuragi o'ynayotgan bo'lishi mumkin.

Xayriyat, tilxat oftobning jo'mragida turgan ekan. Shoshilib Barno xolamga telefon qildim. Oyijonimda, dadamdan salom keltirganimizni aytdim. Sevinib ketdi, ovozzinangdan o'rgilay, dedi. Sihat-salomatliklarini surishtirdi. Lekin Qozi xoladan taqinchoqlarni olish uchun bugun kelolmas emish, xolodilnikdan suv ichib, angina bo'p qopdi, isitmasi baland emish.

Trubkani joyiga qo'yayotganimda hovliqqncha Bozorvoy amakim kirib keldi. Bozorga tushganga o'xshaydi, ikkita qora

sumkani to'ldirib xarid qipti: sabzi, piyoz, to'rt kilocha keladigan qo'lda so'yilgan qo'y go'shti, qovun...

— Ie, qovun ham chiqibdimi? — sevinib so'radi Nigora singlim.

— Allaqachon tarvuz ham chiqqan, — deb to'ng'illadi xaridorga loqayd qarab turgan Zufar, — bo'lar-bo'lmasga echkidek sakrayverar ekansan-da!

— Ajab bo'lsin, sakrayveraman, — shunday deb singlim yoqimli hidi dimoqni yorgudek qovunni olib bag'riga bosdi, — shu deganingga endi senga bir tilim ham bermayman.

— Hay, aytgandek, yaxshi borib keldilaringmi?..

— Aytmadimmi, bu Ataullo muallim balo deb. Astoydil bo'lsa ministrnlarni ham mot qilib qo'yadi u. Obro'yi borda qurmagurning. Lekin bechora Said akamni pichoqsiz so'ydi-da bu muallim. Said akam uni qamatuvdi, u bo'lsa sizlarning tashvishlaringni qilib yuribdi. Ha mayli, dunyo o'zi shunaqa. Xo'sh, Said akam qalaylar?

— Yaxshi, — dedim.

— Menga biron gap aytmadilarmi?

— Aytidilar.

— Mashina masalasidami?

— Ha.

— Yana?

— Yana pul haqida ham gapirdilar.

— O'sha pulni, jiyan, — Bozorvoy amakim negadir to'satdan jonlanib ketdi, — tezroq olib kelishing kerak. Hamma ishlar bitay, deb turibdi. Xudo xohlasa, ko'rasan, u yog'ini ham boplaymiz. Mashinani ertagayoq hal qilamiz. Nima qilaylik, o'zim ham o'rganib qolgan edim. Tekingina ulov edi. Mayli, boshi-ko'zlaringdan sadaqa.

— Lekin sadaqa juda ko'payib ketyapti-da, — dedim yig'lamoqdan beri bo'lib.

— Ilojimiz qancha, jiyan, sadaqa so'raydiganlar ham ko'payib boryapti-da.

— Dadam, Sadir amaking bilan yolg'iz o'zing gaplash, yonlaringda guvoh bo'lmasin, — dedi.

— To'g'ri aytibdi. Bunaqa ishlarda begonalar aralashmagani ma'qul. Mashinasiz ham mana bunday yashaymiz, kerak bo'lsa

sizlarni o'zim yelkamda olib yuraman. Chiq yelkamga hozir, shaharni bir aylantirib kelay...

O'zi shu Bozorvoy amakim g'alati odam-da. Yaxshi ko'raman, o'lay agar, joni-dilimdan ortiq ko'raman uni. Oqko'ngil, quvnoq, adam uni olamni suv olsa to'pig'iga chiqmaydigan yigit, deydi. Rost, beg'amligi ham bor. Qandayki voqea yuz bermasin, hamisha quvnoq, kayfiyati a'lo. Mashinaning ruliga o'tirganda yayrab ashula aytganini ko'rsangiz. Jindek ichib olsa, tamom, chapak chalib o'yinga ham tushib ketaveradi. Qarang, boshimizda qanaqa tashvishlar turibdi, bugun bo'lmasa ertaga o'zini ham tergovga chaqirib qolishlari mumkin, ammo kayfiyatini zig'ircha buzmaydi. Quvnoq odamlar bilan yashash oson bo'larkan...

"Shahar savdo markazi" raisinikiga yo'l oldim. Bora-borgunimcha qiziq, mashinani o'zi olarmikin, biron qarindoshiga berarmikin yoki tergovga yordami tegadigan bitta-yarimta melisaga hadya qilmoqchimikan, deb o'ylab bordim.

Xayriyat, ishdan qaytgan ekan, shohona hovlisining o'rtasiga qurilgan shohona ayvonda yonboshlab, rangli kafel yopishtirilgan hovuzchadagi rangli baliqchalarning o'yinini tomosha qilib yotgan ekan. Bir arava keladigan xotini lorsillab, burnidan hushtak chalib meni iliq kutib oldi. Bag'riga bosib yelkamni asta silab qo'ydi. Eri tomonga boshlab bora turib ota-onamni surishtirdi. Borganlaringda mendan albatta salom aytinglar, dedi. Sadir amakim meni ko'rib, xo'mraygandek bo'ldi. Yuragim shig' etib ketdi. Shunday bo'lsa ham yaqinlashishim bilan ko'sovdek oriq qo'lini menga uzatib:

— Ey, keling-keling, kuyov bola! — dedi.

Chekkaroqqa omonatgina o'tirdim. Shu zahotiyoyq yana meni unutgandek non uvog'ini baliqchalarga tashlash bilan mashg'ul bo'ldi. Bu odam garchi dadamning ish borasidagi ustoz, o'ttiz yillardan buyon muomala qilib kelayotgan yaqin kishisi bo'lsa ham, baribir, uni yoqtirmayman. Odam bilan gaplashganda dimog' bilan gaplashadi. O'zi, takror aytaman, shunaqangi qotmaki, xuddi yog'ochdan yasalganga o'xshaydi. Ustasi yasayotganda o'lib qolganu u chala qolib ketgan ekan-da, deb o'ylaysiz. Men umuman, basavlat, qaddi-qomati

kelishgan rahbarlarni xush ko'raman. Ko'cha-kuyda shunaqa kishilarga duch kelib qolsam, orqasidan angrayib qolaman. Nega shunaqaman, o'lay agar, bilmayman.

— Xo'sh, kuyov bola, eshitaman? — degan ovoz eshitildi. Xayolim bo'lindi. G'alati iljayib qo'ydim. Aytadigan gapimni ham tezgina topolmadim. — Dadangning ahvolidan xabar olib turibsizlarmi? — yana so'radi Sadir Badalovich.

— Rahmat, hozirgina borib keldim, — dedim shosha-pisha.

— Qalay ekan?

— Yaxshi, sizga salom aytdilar.

— Dadang yana tag'in bizga o'xshaganlarga salom aytadigan bo'p qopti-da. Kambag'alning esi peshindan keyin kirarkan.

— Tushunmadim, — dedim cho'chibroq.

— Dadang boshqa gap aytmadimi?

— Mashina masalasini aytdilar. Amakingdan so'ra, «Volga»ni kimning nomiga o'tkazishimizni aytsin, dedilar.

Yana baliqchilarga uvoq tashlash boshlandi. Bir minut, ikki minut, uch minut... Amakim jim. Har zamonda go'shtsiz yuzining qayeridir uchib-uchib qo'yyapti, xolos. Hayajonlana boshladim, terlab ketdim. Ketsammi, o'tiraversammi?

— Anavu ig'vogarni ishga aralashtirib chakki qilibsizlar, — dedi nihoyat Sadir Badalovich menga qaramay.

— Kimni? — dedim hech narsaga tushunmay.

— Muallimni aytyapman.

— Muallim bizga yaxshilik qildi, amaki.

— Be, sen ham, kuyov bola, dadangga o'xshab laqmaroq ekansan. Bir-ikki yaxshilik qilib, ichlaringga kirib, sirlaringni bilib oladi-da, keyin ustilaringdan paqillatib yozadi, xavfli odam! O'zlaringni tortinglar undan... Buzoqning yugurgani somonxonagacha, o'zi kimu uning yaxshiligi qayoqqa borardi? Kuyovligidagi kostyumini qariganda ham kiyib yuribdi-yu, yana hammaga aql o'rgatmoqchi bo'ladi. Xo'sh, dadang nima dedi o'zi?

— Shu hozir aytganim.

— Bu gapni yana boshqa birov ham bildimi?

— Bozorvoy amakim ikkovimiz bilamiz, xolos. Mashina u kishining nomic a-da.

— Og‘zilaringdan gullab qo‘ymanglar, dadangga jabr bo‘ladi. O‘zi aslida, dadangni bu gal bir jazolashim kerak edi-yu, ha mayli... keyingi paytda bizni mensimay qo‘yuvdi. Qayoqdagi qalang‘i-qasang‘ilar bilan aloqa qiladigan bo‘p qoldi. Biz kimu ular kim. Ertaga borsang dadangga shu gaplarni aytgin.

— Xo‘p.

— Tashvishlanmasin, tegishli o‘rtoqlarga tayinlab qo‘yaman. Ishini yengillatib berishadi.

— Rahmat, amaki.

— Hozir uylaringga bir yigit boradi, mashinani o‘shaning nomiga o‘tkazasizlar. Ertadan qolmasin, bo‘lmasa dadangning o‘ziga jabr bo‘ladi. Og‘zilaringdan gullab qo‘ysalaring ikki baravar jabr bo‘ladi.

Qo‘mondon xolamning, voy bolaginam, birpas sabr qil, ovqat tayyor bo‘lyapti, deya qistashiga ham qaramay tezgina chiqib ketdim. Bozorvoy amakim xursandchilik kunimizga atagan palovini damlab, qaytishimni kutib o‘tirgan ekan. Chaqchaqlashib o‘tirib yedik. Ketidan qovun so‘ydik. Bir mahal darvozaxona qo‘ng‘irorg‘ jiringlab qoldi. Chiqsam begona, yo‘q, juda ham begona emas, sal-pal tanishroq bir yigit turibdi.

— Meni Sadir Badalovich yubordilar, — dedi so‘rashish uchun ikkala qo‘lini baravar uzatib, — mashina masalasida.

Ichkariga taklif qildim. Taklif qildim-u darvozaxona chirog‘ini yoqishim bilan aftiga qarab darrov tanidim. Xiyobondagi do‘konda gaz suv, morojniy bilan savdo qiladigan yigit. Yoz paytlarida uni har kuni bo‘lmasa ham kunora ko‘rib turardim, darrov tanimaganimni qarang... Ertasiga oilamizning quvonchi, obro‘yi bo‘lgan «Volga»mizni yig‘lab-yig‘lab o‘sha cho‘loq yigitning nomiga o‘tkazdik. Sotish, hadya qilish huquqi bilan sovg‘a qildik. Qayoqdandir hid olib qolgan Zufar ukam naq uch kungacha piq-piq yig‘lab yurdi.

VII BOB

Ammamnikiga barvaqtroq yetib boraman deb harchand urinsam ham, baribir, bo'lmadi. Bo'lmasa tong saharlab turgan edim, avtobusning ham birinchi reysiga ilinuvdim. Nima bo'ldi, bilmayman. Yoki avtobusning imillab yurgani sabab bo'ldimikin? Ishqilib, choshgoh mahalida arang yetib bordim-da. Dadajonimning bolaligi o'tgan tog' bag'rida joylashgan bu bahavo, yam-yashil daraxtlarga ko'milgan qishloqchada ilgari ham ko'p bo'lganman. Qishloq emas, ertaklardagi jannatning o'zi. Mevalari shirin, sut-qatig'i zo'r. Tog' tomondan pastga qarab goh jildirab, goh shovullab oqadigan suvlarini aytmay sizmi?! Ilgari, dadajonim ochiqdaligida, mana shunaqa yoz pallasida kelib qolsak, dadajonim yalangoyoq bo'lib olib, bizni ham oyoq kiyimimizni yechdirib, ko'chada uchragan bolalarning kimligini surishtirib, ularning otasi-yu bobosiga salom aytishni topshirib, anhor bo'yiga boshlab borar, suvda miriqib cho'milishar edik. Ko'pincha majruh akamni ham olib borardik. Pochcham — ammamning kamgap eri ham goho bizga qo'shilar, tog' orasidan xuddi nasosda damlangandek otilib chiqayotgan anhor yoyilib oqadigan joygacha akamni yelkasida ko'tarib borar, Akbarjon, nega sen bunday yengilsana, deb qo'yar edi. Ba'zan dadam anhor bo'yidagi issiq qumda dumalashib yotganimizda bolaligini eslardi. «Ilgari bu yerlar keta-ketguncha bog' edi, o'rikzorlar, yong'oqzorlar, eh-he, har daraxtlar ediki, quchog'ingga sig'masdi. Mollarni yoyib yuborib, qish bo'lsa o'rtaga katta gulxan yoqib, atrofini qurshab, uydan keltirgan zog'ora nonlarimizni olovda toblab, meva-chevalarimizni dasturxonga to'kib... yoz bo'lsa cho'milishib, qumlarda mana shunaqa dumalashib... Eh-he, har o'yinlarimiz bor ediki, men yarim chaqiringacha nafas olmasdan zuvillab bora olar edim», deya xo'rsinib qo'yardi. Hozir esa dadajonim qamoqda yotibdi. Kim biladi, o'sha zuvuldoq o'ynab, suvda non oqizoq o'ynab o'tkazgan damlarini eslab ma'yus tortib o'tirgandir?!

Ammamlarning qo'sh qanotli, bir mahallar bo'yalib, vaqt o'tishi bilan endi rangi o'chib, olachalpoq bo'lib qolgan

eshiklari qiya ochiq ekan. Xayriyat, uylarida odam borga o'xshaydi, deb o'ylab sevinib ketdim. Chunki ishni bitirib tezgina qaytib ketish niyatida edim.

— Kim bor? — ovoz berdim darvozaxonaga kirgach.

Jimlik, hovli to'la olachipor, qora tovuqlar. Semirib ketgan. Har bittasi qo'zichoqdek keladi. Nimalarnidir titkilab, cho'qilab yurishibdi. Yana ovoz berdim. Hovli bog'dan bir paxsagina devor bilan ajratilgan. O'sha tomondan ammamning katta o'g'li Abdukarim ko'rindi. Abdukarim men bilan teng. Yetti kunlik kattaman, xolos.

— Ie-ye, — dedi Abdukarim men tomon chopib kelayotib.

— Ie-ye, mana buni qaranglar!

Aftidan sevinib ketdi shekilli. Uni azaldan yaxshi ko'raman. Pochchamga o'xshab dumbulgina, oq sariq yuzi handalakdek dum-dumaloq, ko'zlarining hamisha g'amgin boqishi ham pochchamnikiga o'xshaydi.

— Ie-ye! — dedi yana yonimga kelib. — Zafarjonmisan, ana buni qaranglar. Qo'lim iflos, hozir yuvaman, hozir! Ukalaring qani, akang-chi? Oyim hammalari keladi devdi-ku?

Yuvindi. Qo'l olib ko'rishdik. Bog' tomondan ikkala ukasi — Abduhalim bilan Abdupattoh ham chopqillashib kelishdi. O'rik terishayotgan ekan.

— Ammam qani? — dedim betoqatlanib.

— Fermada, — deyishdi aka-ukalar baravariga.

— Pochcham-chi?

— Uyam.

— Ferma uzoqmi?

— Uzoq emas, — tushuntirdi Abdukarim, — lekin o'zlari tushlikka kelishadi. Qozonga tovuq sho'rva solib qo'yganman, oyim aytuvdi. Tovug'imizning yarmi yaxshi tuxum bermay qo'ydi, tovuq qarisa uch-to'rt kunda bitta tug'adigan bo'lib qolarkan. Dadam, endi bulardan foyda yo'q, so'yish kerak, dedi. Bugun ikkitasini qozonga soldik. Tog'am qamoqdan chiqdilararmi?

— Chiqib qolar, — dedim xo'rsinib.

— Kelinoyim-chi? — yana g'amgin ko'zlarini pirpiratib so'radi Abdukarim.

— Oyim ham yaqinda chiqadi.

Oyijonimni esladimu yuragimga g'ashlik cho'kib, gapimiz qovushmay qoldi. Abdukarim ukalarini boqqa haydadi. Tushlikkacha yana o'n chelakdan termasalaring, ovqat yemaysanlar, deb o'dag'ayladi. O'zi molning go'ngidan tappi dumalatayotgan ekan, o'sha yoqqa o'tdik. Qiziq, molning go'ngiga ko'mirning kukunini qo'shisharkan. Yaxshi yonarmish, alangasining issig'i kuchli bo'larmish, Abdukarim aftidan, tug'ilganidan buyon faqat tappi dumalatish bilan shug'ullanayotgan bo'lsa kerak, chaqqonligiga havasim keldi.

— Buqa ham o'zlarinigikimi? — so'radim negadir boshqa gap topolmay.

— O'zimizniki, — boshini ko'tarmay dedi Abdukarim, — dadam kuzgacha boqsang besh yuz kilo go'sht beradi, deyapti.

Yana nimalarnidir so'ragim bor. Lekin, botinolmay turibman. O'rtog'imning pishillab, qora terga botib ishlayotganligi, men esa olifta kiyinib olib, molxonaning dimog'ini achitib, ko'ngilni ozdiradigan yoqimsiz hididan burnimni jiyirib, ikki qo'limni biqinimga tirab tomoshabin bo'lib turishim o'zimga yoqmayapti. Men molxonaning hidini umuman yoqtirmayman, o'qchigim kelaveradi. Qiziq, go'shtni yaxshi ko'raman dadamga o'xshab joni dilim sut-qatig'u, lekin, baribir, molxonaning hidini yomon ko'raman.

Bog' etagiga qarab yurdim. Etakka yetguncha gilos ekishgan ekan. Ertangilari tugabdi, kechkilarida bitta-ikkita bor, chumchuq cho'qiganlari ham ko'p. Tagi bedazor, tizzaga urib qopdi. Yaqinginda sug'orilgan bo'lsa kerak, gurkirab o'sib, atrofga dimog'ni erkalaydigan namxush hid taratib turibdi. Qalbidam allaqanday iliqlik tuydim, tanim yayrab ketgandek bo'ldi. Ko'm-ko'k beda ustiga dumalagim, chalqancha yotib jimirlab turgan osmonga tikilgim keldi! Bir marta dadam bilan kelganimizda bedazorga chiqib xuddi shunday qiluvdik. Nazarimda, o'sha daqiqalarda tuygan huzur-halovatim esimga tushib ketdi shekilli.

— Zafar aka, — deya murojaat qildi yetti yoshli qarindoshim Abdupattoh. — O'rikni menga terishasizmi yoki akamgami?

— Senga terishaman, — deb ovoz berdim yaqiniga borib.

— Ana, eshitdingmi? — quvonib ketdi Abdupattoh, — sen bo'lsang menga terishgani kelyapti deysan.

Yaqinlariga bordim. Aftidan, pochcham tong saharlab turib olti tup o'rikning ustida qancha mevasi bo'lsa hammasini qoqib berib ketganga o'xshaydi. Ha, xuddi shunday qilgani aniq. Meva o'z-o'zidan shuncha to'kilmaydi. Har bittasi chaqaloqning mushtiday keladigan, sarg'ayib pishgan o'rik yer bilan bitta bo'lib yotibdi. Bir engashganda chelakni to'ldirib tersa bo'ladi. Ammajonim har yili qish pallasida bizga xalta-xalta turshak olib borardi. Shulardan quritib olarkan-da.

O'lay agar, shunday bir ishtiyiq qo'zg'aldiki, o'zimni tutolmay qoldim. Shimim bilan ko'yलगimni yechib, gilosning shoxiga ildim.

— Mana, ko'ring, — zorlandi Abdupattoh, — akam bilan mening chelagimni solishtiring, qaysisi katta ekan. Doim menga katta chelak berishadi-da, keyin o'zlari xormang bitmadi deb, mazax qilishadi.

Abdupattoh chelagini akasining yoniga keltirib qo'ydi:

— Ayting-chi, qaysi biri novcha ekan?

— Seniki novcharoqqa o'xshaydi.

— Hechamda, — o'n ikki yoshli qarindoshim Abduxalil o'rik terishdan to'xtab boshini ko'tardi, — uniki novcha bo'lgani bilan qorni kichkina. Meniki pastrog'u baqaloq. Unikiga sakkiz kilo, menikiga o'n ikki kilo ketadi. Ey, Pattoh, tersang, g'ingshimasdan ter, bo'lmasa hozir haydayman.

— Haydab bo'psan. Haydasang, velosipedingniig kamerini teshib qo'yaman.

— Xo'p, kel bo'lmasa, chelaklarimizni almashtiramiz.

— Yo'q, endi almashtirmayman, — chelagini ko'tarib orqaga qaytdi Abdupattoh, — faqat men yarimroq olib borib to'kaman.

— Bilganingni qil, mahmadona, — qo'l siltadi Abduxalil.

Terishga tushdim. Har xil — sarg'ayib pishganlari, pishib o'tib ketganlari, hali pishib ulgurmagan ko'kimtirroqlari ham bor. Bir xillari qoq ikkiga bo'linib ketib, danagi ochilib yotibdi. To'lgan chelakni nariroqdagi bo'yra to'shalgan xirmonga to'kib kelyapmiz. Abduxalil ham pochchamga o'xshab kamgap bola

bo'пти, gapirmaydi. Bir narsa so'rasang kulimsirab, qisqagina javob beradi-yu, yana boshini egib oladi.

— Meniki o'n olti chelak bo'ldi, — dedi Abdupattoh akasining tepasiga borib.

— Bor, ishingni qil, — akasi boshini ko'tarmay jerkib berdi.

— Seniki o'n to'rtta bo'ldi, xolos, endi men ham dam olaman.

— Xalaqit berma deyapman.

Yo'q, Abdupattoh dam olmadi. Chelagini childirma qilib, bir-ikki chalgan bo'ldi-yu, yana terishga tushdi. Chelak yarim bo'lmasdan belini rostlab:

— Uh! — deb qo'ydi cho'zib.

— Nega uhlaysan? — deb qiziqdim.

— Men hali qo'yimga o't ham o'rishim kerak. Anavi urg'ochilari meniki.

— Qo'zilariyammi?

— Qo'zilariyam.

— Bo'rdoqilari-chi?

— Unga Halim akam qaraydi. Unga oson, yem beradi, xolos. O't bermaydi. Ko'k o't qo'yni ozdirib qo'yarmish... Men ahmoq bo'lib har kuni dalaga o't o'rgani boraman.

— Senga qiyin ekan.

— Bo'lmasam-chi?! Anovi kuni qo'limni o'roq kesib oldi. Mana, ko'ring...

— Novvos-chi, unga kim qaraydi?

— Sigir bilan novvosga katta akam qaraydi. Biz qo'rqamiz. Sigir-ku, mayli-ya, novvos chatoq. Qutirib ketgan. Ko'rmadingizmi, burnidan ham ingichka zanjir o'tkazib qo'rganmiz. Akamdan boshqasi oldiga borolmaydi.

— Tovuqlar-chi? Ularga kim qaraydi.

— Tovuqlar... ular o'rtada... Siz tovuq go'shtini yaxshi ko'rasizmi?

— Sal-pal.

— Men juda ham yaxshi ko'raman, yumshoqqina-da. Dadam menga nuqul chaqqonroq bo'lgin deb, oyog'ini beradi. Bo'ynini yomon ko'raman. Kemirayotganimda yuragim siqilib ketadi. Sizlar ham tovuq boqasizlarmi? Mol-chi?

— Yo'q.

— Voy, unda nima ish qilasizlar!

— O'qiyimiz.

— O'qishdan keyin-chi?

— Yana o'qiyimiz.

— Yolg'on. Meni aldayapsiz. Sizlar futbol o'ynaysizlar, xokkey o'ynaysizlar.

To'g'ri, dedim ichimda, biz o'yin o'ynaymiz, ular ishlaydi. Ataullo muallim ham shunaqa, bolalarini o'ynatmaydi. Turob militsioner hammasidan battar, o'g'il-qizlariga bab-barobar ish taqsimlab, normasini bajarmasa ovqat ham bermaydi. Nega shunday qilishar ekan a, nega? Ular gol urishning gashtini bilishmaydi-da, shuning uchun o'ynashmasa kerak. Lekin, qiziq, men hozir, mana, o'rik teryapman, demak ishlayapman, jon-jon deb ishlayapman, kishi ishlaganda ham xuddi o'ynagandagidek huzur qilishi mumkin ekan-da... Qiziq, nega dadam bizni bu huzurdan mahrum qildi ekan? Yo'q, dadam xohlardi-ya, oyijonim ko'nmasdi. Bolajonlarimni qora mehnatga bermayman, derdi. Bechora oyijonim bizni qanchalik yaxshi ko'rardi-ya, bizni deb mana qamoqda o'tiribdi. Ex, oyijon, eh, dadajonim, nega bizni mana shunaqa ishlarga o'rgatmadingiz? Mana, ammamlarning sigiru novvoslarini, qo'yu tovuqlarini qarang, bog'ni yashnab turganini ko'ring, bularni hech kim tortib ololmaydi. Bizniki bo'lsa, nimaiki topgan bo'lsalaring hammasi xomtalashga tushib ketdi. Kimning amali katta bo'lsa, o'sha ko'proq oldi. Yana olishsa kerak... Uh, endi buyog'i nima bo'larkin?

Hovli tomondan ovoz eshitildi. Boshimni ko'tardim. Qaniqani deganicha, xalloslab, qulochini keng yozib, ammam kelyapti.

— Bo'ylaringdan o'rgilay, jigarginam! — ammam meni bag'riga olaturib yig'lab yubordi. Yuz-ko'zlarimdan o'pa ketdi. Aftidan, akasi qamalib qolgani tufayli qalbi alamga to'lib turgan ekanmi, shu alamlarni ko'z yoshlari bilan chiqarib yubormoqchi bo'ldimi, uzoq yig'ladi. Quchoqlashib hovliga o'tdik. Ayyondagi katta karavotga atlas ko'rpacha yozdi. Yonboshimga baxmal bolishlar qo'ydi.

— Qani, gapir, akam sho'rlik chiqay deyaptimi?

— Qaydam, — dedim. Ammam bosh chayqab xo'rsindi:

— Kennoyim-chi?

— Harakat qilishyapti.

— Tavba, hech kutilmagan falokat-a, bir yo'la ikkovlariyam-a! Hay, ammaginang o'rgulgur, nega ukang bilan singlingni olib kelmading? Akang-chi, Akbarjonim qani? U sho'rlik bu alamlarni qanday ko'taryapti, fil bo'lsa beli sinardi-ya! Sho'rlikkinam, o'zi ojizgina edi, qanday chidayapti ekan, nega olib kelmading uni? Axir, mana, meva-chevalar pishib qoldi, besh-o'n kun o'ynab ketardi-ku, o'zi tuzukmi? O'sha kuni borganimda aftiga qarab qo'rqib ketdim: ko'zlari to'la vahima edi.

Ammajon, o'sha kuni sizlar ketishlaring bilan akam nima sababdandir o'zini osib qo'ydi, o'lib qolishiga sal qoldi, deb aytgim keldi-yu, lekin o'zimni tiydim.

Ammamning yuragi hasratga to'lib turgan ekan, bo'shatib olsin, dedim.

— Hoy, Abdukarim, — deb chaqirdi ammam, — ishingni bas qil, sho'rvangga qara, kartoshkasini solganmisan? Hozir dadang ham kelib qoladi-ya. Obbo Zafarjon-ey, ammangni ko'rgani kelibsana-da? Qanday yaxshi-ya! Oyog'ingni uzat, yayrabroq o'tir... O'sha kuni borganimda hovlilaring to'la odam ekan, durustroq gaplasholmadik... Ovozasi qishloqqa ham yetib kelgan. Hammayoqda mish-mish gap. Akangizning uyidan bir pud tilla chiqqan emish deb mendan so'rashadi. Rostmi shu gap?

— Ellik ikkita tanga chiqqan, xolos.

— E tavba, shunga shuncha vahima-ya.

— Uyam bobomdan qolgan ekan.

— Zargar bobongdanmi?

— Ha!

— E xudoim-ey, bobolaringdan tilla qolgan ekanmi, a? Kennoyim qachon ko'rishmaylik, ochimdan o'ldim, derdi-ku?... Dadangning oldiga borib turibsizlarmi? Rang-ro'yi qalay? Akaginam-ey, nega bunday bo'p qoldiykin-a? Shuncha molidunyo, shuncha oynavand uylar, shuncha pul... voy akaginam-ey... Hammasi shu zargarning qizi Yoqutxon tufayli bo'ldi-yov.

Voy tavba, odamlar buncha ochko'z bo'lmasa! Mayli, amming o'rgilsin, xudo xohlasa hammasi joy-joyiga tushib ketadi. Xatmiqur'on o'qittirdim, ota-onalarimiz yashab o'tgan joyga borib chiroq yoqdim. Mana, ikki haftadan buyon «Mushkul-kushod» o'qittiryapman. Xudo xohlasa akaginam bilan kennoyimning mushkuli oson bo'ladi. Otin bibi aytyaptilar, bir oyga qolmay ikkoviyam ozod bo'larmish. Hoy, Abdukarim, men gapga tushib ketdim endi, qozondan kartoshkani ol, ezilib ketadiya... Zafarjon, shu o'rtog'ing ajoyib bola bo'ldi-da. Qushda tinim bor, qumursqada tinim bor — bunda tinim yo'q. Xuddi dadasining o'zi-ya. Mashina olaman deb harakat qilyapti. Ukalarini yoniga olib, gilos sotdi, yaxshigina pul qildi bolaginam. Mana, novvos boqyapti, qo'ylariyam semirib qoldi. Mayli, olsa olar. Hamma minganda nega biz minmas ekanmiz... Hoy, Abdukarim, oq piyozdan bir tovoq to'g'rab solgin. Xushxo'r bo'ladi... Uch-to'rt kun turgani keldingmi?

— Iloji bo'lsa, — dedim chaynalibroq, — bugunoq qaytaman.

— Voy, buncha shoshmasang?

— U yoqda ishlar tig'iz-da.

— Qo'y bunaqa gaplaringni. Ertaga borib ukalaring bilan akangni ham olib kelasan. Ana, katta uy bo'sh, o'sha yerda turasizlar. Akamning ishi bir yoqlik bo'lguncha bag'rimda olib o'tiraman.

— Ilojimiz yo'q-da, ammajon.

— Axir, u yerda qarovsiz qolasizlar-ku? Bu yerda men qanday bermalol uxlayman?

— Lutfi xolam qarab turibdi.

— Baribir, begona u. Jigarning mehri boshqacha bo'ladi.

Yo o'zim borib turaymi?

— Barno xolam kelib turibdi.

— Hech bo'lmasa Nigora qizimni jo'natgin. Xudo peshonamga qiz bitmadi. Jo'natasanmi?

— Mayli.

— Mayli degan tillaringdan o'rgilay. Ovozning ham xuddi akamnikiga o'xshaydi-ya. Aytganday, anovu kuni akamga beringlar deb birovdan tovuq pishirib yuboruvdim, olib bordimi?

— O‘shani chindan ham siz berib yuborganmidingiz? Darvozaxonaga tashlab ketgan ekan, biz uyda yo‘q edik-da. Avvaliga xayron bo‘ldik, keyin sumkadagi achchiq qurtdan, rayhon solingan suzmadan siz jo‘natgan bo‘lsangiz kerak, deb taxmin qildik.

— Ichiga ikki enlik xat ham solaylik desam, pochchang ko‘nmadi-da. O‘zi to‘rtta tovug‘u minnat qilgandek ichiga xat ham solasanmi, deb.

— Ammajon, men zarur bir ish bilan kelganman, — dedim ikkilanib. Nega desangiz, shu paytda ammamning mehri otashida o‘zim ham seldek erib borayotgan edim. Xoladan onaning, ammadan otaning hidi keladi, degan gapni eshituvdim. Nazarimda, shu paytda qarshimda, ammajonim qiyofasida dadajonimgina emas, balki, men hech qachon ko‘rmagan bobojonimu buvijonlarimni ham ko‘rib, o‘shalarning qaynoq mehri, iliq nafasini tuyayotgandek edim. Shu asnoda pul haqida gap ochish noqulay edi-da.

— Aytaqol, qanaqa ish bilan kelding? Xudo xohlasa hammasini bitiramiz. Shukur, pochchangning obro‘yi baland bu yerlarda. Hamma joyga qo‘li yetadi. Qo‘shaloq ordeni bor, deputat ham bo‘lgan.

— Pochcham odamlar orasida ko‘p gapirishni yoqtirmaydilar-ku, — dedim negadir, — nega uni deputat qilishadi?

— Voy, ammagingang girgitton-ey, deputatning gapirishi shartmi? Qo‘l ko‘tarishni bilsa bo‘ldi-da. Qanaqa ish bilan kelding o‘zi? Ranging oqarib ketdi, tinchlikmi?

— Pulga keldim.

— Dadangning puligami?

— Ha.

— Shuncha pul... o‘ziga kerakmikin?

— Ha.

— Qamoqxonada ovqatni tekinga beradi deyishuvdi-ku?

— Bir tuhmatchiga berarkanmiz.

— Tuhmatchiga? Tavba, ham tuhmat qilsin, ham pul olsin. Shaharda nima bo‘lyapti o‘zi?

— Shunaqa bo‘p qoldi-da. Pul bersak, tuhmatini qaytib olarkan.

— Mayli, toylog'im, akaginam pul bilan tuhmatdan qutilsa, ayamanglar. Kerak bo'lsa, biz ham qarab turmaymiz. Mashinani bir yil keyin olsak, o'lib qolmasmiz. O'n to'rt ming ekan, ro'molchaga tugib sandiqqa tashlab qo'ydim. Hammasini olib ketasanmi?

— Ha!

— Tuhmatchining kattasiga uchrabdi-da akam sho'rlik.

Pochcham kirib keldi. Suhbatimiz bo'lindi. Uning g'alati odati bor: kim bilan bo'lmasin hamisha quchoqlashib ko'rishadi. Ko'rishayotganda, albatta, belingizni silab ham qo'yadi. Bu gal ham shunday bo'ldi. Suyaklarimni zirqiratib yubordi. Ammanga o'xshab uyam uzoq hol-ahvol so'radi. Nima ish bilan kelganimni eshitib, shuncha pul bilan yolg'iz o'zingni jo'natib bo'lmaydi, o'zim kuzatib boraman, dedi.

Tovuq sho'rvani huzur qilib ichganimizdan so'ng shaharga otlandim. Pochcham, oppoq ko'ylagi ustidan ammam aytgan ikkita ordenini taqib, deputatlik belgisini ham qadab oldi. Nega bunday qildi, haligacha tushunmayman. Ehtimol, savlatliroq bo'lib ko'rinsam, o'g'rilar tahdid qilmas, deb o'ylagandir. Boraborguncha menga nasihat qilib bordi. Pulning hammasini bir yo'la bermanglar, bo'lib-bo'lib beringlar, har berganda to'rt enlik bo'lsa-yam tilxat olinglar, deb tayinladi...

VIII BOB

So'nggi kunlarda akam g'alatiroq bo'lib qoldi. Bizdan o'zini olib qochadi, gaplashmaydi, kunbo'yi xonasida yolg'iz o'tiradi.

— Yana yig'ladingmi? — deb so'rayman sezib qolgan paytlarimda.

— Yo'q, — sovuqqina javob qaytaradi akam. — Senga shunday ko'ringandir.

— Hecham-da, oynaga qaragin, qovoqlaring ham shishib ketibdi.

— Zafarjon, ukaginam, meni tinch qo'yinglar.

— Axir bu ahvolda o'zingni yeb qo'yasan. Hech bo'lmasa ko'chaga chiqib aylanib kelsang, o'rtoqlaringnikiga borsang bo'lmaydimi?

— Uyalaman ulardan. Odamlarning ko'ziga qarashga botinolmay qoldim. Achinyapmiz deyishadi-yu, lekin ko'zlari to'la nafrat. O'l, bu kuningdan battar bo'l, deyishadi ichida. Boshimizga ana shunday kunlar tushishini sezardim. Oyijonim meni jinnisan derdi, dadam bo'lsa, seni kitob buzdi, Ataullo nobud qildi, deb urishardi... Yo'q, ukajon, ezilib ketyapman, ehtimol dadam bilan oyijonimni qamoqqa men tiqqandirman, hammasiga o'zim aybdordirman.

— Nega hadeb shu gapni takrorlayverasan?

— Ha mayli, ukajon, bas qilaylik. Undan ko'ra gapirib ber, ammamlar yaxshimi? O'zi nega boruvding, nega mendan yashirasan? Nuqul Bozorvoy amakim bilan pichir-pichir qilasizlar, menga ishonmaysizlar. Eh, o'sha kuni o'zimni yaxshilab osolmaganimga haligacha afsus qilaman. Bir yo'la hammasidan qutulardim. Sizlar ham mendek tili achchiq dardisardan qutulgan bo'lardilaring.

— Akajon, unday dema, hammamiz seni yaxshi ko'ramiz.

— Oyim bilan dadam ham men qolib, nuqul sen bilan sirlashishadi.

— Hecham-da.

— Anovi kuni borganimizda ham bizni chiqarib yuborib, seni olib qolishdi. Xo'p, o'shanda nimani gaplashdilaring?

— Akangga yaxshi qaragin, deyishdi.

— Yolg'on!

— O'lay agar, shunday deyishdi.

— Qo'ysang-chi, ukajon. Meni bilmaydi deysanmi?! O'sha kundan buyon Bozorvoy amakim bilan zir yugurib yuribsizlar. Derazadan ko'rib o'tiraman, nuqul pichir-pichir, shivir-shivir... Qishloqqa nega bording?

— O'zim, shunday...

— Shunday emish... Pochcham seni bekorga kuzatib kelmagandir?

— Shaharda ishi bor ekan.

— «Volga»ni kimga hadya qildilaring?

— Darrov kimdan eshita qolding?

— Zufar aytdi. Menga qara, ukajon, to'g'ri, majruhman, yarimjonman. Sizlarga o'xshab yugurib-yelolmayman. Lekin

oyog'im ishlamasa ham, kallam ozgina ishlaydi... Yana xato qilyapsizlar...

— Akajon!

— Qo'y, meni aka dema, tinch qo'ysalaring bas. Bir kunimni amallab ko'rarman. Shahar saylgohida yakka hunarmandlar ko'rgazmasi bo'larkan, ishlarimni o'shanga qo'ymoqchiman. Ko'ringlar, ishoninglar, men tekinxo'r emasman, deyman.

— Seni birov tekinxo'r deyaptimi?

— Aytdim-ku, odamlarning ko'zidagi nafratdan qo'rqaman deb. Nafrat to'la ko'zlar tushlarimga ham kiradi. Hammasida g'azab, jirkanish, ustimizdan kulish... Bo'пти, bor endi. Yo'q, to'xta, bir iltimosim bor, bajarasanmi? Yelim tugabdi. Qurilish magaziniga kelgan bo'lishi kerak, olib kelib berasanmi?

— Hozirmi?

— Tezroq bormasang, tugab qoladi. Yog'och yopishtiradigan yelim degin. Bo'lmasa olma, boshqasi yaramaydi.

Akam iltimos qilayotganidan xursand bo'ldim. Xayriyat, shu bahona dilidagi toshdek cho'kib yotgan g'amu g'ussalari tarqab, rangiga ham rang kirib, bunday bir odamga o'xshab yashasa, deb o'yladim... Ammo, quvonchim uzoqqa cho'zilmadi. Ruhimni yana asta-sekin qorong'ilik qoplab kela boshladi. Kecha qovun tushirib qo'yanman. Ha, ha, juda xunuk ish qilib qo'yanman. Barno xolam hamon isitmalab yotibdi. Hali-beri oyoqqa turadiganga o'xshamaydi. Oyijonim, qanday bo'lsa ham juda tezlik bilan Qozi xolangdagi qimmatbaho taqinchoqlarni qaytarib olinglar, degan edi. Shuni bir yoqlik qilmasam, oyijonimga qaysi yuz bilan qarayman, axir, qamoqda tushgandan buyon menga bergan birinchi topshirig'i-ku, ishonchini oqlashim kerak, deb o'yladim-u eski mis oftoba jo'mragidagi tilxatni olib Qozi xolanikiga jo'nadim.

Tilxatni qo'liga berib:

— Taqinchoqlarni qaytarib berar ekansiz, — dedim.

— Voy, bolaginam-ey, voy Yoqutxonimning erkatoyi-ey, bu zormanda sizlarda tursa boshlaringga balo bo'ladi-ku! — chinakam achinayotgandek boshini chayqadi Qozi xolam. — Bir jinoyatlaring ikki bo'ladi-ya!

— Mayli, nima bo'lsa ham hozir berasiz, — dedim bo'sh kelmay.

— Shuncha narsani ona suti og'zidan ketmagan bolaga ishonib bo'larkanmi, esi joyidami o'rtog'imning?

— Joyida, bera qoling.

— Voy, senam jinni bo'lib qoldingmi?

— Bo'lmasa tilxatni qaytarib bering.

— Bolaginam-ey, falokat sizlarni dovdiratib qo'yibdi. Axir, bu zormanda tilxat yoningda tursa, har daqiqada sizlarni militsiya to'xtatib tintuv qilishi mumkin, ularga shunaqa huquq beriladi, yoningdan chiqib qolsa, voy sho'rim, bilasanmi qanaqa baloga qolasizlar? Unda bizning uyni ham tintuv qilishadi-ya. Birdan-bir himoyachilarning hozircha Muhamedov-ku. Yordamdan mahrum bo'lib qolasizlar-a! Yoqutxonga es kirmadi, kirmadi-da. Borib ayt, tashvishlanmasin. Omonat kassasida turgandek turadi. O'rtog'imga yana shuni ham ayt: Muhamedov jim o'tirgani yo'q, zimdan harakat qilyapti, bugun-erta qamoqdan ham chiqarib yuboradi...

Qozi xola qo'lidagi tilxatni mayda-mayda bo'lakchalarga bo'la boshladi. Qo'rqib ketdim, bir sakrab borib qo'liga yopishdim:

— Yirtmang!

— Qo'lingni ol, — shunday deb Qozi xola qo'lidagi qog'oz parchalarini yonidagi ariqqa otdi. Jon holatda o'zimni suvga tashladim. Qog'oz parchalarining yarmini arang yig'ib oldim. Xo'rligim keldi, nazarimda, oqib borayotgan qog'oz parchalariga qo'shilib oyijonimning butun umri bo'yi yiqqan bezaklari oqib ketgandek tuyuldi. Yig'lab yubordim.

Kecha oyijonimni ko'rgani borganimda ana shu voqeani aytaymi, aytmaymi deb avvaliga rosa ikkilandim. Aytсам — yarasiga tuz sepgan bo'laman. Aytmasam, keyinchalik nega menga vaqtida aytmading, biror chorasini ko'rardim, deb urishishi ham mumkin. Aytishga qaror qildim. Oyijonim bu gal negadir hamshira yordamida chiqdi. Behol, darmonsiz, oyoqlarini arang sudrab bosyapti, yonma-yon o'tirib anchagacha jim qoldik. Oyijonim kalta-kalta nafas olardi.

— Qalaysizlar? — dedi nihoyat yelkamdan quchib.

— Yaxshi, — dedim.

— Nigora qalay?

— Chopqillab yuribdi.

— Olib kelmabsan-da?

— Tergovchi bu gal faqat bir o'zingga ruxsat berdi.

— Tergovga yaramayapman, o'g'lim. Kasalxonaga yotqizishmoqchi.

— O'zingiz yotib yurgan kasalxonagami?

— Militsiyani boshqa bo'larmish.

Oyijonim ko'zlarini yumib jim qoldi. Yana kalta-kalta nafas ola boshladi. Havo yetishmayapti shekilli, so'lg'in yuzlarida reza-reza ter ko'rindi.

— Zargarlarga men aytgan gapni yetkazdingmi?

— Aytдим, oyijon, xursand bo'lishdi. Ular ham sizni qutqarish uchun harakat qilishayotgan ekan.

— Taqinchoqlarni... oldilaringmi?

— Oyijon!

Bilmadim, shu asnoda nimaning ta'sirida ekanman, haligacha tushunmayman. Bu o'zimmidim yoki mening qiyofamdagi bag'ritosh yigitcha o'tirganmidi? Oldim, hammasi joyida, desam tilim uzilib tushmasdi-ku, oyijonimning alag'da ko'ngli tinchib, dilida ozgina bo'lsa ham orom paydo bo'lardi-ku. Nega bunday qildim, nega? Hozir aytganimdek, oyijonimning o'zidan biror aqli maslahat chiqar degan fikrga borgan edim shekilli... Voqeani batafsil so'zlab berdim, o'lay agar, maslahat olish uchun shunday qiluvdim.

Oyijonim ostki labini qonatgudek qattiq tishlab, goho boshini chayqab tingladi, ko'zlari yumuq edi. Kipriklari orasidan yosh tomchilari dumaladi.

— Yirtib tashladimi? — hamon ko'zlarini ochmasdi oyijonim.

— Meni... yelpi, havo yetishmayapti...

Yo'q, men xato qilib qo'ydim, ha-ha, xato qildim! Nega bunday qildim, nega? Ko'ylagimni yechib yelpiyapman. Peshonasidan duv oqayotgan terlarni sidirib olyapman, nima qildim endi? Xursand qiladigan biron xushxabar aytishim kerak, ha-ha, xuddi shunday qilaman! Axir hammamiz ham oyijonimni qutqarish uchun harakat qilyapmiz-ku. Dadajonim ham qo'l-

oyog'i bog'liq bo'lishiga qaramay, jim o'tirgani yo'q, hech narsani ayamayapti, pul bo'lsa pul, mashina bo'lsa mashina hadya qilyapti. Mana shularning yarmi oyijonim uchun bo'lyapti! Uni tezroq qutqarish, tezroq ozodlikka olib chiqish uchun bo'lyapti...

Oyijonim ko'zini ochib xiyol kulimsiradi:

— O'tib ketdi shekilli, ko'rdingmi?

— Yo'q, unchalik emas.

— Ukalaringga aytmagin.

— Xo'p, aytmayman. Oyijon, dadam ham sizni deb hech narsani ayamayapti. Bir amallab oyingni qutqaraylik, uyog'i keyin bir gap bo'lar, deyapti.

— Bechora, unga ham oson emas.

— Sizni deb «Volga»ni ham hadya qilib yubordik.

— Hadya qildik?!

— Endi hammasi yaxshi bo'ladi, tashvishlanmang.

— Kimga hadya qildilaring?

— Sadir Badalovich amakimga.

— Voy sho'rim!

— Keyin... qishloqdan pul ham olib keldim.

— Pul, kimdan olib kelding?

— Dadamning ammamda puli bor ekan, o'n to'rt ming... Sizga nafi tegar deb, uni ham hadya qildik.

— Voy sho'rim... Meni ushla, yiqilaman. Hamshirani chaqir, tezroq...

Oyijonim yuragini changallagancha kursining suyanchig'iga boshini ohista qo'ydi. Rangi dokadek oqarib ketdi...

Men hozir akamning haddi sig'ib qilgan iltimosini bajarish uchun, xursand borar ekanman, to'satdan yoshligimga boribmi yoki fahm-farosatim yetarli bo'lmaganidanmi, ketma-ket xato qilib, oyijonimni qiynab qo'yganimni esladim. To'g'ri, hamshira kelib dori ichirgach, oyijonim xiyla o'ziga kelib, ojizgina kulimsiradi. Xayrlashayotganimda peshonamdan o'pib, qaltirab turgan qo'llari bilan yelkamni silab ham qo'ydi. Lekin, baribir yuragimdagi g'ashlik bot-bot qo'zg'alib, ishonsangiz, biqinimni chimdib-chimdib olyapman.

«Qurilish magazini»da yelim xarid qilayotganimda kutilmagan, ha-ha, chindan ham hech kutilmagan bir voqea

yuz berdi-yu, ko'nglimdagi g'ashlik o'z-o'zidan tarqalib ketgandek bo'ldi. Magazinga gurillashib, bir-birini itarishib, ana-ana deyishib, hech sabab bo'lmasa ham qiqirlashib kulishib, bir yo'la sakkiz-to'qqiz chog'li sinfdoshim kirib kelsa bo'ladimi. Men, negadir hech xushlamaydigan, lekin shunday bo'lsa ham o'zini menga hamisha boshqalardan yaqinroq olib yuradigan a'lochi Ilhom, sakkiz yildan buyon biron marta ham "besh baho" ololmagan, quvnoq, qiziqchi Hamroqul, ozgina maqtanchoq, ozgina yolg'onchi, lekin shunga qaramay juda ham oqko'ngil o'rtog'im Ismoil, men bilan bir partada o'tiradigan, qishin-yozin osmonga tikilaverganidan varrakchi laqabini olgan Jalol...

— Obbo sen-ey, — dedi Ilhom.

— Orqangdan rosa quvladik, — dedi entikib Hamroqul.

— Avtobus bilan izma-iz yuguryapmiz-u, orqangga qaramaysan-a, — dedi yelkamga mushtlab Ismoil.

— Butun sinf kelganmiz, — hamon nafasini rostlab ololmasdi Ilhom, — sinf rahbarimiz tashkil qildi. Shundoq uylaringga kirsak, akang hozirgina «Qurilish magazini»ga ketdi, dedi. Darmon opam orqasidan yugurlaring, bo'lmasa kechgacha ham tentirab yuraveradi, uning odatini yaxshi bilaman, dedi... Sizlardan ko'ngil so'ragani keluvdik. Darmon opam qanaqa sinfdoshsizlar, ham otasi, ham onasi qamalib yotsa-yu haligacha bir og'iz ko'ngil so'ramagan bo'lsalaring, uyat-ey, dedi. Rost har narsa bo'lay. O'zimiz ham rosa uyaldik. Qani, ketdik, avtobus kutmaymiz, uch bekat, xolos. Yuguramiz qizlar ham kelishgan, har narsa bo'lay.

Ikki o'rtog'im ikki qo'ltig'imga kirib, uch-to'rttasi yelkamdan itar-itar qilishib, oyog'imni yerga tekkizmay tashqariga olib chiqib ketishdi. O'zi o'rtoqlarimning hammasi ham fizkultura darsida dangasarog'u ammo futbol o'ynaganda yoki mana shunaqa mavridi kelib qolganda chopag'on, astoydil yugurishsa, ortlaridan ot choptirib ham yetolmaysiz, desam ishonavering. Uyga yetguncha tilim naq bir qarich osilib ketdi. Ha, chindan ham katta hovlimiz bolalaru qizlarga to'lib ketibdi. Birovlari qo'llarida latta derazalarni artgan, boshqalari hovli supurgan, ba'zilari shaloplatib ayvonning polimi yuvayotgan,

Darmon opam akam bilan yonma-yon o'tirib suhbatlashayotgan ekan. Yaqinlashishim bilan o'rnidan turib, quchog'iga oldi. Xuddi oyijonimga o'xshatib peshonamdan o'pib, yelkamni ohista silab qo'ydi. Negadir o'pkam to'lib ketdi.

— Ana xolos, — dedi sinf rahbarimiz qo'limdan ushlab bir chekkaga yetaklar ekan, — hoy bolalar, hoy Mehri, qani ishga, avval tugataylik, keyin gaplashamiz. Hoy Ismoil, angrayma deyapman. Zafarjon, eson-omon o'tiribsizlarmi? Hadeb kuyunavermanglar, hammasi joyiga tushib ketadi. Qora kunlar kimlarning boshiga tushmaydi?! Yigitning boshiga goho mana shunaqa sinovlar ham tushib turadi. O'rtoqlaringga qo'shilmasmishsan, hammadan o'zingni olib qochar emishsan, bu qanaqa qiliq? Ota-ona uchun bola javob bermaydi... Ehtimol ular ham aybsizdir. Kafolatnoma kerak ekan, nega menga bormading?

— Kimdan eshitdingiz? — dedim o'pkam to'lib.

— Ataullo muallim aytdi. Qonun Yoqutxon opamga sudgacha ochiqda turish huquqini berar ekan, bu huquq sizlarning tarbiyangiz uchun zarur ekan, muallimlarni, sinfdoshlaringni oyoqqa turg'izardim-ku. Mana, o'ttiz uchta sinfdoshing, o'n yettita mualliming imzo chekkan kafolatnomani tayyorlab keldik...

O'zimni tutolmadim, ko'zlarimdan yosh chiqib ketdi.

— Ana xolos, nima balo, Said akam nuqul yig'loqilarni katta qilgan ekanmi, hozirgina Zufar ukang bilan Nigorani arang yupatgan edim. Kap-katta yigitsan-a, uyat-ey!

— Oyijonim kasal bo'lib qolibdi, — dedim o'zimni oqlamoqchi bo'lib.

— Kasal bo'lsa doktorlar bor, mana biz bormiz, qarab turarmidik?!

IX BOB

Aka-ukalar katta ayvonda qator yotgandik. Tun dim bo'lib, allamahalgacha yaxshi uxlay olmagandik. Sahargi salqinda dong qotib qolgan ekanmiz. Temir darvozamizning gumburlashi, itimizning jahl bilan vovillashidan uyg'onib ketdim. G'ira-shira

tong payti. Saharda darvozani do'pillatayotgan kim bo'ldi ekan, ko'zimni yirib-yirtib ochib, o'sha yoqqa yugurdim.

Lutfi xolam ekan:

— Bolaginam, — dodlab meni mahkam quchoqladi, — sho'rimiz qurib qoldi, sho'rginamiz qurib qoldi! Men endi qanday chidayman?... Kecha oqshom eshitib ishonmay, amakingni jo'natuvdim. Tuni bilan o'sha yerda bo'lib keldi, rost ekan...

— Nima bo'пти, xolajon? — deb so'radim hamon uyqum tarqamay.

— Kecha ekspertiza ham qildirishibdi.

— Nima bo'ldi axir?!

— Amaking xolang bilan pochchangga ham telefon qildi. Ataullo muallimni uyg'otaylik, maslahat bersin.

Darvozaxonadagi vahimali shovqindan akam bilan ukam ham uyg'onib yonimizga yetib kelishdi.

Lufti xolam yerga o'tirib olib tizzasiga shapatilay boshladi.

— Yuragi to'xtab qopti, ekspertiza aytibdi, yurakdan ketdi debdi.

Bozorvoy amakim bilan mahallamizning raisi Qosim Dadayevich kirib kelishdi. Ko'zlari bejo, bir navi dovdirab ham turishdi.

— Yoqutxonimdan ajralib qoldik! — Lutfi xolamning iztirobli faryodi darvozaxonani to'ldirib yubordi.

— Nima? — deb qichqirib yubordim... Keyin karaxt bo'lib qoldim. Ko'zim ochiq, qulog'imga ovozlari kiryapti, lekin hech narsani anglamayman, akamning bir nuqtaga bexush tikilib qolganini, Zufarning yer tepinib dodlab yuborganini ko'rib turibman. Ana, Nigora yig'lab kelib Lutfi xolamning bag'riga otildi. Ayollar keldi, faryod chekib Barno xolam ham keldi shekilli. Xasis pochcham ham kelibdi. Ana, Zufarni suyab bir chekkaga surgab ketdi. Ataullo muallimmi bu? Ha o'sha, nega akamni chaqaloqni ko'targandek ko'tarib oldi u? Yuziga yuzini bosib turibdi... Oyijonim o'ldi... Nega o'ladi?! U tirik edi-ku, nega tirik odam o'lar ekan... O'ldimi? Nega o'ladi?.. Yer, odamlar aylanyapti, uchib borayotganga o'xshayman, uchib ketdim... Oyijonim uchyapti, men uchyapman, odamlar

uchyapti... Yiqildik, hammamiz birdan gursillab yiqildik... Oyijonim boshimni silayotgandek bo'ldi, ko'zimni ochdim, oyimmi bu, yo'q, Barno xolamga o'xshaydi...

— Voy xolagingang o'rgilsin, o'zingga keldingmi?

Ha, xolam ekan. Chap yonimda doktor opa ham o'tiribdi, tanidim. Oyijonimning dugonalaridan. Boshimni ko'tardim. Ichkari uyda yotgan ekanman.

— Nima bo'ldi? — asta so'radim.

— Yiqilib tushibsang, boshing bilan yerga urilibsang, — dedi sekingina doktor opa.

— Endi boshing aylanmayaptimi?

— Sal-pal bor.

— Xayriyat, miyang chayqalmapti shekilli, tura olasanmi? Qani, tur-chi. Turdim.

— Boshing aylanmayaptimi?

— Qusgim kelyapti.

— Yot, yana birpas yotgin.

Barno xolam chiqib ketdi. Eshikni ochishi bilan hovli tarafdand yig'i ovozi gurillab olib kirdi. O'nlab kishilar yig'layotganga o'xshaydi: uv tortyapti, faryod chekyapti, demak, rostga o'xshaydi, oyijonim olamdan o'tibdi... Ostonada xolam ko'rindi. Qo'lida beqasam to'n, qiyiqcha do'ppi:

— Yura olasanmi?

— Bir unnab ko'ray-chi.

— Ma, mana buni kiyib ol.

— Chiqmay tursa bo'larmidi, — dedi doktor opa sekin.

— Chiqsang, — dedi xolam ko'zlarimga tikilib, — bo'lmasa keyin armon qiladi.

Doktor opa kiyintirishib yubordi. Baribir oyog'imda darmon yo'q, boshimda ham karaxtlik bor, yurolmaydiganga o'xshayman.

— Oyingni olib kelishgan, — dedi sekingina doktor opam.

— Yura qol, o'zim tirsagingdan olib yordamlashaman. Hechqisi yo'q, shok holatida bo'lding-da, uch soatcha yotding. Qo'rquvdim bugun o'zingga kelmayсанmi, deb... Yuraqol o'g'lim, onang bilan vidolash.

Oyijonimni bobom solib bergan katta uyga qo'yishgan ekan. Xona o'rtasiga o'n qavat ko'rpa to'shab, yuzini qiblaga qilib yotqizib qo'yishibdi. Beti ochiq, ko'zlari yumilgan, yuzlari xiyol shishinqiragan. Atrofida odam ko'p. Akam bosh tomonida o'tiribdi, Zufar bilan Nigora oyoq tomonida polga yotib olishgan.

— Oyijonim, shirinim, — deb boshini chayqab yer mushtlayapti Nigora, — bizni tashlab qaylarga ketdingiz. Meni endi kim erkalaydi, kim boshlarimdan silaydi? Yangi kiyimlar tikib berardingiz, yaxshi ovqatlar pishirib berardingiz, sochlarimni yuvib-tarardingiz. Oyijon, ko'zingizni oching, bir og'iz gapiring, bu menman. Nigora qizingizman.

Nigoraning chirqillab yig'lashiga ayollar chiday olmay, uv tortib yuborishdi. Zufar hamon baqadek yalpayib polda yotibdi. Ikki qo'llab yerni mushtlaydi, boshini uradi. Akam mullavachalardek boshini egib qotib qolgan... Qiziq, ko'zimga bir tomchi bo'lsa ham yosh kelmadi, hamon hushim yo'qdek.

— Hoy qizim, bas qil endi, — dedi boshini qora ro'mol bilan o'rab olgan bir ayol, — o'zingni urintirib qo'yan.

— Mayli, yig'lasin, — dedi boshqa ayol, — yuragi soviydi. Aytib-aytib yig'lasin, Yoqutxonning orqasidan yig'lab qoladigan bundan boshqa kimi bor?! Yig'la qizim, to'yib-to'yib yig'la. Hammamiz uchun ham yig'la. Yoqutxon yig'lasak arziydigan dilbar juvon edi. Qo'li ochiq saxovatli edi. Yig'la, qizim!

Dasturxonchi xola iymanibgina kirib, endi boshqa ilojimiz yo'q, chiqib turasizlar, poklovchilar keldi, dedi. Ayollardan biri Nigorani yelkasidan, boshqasi yerga qapishib yotgan Zufarning qo'ltig'idan oldi. Nigora chinqirib yubordi, odam bolasi chiday olmaydigan bir alam bilan chinqirdi. Yulqinib chiqib, oyijonimning ustiga o'zini tashladi.

— Ha, o'lim qursin, — dedi bir ayol.

— O'lim haq, — dedi boshqasi, — lekin mana shunaqa bemavrididan o'zi asrasin...

Tashqariga odam to'lib ketibdi. Erkak-ayol aralash. Kecha uyimizda hashar uyushtirgan o'rtoqlarim ham kelishibdi. Bibiqiz

ammam bilan pochchamga ham ko'zim tushgandek bo'ldi. Ammajonim qora kiyinib, belini ham qora ro'mol bilan bog'lab olibdi. Pochchamning ham egnida qora atlas to'n. Qachon kelishdi ekan?... «Sen uyga kirib yotgin», deya shivirladi doktor opam. «Yo'q, iloji bo'lsa yotmasin, darvozaxonaga borib o'tirsin, kelgan-ketganni ko'rib yuragi soviydi», dedi Barno xolam. Zufar bilan akamga ham to'n kiygizishib, uchovimizni darvozaxonaga olib o'tishdi, o'hu, hammayoqni odam bosib ketibdi. Oyimni tergov qilayotgan melisa yigit ham o'tiribdi. Nega keldi? Avval o'ldirib, keyin ko'mgani kelibdi-da! Insofli ekan, bo'lmasa kelmasa ham bo'lardi-ku. Bizga qarab-qarab qo'yyapti. Rahmi kelayotgandir-da.

Doktor opa suv, dori olib keldi.

— Boshing aylanmayaptimi?

— Sal-pal aylanyapti, — deb shivirladim.

— Ko'zing tinmayaptimi?

— Qayt qilgim kelyapti.

— Mana buni ich, ikkoviniyam ich.

Doktor opa ikki yonimga ikki o'rtog'im — Ilhom bilan Ismoilni o'tqizib qo'ydi. Ushlab o'tiringlar, yiqilmasin, dedi. Ko'zlarimni yumib oldim. Yon-verimdagi keksalarning g'o'ng'ir-g'o'ng'ir gaplashgani qulog'imga kirib turibdi. «Saidjon jufti halolini oxirgi yo'lga kuzatgani kelolmadi-da, esizgina». «Xotini bilan xayrlashsin deb kattalar ham iltimos qilibdi, militsiya ko'nmabdi». «Ha, ularning qo'liga tushgulik qilmasin». «Bu Yoqutxonimiz necha yoshda edilar?». «Qirq ikkida». «Bolalari nechta edi?». «To'rtta deyishyapti». «Jabr bo'libdi-da». «Yoqutxonni zargarlar dori berib o'ldirishgan emish». «Sud bo'lsa sirimizni ochib yuboradi deb shunday qilishgan emish»...

Hovli tomondan kelayotgan yig'i ovozi kuchaydi. Qancha ayol bo'lsa hammasi dodlashga tushdi. Vujudim zirqirab ketdi, ko'zimni ochdim.

— Kafanlab bo'lishdi, — deb shivirlashdi chollar.

Ataullo muallim kelib bukchayib o'tirgan akamning yonida to'xtadi. Terlab ketibdi. Oppoq ko'ylagi badaniga chippa yopishib qolgan. Qayoqdan keldi ekan?

— Ilhom, Ismoil, — deb o'rtloqlarimga murojaat qildi u. — Sizlar Zafarjonni suyab olib boringlar. Akbarjonni o'zim ko'tarib ola qolay. Onalari bilan xayrlashib olishsin.

Oyijonimning murdasi yotgan katta xonaga qarindoshlarimiz, qo'ni-qo'shnilarimiz galma-gal kirib vidolashib chiqishayotgan ekan. Eshik tagiga yetganda biz to'xtab qoldik. Hali men bexush yotgan xonaga oyijonimning gap o'ynagan dugonalari — Qozi xola, Qo'mondon xola, Inobat opam — hamma-hammalari yig'ilishgan ekan. Qora yaltiroq ko'ylak, qora yaltiroq ro'mollar o'rashib, bo'yinlariga durlar taqishib vidolashgani emas, balki egnilaridagi hech bir ayol hech qachon yetisha olmaydigan ana shu kamyob kiyimlarini ko'z-ko'z qilgani kelishgandek edi ular. Yig'layverganidan ko'zlarining osti ko'karib, yuzlari shishib ketgan Barno xolam otilib chiqdi-da:

— To'xta hammang, — deya yer tepinib qichqirib yubordi, — opaginamning pokiza yuzini endi sen haromxo'rlarga ko'rsatmayman. Opamni o'ldirgan senlar bo'ldilaring. Qotilsan hammang! Ko'zlaring o'yilgurlar. Sizning davrangizga qo'shilmasdan oldin, opaginam qanday mehnatkash, qanday pokiza ayol edi-ya. Uni buzdilaring, o'zlaringga o'xshatib molparast, dunyoparast qilib qo'ydilaring. Bog'chaga bir soat kechiksa o'tirib olib yig'lardi. Yo'qol hammang! Opaginamning pok yuzini endi sen haromxo'rlarga ko'rsatmayman. Zufar, nega qarab turibsan, tayoqni keltirib boshiga ur bu o'g'riboshilarni...

Odamlar hangu mang bo'lib qolishdi. Piqillab yig'layotganlar ham jim bo'ldi. O'zim ham hayron edim. Xolam nega bunday qildi ekan? Uyat emasmi?

Dasturxonchi xola ichkaridan shoshilib chiqib:

— Endi, qo'shnilar, xafa bo'lmaysizlar. Amri vojib deydilar. Marhumaning yaqini nima desa shu, — dedi. So'ng g'azabi qaynab qaltirayotgan Barno xolamni ichkariga yetakladi. — Qo'ying, kuyinmang. Hammasi yaratganning o'zidan. Umri qisqa ekan, bandasining qo'lidan nima ham kelardi? Ayb ularda ham emasdir. Erlari yaxshi topgandan keyin yaxshi-yaxshi kiyinishadi ham-da. Lekin azaga yasanib kelganlari o'zimga ham yoqmay turuvdi.

Oyijonimning ulfatlari bir-birlariga zimdan boqib, chimirilishib, yelka qisib turishardi. Birinchi bo'lib bir arava keladigan Qo'mondon xola o'ziga keldi.

— Hoy, Barno poshsho, uyaling! — dedi jun arqondek qalin qoshlarini kerib, — Yoqutxon sizga opa bo'lsa, bizga qiyomatli dugona edi.

— Ko'rsatmasa ko'rsatmasin, — deb uning yengidan tortdi Qozi xola. — O'zi kimu chayqovchi opasi kim bo'lardi! O'lik opang boshingdan qolsin, ketdik.

Birin-ketin chiqib keta boshladilar. Yana yig'i ko'tarildi. Bizni ichkariga chaqirishdi. Oyijonimni oppoq kafanga o'rashibdi.

Ko'ksimni bir narsa kuydirgandek bo'ldi.

— Oyijon!!! — nazarimda og'zimdan olov otilib chiqqandek bo'ldi. Hammayoq aylanib ketdi. Nigorani bag'riga bosib turgan ammam, akamni hamon chaqaloqdek qo'liga ko'tarib olgan Ataullo muallim, xotinlar, bolalar... Hamma-hammasi aylanyapti. Oyijonim o'rnidan turib qo'llarini cho'zganча men tomonga yurib kelayotgandek... Xolamning faryodi, Nigoraning chinqirishi, qarindoshlarning piqillashi hamma-hammasi aralash-quralash bo'lib ketyapti. Tobutni ko'tarib kirishayotganini ham ko'rgandekman. Tobutmidi, ulkan bir qush qanotlarini salanglatib kirdimi, anglay olmay qoldim.

X BOB

Shahar kasalxonasida bir necha kun alahlab yotdim. Goh o'zimga kelib, goh yana hushimdan ketib qolaman. O'zimga kelgan paytlarimda fikru xayolim baribir, oyijonimda bo'ladi. Nahotki, abadiyga ko'z yumgan bo'lsa, nahotki qaytib uni ko'rmaydigan bo'lsam, yo'q, yo'q!

— Yo'q! — deya o'rnimdan turib ketaman.

Hamxonalarim hamshirani chaqirishadi. Birgalashib yonimga yotqizib, dori ichirib, tinchlantirishadi. Xayolimda, baribir, yana oyijonim kirib kelayotgandek bo'ladi. Bu xayol ekanligini bilib turaman. Mayli, xayolda bo'lsa ham bir nafasgina mehribonimning iliq nafasini tuyay, yuzlariga to'yib-to'yib boqib olay, deyman-

da, xayolotga yana erk beraman... Yelkasiga oq xalat tashlab olgan oyijonim bir qo'lida ovqat o'ralgan tuguncha, boshqasida bir dasta gul (u gulni yaxshi ko'rardi) ohista-ohista bosib kiradi-da, oyoq tomonimga omonatgina o'tirib:

— Tuzukmisan, arslonim? — deb so'raydi.

— Tuzukman, oyijon, — deyman ma'yus boqib.

— Boshingning aylanishi qoldimi?

— Sal-pal bor hali.

— Nima bo'luvdi o'zi, o'g'lim?

— Qattiq qo'rqqanimdan miyamning mayda qon tomirchalaridan biri jindak lat yebdi, — deyman og'riyotgan joyini barmog'im bilan ko'rsatib, — doktorlar tezda tuzalib qolasan, deyishyapti.

— Asalim-ey, meni deb shu kunlarga qolibsanda? Kel, boshingni tizzamga qo'y, silab qo'yaman. Ha ana shunday, yoqyaptimi, og'riq bosildimi?

— Bosildi, oyijon.

— Bosilgan bo'lsa, turaqol, asalim, uyga ketamiz. Dadajoning kutib o'tiribdi. «Volga»mizga o'tirib lola sayliga boramiz. Esingdami o'tgan yili birga borib, lola terib, kabob pishirib rosa qiyqirishib dam olgan edik. Menga bir quchoq lola terib sovg'a qilgan eding. Seni bag'ringa bosib yuzlaringdan o'pgan edim. Esingdami?

— Esimda, oyijon.

— Yana terib berasanmi?

— Teraman, albatta terib beraman, oyijon.

— Tersang, qabrimga qo'ygin, xo'pmi?

— Nega unday deysiz, oyijon?

— Axir, o'g'lim men o'lganman-ku.

— Yo'q, siz o'lmagansiz, yo'q, yo'q!!!

Baqirib o'rnimdan turib ketaman. Yana hamshiralar yugurib kirishadi.

Oq xalatining etagi polni supurib, birin-ketin Nigora bilan Zufar kirib kelishdi. Bu — xayolot emas, yo'q. Ranglari siniqib qolgan singlim bilan ko'zlari ich-ichiga botib, ma'yuslanib qolgan ukamning aynan o'zlari. Ikkovining ham ko'zlari yoshlanib, qovoqlari solinib turibdi.

— Tuzukmisan, — dedi Zufar qo'lidagi sumkani tumbochkaning ustiga qo'yib.

— Yana keldilaringmi? — dedim o'rnimdan turmoqchi bo'lib, — ovora bo'libsizlar-da.

— Lutfi xolam salom aytdi.

— O'zlaring yaxshimisizlar?

— Kechagi ovqatni yemabsan, xolam xafa bo'ldi.

— Ishtaham bo'lmadi, — dedim o'zimni oqlab, — dadamdan xabar oldilaringmi?

Ukam battarroq qovog'ini soldi.

— Ruxsatnoma sening nomingga yozilgan ekan-ku.

Jim qoldik. Nigora oyoq tomonimda o'tiribdi. Ko'zi to'la g'ussa, kipriklariga yosh tomchilari ilinib turibdi. Bir-birimizga iztirob to'la nigoh tashlaymiz... Singilginam, ey tovba, xuddi oyijonimning o'zginasi-ya, quyib qo'ygandek. Ohunikidek qopqora ko'zlari, ingichka qoshlarining allanechuk chimirilib turishi, peshonasining kengligi, yanoqlarining qizilligi... ikkimiz ham yig'lab yubordik.

— Akajon, — dedi-da Nigora egilib oyoqlarimni mahkam quchoqlab oldi. Boshini siladim. Sochlarining mayinligi ham xuddi oyijonimnikiga o'xshaydi.

— Yig'lama, — dedim arang.

— Qachon chiqasiz? — so'radi singlim boshini ko'tarmay.

— Bugun-erta javob berishsa kerak, — dedim, — butunlay sog'ayib qoldim. Mana, qara boshimni uyoq-buyoqda bemalol buryapman.

Garchi boshimning aylanishi qolmagan bo'lsa-da, dalda bo'larmikin deb, o'zimni dadil tutib ikkovlarini ko'chagacha kuzatib chiqdim. Xayrlashayotganimizda singlim xuddi endi boshqa ko'rishish nasib bo'lmaydigandek meni mahkam quchoqlab oldi. Qani endi yupatib bo'lsa, qani endi yupanch beradigan biron so'z topilsa!

Yo'q, onadan judo bo'lish har qanday farzandga ham og'ir! Ammo qiz bolaga o'n chandon og'ir bo'larkan, bechora singlim!

Atauлло muallim ham tez-tez kelib turdi. Koridorda paydo bo'lishi bilanoq sezaman. Gursillatib qadam tashlab, pollarni lapanglatib yuboradi. Gurillagan ovoz bilan qattiq gapiradi.

Hamshiralarga hazil-mutoyiba so'z aytib, xuddi ot kishnagandek qilib baland ovoz bilan kuladi.

— Yana konfet yeydigan bo'ldik, — deydi hamxonalarim.

— Eh-he, — deydi Ataullo muallim xonaga qadam bosishi bilan, — haliyam yangi bo'shangan xotinga o'xshab cho'zilib yotibsizlarmi? Uyat-e! Hech bo'lmasa tashqariga chiqib eshak mindi o'ynasalaring bo'lmaydimi? Qani, turlaring hammang, qiziq-qiziq gaplardan gaplashamiz, latifa aytishamiz.

Keyin, chindan ham, hammamizga ikki donadan popukli konfet ulashadi. Ulasha turib bolalarning biriga, sening otangni o'zim o'qitganman, hech kundalik tutmasdi. Boshqasiga, sening onang ham o'zinda o'qigan, a'lochi edi, shahar olimpiadasiga qatnashgan, deydi. Uchinchisiga esa eh-he, senam shu yerdamisan, qalay, buvang eson-omon yuribdimi, birga o'qiganmiz. Xo'p ajoyib ashula aytgandi-da, Halima Nosirova uning oldida ip esholmasdi, deb qo'yadi. Bu gaplar rostmi, yolg'onmi, hech birimiz bilmaymiz. Lekin shunday bo'lsa ham bir-birimizga qarab jilmayishib, borlig'imizni ezib turgan dard azobidan, umidsizlikdan ozgina bo'lsa ham qutulib ruhimiz charog'onlashib ketadi.

— Qani, yur, — deydi Ataullo muallim goho tirsagimdan olib, — hovliga chiqamiz. Dardni yotib emas, yurib, harakat bilan yengish kerak. Shu yoshga kirib haligacha biron marta kasalxonada yotgan emasman. Ko'rasan, to'qsongacha yotmayman ham. Dard dangasani yiqitadi, g'ayratlidan qochadi. Umidsizlik odam bolasining ofati. Dunyoda qancha dard, qancha g'am-tashvish bo'lsa, hammasidan ham oz-oz totib ko'rganman. Hammasini ham yengganman. Hamisha yengaman degan niyat bilan yashash kerak. Niyating qancha katta bo'lsa, g'ayrating ham shuncha zo'r bo'ladi... Onang vafot etdi, nachora, saqlab qololmadik. Lekin Zafar bolam, bu dunyoga hammamiz ham mehmonmiz. Kelish bor ekan, ketish ham bor. Ketganlar uchun yig'layversak unda o'zimiz ham tamom bo'lamiz. Hey, Zafar bola, yig'i bilan o'lganlar qaytsa men hammadan ko'p yig'lagan bo'lardim... Uch yoshimda otamdan, xuddi sening yoshingda onaginamdan judo bo'lganman. Yig'ladim, to'g'ri. Lekin bir-ikki kun xolos. Keyin o'zimni

qo'lga oldim. O'zinga bo'lgan ishonchim, g'ayratim saqlab qoldi meni. O'qidim, hunar o'rgandim, singillarimni kuyovga berdim. Eh-he, sen ham Nigora qiz, Zufar polvonlarni o'qitasan, uylab-joylaysan... Qani, xastaligimni unutdim de-chi.

— Unutdim domla, — dedim.

— Hozir kayfiyatim yaxshi degin-chi.

— Hozir kayfiyatim chindan ham yaxshi. — Qani bir-ikki sakrab ko'r-chi.

— Boshim aylanadi-da.

— Aylanmaydi. Sakra. Barakalla! Xo'sh, aylanmayaptimi?

— Ha, aylanmayapti endi.

— Ana ko'rdingmi, bolam, senda aytarlik kasallik yo'q. Ruhiy xastalikka uchragansan. Miyangda lat yegan o'rin ham yo'q, doktorlar xato qilyapti. Balki qattiq qo'rquv natijasidir bu. Bir-ikki marta yurakdan kulsang, tarqaydi- ketadi. Buni ruhiy holat, kayfiyat deyishadi. Kasallik emas, bolam... Endi men ketay. Qani, bir achomlashaylik-chi...

Singlim birinchi bor meni yo'qlab kelganda peshonasining tangadekkina o'rni oqarib qolganini payqovdim. Ikkinchi bor kelganda tomog'ida ham o'zining kafticha joy qizarinquirab turganini sezdim. Keyin kelmay qo'ydi. Kecha Barno xolam bolalari bilan keluvdi, Nigorani so'rasam:

— Voy xolagingang o'rgilgur, singling chatoqqa o'xshadi, — dedi vahimali ohangda, — yuzi ola-chalpak bo'lib ko'chaga chiqolmay o'tiribdi. Zo'rlab ko'ylagini yechtirgan edim, voy xudoyim, hammayog'i oqarib yotibdi.

Kasalxonadan chiqib ketdim.

Bir haftacha doktorma-doktor yugurdik. Singlimga allaqanday modda yetishmayotgan ekan. Bu holat qattiq kuyinganda, g'am-tashvish haddan tashqari ko'payib ketganda yuz berarkan. Boshqa ilojimiz qolmadi. Nigorani teri kasallari shifoxonasiga yotqizdik. Barno xolaning tanishi ekan, doktor hech qanday sovg'a-salomlarsiz qabul qildi.

Akam haqida esa hozir sizga hech narsa aytmasam ham bo'ladi. U bizni juda qattiq xafa qilyapti. Kasalxonaga-ku, meni ko'rgani loaqal biron marta ham bormadi. Ikki martagina qisqa-qisqa xat berib yuboribdi, xolos. Qalaysan, tezroq tuzalib chiq,

xo'p, xayr — bor-yo'g'i shu! Chiqqanimdan buyon esa bir og'iz ham gaplashganimiz yo'q. Chinakam jinniga o'xshab qolgan. Kun-bo'yi xonasiga qamalib oladi.

— Och, — deyman eshikni itarib. — Chiqqin axir, biz bilan ovqatlangin.

— Yo'qol!

— Bu ahvolda kasal bo'p qolasan.

— Tinch qo'yinglar meni.

Har kuni axvol shu.

Nihoyat, dadajonimning huzuriga kirish uchun berilgan ruxsatnomani yangilashga muvaffaq bo'ldim. Hech kim aralashgani yo'q, o'zim harakat qildim. Boraverib tergovchining joniga tegib ketdim shekilli, nihoyat, berdi.

Ataylab kechqurun bordim. Ertaroq borsam, tergov ketayotgan bo'lsa, baribir, ruxsat berishmasdi. Uchrashuv xonasida uzoq o'tirdim. Boshqa yoqqa olib ketishgan bo'lsa-ya, deb yuragimni vahima bosa boshladi. Yo'q, shubham o'rinsiz ekan. Nihoyat, eshik asta ochildi.

— Dadajon! — sakrab o'rnimdan turib ketdim.

— O'g'lim, — yig'layotgandek qaltiroq ovozi eshitildi dadajonimning.

Quchoqlashganimizcha uzoq tik turib qoldik. Xo'rsinamiz, unsiz yig'layapmiz. Ko'rishmaganimiz shu bir oy ichida boshimizdan o'tgan barcha tashvishlarni so'zsiz hikoya qilayotgandekmiz. Dadam yelkamni silay-silay, nihoyat:

— O'tiraylik, — dedi beholgina.

O'tirdik. So'lib, bir burda bo'p qopdi. Yuzlarini ajin qoplagan, ko'zlari ich-ichiga botib ketgan, og'ir bir o'y vujudiga buroviq solib, jonini qiynayapti shekilli, qo'llarini musht tugib, tishlarini sindirgudek g'ijirlatib qo'yyapti.

— Eh dunyo, — dedi zo'r-bazo'r, — oyingni berib qo'yibsizlar-da?

— Dadajon...

— Borolmadim, ming afsus, oxirgi yo'lga kuzatolmadim uni. Mayli, ko'rgilik ekan. Boshimni urib yordim, lekin ilojini topolmadim. O'g'lim, meni kechiringlar.

— Dadajon, yig'lamang.

— O'g'lim, esligim, meni kechiringlar. Onang bilan xayrlasholmay qoldim. O'zlaring qalaysizlar? Akangdan xavotirdaman, kuygunchak edi, qanday chidayapti?

— Akam ham... yaxshi.

— Nega olib kelmading? Negadir uni juda sog'inyapman, ko'rgim kelyapti. Nuqul tushimga kiradi degin, yanagi safar albatta olib kelgin, xo'pmi?

— Xo'p.

— Zufar polvon-chi?

— U hozir lagerda. Barno xolam yo'llanma olib berdi.

— Nigora qizim-chi, uniyam juda sog'indim. Nega olib kelmading? Rangi ro'yi tuzukmi? Onasiga qattiq o'rgangan edi. Sho'rlikkina qanday chidayapti?.. Ishdan qaytishimni poylab yo'lakda o'tirardi, achomlashib uyga kirardik, ertalab bo'ynimga osilib xayrlashardi.

— Uyam lagerda.

— Yaxshi qilibsizlar. Barno xolangga ayt, sizlardan endi boxabar bo'lib tursin.

— Ozib qolibsiz, dada.

— Ha endi, bizni bu yerga semirtirib boqqani olib kelishmagan. o'g'lim. Ko'proq oyingga kuydim. Yigirma yil birga yashab, oxiri shunday bo'lishini hech o'ylamovdim. Attang!

— O'zingizii ishlaringiz qalay, dadajon?

— Menikimi, ha endi... tergov ham tugay deb qoldi shekilli.

— Sizga yengil bo'lyaptimi axir?

— Nima desam ekan, yengili ham bor, chigal joylari ham ko'p. Hammasi tergovchining kayfiyatiga bog'liq. Ha aytgandek, rahmat, o'g'lim, qishloqdan olib kelgan pulingni ta'siri zo'r bo'ldi. Tuhmatchidan qutildim, so'zini qaytib oldi. Qo'lga berganim yo'q, stoliga tashlab chiqqanman, debdi. Ey, nomard-ey... Xo'p, o'g'lim, endi ko'p kuyinavermanglar. Qutilib chiqib ketishim ham mumkin. O'rtoqlar harakat qilishyapti. Meni qutqarishsa, o'zlarini ham qutqargan bo'lishadi-da. Akangga yaxshi qara, ukalaringga ehtiyot bo'l, hamma umidim endi o'zingdan. O'g'lim, meni kechiringlar, o'zimni emas, sizlarni qiynab qo'ydim. Ataullo muallim haq

edi, akang haq edi. Birini dovdur, boshqasini tentak deb hisoblabman. Mayli, o'g'lim, meni kechiringlar. Balki onangning o'limiga ham men aybdordirman. Chayqovchilik qilishini bilardim. Bilib o'zimni bilmaslikka olardim. Nega bunday qildim ekan, nega vaqtida uyni sotib boshqa joyga ko'chib ketmadim? Yo'q, hammasiga o'zim aybdorman. Qo'li qadoq bir dehqonning bolasi edim-a!

— Yig'lamang, dadajon!

— Yo'q, o'g'lim, bu gaplarni kimgadir aytib, yuragimni yozib olishim kerak edi. Kimga aytaman? Sendan boshqa tushunadiganim yo'q... Esingdami, qishloqqa borganimizda boqqa olib borardim. O'rikzorlar, yong'oqzorlar bo'lardi... Qishloqqa qaytib ketamiz, o'g'lim. Uch-to'rt yil berishsa kerak. Qutulib chiqishim bilan hammamiz qishloqqa ketamiz.

— Dadajon, yig'lamang, men chidolmayman, jon dada!

— Mayli, o'g'lim, qiynalsang ham eshit bu gaplarni. Mening achchiq taqdirim sizlarga saboq bo'lsin. Xo'p, ana, bas qildim. Ataullo muallimga ayt, meni kechirsin, o'shanda nohaq edim.

— U sizni allaqachon kechirib yuborgan.

— Bag'ri keng odam ekan.

— Sizning o'rningizga bizga otalik qilyapti u kishi.

— Men qutulib chiqqunimcha undan ajralmanglar, mahkam ushlanglar. Eson-omon chiqsam, xudo xohlasa, bir umr xizmatini qilaman.

— Bu gaplarni, dadajon, anuv kun ham aytuvdingiz. O'zlariga yetkazganman.

— Yana aytgin, takror-takror aytgin. Xo'p, endi xayrlashamiz. Jindak yig'laganimga yelkamdan tog' ag'darilgandek yengil bo'p qoldim-a? Hammalariga salom ayt, o'pib-o'pib qo'y. Qara-ya, chinakam yigit bo'p qopsan, o'g'lim, quchog'imga sig'mayapsan...

XI BOB

Onamizning «qirq»ini kamxarj, kamtargina qilib o'tkazdik. Qishloqdan ammam bilan pochcham kelishdi. Qo'y so'yib nimtasini, ikki yashik qizil husayni uzum, ertapishar nok, qovun-

tarvuz, xullas, qo'shnilarining jigulisini to'ldirib kelishibdi. Bizga xarj qildirishga qo'yishmadi. Busiz ham chiqimdorsizlar, jim o'tiringlar, deyishdi. Qarindosh-urug'larimiz, qo'shnilarimiz qirq chog'li erkagu yana shuncha ayol bo'ldi, xolos. Men buni sizga aytmoqchi emasdim. O'lim bo'lgandan keyin yigirma-yu, qirqi ham bo'ladi-da. Buni men aytmam ham o'zingiz yaxshi bilasiz. Men aytmoqchi bo'lgan narsa butunlay boshqa — oyijonimning qo'sh qanotli eshikdek keladigan silliq matoga ishlangan kattakon surati. Hammaning ko'zi, e'tibori o'shanda bo'lib qoldi. Akam ishlabdi buni. Bir oydan buyon xonasiga bekorga qamalib olmagan ekan. Injiqligi, sirkasi suv ko'tarmay qolgani, kecha bilan kunduzning farqiga bormay qo'ygani bejiz emas ekan. Bechora akam-ey, yo'q, u chindan ham buyuk.

... Keng adir, bahor pallasi. Osmonda yengil bulut borga o'xshaydi. Har bittasi piyoladek keladigan lolalar qiyg'os ochilgan, oyijonim xiyol oldinga egilib lolaga qo'l uzatyapti. Yengilgina shabada borga o'xshaydi. Oyimning ikkita qilib o'rilib, ko'ksiga tashlangan sochi yerdagi qizil lolalarga qo'shilib shamol ta'sirida tebranayotganga o'xshaydi. Oyijonim qo'l uzatgan lola, xuddi uzilishdan qochayotgandek, bemavrid nobud bo'lishni istamayotgandek bir tomonga xiyol egilib turibdi... Oyim turmushga chiqmasdan oldin butun bo'y-basti to'laligicha suratga tushgan ekan. O'sha surat uyimizning to'rida hamisha osig'liq turardi. Oyim goho: «Qara-ya, bir mahallar sochlarim qanaqa uzun-u, qanaqa qalin edi-ya, — deb qo'yardi,— yuzlarimdagi qizillik-chi, sizlar o'g'irlab qo'ydilaring uni...»

Akam o'sha fotodan nusxa olganga o'xshaydi. Lekin fotoda onamiz beqiyos go'zal, husni-latofatdan g'ururlanib, tongda ochilgan atirguldek yashnab turardi. Akam chizgan suratda o'sha bo'y, o'sha qomat, ko'ksiga tushib turgan o'sha ikki o'ram soch-u, ammo yuzlaridagi yorqinlik, barq urib turgan quvnoqlik yo'q, ko'zlari to'la tashvish, g'am...

— Voy tovba, xuddi Yoqutxon kennoyimga o'xshaydi-ya, — dedi ammam hovliga qadam bosishi bilan ayvonga qo'yilgan suratga tikilib.

— O'xshaydimi? — deb so'radi akam mamnun bir ohangda.

— Judayam-a, e tavba!

— Oyijonimni o'xshataman deb o'zi rosa urindim-da.

— Xudoyo qo'ling dard ko'rmasin, — shunday deb amman akamni bag'riga bosib yuzlaridan o'pib qo'ydi, — seni albatta qishloqqa olib ketaman, maktabimizni bezagani suratchi axtarib yurishibdi. Baland kursiga o'tirib olib, bir boplab chizgin. Jiyanim chizgan deb maqtanib yuray.

Barno xolamning eri xasis pochcham ham surat oldida ko'p o'ralashdi. Suratdagi lolalarni silab, yaqinrog'iga borib hidlab ham ko'rdi.

— Lekin o'xshatibsan, jiyani, — dedi oxiri.

— Shoshilib ishladim, — dedi akam.

— Qancha vaqting ketdi shu rasmga?

— Bir oycha.

— Bir oyda chizgan bo'lsang... chakana emas ekansan, jiyani.

Sotmoqchi bo'lsang qancha berisharkin?

— Sotmayman.

— Yo'q, mabodo sotmoqchi bo'lsang deyaipman-da?

— Hecham sotmayman.

— Menga bersang, jiyani, o'zim yaxshigina pullab berardim.

Negaki, bunaqa jonli rasmlar juda kam.

Ishga unnab yurgan Barno xolam suhbatni eshitib qolib, hoy dadasi, uyalmaizmi, qaysi bola o'z onasini sotadi, deb jerkib berdi. Pochcham nari ketaturib:

— Bu shunchaki surat-ku, — deb qo'ydi-da, yana orqasiga qaytdi, — menga qara, jiyani. Biz ikkovimiz kelishsak bo'larkan.

Sen mana shunaqa suratlar chizib tursang men o'zimning magazinimda pullab berib turardim. Qalay?

Akam bosh chayqadi...

Marosimga kelganlar tarqalguncha rasm atrofida ana shunaqa pastu baland gaplar bo'lib turdi. Ataullo Isayevich surat ostiga to'shalgan o'ringa yonboshlab yotgan akamning yoniga kelib:

— Tabriklash navbati endi bizga keldi, — deb shundoqqina yonginasiga o'tirdi, — barakalla, bolam! Umidim katta edi, oqlading. Men seni shunchaki yog'ochga gul soladigan usta bo'ladi, deb yurardim. Vujudingda men payqamagan boshqa

bir go'zallik ham bekingan ekan. Ochilibsan, barakalla, bolam! Men orzu qilib chiqolmagan cho'qqiga sen chiqadiganga o'xshaysan. Lekin rasming hali chalaga o'xshaydi. Nimadir yetishmayapti. Shu holicha ham zo'r. Ancha-muncha rassom hali-beri bunaqasini chizolmaydi... Yoqutxonning lolaga intilib, intilayotgan narsasiga yetolmayotgani yaxshi. Kishida fikr tug'diradi. O'ylatib qo'yadi. Lekin bulutlar orqali nimani ifodalamoqchi bo'lganingga yaxshi tushunmadim.

— Oilamiz boshiga tushgan g'am-tashvishni nazarda tutgan edim. Chizayotganimda hamisha ko'z o'ngimda qop-qora narsa turgandek bo'laverdi. O'sha qora narsani bulut qilib chizdim. Lekin juda ham qora qilib yuborganim yo'q. Oralariga nur aralashtirdim.

— Ha, gap bu yoqda degin. Yoqutxonning ko'zlari to'la g'am.

— G'am borligi sezilyaptimi? — shoshilib so'radi akam.

— Menga shunday tuyulyapti.

— Men oyijonimning qalbidagi tubsiz armonni ifodalamoqchi bo'luvdim.

— Ehtimol, shundaydir, — hamon o'yga tolib suratga tikilardi Ataullo Isayevich, — men, bolam, armonli kishi bilan g'amga botgan kishining ko'zlarini yaxshi kuzatmagan ekanman... Gullarni shamol uchirib ketay deb turibdi.

— Bu oyijonimning ro'yobga chiqmagan orzulari...

— Yo'q, bolam, nazarimda umidsizlikni sal boshqacharoq ifodalash kerak. Yana tag'in o'zing bilasan. Endi, bolam, so'nggi gap shu: gultuvak yasashni to'xtat, uni bizdaka jaydari ustalarga qo'yib ber, rasm ishlashga o't, yetilib qobsan.

O'sha kuni g'amga botib, sirkasi suv ko'tarmay injiq bo'lib qolgan akam bamisoli dunyoga qaytadan kelgandek bo'ldi. Surati tufayli eshitgan maqtovlari, onajonimni unutganim yo'q, u hamisha mening qalbidamda yashaydi, degan yorqin umid, shu maqto'v, shu yorqin umiddan qalbida tug'ilayotgan mamnuniyat hissi tomirlarida lovullab yonib, butun vujudini allalayotgandek edi. Mamnuniyat kishi yuzida gul bo'lib ochilarkan, ko'zlarini chaqnatib yuborar ekan. Akam shu daqiqada ta'riflab bo'lmaydigan darajada xursand edi.

— Endi dadajonimning ham suratini chizaman, — dedi hamma ketib bo'lgandan keyin.

— Yaxshi o'y labsan, — dedim xursand bo'lib.

— Bilasanmi, qanday holatini chizaman? Dadajonimning qishloqdan shaharga kelgan dastlabki paytlarini yaxshi ko'raman. O'shanda u mehnatkash edi. Peshona teri bilan kun ko'rib, pora degan narsalardan uzoq edi.

— Haliyam o'sha pora degan achchiq so'zing yodingdan chiqmabdi-da?

— Tirik bo'lsam bu maraz so'zni hech qachon unutmayman. Oilamizni mana shu vayron qildi...

— Dadajonimning suratini vagondan yelkalab yuk tushirayotgan holatda tasvir layman. Yelkada og'ir yuk, yuzidan shovullab ter quyilyapti, lekin o'zi mamnun. Qalay?

— O'zing bilasan, — dedim.

Akam onamizning arvochini shod qilish uchun mana, suratini chizdi. Men-chi, men nima qilyapman? Hatto uning tirikligidagi orzusi — taqinchoqlarini qaytarib olishni ham uddalolmadim. Noshudmanmi, landovurmanmi? Yigirma ming so'mlik taqinchoq-a, yigirma ming so'm! Bularni yig'aman deb onamizning yurak-bag'ri ezilib ketgan. «Qirq» o'tkazgan kunimiz oqshomida xuddi shunday deb o'ylayotgandim. Barno xolam ham shu fikr-da ekan. Hatto mendan ko'ra ham unga ko'proq alam qilayotganga o'xshaydi. Nega desangiz, shu paytda, shu daqiqaning o'zida Qozi xolanikiga borib, taqinchoqlarni qaytarib olish zarurligini uning o'zi aytdi.

— Bora qolaylik, — dedi, — vaqt o'tgan sari yuragimga vahima tushyapti.

Qozi xola, Muhamedovning o'zi, turmushga chiqib ketgan katta qizi bilan xuddi Muhamedovning o'ziga o'xshash rangi sovuq kuyovlari aftidan kechki ovqatni yeb bo'lib, endi qovunxo'rlik qilib o'tirishgan ekan. Qozi xola nima maqsadda borganimizni payqab, shoshilib o'rnidan turdi-da, bizni nariroqda, boshqa karavotga boshladi. Barno xolam gapni cho'zib o'tirmay:

— Biz taqinchoqlarni olib ketgani keluvdik, — dedi. Qozi xolamning ingichka terilgan qoshlari g'alati chimirilganini ko'rdim:

— Qanaqa taqinchoq?!

— Voy tavba, qanaqa taqinchoq bo'lardi, Yoqutxon opamnikida.

— Opangiz aytmagan ekan-da. Qamalmasdan bir kun oldin o'zi kelib taqinchoq bilan kumush qutichani olib ketgan edi-ku!

Barno xolam nazarimda, pov etib yonib ketgandek bo'ldi:

— Uyaling-ey! — dedi entikib.

— Tavba, — dedi Qozi xola semiz qo'lini ko'ksiga qo'yib, — tepamda xudo bor-a.

— Anovu kuni kelganimizda, mana jiyanim ham yonimda edi, o'z og'zingiz bilan aytmadingizmi, taqinchoqlar menda, bexavotir turadi, deb. Zafarjon, sen aytgin.

— Xuddi shunday degansiz, xola, — dedim. Keyin oyijonimning vafotidan oldin oldiga borganimda, taqinchoqlarni Qozi xolangdan zudlik bilan olinglar, deb tayinlaganini ham qo'shimcha qildim.

— Yoqutxon egachim o'zi so'nggi kunlarda dovdirab, esi kirarli-chiqarli bo'lib qolgan ekan. Ana, Muhamedovdan so'ranglar, tergovchilarga ham nuqul poyma-poy, dovdir javoblar qaytaribdi.

— Taqinchoqlarni bering! — dedi Barno xolam xuddi oxirgi marta so'rayapman degandek bir ohangda.

— Borib egasidan so'rang uni! — dedi Qozi xola ham xuddi gap tamom degandek bir ohangda.

Meni qaltiroq tutdi. Barno xolam ham, nazarimda, g'azablanganidan gapirolmadi shekilli, ikkovlari bir-birlariga tikilib qolishdi. Barno xolam, negadir, yig'lavoray-yig'lavoray deb turibdi. Qozi xola, bilmadim, nima sababdandir kulimsirayapti.

— Taqinchoq sizda! — dedi nihoyat Barno xolam tishlari orasidan.

— Voy singiljon-ey, — kulimsirab juda yumshoq gapirdi Qozi xola. — Nahotki ishonmasanglar? Axir siz esli-hushli ayolsiz-ku! Ana, ishonmasangiz Muhamedovdan so'rang. Hoy, Muhamedov, siz ayting.

Kuyovi bilan karta o'ynayotgan Muhamedov yuzini biz tomonga yarim burib:

— Nimani aytay? — deb so'radi-da, yana o'yinga berildi.

— Yoqutxon taqinchoqlarini olib ketganini-da. Meni urishib berganingizni ayting.

— Ha, urishganman, — dedi Muhamedov o'yindan boshini ko'tarmay.

— Darrov egasiga qaytar deganmidingiz? Keyin Yoqutxon dugonam kelganini ham ko'ruvdingiz shekilli?

— Ha, ko'rganman.

— Ana, ko'rdingizmi, singiljon. Muhamedov kichkina odam emas, katta sudya-ya! Yonida kuyovim ham o'tiribdi. Uyam kichkina odammas. Yo'q, singiljon, bu tuhminatingizni qo'ying!

Yana jim qolishdi. Yana haligi holat: birining ko'zida g'azab, nafrat, boshqasirikida tantanavor quvlik. Barno xolam lablari piri-pirab, xuddi xamir qorayotgandek ikki mushtini karavotga tirab, sekin o'rnidan tura boshladi.

— Hoy, buncha shoshasiz, — dedi Qozi xola oralarida hech gap bo'lmagandek mehribonlik bilan, — qovun so'yamiz, xovuzga tashlab qo'yganman, muzdekkina...

Barno xolam indamadi. Uyga yetgunimizcha ham miq etmadi. Darvozaxonaga kirayotganimizda alam bilan bosh chayqadi-da, xo'rsinib:

— Opaginam-ey, buncha sodda bo'lmasa-ya! — deb qo'ydi.

Tuni bilan ikkovimiz ham uxlayolmadik. Oltinlarni qaytarib olish va shu yo'l bilan qorong'i go'rda yotgan oyijonimning ruhini shod etish uchun har xil rejalar tuzib ko'rdik. Albatta, shuncha boylikni ochko'z, insofsiz bir ayolning qo'lida qolishini istamasdik. Qozi xola o'z qo'li bilan yozgan va keyinchalik yana o'zi yirtib tashlagan tilxatning parchalarini stol ustiga yozib, bir-biriga yaqinlashtirib yamab, qayta-qayta o'qib ko'rdik. Eng yomoni tilxatning boshlanishi bilan oxiri yo'q... Suvda oqib ketgan ekan. Shunday bo'lsa ham hamma umidimizni siyohi chaplanib ketgan shu qog'oz parchalariga tikib, ertaga shahar yuridik bo'linmasiga borishga, u yerda xolaning yaqin bir tanishi bor ekan, o'shandan maslahat va yordam so'rashga qaror qilib, shundan so'nggina o'rnimizga cho'zildik.

Advokat opaday ham naf bo'lmadi.

— Boshi yo‘q, oxiri yo‘q — dedi o‘ychan, — bu parchalardan biron gap chiqarish qiyin. Qani, o‘g‘lim, ayt-chi, oying kumush qutichani Qozi xolaga berayotganda yonlaringda sendan boshqa guvoh bormidi?

— Yo‘q, — deb bosh chayqadim.

— Sen qamoqdagi oyingni ko‘rgani borganingda, oying taqinchoqlar Qozi xolada, uni tezroq ol, deganda yonlaringda sendan boshqa yana biron kishi bormidi?

— Yo‘q, — dedim.

— Qozi xola-yu, Muhamedovlarga o‘xshaganlar bilan... yo‘q, da‘volaring tasdiqlansa xo‘p-xo‘p, bo‘lmasa, tuhmatchiga chiqarib o‘zlaringni jazolab qo‘yishlari mumkin... Xavfli odamlar ular. Sizlarga biron maslahat berolmayman.

Barno xolam qanday ahvolga tushganini bilmayman, dorixonasida ish ko‘p, o‘shalarga ovunib, ehtimol, unutilib yuborgandir, lekin men bir necha kungacha o‘zimga kelolmadim. Kap-katta xotinning tonib turishi, ilonnikidek kichkina ko‘zlarini baqraytirib, o‘rtaga xudoni qo‘yib, muttahamlik qilishi... Nazarimda, oyimning vafotidan ham, dadamning qamoqda yotishidan ham shu muttahamlik azobi meni ko‘proq qiynayotgandek edi. Taqinchoqlarni qaytarib olishning ming bir xil rejasini tuzgan bo‘ldim. Uylariga o‘g‘irlikka tushsammi, panada poylab turib boshiga tosh bilan urib o‘ldirsammi, shohona uylariga o‘t qo‘ysammi... o‘ylamagan o‘yim, tuzmagan rejam qolmadi. Ammo hech biriga botinolmadim. Irodam sustligidanmi, tabiatan qo‘rqoq bo‘lganimdanmi, bilmayman, ishqilib botinolmadim.

To‘satdan tog‘amning ustidan sud boshlanadi degan shumxabar keldi-yu, miyamni g‘ovlatib yuborgan bu qora o‘ylar, nazarimda, meni tark etgandek bo‘ldi.

XII BOB

Tog‘am hotamtoy, mehmondo‘st bo‘lgani uchunmi yoki quvnoq, serzavq tabiati tufaylimi, ochiqda yurganida ko‘p o‘rtoq orttirgan edi. O‘sha o‘rtoqlari jim o‘tirishgani yo‘q. Uning jinoyatini bekor qilish, hech bo‘lmasa yengillatish

uchun zir yugurishayotganini Bozorvoy amakimdan, boshqalardan eshitib turganman. Pul bilan jinoyat olishuvi, mana, sentyabrgacha davom etdi. Bilmadim, qonun uch oy davom etgan o'yin paytida pul tomonga o'tdimi yoki jinoyatni tasdiqlaydimi, mana shu bugun, birinchi sentyabrda ma'lum bo'ladi. Sud majlisi paxta tozalash zavodining katta klubida, ochiq tarzda o'tar ekan. Buni bizga hamma narsadan hammadan oldin xabardor bo'lib yuradigan Bozorvoy amakim aytdi.

Tog'am bizni deb qamoqqa tushdi. Bunday paytda men o'zimni loqayd tutib panaga qochsam g'irt ahmoqlik bo'ladi, shunday emasmi? Yo'q, shunday! Keyin, o'zingiz o'ylang, naq uch oydan buyon ko'rganim yo'q, sog'inganman. Sud bahonasida ko'rishib olsak, buning nimasi yomon! Eng muhimi, ha-ha, eng ahamiyatlisi, tog'am savdo olamining arslonlaridan, ikki bora qamalib tajriba ham orttirgan, tajribali arslonning qonunshunoslar bilan olishganini ko'rishga qiziqayotgan edim.

Akamning derazasini qiya ochib:

— Borasanmi? — deb so'radim.

— Qayoqqa borar ekanman? — deb so'radi yotgan o'rnidan boshini ko'tarmay. Uning odati shunaqa, xohlagan vaqtida yotib, xohlagan vaqtida turadi. Xohlamasa kunbo'yi boshini o'rab yotaveradi ham. Kecha bilan kunduzning farqi yo'q unga.

— Bozorvoy amakim aytdi-ku, — deb eslatdim, — bugun tog'amning sudi bo'ladi.

— Yaxshi, shaharda bitta olg'ir yana kamayarkan.

— Aka, tilingning zaharligi hech qolmadi-da.

— Yo'qol, — shunday deb akam yuzini teskari o'girib oldi.

Tamom, avval aytganimdek endi unga gap uqtirib bo'lmaydi.

Paxta tozalash zavodining klubiga ilgari ko'p borganman. Ikki qism hind filmlarini nuqul shu yerda ko'rsatishardi... Lekin sudda ishtirok etish, tog'amning qonunshunoslar bilan mardonavor olishganini kuzatish menga nasib etmadi. Ha, ha, buyurmagan ekan. Darvoza oldidayoq yo'lim to'sildi. Qovog'idan qor yoqqan Fotima kelinoyim, mushtlashsam albatta, ezib tashlayman, deya shaylangandek qiyofali, novchadan kelgan, qotma bir yigit bilan yonma-yon turgan

ekan. Kelinoyimning aytishicha, tog'amning advokati shu kishi emish. Advokat menga qarab:

— Yigitcha, siz bu yerda ko'rinmay tursangiz yaxshi bo'lardi, — dedi negadir juda past ovoz bilan.

— Nega ko'rinmas ekanman? — dedim xiyol cho'chib.

— Sizni tanib qolishlari mumkin. Ismingiz Zafarjonmidi? Familiyangiz Karimov, shundaymi?

— Ha.

— Yigirma sakkizinchi iyun kuni kechasi tog'angiz bilan birga bo'lgansiz, shundaymi?

— Shunday.

— O'sha kechasi Solih Qosimovich bilan Jo'ra Usmonovlar tintuv paytida olingan boylikni bo'lib olish haqida maslahat qilganda siz ishtirok etgansiz. Yo'q, demang, yashirincha olingan fotosuratlar qo'limda turibdi. Baxtingizga jinoyatchilar bu yigitchani tanimaymiz, tasodifan tushib qolgan bo'lsa kerak, deyishgan. To'g'risi, tog'angizning iltimosi bilan shunday qilishgan. Mana bu fotolar sud paytida qo'ldan qo'lga o'tishi aniq. Biron tasi sizni tanib qolib, ana u, zalda mung'ayibgina o'tiribdi, deyishi ham mumkin. Yaxshisi, yigitcha, bu yerdan jo'nab qoling. Aks holda ish yana chalkashib qoladi.

Savolga o'rin qolmadi. Yig'lavorgudek bo'lib orqaga qaytdim. Sud majlisi bor-yo'g'i uch kun davom etdi, xolos. Hamma gapni, gap tashishni yaxshi ko'radigan Bozorvoy amakim yetkazib turdi. Aytishicha, hammamizning tasavvurlarimizda arslondek bo'lgan, chinakam olishsa besh-to'rttasini burdalab tashlashi mumkin bo'lgan tog'am bu gal o'zini, negadir, qo'ydek yuvosh tutibdi.

— Tavba, — dedi Bozorvoy amakim ovqatlanib o'tirgan xotini Lutfi xolamga qarab. — Shu Solihjonga hech tushunmadim bu gal. Hamma aybni osongina bo'yniga oldi-qo'ydi-ya. So'z navbati kelishi bilan mo'mingina bo'lib o'rnidan turib, o'rtoq sudya, savol-javobni cho'zib o'tirmang, aybnomada e'lon qilingan jinoyatimga to'liq iqrор bo'laman, chindan ham meni jin ozdirdimi, bilmasdan shu jinoyatga qo'l urib qo'yibman. Singlimni himoya qilyapman, deb o'ylabman. Qonun bo'yicha har qanday jazoga loyiqman, dedi-ya. Lekin, Lutfi, o'zing ham

yaxshi bilasan, shu Solihjonning ham bekligi bor-da. Mard har qanday sharoitda ham mardligini qilarkan. Tomoshabin bo'lib kelganlar ham qoyil qolishdi unga.

Biz bilan istar-istamas ovqatlanib o'tirgan akam aftini g'alati jiyirib:

— Shu ham mardlik bo'пти-yu, — deb masxara qildi.

— Mardlik bo'lmay nima bu? — hayron bo'ldi amakim.

— Tog'am quvlik ishlatibdi yana.

— Tavba, nimasi quvlik ekan buning? Senga hech tushunib bo'lmaydi o'zi.

Akam oldidagi ovqatni jahl bilan nari surib qo'ydi...

— Siz baribir tushunmaysiz.

— Sen tushungan narsani men tushunmas ekanmanmi? Ja katta ketvording-ku, jiyan.

— Katta ketganim yo'q, — joylashibroq o'tirib oldi akam. — Tog'amning o'z aybiga shoshilib iqrор bo'lganining sababi bor, amakijon, bilmasangiz bilib qo'ying. Aybiga iqrор bo'lishning ikkita yo'li bor. Biri, sudyalар ayblanuvchining aybini ashyoviy dalillar, guvohlar, ekspertiza xulosalari yordamida isbotlagach, aybdor boshqa iloji qolmagach, aybiga iqrор bo'ladi. Majbur degan so'zimga e'tibor bering. Iqrorning ikkinchi turi, bu guvohlar, ashyoviy dalillar ishga tushmasdan oldin ayblanuvchining qilgan jinoyatiga chin yurakdan aytgan tavbasi. Tavba bilan majbur bo'lishning o'rtasida katta farq bor, amakijon. Sudyalар buni inobatga olishadi. Tavba qilganga muddatni kamrog'u aybini majburan bo'yniga olganga ko'proq belgilashadi. Tog'am buni yaxshi biladi, ikki marta qamalib chiqqan. Tog'amning bu harakatida mardlikdan ko'ra ustomonlik ko'proq.

— Sen, jiyan, nuqul kitobdagi gaplarni aytyapsan, — dedi Bozorvoy amakim mot bo'lganini tan olgisi kelmay.

— To'g'ri, amaki, kitobdan o'qiganman, — iqrор bo'ldi akam, — shu oyijonim bilan dadamning boshiga tashvish tushgandan buyon qonunshunoslikka oid ko'p kitoblarni o'qib chiqdim.

— Nima balo, sudya bo'lmoqchimisani?

— Yo'q, shunchaki qiziqqanimdan. Ishonsangiz, O'zbekiston jinoyat kodeksini yodlab yubordim. Istagan moddangizni so'rang, tushuntirib beraman.

— E, jijan, qo'ysang-chi, — kulib qo'ydi oqko'ngil Bozorvoy amakim, — mening bunaqa narsalarga aqlim yetarmidi?! Undan ko'ra mana bu shirin ovqat bilan yuzta yuzta qilganim ma'qul. Lutfi, tishingning kavagida asrab qo'yganingdan bormi? Bilasan-ku, shu zormanda bo'lmasa tomog'imdan ovqat o'tmaydi.

Lutfi xolam amakimning so'zini ikki qilolmaydi. Erkakning so'zini ikki qilgan ayol narigi dunyoda do'zaxga tushadi, deb ishonadi. Yarim shisha aroq keltirib xontaxta ustiga do'q etkazib qo'ydi, amakim piyolani to'ldirib qo'ydi-da, huzur qilayotgandek uzoq simirdi. Ichib bo'lgach, labini kafti bilan sidirib, aftini g'alati bujmaytirdi.

— Bay-bay-bay, muncha shirin bo'lmasa-ya, — dedi, — jijanlarim, anovi kungi gapim gap. Men o'limdan qo'rqmayman, yo'q! O'lsam, narigi dunyoda aroq masalasi qalay bo'larkin, mana shundan qo'rqaman. «Lekin, Lutfi, va'dangni unutmaysan, o'lganimda go'rimga to'rt yashik aroq qo'lasan... Xo'p, qani endi taomga. Hoy, sudya, sen ham yaqinroq o'tir, yeganimiz bunday bir ichimizga tushsin.

Bozorvoy amakim ertasiga xuddi shu paytda, dasturxon atrofida suddagi taassurotlarini yana hikoya qilib berdi.

— E, Lutfixonim, — yana xotiniga qarab gapira boshladi, — bu viloyatdan kelgan sudya balo ekan. Kapitan Jo'ra Usmonovichni og'iz ochirtirmay qo'ydi-ya. Yerga mixlab qo'ydi desam ishonaver. Har savollar berdiki, xayolimda biqinini burab o'yib olgandek bo'ldi. Lekin adolatli ekan, malades! Qani endi Saidjon akamning ishini ham o'sha ko'rsa, ancha yengillashardi-da. Yoqut Karimova vafot etgani uchun uni jinoyatdan ozod qilamiz, dedi. Tintuv paytida uyidan olingan pul, zayom va boshqa buyumlar masalasi esa Said Karimov sudidan keyin ajrim bo'ladi, dedi. Shundayligicha davlatga o'tkazilsin, desa nima bo'lardi, rasvo bo'lardi! Hukmni ham zo'r yozibdi. Solih Qosimovga to'rt yil, Jo'ra Usmonovga o'n bir yil... Zaldagilar qarsak chalib yuborishdi. O'ziyam odam rosa yig'ilgan ekan-da.

Tomog'imdan ovqat o'tmay qoldi.

O'n uchinchi sentyabr kuni, o'n uchinchiligi aniq esimda, nega desangiz, o'shanda sharillatib yomg'ir quygandi, kechqurun

shirakayf Bozorvoy amakim yombi topib olgan xasisdek sevinib kirib keldi-da, odaticha kaftlarini bir-biriga ishqab:

— Hammasi mana endi joyida bo'ladi, — dedi, — ko'ndi, ko'plashib arang ko'ndirdik.

— Nimaga ko'nadi, hech narsa tushunmayapman? — dedim bo'g'ilib.

— Aytgandek, sening xabaring yo'q edi-ya. Tog'angga advokatlik qilgan yigit viloyatdan kelgan, balo ekan. Solih tog'alariningning muddatini to'rt yilga tushirdi-ya. Qattiq olishdi o'ziyam. Ana shu yigit dadangga advokatlik qilishga rozilik berdi. Agar, dedik ko'plashib, Said akamning jinoyatini yo'qqa chiqarib qutqarib bersang, boshing barobar zar to'kamiz, dedik. Zo'r yigit ekan, ko'ndi. Ana endi yarimtani maydalab ichsak bo'ladi.

Amakimning, bo'ying barobar zar to'kamiz, degani menga ma'qul bo'ldi. Dadamni qutqarish uchun, qutulib hovliga kirib kelayotganida dadajon, deya bo'yniga bir osilishimiz uchun tog' barobar oltinimiz bo'lsa ham hadya qilgan bulardik. Oradan uch kun o'tib, ertalab Zufarni maktabga jo'natib bo'lib kasalxonadagi singlimni ko'rgani o'tlanayotgan edim, darvoza qo'ng'irog'i o'zimgina jiringladi. Chiqsam, o'sha tog'amning sudi oldidan ko'rgan advokat yigit turibdi.

— Siz, yanglishmasam, Zafarjon bo'lasiz, shunday-mi? — deb so'radi u.

— Ha, o'shaman, — dedim.

— Dadangizning himoyasini menga topshirishgan, xabaringiz bormi?

— Eshitganmiz, — dedim yana.

— O'zgina suhbatlashsak deb keluvdim.

O'zgina emas, anchagina suhbatlashdik. Duduqlanib, tutilib-tutilib gapirarkan. Gaplashayotganda ko'zi siz-da emas, atrofda bo'larkan. Nuqul ot taqalayotgandek tak, tak, deb turarkan. Dadajonimning maktabimiz hovlisi atrofi o'ralganda temir panjara olib bergani, tinchlik fondiga uch marta pul o'tkazgani, har yili paxta mavsumi davrida ba'zi xodimlarga bosh bo'lib terimga chiqqanda maqtov qog'oz olgani — hamma-hammasini bilib olib, ketayotganda, o'sha maqtov qog'ozlarni menga

chiqarib bering, suddan keyin albatta qaytarib beraman, deb iltimos qildi.

Sud boshlanishiga ikki kun qolganda eshitdik. Ammam men bexabar qolmay degan edi, Zufar borib aytib keldi. Ertalab barvaqt turib butun qarindosh-urug'lar paxta tozalash zavodining katta klubiga yo'l oldik.

Barvaqt borganimiz yaxshi bo'lgan ekan. Oldingi qatorga o'tirdik. Bir nafasda zal to'lib ketdi. G'ovur-g'uvur, pichir-pichir. Shu payt badqovoq sudyalar ish boshlashlari oldidan ko'nglimdan nimalar kechganini sizga ta'riflab berolmayman. Yig'ladimmi, shirin xayollarga berildimmi, ukalarimni tinchlantirdimmi, har narsa bo'lay, eslay olmayman. Hayajonim kuchli edi. Hayajon kuchli bo'lganda xotira susayib qolarkan.

Zaldagilar gurillab o'rnilaridan turib ketishdi.. Oldinda to'rtta miltiqli soqchi, o'rtada sochlari taqir olinganidan boshlari lampochka nurida yiltirab turgan sakkiz sudlanuvchi, ortlarida yana militsiya soqchilar kirib kelishyapti. Zal hayajonda, ko'zlar javdiraydi. Tanish yuzlarni axtarishadi. Yuzlab alamli, hasratli nigohlar to'qnashgan bo'lsa kerak. Xo'rsinishlar, piqillab yig'lashlar avjga chiqib boryapti.

— Dadajon! — qichqirib yubordi Zufar, — dadajon, biz bu yerdamiz, hammamiz kelganmiz...

Bechora dadam xuddi tok urgandek qalqib ketdi-yu, o'zini tezgina o'nglab biz o'tirgan qatorga ma'yus ko'z tashladi. Nigohi bir nafas, faqat bir nafasgina qotib qolgandek bo'ldi... Men, o'zingiz ham payqagan bo'lsangiz kerak, ko'zlarni ko'p kuzataman, har xil holatlarga o'zimcha ta'riflar ham berganman. Lekin oradan mana shuncha vaqt o'tib dadajonimning o'sha daqiqadagi nigohiga haligacha ta'rif topolmayman: afsus-nadomatmidi, tubsiz umidsizlikmidi, armonu pushaymonmidi, bizni ko'rishi bilan qalbida mavjlangan mehrning chaqinimidi?!

Dadajonim yutib ko'zlarini chirt yumdi. Billurdek yiltirab turgan ikki tomchi yosh yuzidan dumalab tushdi. Soqchi yelkasidan beozorgina turtib, yuring, deya ishora qildi. Bizga teskari o'girilib, zalning to'g'risiga yurib borayotgan dadamning yelkalari silkinayotganini ko'rdim. Demak, yig'layapti. Ovoz chiqarmay yig'layapti dadajonim... Oyimning murdasini tobutga

olishayotganda qanday holatga tushgan bo'lsam, ruhimda o'shanday bir kayfiyat paydo bo'la boshladi. Hamma narsani ko'rib turibman. Lekin ularda na nur, na shakl borgan o'xshaydi. Hissiz, shuursiz bo'lib qoldim. Jiddiy qiyofali, qovoqlari soliq sudyalarning, guvohlar, advokatlarning joy-joyiga o'tirayotganini ham ko'rib turibman. Baribir ularning harakatida ham hech ma'no yo'qdek, barchasi robotga o'xshab harakat qilayotgandek. Aybnomani ham eshitdim. Qiziq, so'zlar qulog'imga kiryapti-yu, nazarimda qalbinga borib yetmayotgandek.

— Sudlanuvchi Said Karimov! — sudyaning butun zalni to'ldirgan og'ir, bosiq ovozi eshitildi. Quloqlarim pardasiga xuddi karnay ovozi zarb bilan urilgandek bo'ldi — ko'zlarim yaraqlab ochilib ketdi. Boshinning karaxtligi ham bosilib, shu daqiqaning o'zida hamma narsani yana o'z o'rnida, o'z qiyofasida ko'ra boshlaganimni his qildim. Qiziq, deb o'yladim, nega endi so'roqni dadamdan boshlashdi ekan?

Zal suv quygandek jim turibdi.

- Ismingiz? — so'radi qovog'i soliq, ko'zi o'tkir sudya.
- Saidjon,— deyapti zalga orqasini o'girib olgan dadam.
- Familiyangiz?
- Karimov.
- Tug'ilgan yilingiz?
- 1940 yil.
- Tug'ilgan joyingiz?
- Obiravon qishlog'i.
- Turar joyingiz?
- Bog'ishamol ko'chasi.
- Ma'lumotingiz?
- Oliy.
- Ixtisosingiz?
- Iqtisodchi.
- Partiyaliligingiz?
- Partiya a'zosi emasman.
- Ish joyingiz?
- Shahar aralash savdo bazasi.
- Vazifangiz?

— Bosh omborchi.

— Aybnoma sizga tushunarli bo'ldimi? — sudya «tushunarli bo'ldimi?» — degan so'zlarni ataylab baland ovoz bilan aytdi, — yoki takror qib berishimni istaysizmi?

Xuddi shu daqiqada dadajonim orqasiga o'girilib, bizga — qator o'tirgan farzandlariga bir-bir nazar tashladi-da, nigohlarimiz to'qnashishiga ulgurmasdan yana tezgina sudyaga yuzlandi:

— O'rtoq sudyadan bir iltimosim bor, — talabchan, qat'iy bir ohangda dedi.

— Ayting, — qovog'ini battarroq solintirdi sudya.

— Zalda mening qora ko'z farzandlarim o'tiribdi, — dadajonim to'xtab yelkasi bilan qisqa nafas oldi, — ularning oldida javob berish menga qiyin. Iltimos, meni yopiq sud qilsangiz.

Sudya o'ng va chap tomoniga tez-tez o'girilib, maslahatchilari bilan fikrlashib olgach, qattiq ovoz bilan:

— Sud Said Karimov farzandlarini zaldan chiqib ketishini talab qiladi! — deb e'lon qildi.

Aka-ukalar bir-birimizga qarab oldik. Nachora, dadamning iltimosi-ku bu! Bizga qo'shilib Bibiqiz ammam bilan Lutfi xolam ham chiqib ketishdi.

— Sud o'n yetti kun davom etdi. Zufar ikkimiz, baribir kun ora bo'lsa ham o'sha yoqqa borishni kanda qilmadik. Goh ertalab, goh sud majlisidan so'ng usti berk qizil mashinaga chiqib-tushayotganda dadajonim bilan ko'rishib turdik. O'n sakkizinchi kuni kechga tomon Bozorvoy amakim oyoqda turolmaydigan darajada mast holatda kirib keldi:

— Rasvo bo'ldi, — dedi beshiktervatdek chayqalib o'tirish uchun joy axtararkan, — Lutfi, haqiqat yo'q ekan bu sudyalarda! Said akamga o'n bir yil berishdi, o'n bir yil!

— Nima?! — Lutfi xolam o'rnidan turib ketdi.

— Uy-joylar musodara bo'ldi.

— Shu dang'illama hovlilar-a? Pullar-chi?

— Hammasi ketdi, Lutfi, jiyanlarim, hammasi tamom. Pullar, zayomlar, tilla tangalar, arab mebellari... ularni mana shu yelkamda ko'tarib kelgan edim-a, kiyimliklarni aytma-sanmi?!.. Xolodilnikni och, tezroq yarimta keltir, ichim yonib ketyapti.

XIII BOB

Haftaning oxirigacha ko'ngil so'rab keluvchilar, maslahat beruvchilar, shikoyatni qanday yozsak dadamning ishini qayta ko'rishlari mumkinligi haqida yo'l-yo'riq ko'rsatuvchilar shunaqa ko'payib ketdiki, sanog'iga yetolmay qoldik.

— Endi taqdirga tan berishdan o'zga iloj yo'q, — deb bizni tinchlantirmoqchi bo'ldi Ataullo Isayevich.

— Nega endi taqdirga tan berish kerak ekan? — xuddi tepishishga chog'langan xo'rozchadek bo'ynini cho'zib, qaddini rostladi dadamning bojasi.

— Chunki, Asadullobek, sud juda adolatli o'tdi.

— Adolatli emish. O'n bir yil berib qo'yibdi-yu, adolatlimi?

— Saidjonning o'n bir yilga loyiq jinoyati ham bor ekan-da.

— Eh, siz jinoyat haqida gapirmang, — tutoqib ketdi xasis pochcham,— aslida hamma ishni buzgan siz bo'ldingiz. Ha, siz.

— Hey, og'zingizga qarab gapiring, Asadullo. Jahlimni chiqarsangiz ko'tarib devordan naryoqqa otib yuboraman-a.

— Said akam bo'lganda siz bu dargohga qadam ham bosolmas edingiz.

— Endi har kuni bosaman.

— Niyatingizga yetibsiz-da?

— Yo'q, Asadullo bolam, armonda qoldim.

— Siz aralashmaganingizda... Savdo xodimlari bilan qonunshunoslarning pinhona o'yinlari bo'ladi. Bilmasangiz bilib qo'ying. Muallimman deb oq yoqa bo'lib olib yurabergan ekansiz-da. Siz shaharda otning pashshasidek hammaga ma'lumsiz. Sizdan qo'rqishadi. Aralashmaganingizda o'sha tergovchilarning ham, sudyalarning ham bola-chaqasi bor, nafs hammada bir xil bo'ladi, uncha-muncha olib allaqachon ishni tinchitib yuborishgan bo'lardi...

— Qaynag'angiz Solih Qosimovning qamalib ketgani kamlik qilibdi-da?

— Mana endi shuncha tilla tangalar ham ketdi, — yig'lab yuborgudek bo'lib dedi xasis pochcham.

— Asadullo, siz hamma borgan ochiq sudga nega qatnashmadingiz?

— Sizga baribir emasmi?

— Yo'q, ayting, nega qatnashmadingiz?

— O'rnimga odam topilmadi.

— Qo'ysangiz-chi, — qo'lini siltab qo'ydi Ataullo muallim, — nega mening o'rnimga topilarkan-u, sizga topilmas ekan? Yo'q, siz qo'rqqsiz. Sizing toifangizdagi kishilar suddan, adolatdan qo'rqishadi. O'zingizni ehtiyot qilaman deb Saidjonning taqdiriga beparvo bo'lgansiz, manavi bolalarning ahvolini o'ylamagansiz. Menga esa, Asadullo bolam, baribir emas, muallimman. Bu yurtda kimning yuziga dog' tushsa, o'zimni aybdor deb bilaman. Demak, men yomon ishlaganman, nonimni halolab yemaganman. Esizgina tilla tangalar, deysiz. Sud zaliga ko'rgazma sifatida qo'yilgan ekan, men ham ko'rdim, o'sha tilla tangalarni. Lekin tergovchiga qoyil qoldim. Dushmaning bo'lsa ham haqiqatchi bo'lsin ekan. Tangalar haqidagi vasiyatnoma qalbaki ekanligini isbotlab berdi... Haromdan topilgan narsalarga endi oh-voh qilib o'tirmaylik... Men bugun bu yerga boshqa masalada chiqdim. Hukmda Said Karimovning balog'atga yetmagan farzandlari davlat tarbiyasiga olinib, bolalar uyiga topshirilsin, degan joyi bor...

— Bas qilinglar! — akam qichqirib yubordi-da, tatalanib aravachasiga chiqib, hovli tomonga haydadi. — Bas qillaring endi.

— Jijanlarim masalasida, — xo'rsinib qo'ydi Barno xolam, — hurmatli domlajon, ko'rsatgan mehribonchiligingiz uchun sizga rahmat. Bizdan qaytmasa xudodan qaytar. Men tirik ekanman, ularni yetimxonaga bermayman.

Asabiy boshlangan suhbat bora-bora muloyimlashib, samimiy bir ohangga ko'chdi. Uyimiz davlat ixtiyoriga o'tishi aniq ekan. Lekin qonun bo'yicha biz, ya'ni tirik yetimlar agar mablag' topsak, uning bir qismini sotib olishimiz ham mumkin ekan.

Kech bo'lib qolgandi. Har kungidek Barno xolam tizzasiga bosh qo'yib uxlab qolgan Nigora singlimni olib bolalari uxlab yotgan xonaga chiqib ketdi. Suhbat davomida ko'zini lo'q qilib

bot-bot iyagini g'ijimlab o'tirgan Zufar ikkimiz xuddi dadamga o'xshatib polga o'rin to'shadik. Negadir, haligacha dadajonim bilan oyijonim yotib yuradigan xonaga kirishga botinolmaymiz. Xuddi karavot ostidan chiqib bizni quchoqlab olishayotgandek bo'laveradi.

Sharillab yomg'ir quya boshladi. Ketidan olamni charog'on qilib chaqmoq chaqdi. Qiziq, kuzda ham chaqmoq chaqar ekan-da...

— Uyg'oqmisan? — so'radi Zufar.

— Ha, — deb qo'ydim o'yg'a tolib.

— Senga bir gap aytmoqchiman. Faqat yo'q demaysan.

— Qanaqa gap o'zi?

— Avval xo'p deyman degin.

— Ha, ana, xo'p deyman.

— Qasam ich bo'lmasa.

— Shu odating qolmadi-da, Zufar.

— Yo'q, qasam ichasan. Bo'lmasa uxlatmayman endi.

— Xo'p ana, qasam ichdim.

Zufar o'rnidan dik etib turib maykachan yonimga o'tirdi. Tashqari zimiston, uy qorong'i, ko'nglidan nima kechyapti-yu, ko'zlarida nimalar akslanyapti, bilolmayman. Entikib turishidan qiziqroq bir gap aytsa kerak.

— Dadam qamaldi-a? O'n bir yilga ketdi, shundaymi?

— O'zing eshitding-ku.

— Hech qanday yengillik bo'lmadi, a?

— Demak iloji bo'lmapti-da.

— Sen boshqa gap aytuvding-ku? «Volga»ni sovg'a qilsak dadamning jinoyati yengillashib, qamoq muddati ozroq bo'ladi, devding-ku? Bo'yningga ol!

— To'g'ri, shunday deganman.

— Aytgan bo'lsang, endi «Volga»ni qaytarib olamiz, yordam berishmadi... Esingdami, dadam hamisha «Volga» seniki, derdi.

Men ham turib o'tirdim. Ukamning yelkasiga qo'l tashladim. Bu qaysarga gapni yotig'i bilan aytish kerak. Bo'lmasa pov etib yonadi-ketadi. Qarindosh-urug'larimiz bilan maslahat qilaylik, dedim.

— Barno xolamni aytyapsanmi? — siltanib dedi Zufar, — u xotin kishi-ku, xotin kishidan qanday maslahat chiqardi?

— Unday dema, onamizning o‘rnida qoldi-ya. Hech bo‘lmasa Bozorvoy amakimga maslaxat solaylik.

— Men endi borib-borib o‘sha piyanistaning gapiga kiranmanmi?

— Akamdan so‘raylik bo‘lmasa. Hammamizdan aqlli u, ko‘p narsani biladi.

— U kishi-ku kunbo‘yi boshini ko‘rpaga o‘rab yig‘lagani-yig‘lagan-u, aqlli emish... Ertaga borib yaxshilikcha aytaman. Mashinamizni bersa bergani, bermasa o‘zidan ko‘rsin.

— Kinga borasan?

— «Volga»mizni tekinga olganga-da, mendan yashiruvdilaring, hammasini bilib oldim. Bir cho‘loqqa bergan ekansizlar. Bizning mashinamizni nega oladi u, nega? Dadam qamaldi-ku, endi mashina meniki. Tamom, vassalom! Har kuni borib ko‘rib kelyapman. Do‘konchasining orqasiga qo‘yadi. Kechqurun oliftagarchilik qilib minib ketadi. Sog‘ oyog‘iniyam sindiraman uni. Bo‘ldi, men yotdim...

Anchagacha uxlolmadim. Nima xayollarga bormadim deysiz. Ukam qaysar, bir so‘zli. Biror ishkal chiqarib qo‘ysa-ya! Hozir, turgan gap, qizishib ketdi. Nasihatning foydasi yo‘q. Ertaga yotig‘i bilan biron aqlli vaj ko‘rsatib yo‘lga solarman. Shu xayolga bordim-u, ko‘nglim xiyla tinchib, uxlab qoldim. Lekin ertasiga ukam bu haqda gap ochmagani uchunmi, paqqos unutibman. Tuppa-tuzuk maktabga qatnayotgan edi. Chorshanba kuni o‘qishdan qaytmadi. Kechgacha kutdim, daragi yo‘q. Mahallamizdagi 7-«V»da o‘qiydigan bolalarnikiga kirib chiqdim. Bugun maktabga bormagan emish. Yo‘g‘-e, ertalab kitob to‘la sariq sumkasini yelkasiga osib, och qolsam kotlet olib yeyman deb, mendan pul ham so‘ragan edi-ku! Maktabga qarab yugurdim. Elektr plitada choy qaynatib o‘tirgan qorovuldan boshqa hech kim yo‘q. Hovliqib yana uyga qaytdim. Ruhimda bir xiralik paydo bo‘ldi, vahrima bosa boshladi. Bordi-yu... yo‘q, yo‘q... Barno xolam kelibdi, eriyam bor. «Volga» xususida oramizda bo‘lib o‘tgan gapni bularga aytaymi, aytmaymi, ikkilanib qoldim. Aytmayman, aytсам, turgan gap, uning yomon niyatidan bizni nega ogoh qilmading deb, meni o‘rtaga olishadi.

Lutfi xolam ikki-uch bor chiqib, arslonimdan darak bormi, deb so‘radi. Xasis pochcham telefon yonida turibdi. Militsiyadan, kasalxonalaridan surishtiryapti — yo‘q! El yotar paytigacha borishi ehtimol bo‘lgan joylardan xabar oldik — yo‘q!

Tong paytida darvoza qo‘ng‘irog‘i vahimali jiringladi. Uyg‘onib ketdim. Yana, yana jiringlayapti. Ha, o‘sha, ukaginamning o‘zi bu. Agar o‘sha bo‘lsa bir ta‘zirini beray, deb o‘yladim. Yo‘q, Bozorvoy amakim ekan.

— Ish chatoqqa o‘xshaydi, — ko‘zlari to‘la vahima edi uning.

— Nima bo‘pti? — hovliqib so‘radim.

— Cho‘loqnikidan kelyapman.

— Qaysi cho‘loq, tezroq gapirsangiz-chi?

— Mashinani beruvdik-ku, o‘shanikidan. El yotarda o‘ziyam kelib ketuvdi mashinamni o‘g‘irlatdim deb...

— O‘g‘irlatdim deb?!

— Ha, jiyaningizni mashina yonida ko‘ruvdim, hazillashgan bo‘lsa aytsin, suyunchisi katta bo‘ladi, devdi. Hozir o‘shanikiga bordim, topilmabdi.

Tamom, bu ishni Zufar qilgan! Ukaginam, nimalar qilib qo‘yding? Chayqovchi deb nom oldik, haromxo‘r deb nom oldik, endi bir kamimiz o‘g‘ri deb nom chiqarishmidi? Shoshilishim kerak, ammamnikiga ketgan, qishloqqa haydagan u mashinani.

Birinchi reysga ulgurdim — yo‘q, bormabdi. Ammam dodladi, jiyanlarim tahlikaga tushib qolishdi, shaharga qaytib, militsiyaga yugurdim — yo‘q.

Qarindosh-urug‘larning hammasi oyoqqa turgan. Uch kun ignaning ustida o‘tirdik. Ertalab telefon jiringladi. Trubkani o‘zim ko‘tardim — militsiyadan.

— Zufar Karimovni axtaryapsizlarmi?

— Ha, — qichqirib yubordim.

— Siz kim bo‘lasiz?

— Akasiman.

— Bizga bir kelib ketolmaysizmi?

Uchib bordim, uchib. Axtarilayotgan 33-33 KShA nomerli «Volga» qo‘shni viloyat hududida halokatga uchrabdi. Ichida yosh yigitcha ham bor ekan. Yosh yigitcha?! Bu mening ukam bo‘lsa-chi, yo‘q!

— Bizdan vakil jo'nayapti, xohlasangiz, birga borishingiz mumkin.

— Boraman, albatta boraman.

Yo'lga ikki soat ketdimi, uch soat ketdimi, bilmayman, vahima hushimni olib qo'ygan. Karaxtman. Tuman militsiya idorasidamiz. Suhbatlar qisqa: «Volga» pritsepli traktorga urilgan. Aybdor — traktorchi, yo'lni kesib chiqqan.

— Qani o'sha «Volga»? — entikib so'radim.

— Hovlida.

O'zimizniki. Ha, bundan ikki oy avval hadya qilgan qadrdon «Volga»miz — shu! Nomeri osilib yerga tegib turibdi. Qanot buklangan, oyna chilparchin, o'rindiqli orqaga surilgan.

— Yigitcha qayerda?

— O'likxonada. Bugun kelmasalaring ko'mib yuborardik.

— Nima?!

— Qoida shunday, uch kundan ortiq saqlash mumkin emas. Ekspertiza hujjatlari tayyor.

Bordi-yu, rulda boshqa yigitcha bo'lsa-chi? Shunday bo'lishi ham mumkin-ku, axir? Umid bor hali, qorong'i qalbimning qayeridadir yorug'lik sezyapman. Xudoyim, sendan so'rayman, o'lgan yigit ukam bo'lmasin. Men chiday olmayman! Muzxona eshigini ochayotganlarida yuragim urib ketdi, nafasim yetmay qoldi. Chiroq yoqishdi. Alyumin stol ustiga yotqizib qo'yishibdi, oq choyshabni ko'tarishdi, ukam!

— Ukaj-o-on!!!

Xona chirpirak bo'lib aylanib ketdi. Ukam boshini ko'tarib, menga qarab kulgandek bo'ldi, peshonasi ezilib ichiga xiyol botibdi, labining chekkasida qon qotib qolgan. Qornini yorishgan bo'lsa kerak, chok izi shundoqqina ko'rinib turibdi... Xona aylanyapti, yonimdagilar aylanyapti, ukam qo'lini cho'zib men tomonga surgalib kelyapti...

— Mazangiz qochdi shekilli? — yelkamdan quchoqladi boshlab kirgan doktor, — chayqalib ketyapsiz.

Qaytayotganimizda boshimning aylanishi bosilib, miyaning karaxtligi asta-sekin tarqala boshladi. Ukamni yana aniq ko'rdim. Ana u, yonginamdagi brezent zambilda cho'zilib yotibdi. Yuzi ochiq, ko'zlari xiyol qisilgan, xuddi menga qarab

turgandek... Pahlavon ukam, nega bunday qilding? Nega bizni tashlab ketding?.. Hey, odamlar, ukamdan ayrilib qoldim, otam qamaldi, onam o'ldi, ukam ham bizni tashlab ketdi deyaqman! Hey...

— Yig'lamang! — deyapti kuzatib borayotgan hamshira.

Ukaginey, majruh akamizni o'ylamadingmi? Pes bo'lib qolgan singlimizga achinmadingmi, onamizni sog'indingmi, yoniga tezroq bora qolay, qorong'i go'rda yolg'iz yotmasin dedingmi!

Ukaginam, tengqurlaring orasida tepkilashib o'ynab yursang bo'lmasmidi! Aka, men keldim, degan quvnoq ovozingni endi eshitmaymanmi? Ko'pincha bir o'rinda yotardik, ertaklar aytishardik. Aka, men pahlavon bo'laman, chempion bo'laman deb kunbo'yi tosh ko'tararding. Men endi o'sha toshlarga qanday qarayman?

— Ey, yig'lamang deyaqman!

Hamshira opa, yig'laganim yo'q. Ukaginam bilan suhbatlashib ketyaqman. Bu bizning oxirgi suhbatimiz. Ertaga uni sovuq qabrga eltib qo'yishadi, gaplasha olmaymiz. U menga tikilib turibdi, lablari qimtilgan, bir gap aytmoqchiga o'xshaydi, aytolmayapti... Yo'q, ukajon, o'z ajaling bilan o'lmading, seni men o'ldirdim. Ehtiyotsizligim, beparvoligim o'ldirdi seni. O'shanda mashinani olib qochaman deganingda, egasiga borib, mashinani berkiting, ukamning fe'li buzildi desam, tilim uzilib tushmasdi-ku!

Voy ukam, oyijonimning oldiga ketyapsanmi, bizdan salom ayt. Nigora ham yaxshi, Zafar akam sizni qattiq sog'imibdi, degin. Katta akam sizning suratingizni ishladi, gullarga ko'mib tashlabdi, degin. Ana, uyimizga yaqinlashdik, o'zing unib o'sgan uy. Nahotki, bu uyni tashlab ketsang. Nahotki, jaranglagan ovozing, qiyqirib kulishlaring bu hovlida qaytib eshitilmasa?

O'n gulidan bir guli ochilmay so'lgan ukam! Dili to'la armon bilan ketgan ukam!

XIV BOB

Ertalab Ataullo muallim chiqdi. Yana nasihat qilgani, men bilgan, bilmagan hikmatlarni aytib ko'nglimni ko'targani chiqibdi. Bu odamni endi yoqtirmay qoldim. Qachon, qayerda uchrashmaylik nasihat qilgani-qilgan, nasihat jonimga tegib ketdi. Ataullo muallim maktabga ketish oldidan, bolam, o'zingni qo'lga ol, taqdir seni sinab ko'ryapti, sinovlardan eson-omon o'tsang, yetuk odam bo'lasan, degan gapni aytgani kiribdi. Tavba, shuni aytish uchun uyqumni buzib, oyog'imdan tortib, o'rnimdan turg'izishi shartmidi?..

Ehtimol, muallimda ayb yo'qdir. O'zim shu kunlarda odamovi bo'lib qolganman. Hech kimni yoqtirmayman. Hamma ko'zinga bachkana, shafqatsizdek ko'rinadi.

Qatorlashib kirib kelayotgan sinfdoshlarimga ko'zim tushdi. Oldilarida, odatdagidek sinf rahbarimiz Darmon opa. Mayli, kelishga kelishaversin, qaytaga vag'ur-vug'urlarini eshitib bir nafas ko'nglim yoziladi. Yelkamni tog' bo'lib bosayotgan g'ussa yuki ozgina bo'lsa ham yengillashadi. Lekin har gal kelganlarida bizga yegulik olib kelishyapti. Mana bu xo'rligimni keltiryapti. Nima, biz shu darajada xor-zor bo'lib qoldikmi?

— Qani, yolg'onchivoy, o'rningdan tur-chi, — dedi Darmon opa erkalovchi ohangda.

Turib kiyindim.

— Bor, yuvinib kel endi.

Yuvinib keldim.

— O'rtoqlaring bilan ko'rish.

Qo'l olishdik.

— Yo'q, achomlashib ko'rishinglar.

Achomlashdik.

— Nega va'dangning ustidan chiqmading, yolg'onchivoy?

— dedi Darmon opam, — beriroq kel, qulog'ingdan bir cho'zib qo'yay.

— Qanaqa va'damning ustidan chiqmabman? — dedim qulog'imni shunchaki olib qochgan bo'lib.

— Kecha o'rtoqlaringga ertaga albatta, boraman, degan ekansan-ku?

— O'qigim kelmayapti.

— Bekorlarni aytibsan.

— Endi, hecham o'qimasam kerak.

— Yo'q, o'qiysan. Ilgari o'qimasang ham endi o'qiysan. Astoydil o'qiysan. Bu gal bizni, mana, o'rtoqlaring bilan meni direktorimiz, ilmiy mudirimiz, butun muallimlar jo'natishdi. Olib kelinglar, kelmasa o'zimiz boramiz, deyishdi. Yo ularning ham yopirilib kelishini istayapsanmi?

— Keragi yo'q.

Yana, hozirgina aytganimdek, nasihatbozlik boshlandi. Biri olib biri qo'yadi.

— Seni butun maktab kutyapti, — dedi a'lochi Ilhom.

— Bir mingta o'quvchi-ya! — dedi yolg'onchi Ismoil.

— Nahotki, ularning yuziga oyoq bossang, — dedi qiziqchi Hamroqul, — yo'q desang, ko'tarib olib ketamiz.

Boshqa ilojim qolmadi, ko'ndim. Darmon opam yig'lavoray-yig'lavoray deb gapiryapti, o'shanga achinib ketdim. Nega achindim, bilmayman. Ehtimol, ovozi oyijonimnikiga o'xshab ketgani uchundir. Maktabga bormagan kunlarimda oyijonim ham xuddi ana shunday ohangda yolvorar, qulog'ini kesib qo'yaman-a, degan paytlari ham bo'lardi. Ko'ndim, faqat bugun emas, ertaga, dedim. Yuvinib, kiyim-boshlarimni tartibga keltirib olay dedim.

— Chin yigit so'zing-a? — hazilkash ohangda so'radi a'lochi Ilhom.

— Chin yigit so'zim, — dedim.

— Yana aldasang-chi? — so'radi yolg'onchi Ismoil.

— Aldasa, — dedi qiziqchi Hamroqul, — tentak cholning xotini bo'ladi.

— Bo'пти, tentak cholning xotini bo'lay, — deb yubordim.

Chiqib ketishgach, yana yechinib o'rnimga yotmoqchi bo'lib turuvdim, aravachasini shaqir-shuqur haydab akam kirib keldida:

— Zafar, jon uka, endi yotmagin, — deb iltimos qildi, — yur, mening xonamga, senga zo'r narsa ko'rsataman.

Akam qiziq, Zufarning vafotidan keyin o'zgarib qoldi. Faqat mengina emas, boshqalar ham, endi u ketma-ket boshimizga

tushayotgan falokatlarni ko'tara olmay, butunlay yotib qoladi, hatto hov birdagidek o'zini osib qo'yadi, deb o'ylagandik. Yo'q aksincha, akaginam quvnoq hazilkash, mehribon bo'lib qoldi. Kechasi-yu kunduzi ishlaydi, tinmay rasm chizyapti. Qani endi hamisha shunday bo'lsa. Axir mening bu dunyoda undan ko'ra yaqinroq, mehribonroq kishim qolmadi-ku!

— Qanaqa zo'r narsa? — deb so'radim kiyim-boshimni kiyayotib.

— Kirsang ko'rasan.

Oyijonimning bo'yi barobar surati yoniga dadamning ham yelkasida qop ko'tarib turgan holati chizilgan suratini osib qo'yganini ilgari kirganimda ko'ruvdim. Boshqalar ham ko'rishgan. Hozir o'sha rasmlar yoniga endi bevaqt nobud bo'lgan Zufar ukamning ham surati qo'yilibdi. Maktabdan qaytgan holati chizilgan. Chap qo'lida papka, o'ng qo'li biqinida, yuzida g'urur, ko'zlari quvonchdan porlab turibdi. Oyijon, o'g'lingizni o'pib qo'ying, yana besh oldim, deyayotgandek, u ko'pincha yaxshi baho olib qaytganda ana shunday holatda bo'lardi.

— Qalay? — deb so'radi akam. — Sal-pal o'xshabdimi axir?

— Qiyib qo'yibsan! — dedim zavqim jo'shib. — Akajon, sen chindan ham zo'rsan... Uch oyda uchta rasm, qoyil! Ishqilib, seni Toshkentga olib ketib qolishmasin-da.

— Qo'rqma, ketmayman.

— Yo'q, sen qanday qilib o'xshatasan, shunga hech aqlim yetmaydi.

— Biron kishini qattiq sevsang, o'sha kishining qiyofasi qalbingda muhrlanib qoladi, ko'zingni yumib olib bemalol chizaverasan.

— Sen ham ko'zingni yumib chizdingmi?

— Yo'q, Zufar bilan suhbatlashib o'tirgandek chizdim.

— Ovozini ham aniq eshitdingmi?

— Aniq eshitib turdim. Ke, yonimga o'tir, ukajon, sendan bir narsa so'ramoqchiydim. Fikringni bilmoqchiman. Qani, aytchi, bizning ustimizdan birov yozgan deb o'ylaysanmi?

— Albatta yozgan-da.

— Nega «albatta» deyapsan?

— Odamlar aytyapti-da. Karimovlar ustidan kimdir yozgan, hoynahoy dushmani bo'lsa kerak, bo'lmasa shaharda unaqa poraxo'rlar kammi, boshqalariga tegishmadi-ku, deyishyapti. Xo'sh, akajon, o'zing nima deb o'ylaysan?

— Men ham shu fikrdaman. Shu... Kimdir yozgan. Albatta, yozgan. Lekin uning niyati sal olijanobroq bo'lgan bo'lishi ham mumkin.

— Gapingga tushunmadim.

— Ya'ni, ukajon, o'sha yozgan odam shunday qilsam avj olib borayotgan jinoyatning oldini olib, otasi bilan onasini qutqarib, bolalarini xursand qilaman, deb o'ylagan bo'lishi ham mumkin... Xo'p, mayli, ukajon, o'sha ustimizdan yozgan odamni topib bersam nima qilarding?

— Sen uni bilasanmi?!

— Hozircha... yo'q. Lekin aniqlab berishim mumkin.

— Aniqlab bersang, men o'sha ablahni albatta bo'g'ib o'ldirardim.

— Nega endi bo'g'asan, u xonadonimizni poklamoqchi bo'lgan bo'lsa-chi?

— Nimadan poklaydi?

— Haromxo'rlikdan, jinoyatdan-da.

— Akajon, uning kimligini bilsang tezroq ayt. Otamni qamoqqa tiqqan, onamni o'ldirgan, ukaginamning boshiga yetgan, xonadonimizni vayron qilgan o'sha ablahni tezroq ayt. Hoziroq borib bo'g'aman. Keyin o'ligini daraxtga osib, nimtalab, go'shtini itlarga yediraman. Aniqlab berasanmi?

Akam indamadi. Kulimsirab qo'ydi, xolos. Ehtimol, u ham bilmas, yangi bitirgan rasmiga uzoq tikilib qoldi. Nazarimda, ukam bilan xayolan gaplashayotganga o'xshaydi.

— Endi... hammasiga chek qo'yamiz, — dedi, so'ng xuddi uyqudan cho'chib uyg'ongandek boshini silkitdi, — hammasidan bir yo'la qutulib qo'ya qolamiz.

— Nimadan qutulamiz? — deb shoshilib so'radim.

— Shu... bema'ni turmushimizdan-da... Ustachilik qilamiz. Senga ham, Nigoraga ham o'rgataman. Hammasini yangitdan boshlaymiz. Ukajon, mana bu kitoblarimni maktab kutubxonasiga sovg'a qilmoqchiman.

— Hammasini-ya?!. Esingni yeb qo'yibsan. Besh ming so'mlik kitob bor-a bu yerda.

— Ukajon, nomimiz yomonga chiqdi, yuzimizda qora dog' bor. Shunday bir ish qilaylikki, o'sha dog'larni yuvib ketsin. Chizgan suratlarimni, yog'ochdan yasagan qushchalarimni, gultuvaklarni, hamma-hammasini maktab kutubxonasiga sovg'a qilmoqchiman.

— Uyqusirayotganing yo'qmi?

— Ukajon, meni yaxshi ko'rasan-a? Ra'yimni qaytarma, qarorim qat'iy. Shularni kutubxonaga eltib bermagunimcha yotib uyqum kelmaydi.

Munozara naq uch kun davom etdi. Lutfi xolam, Bozorvoy amakim, xolam, xasis pochcham — majruh akamni rosa o'rtağa olishdi. Xolam, opaginam o'g'limni olim qilaman, deb bu kitoblarni yiqquncha adoyi tamom bo'luvdi, jim o'tir, dedi. Xasis pochcham, hamonki bular senga kerak emas ekan, pullab bera qolay, bir xillarini o'n so'mdan oladi-ya, dedi. Lutfi xolam, hadya qilsa qila qolsin, shularni o'qiyverib Akbarjonim jinni bo'p qolayozdi, dedi. Akam so'zidan qaytmadi. Kitoblar meniki, xohlaganimni qilaman, tamom, deb turib oldi.

— Bilganingni qil, — dedi oxiri Barno xolam qo'l siltab.

Akamning xohishi maktabda ham darrov amalga osha qolmadi. Butun boylklari talonga tushib turgan paytda qalay bo'larkin, debdi bir muallim. Bu qiziq ustida jahl bilan qilinayotgan ish bo'lmasin, debdi boshqa bir muallim.

— Menga ochiq ayt, sud hukmida bu kitoblar musodara qilinsin, deb qayd qilinmaganmi? — deb so'radi direktorimiz meni huzuriga chaqirib.

Tintuv paytida kitoblar ro'yxatga kirmaganini aytdim.

— Aniq bilasanmi?

— Hukmdan uyda bir nusxa bor, olib kelaymi?

— Qani olib kel-chi, — sevinib dedi direktorimiz. Lekin hukmni olib borib berganimdan keyin ham, Ataullo Isayevichning aytishicha, baribir, muallimlar o'rtasidagi tortishuv to'xtamabdi. Oxiri, ha mayli, yigitchaning xayrli tashabbusini bo'g'maylik, hadyasini qabul qilib, o'zini

kutubxonaga mudir etib tayinlab, to'qson besh so'm maosh belgilaylik, boquvchilaridan mahrum bo'lishdi, bu pul oz bo'lsa ham ularga darmon bo'ladi, deb qaror qabul qilishibdi. Ertasiga to peshingacha uyimiz bilan maktab o'rtasida qatnov to'xtamadi. Akam qizishib ketdimi, bilmay qoldik, yog'och kesadigan stanokchasi, oyijonim tug'ilgan kunida sovg'a qilgan yapon magnitofonigacha «Moskvich»ga yuklab beribdi. Oxirida o'sha «Moskvich»da o'zini ham olib ketib, sovg'a qilgan kitoblari yonida har xil ko'rinishda o'n martacha suratga tushirishibdi. Oradan to'rt kun o'tgach, juma kuni edi, shahar gazetasida akamning surati bosilib chiqibdi. Ataullo Isayevich o'g'lidan bir dasta gazeta kiritib yuborgandan keyin bildik. Surat menga yoqmadi. Akamning yuzi va ko'zlarida o'sha kuni men ko'rgan quvonch, shodlik yo'q, ko'zlari to'la g'am, xuddi yig'lab-yig'lab charchagan va yana yig'lashga chog'lanayotgandek bir qiyofada tushibdi. Xasis pochcham gazetaga uzoq tikilib turdi-da:

— Axmoq! — deb qo'ydi. — Ajinadek qiyshayib tushgan shu bir parcha suratni deb besh ming so'mlik kitobni nobud qildi-ya. Yo'q, baribir bu akangdan odam chiqmaydi. Esiz-esiz kitoblar, o'rnini topib pullaganda kamida o'n ming so'm bo'lardi-ya!

XV BOB

Semirib ketganidanmi, pishillab, burnidan hushtak cha'lib gapiradigan sud ijrochisi ikki-uch bor kelib qistalang qildi — tezroq uyni bo'shatishimiz, men bilan singlim shahar bolalar uyiga, akam «Invalidlar uyi»ga o'tishi majburiy ekan. Agar biz xalq sudi hukmining xuddi mana shu qismidan norozi bo'lsak, o'sha paytlar-da, ya'ni hukm e'lon qilingan va uning bir nusxasi aybdorga berilgan soatdan boshlab o'n kun ichida yuqori sud organlariga norozilik yozishimiz mumkin ekan. Hamonki, norozilik bildirmabmiz, hamonki, hukm allaqachon kuchga kirgan ekan, demak, endi uni bajarishimiz shart ekan.

— Qonun shunday! — dedi ijrochi burnidan yana chiyillagan ovoz chiqarib.

Bozorvoy amakimlar o'tirgan hovli ham bizniki. To'g'ri, ko'rimsiz. Paxsadan tiklangan uchtagina xonadan iborat. Nomigagina somon suvoq qilingan, xolos.

— Bahorgacha birga o'tiraveramiz, — dedi Lutfi xolam ko'ziga yosh olib, — ko'ch desanglar, shahar tashqarisida joyimiz bor, ko'chib ketarmiz. Bo'lmasa Saidjon akam kelguncha birga o'tiramiz. Oq yuvib, oq tarayman...

Yana og'irlik, baribir, sinfdoshlarim zimmasiga tushdi. Shanba-yu, yakshanbada chumchuqdek chug'urlashib, qaldirg'ochdek qatorlashib ko'ch-ko'ron tashidik. Musodaradan ko'p narsa qolgan ekan. Ikki kunda ham tugatolmadik.

— Qolgani yanagi shanbaga, — dedi a'lochi Ilhom, — o'ziyam yelkam uzilib ketay deyapti.

— Ertaga darsdan keyin kelsak-chi? — so'radi lofchi o'rtog'im Ismoil. — Men baribir dars tayyorlamayman-ku.

— Ertaga tishimni oldirmoqchiman, — dedi qiziqchi Hamroqul, — oyim tishingdan to'rttasini oldirib tashla, ovqatni ko'p yeb, bizni xarob qilyapsan, deyapti.

Kechqurun, negadir, tug'ilib o'sgan uyimizni tashlab chiqib ketgimiz kelmadi. Akajonimning xohishi shunday bo'ldi. Oyim bilan dadamii eslaylik, quvonchli, saodatli kechgan kunlarimizni xotirlaylik, deb turib oldi. Ko'zi mo'ltillab turgani uchun yo'q deyolmadik, xonasiga, shundoqqina polga o'rin to'shab o'ng tomoniga Nigorani, chap tomoniga meni olib, biz eshitmagan ertaklari ko'p ekan, o'shalardan aytib berdi. Ko'pincha dadam shunday qilardi. Goho-goho birga yotib turinglar, bir ko'rpada tepkilashib katta bo'lganmiz deb yurasizlar, derdi. Kim biladi, hozir akam shuni eslagandir. Akam o'zi g'alati-da, mehri tovlanib ketsa boshqarib bo'lmay qoladi uni. Goh Nigoraning, goh mening yuzimni silab qo'yyapti. Birga yotganimizdan qalbi quvnab, hayajonini bosolmayapti shekilli, goh keskin boshini ko'tarib yuzimizdan o'padi-da, keyin kulimsiragancha uzoq tikilib qoladi.

— Baribir, akajon, sen yaxshisan, — dedim mehrim tovlanib.

— Endi, uxla, — dedi akam yuzimga nima sababdandir misdek qizib turgan yuzini bosib.

Ertalab oxirgi marta birgalashib nonushta qilgach, singlimni ergashtirib maktabga ketdim. Endi Nigora ham maktabga qatnay boshlagandi. Muallimlar qo'yishmadi — chorak bahoni o'zimiz to'g'irlaymiz deb, turib olishdi. Uchinchi soatda o'tiruvdik. Tarix darsi ketayotgandi. Xayolim olti yuz minglik qo'shin bilan bostirib kelayotgan Napoleonda, biz tomonda bir million qo'shin bo'lgandami, deb o'ylayotgandim...

— Kimningdir uyi yonyapti! — dedi deraza yonida o'tirgan Inobat.

Hammamiz o'sha tomonga burildik. Chindan ham ancha uzoqda, magazin tarafdin buruqsib alanga aralash tutun ko'tariyapti.

— Bitta-yarimtasi kundaligida ikki bahosi ko'payib ketgan bo'lsa, o'shani kuydirayotgandir, — dedi Hamroqul deraza tomon bo'ynini cho'zib.

— Ikki bahoni yo'qotaman deb uyiga o't qo'yadimi? — dedi boshqasi orqaroqdan.

— Ko'payib ketsa qo'yadi-da, — dedi uchinchisi.

— Diqqat! — muallima kafti bilan stolni urdi. — Diqqat!!!

Hammamiz yana sinfga o'girildik. Eshik sharoqlab ochilib ketdi. Ostonada entikkan, hayajonlangan direktor yordamchisi ko'rindi:

— Zafar, uylaring yonyapti!

— Nima? — sakrab o'rnimdan turib ketdim.

Hovlimiz tomon uchib boryapman. Yolg'on, yolg'on, deyman. Akam bor edi, unga nima bo'ldi ekan, deyman. Ortimdan o'nlab bolalar yuguryapti, kimlar, bilmayman? Ana, buruqsiyotgan tutun yaqqol ko'rindi, alangaga aralashib buralib-buralib osmonga ko'tariyapti. O't o'chiruvchilarning qizil mashinalari, odamlar, shovqin-suron, vahimali signal chalib yana mashinalar kelyapti. Bizniki, ha-ha, bizniki yonyapti!

Akam nima bo'ldi? Qochib ulgurdimikin?

Sariq shlankalarda tomga suv sochishyapti. Suv ham yonyapti. Baland-baland narvonlar, niqob kiygan odamlar.

— Qo'shni tomondan o't!

— Uyoqda suv yo'q!

— Darvozani buz!

— Lom qayerda? — degan ovozlar... Borib o'zimni darvozaga urdim. Cho'g' bo'lib ketibdi. Ikki qo'lim jazillab kuyganini sezdim.

— Uyda akam bor edi! — bor kuchim bilan qichqirib yubordim. Yana darvozaga o'zimni urdim...

Keyin tush ko'ra boshladim. Tushimda meni odamlar ko'tar-ko'tar qilib ho' nariga, Ataullo Isayevichniig eshigi yoniga olib borib, devorga suyab o'tqazib qo'yishgan emish. O'sha yerdan turib hovliqqan, entikkan robotlarning harakatini kuzatayotgan emishman. Ana, allaqanday temir asboblardan gumburlatib urib darvoza kesakisini ko'chirishdi. Ana, darvozaning kichik eshigi ichkariga o'pirilib tushdi. Tutunu alanga ichidan itimiz otilib chiqdi. Juni kuyib bo'пти. Qip-qizil go'sht bo'lgan tanasidan hovur ko'tarilyapti. Hakkalab odamlar orasidan chopib o'tdi. Akam bor edi, degim kelyapti-yu, o'sha so'zlarni topolmayapman... Keyin uxlab qoldim. Qancha uxlaganimni bilmayman. O'zimni yana tush ko'rayotgan holatda sezdim. Hovlimiz o'rtasiga, doktorlarning brezentli zambiliga yotqizib qo'yilgan emish, tepamda oq xalati opa turganmish. Dimog'imga achchiq tutun hidi urilyapti. Odamlar, qizil shapkali militsiya xodimlari, robotga o'xshagan o't o'chiruvchilar, kimdir dodlayapti, boshqasi ko'ksiga urib faryod chekyapti.

— Essizgina, yigit-a! Suyagigacha kuyib erib ketibdi-ya!

— O'g'rilar tilla axtarib kelib topolmagach, yigitchani karavotga bog'lab o't qo'yishgan emish.

— Yo'g'-e!

— Militsiya kanistrdagi benzin portlabdi, deyapti.

— Voy, to'g'ri, gumbirlagan ovoz eshitilgandek bo'luvdi.

— O'g'rilar portlatdimikin?

— O'g'ri kirsada darvozaning ichidan qulflab ketarmidi?

— Voy xudoyim, shunday oila vayron bo'ldi-ya!

— Uch oyda uchta o'lig-a, hay-hay, hech kimga ko'rsatmasin.

— Ishqilib mana bunisi tirik qolsin deng.

— Nima bo'пти unga?

— Ko'zi ochiq, hech narsani sezmayotganmish.

Hammasini ko'rib, eshitib yotgandekman, tush-ku bu, tushda ko'pincha shunaqa bo'ladi, deyayotgandekman. Tanimda huzur, vujudimda allaqanday erkalovchi, rohatbaxsh iliqlik, iliqlik ovoz chiqarib uxla, uxla, deyayotgandek... Oyijonim ikkovimizni tobutga solishayotganlarini ko'rdim. Oyijoning yoningda, akang yoningda, ukang yoningda, uxla, uxlab orom ol, deyapti. Oyim, akam, ukam birlashib bir vujudga aylanishdi. Qiziq, tana bitta-yu, qiyofa uchta. Uchoviyam kulimsirab turibdi. Tanimdagi rohat o'shalarining ovozi emish. Ovoz tashqaridan emas, tomirlarimdan oqib kelayotgan emish: uxla, uxla, uxla!.. Meni tobutga solishayotganini ko'rib turibman. Tobutni oq xalatli hamshiralar ko'tarib borishayotgan emish. Oyijonim ko'ksini yirtib dodlagandek bo'ldi. Akamning oyog'i soppa-sog' emish, tobut ortidan yugurib kelayotgan emish. Kafan kiyib olgan Zufar yugurarmish-u, menga yetolmasmish. Qo'lini silkitarmish, gapirmoqchi bo'larmish... Uxla, uxla, deyapti tanamdagi rohat...

...Necha kun alahlab yotganimni bilmayman. O'zimga kelganimda tepamda turgan doktorlarga ko'zim tushdi. Professor Foziljonovni darrov tanidim. Demak, kasalxonada ekanman. O'tgan gal yotganimda ham shu professor qaragandi.

— Akam tirikmi? — birinchi so'raganim shu bo'ldi. Professor oyoq tomoniga omonatgina o'tirayotib:

— Massajni to'xtating, — dedi. Shundagina boshimni kimdir silayotganini sezdim. O'girilib qaragim keldi. Professor savolimni eshitmadi shekilli, yonidagilarga qarab gapira boshladi: — aytdim-ku letargiya emas, deb. Shok holatining eng og'ir formasi bu. Takrorlanganda, mana shunaqa hamisha og'ir kechadi. Hechqisi yo'q, endi hammasi joyiga tushadi. Doktor, buyog'i endi sizning san'atingizga, muhabbatingizga bog'liq. Eng muhimi, yigitchani saqlab qoldik...

— Akam tirikmi? — yana so'radim.

— Boshingizni ko'tara olasizmi? — so'radi professor, — qani, bir unnab ko'ring-chi.

Hech kimning yordamisiz turib o'tirdim.

— Qalay? — negadir ko'zimga yaqindan qaradi professor.

— Boshim juda og'ir.

— Bu — tabiiy. Doktor, elektr lecheniyani ham vaqtincha to'xtating.

Professorga bergan savolimga aniq javobni kechqurun oldim. Barno xolam xonamga unsiz yig'lab kirdi, Yonimga o'tirib, anchagacha xo'rsinib gapirolmadi.

— O'lganmi? — dedim shivirlab.

Xolam labini qonatgudek tishladi-yu, egilib tizzamga boshini qo'ydi...

Davolashning psixoterapiya deb ataladigani usuli uzoq davom etar ekan. Yana bir oycha yotdim. Chiqqan kunim, pochcham bilan xolam olib ketishgandi, kechki ovqatdan so'ng xolaginam qo'limga semiz konvert tutqazib turib:

— Bermasam akangning ruhiga xiyonat qilgan bo'laman, — dedi xo'rsinib, — bersam, yana senga jabr qilib qo'yamanmi, deb qo'rqaman. Ammo iloji qancha, o'qiganing ma'qul.

Xat Barno xolamning adresiga-yu, mening nomimga bitilgan ekan. Shoshilib ochdim. Akamdan, yuragim urib ketdi.

"Zafarjon, qimmatli ukajonim!

Ushbu xat qo'lingga tekkanida men bu dunyoda yo'q bo'laman. Tabiiyki, sen uni yig'lab-yig'lab o'qiysan. Uyog'ini surishtirsang, o'zim ham yig'lab-yig'lab yozayapman. Ukajon, meni kechir, ortimda qolayotganlarning hammasidan qo'llarini o'pib, oyoqlariga yiqilib kechirim so'rayman. O'zini o'ldirayotgan odam bu dunyoda hammaning yuziga tupurayotganidan shunday qiladi. Men esa ukajonim, hammangizni jondan ortiq sevganimdan, sevgimni izhor qila olmaganidan shunday qilyapman.

Ukajon, qani ayt-chi: otasini qamoqqa tiqqan, onasini ajalidan besh kun oldin o'ldirgan, yaxshi ko'rgan ukasini qabrga tiqqan odamni nima deb atashadi, qotil debmi? Men qotilman! Ixtiyorimdan tashquri yuz berdi bu dahshat. O'zing bilasan, ko'p o'qidim. Ikki oyog'im shol bo'lib yotar ekanman, kitobdan boshqa o'rtog'im ham, suhbatdoshim ham yo'q edi. Aqlim ham, dunyoqarashu barcha bilimlarim ham shu kitoblar orqali shakllandi. Ota-onamdan begona bo'lib qoldim. O'zimga yoqqan qahramonlar bilan ota-onamning qilmishini solishtirganim sari, bora-bora ulardan uzoqlashib ketaverdim. Uzcqlashganim sari ularning bag'riga boshimni qo'yib,

oyijon, dadajon, deb yig'lar edim... Dadamning bazada pora olishini, oyijonimni chayqovchilik bilan mashg'ulligini juda erta payqaganman. Nazarimda, kimlarningdir yeb turgan nonini, ustidagi kiyimini tortib olishayotgandek tuyulardi. Harom, harom deb qichqirgim kelardi. Ukajon, esingdami, haftalab ovqat yemasdim. Esingdami, ustimdagi kiyimlarimni yechib uloqtirib, yalang'ochligimcha haftalab ko'rpaga burkanib yotardim. Esingdami, dadajon, pora olishni bas qiling, deya shovqin ko'targanim, esingdami, oyijonim bilan oylab gaplashmay yurganim? Meni jinni deyishardi. Ataullo Isayevichnshg ta'sirida axmoq bo'lib qolibsan, deyishardi. Yo'q, men hech qachon uning ta'sirida bo'lmaganman. Pokligi, halolligi, ta'riflarga sig'maydigan rahmdilligi uchun yaxshi ko'rardim uni. Qani endi, dadajonim ham o'sha kishiga o'xshasa, deb orzu qilardim, xolos. Ukajon, o'zing o'ylagin, mendek cho'loq bir notavon uchun ota mehridan, ona muhabbatidan ulig'roq narsa bormi? Dadajonimning ninjon oyoqlarimni silab erkalatishlari, oyijonimning bag'riga bosib, yuzlarimdan o'pishlari, ikkovlarining galma-gal yelkalarida ko'tarishib doktorma-doktor olib yurishlari, ko'nglimni ovlash uchun kun ora qilgan sovg'alari... Hech bir bola menchalik ko'p o'yinchoq o'ynamagan. Ikkovlari ham meni jondan ortiq sevishardi. Men, baribir, ularning mehrisiz yashay olmasdim. Esingdami, ko'pincha, dadamning ishdan qaytishini poylab darvozaxonada o'tirardik. Oyijonim jindek hayallasa, yuragim o'ynab, telefonga yopishardim. Qilmishlarini oqlamasdim, lekin o'zlarini yaxshi ko'rardim. Oyijonim bilan dadajonimning mehridan mahrum bo'lib qolish xavfi bora-bora kuchayib, qora vahimaga aylandi. Qo'lga tushib qamalib ketishsa unda men qanday yashayman, ukalarimning ahvoli nima kechadi, degan vahima ruhimni qamrab oldi. Bordiyu, jinoyatning oldini olishga o'zim kirishsam-chi, tartibga chaqirib qo'yishlarini so'rab qonun organlariga o'zim murojaat qilsam-chi, deya o'ylay boshladim. Axir gazetalarda ham jinoyatning oldini olish mumkin, deb har kuni yozishyapti-ku!

Takror aytaman, ukajon, oyim bilan dadamni behad sevganimdan, ulardan ajralib qolishdan qo'rqqanimdan shu fikrga bordim. O'shanda, mening bu qarorim juda adolatli, ham aqllidek tuyulgan edi. Viloyat militsiyasining jinoyat qidiruv bo'limiga xat

yoziq, xatimda tartibga chaqirib berishlarini, lekin zinhor qamab qo'ymasliklarini so'radim. Javobini pochtdan shaxsan o'zim borib olaman, deb ta'kidlab qo'ydim. Uzoq kutmadim. Kelgan xatda menga tashakkur bildirilib, qo'shimcha faktlar so'ralibdi. Uyimizga qaysi magazinlarning, qaysi ekspeditorlari kelishini, oyijonim qaysi zargarlar bilan aloqada ekanligini, ukajon, sendan ko'ra men yaxshiroq bilardim. Derazamning pardasini qiya ochib qo'yib hammasini zimdan kuzatib o'tirardim. Hech birini qoldirmay yozdim. Nazoratga olindi, degan javob keldi yana.

Ukajon, men senga hammasini ochiq yozyapman. Toki bu dunyodan ketishim oldidan vijdonimni ezib turgan biron narsa sen uchun qorong'i bo'lmasin deyapman. Ishlar, o'zing ko'rganingdek, butunlay teskarisiga aylanib ketdi. Yo'q, ota-onamni qamatmoqchi emasdim, yo'q! Kim o'z onasini o'ldiradi? Kim o'z ukasini qabrga tiqib, tomoshasini ko'rib o'tiradi, kim o'z tog'asini qamatib, oltita bolasini yetim qilib qo'yadi! Yo'q! Men, chiday olmayapman. Hammasiga o'zim sababchi bo'ldim. Yozmaganimda hech birlari nazoratga tushmasdi, yopig'liq qozon yopig'liq edi, bunaqalar shaharda ozmi? Hammasi yallo qilib yuribdi-ku! Nega endi men borib-borib o'z ota-onamning qo'l-oyog'ini bog'lab berdim. Mehribonlarim edi ular. Ularni o'z qo'lim bilan qamadim, o'z qo'lim bilan o'ldirdim!.. Vijdonim azobda qoldi, ukajonim, yonib ketyapman. Odamlar yuziga endi qanday qarayman, sizlarning ko'zingizga qanday boqaman... Xo'p, mayli, bu qabihligimni birovlar bilmas, lekin vijdonim tunu kun o'zim bilan birga-ku, undan qanday qochib qutulaman?

Men o'zimni-o'zim sud qildim! Qotilligimni bo'ynimga oldim. Eng oliy jazo belgiladim — o'lim!

Ukajon, xatimni hech tugatgim kelmayapti. Yana ozgina bo'lsa ham sen bilan gaplashsam deyman. Sen hamisha to'g'ri tushunarding. Hatto xafa qilib qo'yganimda ham kechirib, kulimsirab turarding. Hozir ham mayin jilmayib, tepamda qarab turgandeksan. Yo'q, xato qildim. Yig'layotganga o'xshaysan. Yig'lama, ukajon, yig'lama! Men oyijonim bilan ukajonimning oldiga ketyapman, o'z ixtiyorim bilan ketyapman...

Mehribon ukajonim, oxirgi so'zimni yozishdan oldin sendan qiladigan iltimosim bor: singlim Nigorani o'ksitmagin, dadamiz

*qutulib kelguncha ham ota-yu, ham ona bo'lib boshini silagin.
Yig'lamasin, yig'latgani qo'ymagin. Yana bir iltimos, uchta rasm
chizdim. Uchoviga iztirobli qalbinni shundayligicha joyladim.
Uzoq yashagin, unringning oxirigacha rasmlarni birovga bermagin.
Shunda men hamisha Sen bilan, sening uyingda yashayotgan
bo'laman!*

Alvido, ukajonim!

Marhum akang Akbar".

UCHINCHI QISM

OQIBAT

I BOB

Qarindosh-urug'larimiz va Ataullo Isayevichning qistovi, sidqidildan bergan yordamlari tufayli Toshkentga borib, asab kasalliklari sanatoriyasida davolanib qaytdim. Davolandimmi yoki shunchaki dam oldimmi, bilmayman, ehtimol unisidan ham, bunisidan ham oz-oz bo'lgandir. Eng muhimi, boshimning to'satdan aylanishi, oyog'im ostidan yer ko'chib uchib ketayotgandek bo'lishi bosildi. Ammo hech sabab bo'lmasa ham o'qtin-o'qtin yig'lashim qolmadi. Toshkentdan qaytgan kunim ham kechasi uyqum qochib, to'yib-to'yib yig'ladim.

Nigora ikkimiz Barno xolamnikida turibmiz. Garchi, xasis pochchamni yoqtirmasam ham, uyam meni unchalik yoqtirmasa ham, har qalay, bu yer Lutfi xolamnikiga qaraganda yaxshi. Barno xolamning yuzi-ko'zlari, harakatlari, ovozidagi allaqanday ohang oyijonimnikiga juda ham o'xshab ketadi. Tog'amning xotini, bola-chaqalari bilan butunlay uzilishib ketdik hisob. Bizni, nahs bosganlar, deganidan buyon kelinoyimning yuzini ko'rgim kelmay qoldi. Lutfi xolam bo'lsa kunda shunda. Birovlarning xizmatini qilib o'rganib qolganidanmi, qachon kelsa hammayoqni chinniday yaraqlatib ketadi. Bozorvoy amakim ishdan bo'shadi. Uyga qamalib olib ichgani-ichgan emish. Ishlamayman, shuncha pul topib Saidjon akam nima bo'ldi-yu, men nima bo'lardim, dermish. Mast bo'lib olib arslondek o'kirib, ashula aytar emish.

Kechasi bilan gupillab nam qor yog'ib chiqdi. Ertalab hovliga chiqsam, naq tizza baravar bo'lib qolibdi. Daraxtlarning shohi yuki mo'l bo'lganidan, ayb ish qilib qo'ygandek, boshini egib turibdi.

Pochcham ishga ketayotgan ekan, to'xtab:

— Agar malol kelmasa, uyoq-buyoqni kurab qo'ysinlar, — dedi.

Piching bilan aytgani yoqmadi. Qaysarligim tutdi:

— Kuramasak-chi? — dedim men ham piching qilib.

— Ha, aytgandek qo'llarini sovuq suvga urmagandilar-a.

Bu gapni xasis pochcham darvozaxonaga yetganda aytdi. Boplab bir narsa degim keldi-yu, ulgurmadim. Baribir, qor kurashga tushdim. To'g'ri, qo'limni sovuq suvga urmaganman. Qora ishlarni ilgari xizmatkorimiz Bozorvoy amakim bajarardi. Unnamoqchi bo'lsam oyijonim qo'ymasdi. Bunaqa ishlarni mashq qilma, prokuror bo'lasan, deb urishib berardi... Oyijonimning shu so'zlarini esladimu yuragim shuv etib ketdi. Tuni bilan yoqqan qor qablarni bosib qolgan bo'lsa-ya! Boshqalar borib o'z xeshlarining go'rini tozalagan bo'lsa, oyijonim o'ksinib yotgandir. Qabr ustidagi qor erib lahadga tushsa — go'r cho'karkan. Go'ri cho'kkani tirikligida la'natlanganining alomati bo'larkan. Kattalar shunday deyishadi, necha bor eshitganman.

Taxta kurak bilan supurgini qo'ltiqqa qisib qabristonga jo'nadim. Kelganim yaxshi bo'libdi. Boshqalar, shahrimizdagi irimga amal qilib, xeshlarining qabrini allaqachon tozalashga ulgurishibdi. Oyijonim, akam, ukaginam oppoq shoxi ro'jaga o'ralishib, jimgina yotishibdi. Shunaqa jimlikki, nazarimda, uchovlari mening kelishimni kutib, nafaslarini ichiga yutib yotgandek. Qorlarni sidirib, supurib, bir chekkaga, erisa qabrga tushmaydigan qilib qo'ydim. Uydimu ustiga kurakni ko'ndalang qilib o'tirib qoldim.

Uzoq o'tirdim. Oyijonim, akam, ukam — uchovlari qator yotishibdi. Ular bir-birlari bilan topishib olishdimikin? Topishib olishgan bo'lsa, nimalar to'g'risida gaplashishayotgan ekan?

Qiziq bo'ldi-ya... Dadam qamaldi, tog'am qamaldi, oyijonim ketdi, akam ketdi, ukam ketdi, singlimga oq tushib qoldi, boyligimiz musodara bo'ldi, uy kuydi!

Qiziq nega shunaqa bo'ldi ekan? Nega? Birdaniga hammasi barbod bo'ldi-ya!

— Yigitcha, uzoq o'tirib qoldingiz, nam o'tib shamollab qolasiz, — bu go'rkovning ovozi. Qabriston qorovuli. Kirayotganda uch so'm sadaqa berganman, yana beraman.

— Yana birpas o'tiray...

O'tiribman. Odamlar marhumlar qabriga har xil yodgorliklar qo'yishibdi: oq marmardan, ko'k marmardan, g'ishtdan tiklanganlari ham bor. G'aribgina, ko'rimsizgina, ostidagi marhumlar o'ksib, yig'lamayaptimikan?

Biz qachon qo'yamiz... Pul yo'q-ku. Ammam bor, xolam bor.

Yo'q, pochcham ko'nmaydi! O'zim qo'yaman, Ishlayman, pul topaman. Oyijonim qizil rangni yaxshi ko'rardi, qizil marmar qo'yaman! Akamga — oqidan, Zufarjonga — ko'kidan...

Hammasi ketdi-ya.

Bizni tashlab ketdi-ya.

Ataullo Isayevich jinoyat og'zi ochiq ajdahoga o'xshaydi, yaqin kelganni albatta, yutadi, derdi. Demak, dadam ham, oyijonim ham og'zi ochiq ajdahoga duch kelib qolgan ekan-da. Yutilishi, nobud bo'lishi aniq bo'lib qolgan ekan-da. Hushyor akam buni sezgan, qochinglar, nobud bo'lasizlar, deb faryod chekkan ekan, o'shanda oyijonim bilan dadajonimni ajdahoning og'ziga kim ro'para qildi ekan?

Dadamni — Sadir Badalovich yedi, oyimni — sudya Muhamedov! Ikkovi ham ajdaho, ikkovining ham og'zi hamisha ochiq turardi.

Sadir Badalovich dadamni o'g'rilikka, poraga o'rgatdi. Pora olib ishga qo'ydi, pora olib yangi vazifa berdi, pora olib kamyob mollar uzatib turdi. Dadam qishlog'idan eski chamadon ko'tarib, o'qish ishtiyoqida yonib kelgan. Qalbi pok bir yigit bo'lgan. Sadir Badalovich qalbi pok yigitni poraxo'rga aylantirgan, dadam uning qo'li edi. Birovlar cho'ntagidan pul olib, uning cho'ntagiga solib qo'yardi. Demak, dadamni jinoyat yo'lga boshlagan bosh jinoyatchi — Sadir Badalovich.

Nega dadam qamaladi-yu u qamalmaydi? Nega?! Xo'p, hozircha bunga aqlim yetmayapti.

Oyijonimga nima bo'ldi? Oyijonim birinchi bor qo'lga tushganda uni Muhamedov qutqargan. Qutqarish ham gapmi — militsiya xodimlarining o'zini qamatib yuborgan. Xizmatiga pul olgan. Juda katta pul olgan. Men bor ekanman, bu yurtda birov sizga tegolmaydi, degan. Shu gapiga ham pul olgan. Oyijonimni rag'batlantirgan, navbatdagi jinoyatiga rivoj bergan.

Bayramlarda, to'ylar qilganda, kurortga ketayotganda pul, tilla olib turgan. Buning evaziga uyida sudyalar, militsiya xodimlari, prokurorlar ishtirokida bazmlar uyushtirganda baland ovoq bilan Yoqutxon mening singlim bo'ladi, deb e'lon qilgan. Melisalar qattiqqo'lu shafqatsiz sudyaning singlisiga ko'z olaytirgani botinolmay qolishgan. «Voy, bolaginam-ey, — derdi rahmatli oyijonim — shu eru xotindan biram qo'rqamanki, qo'rqqanimdan topganimning yarmini uzatib turaman».

Xo'p mayli, oyijonim jinoyat bilan qo'lga tushdi. Vafot etmaganda sud qilishardi, jazosini olardi. Jinoyat jazosiz qolmaydi. Bu Ataullo Isayevichning so'zi. Men bunga ishonaman — u haqiqatchi. Lekin bosh jinoyatchining ustidan tergov boshlanmadi-ku? Nega boshlanmaydi?

— Jon uka, turing endi, — yelkandan turtdi go'rkov, — uzoq o'tirdingiz, shamollab qolasiz. Mang, bir piyola qaynoq choy ichib oling. Endi hadeb kuyinaverishning foydasi yo'q. Hammamizning ham oxiri keladigan uyimiz shu. Qarang, ular qanday tinch uxlashyapti. Tirikligida bu odamlar, uh-hu, janjallashib olamni boshlariga ko'tarishgan. Odam bolasi o'z ajali bilan o'lmaydi, bir-birini o'ldiradi. Xudo shunday degan. E, bandam, yaratish mendan-u, o'ldirish sendan, degan. Qani, ayting-chi, shu yerda bironta ot tepib yoki sigir so'zib o'lgan odam bormi, yo'q! Hammasi bir-birini bo'g'ib o'ldirgan... Choydan yana quyaymi, iching! Siz uchun damladim. Dadangizni tanirdim, yaxshi odam edilar. Qabristonda hashar bo'ladigan bo'lsa bir kun oldin kelib, ul-bul tashlab ketardilar, yaxshigina tashlab ketardilar. Mana, bu qabrlar qatorlashib ketgandan keyin surishtirsam, u kishining bolalari ekan... Onangiz yaxshi yotibdilar. Go'rlari sertuproq, yumshoqqina chiqdi. Kamdan-kam marhumga buyuradi bunaqasi-ni... Militsiya bilan molu dunyo talashib vafot qildi, deyishdi. Chakki bo'pti, odam bolasining ko'zi faqat tuproq to'lganda to'yadi. Endi, yuring, ketamiz. Bu yerda uzoq turishning xosiyati yo'q, yuk bosadi.

Go'rkov yigit tinmay gapirib, tirsagimdan olib darvozagacha kuzatib bordi. Nam qor quyosh chiqishi bilan eriy boshlabdi. Ko'cha loy, shilta. Tomdan qor erib oqyapti, yo'lakdan yursangiz, boshingizga sharillab qor suvi quyiladi. Ko'cha

o'rtasidan bilchillab loy kechib boryapman. Yana fikrimni avvalgi mulohazalarim band qilib oldi.

Boshim g'uvillayapti. Oyimni, akamni, ukamni Muhamedov o'ldirdi, Badalov bo'g'di!

Nega ularni sud qilishmaydi, nega?

Qo'rqishadi, ha-ha qo'rqishadi! G'ing deganning oyog'ini osmondan qilishadi.

Ehtimol, hech kim ularning jinoyatlarini bilmas, men bilaman, aniq bilaman!

Har bayram arafasida yashiklarda konyak, qo'yning nimtasi, apelsinu limonlar, hind choylariyu kamyob kiyimliklar, qog'ozga o'ralgan pullar... Bozorvoy amakim bilan birgalashib uyma-uy tarqatardik...

Men ko'rganman axir, birga yurganman. Endi ularni o'zim sud qilaman.

Qamoqda yotgan dadam haqqi, bevaqt o'lgan onam haqqi, kuyib ketgan akam haqqi, armonda ketgan ukam haqqi, men fosh qilaman ularni!

Fosh qilmasam, yana kimlarnidir jinoyatga yetaklashadi, sho'riga sho'rva to'kishadi, qamashadi, o'ldirishadi, o'zlari esa katta-katta to'ylar qilishadi, ziyofatlar berishadi, «Volga»larda kekkayib yurishadi, kurortlarga borishadi, chet el safariga jo'nashadi.

Albatta fosh qilaman.

Qarorim qat'iy, ehtimol, bu ahdingdan qayt, dersiz, yo'q, qaytish yo'q!

Fikrlarim chuvalashib, yongan hovlimiz yoniga borib qolganimni sezmayman. Magazin yonidan Barno xolamnika burilishim kerak edi-ku! Darvozamizga katta qulf osib qo'yishibdi. Sud ijrochisi qilgan bo'lsa kerak. Eshikchasi tirqishidan mo'raladim. Tom yonganda chala kuyib osilib qolgan yog'ochlar qop-qorayib turibdi. Huv narida, oshxona oldida akam yotadigan qubbali temir karavotning poyalari loyga botib turibdi. Vodoprovodning jo'mragi qotirilmaganga o'xshaydi, jildirab suv oqyapti. Ko'nglim buzildi. Orqamga burildim. Ataullo Isayevichning eshigi ochiq, kirsammi, kirmasammi deya ikkilanib qoldim. Bir xayolim kirib bosh

jinoyatchilar xususidagi qarorimni aytay dedim. Lekin tezgina fikrimdan qaytdim. Aytsam, darrov nasihat qilishga tushadi. Hay-hay, bu niyatingdan qayt, nobud bo'lasan, deydi. Xuddi shunday deydi. Yaxshisi, bu niyatimni unga bildirmayman.

Orqamga qaytib, Lutfi xolamnikiga yurdim.

II BOB

Qaysi biridan boshlasam ekan, Muhamedovdanmi, Badalovdanmi? Baribir emasmi? Rahmatli oyijonimning takror aytishicha, ikkovlari ham shahrimizning ustunlaridan. Shu ustunlar bosib o'ldirdi u bechorani. Ha, ha, vajohatlari zo'r, savlatlaridan ot hurkadi ularning. Lekin men ot emasman, qo'rqmayman. Tili qisq joyim ham yo'q. Yo'qotadigan hech narsamiz ham qolmadi. Yalang'och suvdan toymas, deb bekorga aytishmagan.

Badalovdan boshladim. Birinchi kuni borib kirolmadim. Uylari to'la mehmon. Derazadan askiya, ashula ovozi eshitilib turibdi. Xursand hammasi. Qadahlar jaranglayapti, latifalar aytilyapti, urra, ofarinlar... lazatli taomlar hidi chiqyapti. Ana, kabob ham keltirildi shekilli. Oh, hidi buncha yoqimli bo'lmasa... Orqamga qaytdim. Ertasiga kelib, er-xotinni holi uchratdim. Xizmatkor ayol meni tanib, kiravering, dam olib o'tirishibdi, dedi. Kirdim, televizor ko'rishyapti. Paryostiqlar, qat-qat atlas ko'rpachalar, yonboshlab olishgan. Oldilarida ikki tarelka xandon pista, yo'q, bittasidagi po'chog'i bo'lsa kerak. Bir arava keladigan Qo'mondon xola yonboshlab, bir oyog'ini xiyol ko'tarib olganidan bamisoli bolasini emizayotgan ayiqqa o'xshaydi. Tandir kosovdek qotma Badalov shu ayiqning ustiga tashlanmoqchi bo'lgan kuzoynakli ilondek bo'lib yotibdi. Ha, kuzoynakli ilonning o'zi u. Yuzi cho'ziq, ko'zlari — katta, peshona — keng, burun — puchuq. Ha, ha xuddi ko'zoynakli ilonning o'zi.

Ikkovlari xo'mrayishib, bir-birlariga qarab olishdi. Qo'mondon xolam o'nqlanib o'tirayotib:

— Ie-iyе, kuyov bola, — dedi.

Badalov qars etkizib pista chaqdi-da, qo'liga tuflab mag'zini ajrata boshladi.

— Badalovda ishim bor, — dedim.

Hamisha amaki deb murojaat qilardim unga. Endi to'satdan Badalov deb yuborganimga o'zim ham hayronman. Gapim jiddiyligini sezdirish uchun ataylab qovog'imni solib oldim. Badalov xotiniga, sen chiqib tur-chi, bu mishiqi nima der ekan, degandek sirli imo qildi. Qo'mondon xola ikki qo'lini yerga tirab, og'irligining yarmini o'sha qo'llariga o'tkazib keyin qo'zg'al-di.

— O'tir! — buyurdi Badalov.

O'tirdim.

— Yaxshimisizlar?

— Yaxshimiz.

— Dadangdan xabar bormi?

— Bilmayman.

— O'ziga o'zi jabr qildi dadang. Keyingi paytlarda bizga o'xshaganlarni mensimay qo'yuvdi. Molning yaxshisini mendan olib, foydasini raqiblarim bilan baham ko'radigan bo'lib qoluvdi.

— Dadamni siz nobud qildingiz!

Badalov hovuchidagi pista po'chog'ini tarelkaga to'kib, bo'shagan qo'lining kaftini supradek keladigan qulog'i orqasiga qilib:

— Nima?! — dedi.

— Siz ukamni ham o'ldirdingiz!

— Nima-nima?!

— Dadam qishloqdan bitta qora chamadon ko'tarib kelganda siz uni yukchi qilib bazangizga olgan ekan-siz...

— Ha, men unga o'shanda yaxshilik qilganman.

— Keyin siz uni o'g'irlikka o'rgatgansiz.

— Nima?

— Yo'q, to'xtang, avval men gapirib olay. Quloq solmasangiz ertaga militsiyaga boraman, prokurorga boraman. Bilib turibman, bu mishiqining qo'lidan nima keladi, deb o'ylayapsiz. To'g'ri, bolaman hali, puf desangiz uchib ham ketaman. Lekin bilib qo'ying, men kerak bo'lsa Toshkentga, undan keyin Moskvagacha boraman. Ammo, sizni fosh qilaman.

— Nimamni fosh qilasan?

— Poraxo'rligingizni!

— He-he-he, — Badalov boshini ko'tarib kuldi. Yo'q, kulmadi, meni masxara qildi u. Lekin men bu yerga mayna bo'lish uchun kelganim yo'q.

— Bazadan dadam bechoraga termos, choynak, piyola, lagan berib sottirib, pulini arra qilib turgansiz.

— Yaxshilik qilganman u nonko'rga.

— Keyin militsiyaga o'zingiz ushlab berib, o'zingiz pul to'lab qutqarib olgansiz. Shunday qilib bechora dadamni ipsiz bog'lab olib, shuncha yildan buyon orqangizdan sudrab yurgansiz.

— Hi-hi-hi!

— Kulmang!

— He-he-he!

— Kulmang deypman! Bayramlarda yashiklarda bu yerga sovg'alar olib kelganimiz yolg'onmi? O'sha yashiklarning ichida pul ham bo'lardi, o'zim ko'tarib kelardim, yolg'on deng-chi!

Badalov bu gal endi boshini chayqab kuldi. Kulib turib, chordana qurdi-da, yostiqlardan birini tizzasiga qo'yib, ikki qo'lini o'shaning ustiga uzatdi.

— O'g'lim, qani, yaqinroq kel-chi.

— Gapingizni aytavering.

— Bilaman, senga oson emas hozir, — juda yumshoq, juda samimiy gapira boshladi Badalov. Yuzlarida ham allaqanday mayinlik paydo bo'ldi, — qiyin, juda qiyin senga. Hozirgina xolang ikkovimiz shu haqda gaplashib, Saidjon o'ttiz yillik qadrdonimiz edi, bolalari qarovsiz qoldi, o'g'lini qanotimizga olib tarbiyalasakmi, deb turuvdik. Gap bunday, o'g'lim, ko'chalarda tentirab yurma, ishga kiritib qo'yaman. O'zim tarbiyalayman seni.

— Dadamning o'rniga endi meni o'g'ri qilar ekansiz-da?

— Voy o'g'lim-ey...

— Ukamni ham siz o'ldirdingiz. Siz — qotilsiz.

— Haddingdan oshma, — Badalov tizzasidagi yostiqni otib yubordi.

Men negadir beixtiyor o'rnimdan turib ketdim.

— Agar siz «Volga»mizni aldab olmaganingizda...

— «Volga»ngni kim olibdi?

— Siz!

Badalov shoshilib oʻrnidan turdi, Hay-hay, shu paytda uning koʻzlarini koʻrsangiz. Savdo ahlini dahshatga solib yurgan butun kuchi koʻzlarida ekan. Koʻz emas, oʻqlangan miltiqning ogʻzi.

— Yoʻqol!

Xayriyat, qoʻrqmadim. Oldinga bir odim tashlab, oʻsha dahshat toʻla koʻzlariga baqrayib boqdim.

— Yoʻqolmayman!

Tikilishib qoldik. Qani, uning koʻzlaridagi dahshat zoʻrmi yoki menikidagi alamli gʻazab kuchlimi? Baribir urolmaydi, qoʻrqadi. Men undan kuchliroqman.

— Obbo sen-ey,— dedi Badalov yana mayinlashib, — xoʻp, talabing nima oʻzi, pul-mul kerakmi? Ayt, mayli, yordam beraman.

— Pulingiz boshingizdan qolsin.

— Mendan nima istaysan, ablah?

— «Volga»mizni qaytarib berasiz.

— He-he-he!

— Keyin militsiyaga borib, men shaharning bosh jinoyatchisiman, deb aybingizni boʻyningizga olasiz.

— Yoʻqol, hozir koʻzimdan. Onasi, qayerdasan, telefon qil, bu jinnini olib ketishsin... Oʻrtogʻimning bolasi boʻlmaganda hozir chavaqlab tashlardim, jinni!

Hovliqib avval xizmatkor ayol, ketidan bir arava boʻlib xotini kirdi. Ikkovlashib tashqariga yelkamdan itarib chiqara boshlashdi. Ketgim yoʻq. Ketsam, niyatim amalga oshmay qolayotganday. Yoʻq boʻlmadi. Endi uch kishilashib itara boshlashdi. Koʻchaga chiqqanimdan keyin ham anchagacha darvozalari oldida turdim. Yoʻq, «Volga»ni albatta qaytarib olaman. Dadamga yordam bermadi-ku, baribir oʻn bir yilga ketdi-ku! Poraxoʻr, oʻgʻri sen ham qamalishing kerak. Qamalmaganingga qoʻymayman. Meni oʻziga oʻgʻil qilib olmoqchi emish. Ablah...

Ertalab idorasiga bordim. Labini boʻyagan, oʻziga oʻxshagan ozgʻin kotiba qizning hay-haylashiga qaramay toʻgʻri xonasiga kirib bordim. Gazeta oʻqib oʻtirgan ekan. Gazetasi qoʻlidan tushib ketdi. Bir-birimizga qahrli tikilib qoldik.

— Kel, o'g'lim, — dedi g'alati jilmayib, — qalay, o'zingga kelib qoldingmi? Oqshom xo'p jinnilik qilding-da. Xolang ikkovimiz orqangdan boraylik ham dedig-u... qani, o'g'lim, o'tir-chi...

— O'tirmayman, tikkama-tikka turib gaplashaman.

— Ma, bir oz pul olib keldim. Ishlatib tur. Bilaman, qiynalgansizlar. Kim bilan turibsan?

— Yo'q, «Volga»ni berasiz.

— Qo'ysang-chi, bunaqa gaplarni. Ma, pulni ol, jinnilik qilma.

— Baribir, sizni jinoyatchi sifatida sudga beraman.

— Demak, dadang bilan birga yotging keb qopti-da?

— Borsam siz bilan birga boraman, uchovimiz birga yotamiz. Siz o'n besh yilga ketasiz.

Badalov yana g'alati jilmayib qo'ydi. Labi ikki tomonga tortilgani uchun puchuq burni og'ziga tushib ketgandek bo'ldi... Qiyofasi raqibiga tashlanmoqchi bo'lgan ko'zoynakli ilonga aylandi. Butun dahshati, g'azabi ko'zlariga yig'ilgandek. Oqshom ham uning shu vajohatini ko'rib, qo'rqmaganman. Yana qo'rqmadim. Sovuq jilmayganicha telefon nomerini tera boshladi. Allakimga, xodimlaringizdan birontasini jo'nating; bir jinni kelib meni ishlatmayapti dedi. Demak, militsiyaga telefon qildi. Meni qamatmoqchi, qamatib bo'psan!

Tez yurib chiqib ketdim. Qaltirog'im anchagacha bosilmadi. Kechgacha xuddi jinniga o'xshab o'zim bilan o'zim gaplashib yurdim. Militsiya tergovchisi holatiga kirib Badalovni tergov qildim. Tergov paytida mot qilib «Volga»mizni qaytarib olgan bo'ldim. Keyin sudya qiyofasiga kirib uni sud qila boshladim. Tergovchi yiqqan asosli hujjatlar, to'plab bergan ashyoviy dalillar asosida uzoq sud qildim. Sud qilayotganimda tanim yayrab ketgandek bo'ldi. Jiddiy turdim, qovog'imni ochmadim. Oxiri, ilojini topolmagach, aybiga iqror bo'ldi, o'n bir yil muddat belgiladim.

Lekin men tergovchi emasman-da, sudya ham emasman.

Otasi qamalib, onasi o'lib, ko'chada tentirab yurgan Zafar yetimchaman, xolos.

Yo'q, yetimcha emasman. Da'vogarman, tergovchi bo'laman, jazolarini olmaguncha qo'ymayman.

Qo'ymayman!

Muhamedovlarnikiga bordim. Bilaman, mumkinmi desam, ikki dunyoda ham ichkariga qo'yishmaydi. To'ppa-to'g'ri kirib boraverdim. Ravonda hammalari jamuljam, har galgidek bu safar ham Muhamedov kuyovi bilan qarta o'ynayapti. Qimorga o'xshaydi. Tarelkada qog'ozu chaqa pullar bor. Nabiralari nariroqda umbaloq oshishyapti. Qizi onasi Qozi xolam bilan burnini burniga tekkizishib suhbatga berilgan. Ikkilanib qoldim. Kirsam hoynahoy og'iz ochirtirgani qo'yishmaydi. Muhamedovning boshida chust do'ppi, yelkasida banoras to'n, yangi kuyovlardek savlat to'kib o'tirishini qarang. Xuddi allakimni sud qilayotgandek qovog'i soliq. U hamisha shunaqa — qovog'idan qor yog'ib turadi. Biznikiga, gapga borganda ham, qarta o'ynab ulfatlarning pulini shilib olayotganda ham chehrasi hech ochilmaydi. Lekin qaddi-qomati xo'p kelishganda. Qovog'ini solib turganda ham, baribir, yuzida allaqanday ulug'sifatlik bor. Kuyovi ham o'ziga o'xshaydi. Barvasta, norg'ul. Dadam uni, kelajagi porloq, bora-bora «Shahar savdo markazi»ga boshliq bo'lib qolsa ham ajab emas, derdi.

Deraza oynasiga peshonamni tirab uzoq turib qoldim. Oyog'imdan zax o'ta boshladi, sovuq badan-badanimdan o'tib ketdi. Oynani qattiq taqillatdim. Hammalari men tomonga o'girilishdi. Qozi xolam yugurib chiqdi:

— Kimsan?

— Bu men, Zafarman, — dedim.

— Ie, xolagingang o'rgilsin, nega kiravermaysan? Bo'ylaringdan girgitton bo'lay, kel, bir ko'rishib qo'yaylik. Ana shunaqa yo'qlab kelganingni yaxshi ko'raman-da. — Tezgina kelib yelkamdan oldi-da, peshonamdan sovuqqina o'pdi. — Qani, yur, ichkariga kiramiz, nega sovuqda turibsan?

— Oyimning taqinchoqlarini bering, — dedim gapni cho'zmay, — ming qasam ichsangiz ham, baribir, olmaguncha qo'ymayman.

— Haliyam shu g'alvani qilib yuribsanmi?

— Bering deyapman.

— Shovqin solma, bolam. Yur, ichkariga kiraylik. Ana, Muhamedov o'tiribdi. O'tgan gal kelganingda ham aytuvdim-

ku, onang qaytib olgan deb. Yoqutxonning arvochini hadeb bezovta qilaverasanmi?

— Berasiz. Men ularning yarmini sotib oyijonim, akam, ukamlarning qabriga marmartosh qo'yaman. Kecha bordim, huvillab yotibdi. Bering tezroq.

— E, ovozingni o'chir-e!

— Bermaysizmi?

— E, afting qursin tirik yetimcha!

Kishi xato qilayotganini sezmas ekan. O'sha daqiqada men ham bolaligimga borib xato qilgan ekanman. Oradan oylar o'tib, qamoqxonaning qorong'i zax xonasida yotarkanman, o'sha kungi xatoimni takror va takror ko'z oldimga keltirib, nega bunday qildim, deb o'zimni so'roqqa tutdim... Bilmadim, qanaqangi kuch ta'sirida ekanman, Qozi xolaning tomog'idan ko'yilagi aralash bo'g'ib olib, bor kuchim bilan boshini derazaga, devorga ura boshladim. Qartaboz eri ham, kelajagi porloq kuyovi ham ajratib ololmadi. Qiy-chuv ko'tarilgani ham orachora qulog'imga kirib turgandek.. Keyin... Keyin meni yerga yotqizib olib paxsaga loy tepgandek tepkilashdi.

III BOB

Mana endi men jinnixonada yotibman. Yo'q, kulmang, rostmana jinnixona. Darvoza tepasiga «Shahar psixik kasallari shifoxonasi» deb yozib qo'yilgandan keyin bundan boshqa yana qanaqa tasdiq kerak? Tavba, nimalar bo'lyapti o'zi, nega meni bu yerga olib kelishdi, nega?.. Barno xolamnikiga borgan doktorlar, avvalgi yotgan joyingizga biz bilan borib, o'zingizni shunchaki bir tekshirtirib ko'rasiz, qoida shunaqa, har uch oyda bir tekshiruv bo'ladi, deyishgandi. Nega va'dalari bo'yicha avval yotgan shifoxonamga emas, ruhiy kasallar shifoxonasiga olib kelishdi? Axir kasalim ruhiy emas, asabiylikdan-ku? Oldingi doktorlar ham, Toshkentdagi shifokorlar ham, shunday deyishgan-ku! Nahotki, men jinni bo'lib qoldim? Mana boshim, mana beshta panjam, ko'ryapman, ko'rganimni angalayapman. Jinni qilgan harakatini, aytgan gapini o'zi anglamaydi, his qilmaydi. So'nggi kunlarda ongsiz, hissiz biron harakat qilganim yo'q-ku...

Xonada yolg'iz yotibman. Ustimdan qulflab qo'yishgan. Gaplashadigan odam yo'q, qiladigan ish ham yo'q. Qani, so'nggi kunlardagi faoliyatimni bir boshdan o'ylab ko'ray-chi... Muhamedovnikidan kaltak yeb chiqqanimni hech kimga aytmadim, aytgani or qildim. Ertasiga shahar prokuroriga bordim. U bir mahal Ataullo Isayevich ikkimiz huzuriga kirganimizda avval qovog'idan qor yog'ib, keyin chehrasi ochilib so'zlashgan. Men bu shaharda ham o'sha yerdagidek tartib o'rnatmagunimcha yotib uxlamayman, degan. Hatto o'shanda Ataullo Isayevich bilan menga qoshlarini kerib turib, sizlar mening faollarim bo'linglar, birgalashib qonun va tartibbuzarlarga qarshi kurashaylik, deganini haligacha unutganim yo'q.

Xonasiga ruxsatsiz kirib, ostonada boshimni egib jim turaverdim.

— Xo'sh, yigitcha? — dedi boshini ko'tarmay.

— Men... Zafar Karimov bo'laman, — dedim hayajondan nafasim qisilib.

— Xo'sh?

— Meni taniyapsizmi?

— Negadir eslay olmayapman.

— Sizni o'shanda, har narsa bo'lay, yaxshi ko'rib qoluvdim.

— Qachon, nega yaxshi ko'rib qoluvdiz?

— Dadamning ustidan tergov ketayotganda.

— E, siz Karimovning o'g'li bo'lasiz-a? Ha, esladim. Bir muallim boshlab keluvdi shekilli. Esladim, xo'sh, xizmat?

— Men jinoyatchilar haqida ma'lumot bergani keldim. Aniq ma'lumot. O'z ko'zim bilan ko'rganman.

— Qani, qani, eshitaylik-chi?

— Sudya Muhamedov haqida.

— Dadangizni u sud qilmadi shekilli?

— Baribir. Undan keyin Sadir Badalov to'g'risida ham.

— Shahar savdo markazi boshlig'imi? Qiziq, qani, eshitaylik-chi? Kichkinagina bir ma'lumot katta-katta jinoyatlarni ochib yuborishi mumkin. Qani, o'tiring-chi. Yo'q, avval eshikni jipsroq yopib qo'yaylik.

Prokuror o'rnidan turib qarshimga o'tirdi. Sigaret olib, uchini ezg'ilay-ezg'ilay tutatdi-da, pastki labini cho'zib yuqoriga pufladi...

Ikkovlari haqida shuncha kundan buyon sizga nimani aytgan, aytishga ulgurgan bo'lsam — hammasini aytdim. Gap orasida qizishib, bir-ikki ko'zyoshi ham qilib oldim shekilli. Prokuror nazarimda arzimni loqayd tingladi. Gapirayotganimda boshim osha deraza tomonga beparvogina qarab o'tirgandek bo'ldi.

— Shunday deng? — dedi oxirida yana sigaret tutatib.

— Ha, shunday, — dedim xo'rsinib.

— Hamisha olib kelishgan ekan-da?

— Hamisha olib kelishgan.

— «Volga» niyam oldi deng?

— Birovning nomiga to'g'rilab oldi.

— Muhamedovning xotini taqinchoqlarni qaytarib bermabdi-da?

— Tondi, qaytarib berganman, deb qasam ichdi. Oyijonim bechora shularni deb o'lib ketdi.

— O'sha «Tilxat» ning parchalarini ko'rsam bo'ladimi?

— Advokat opa, bundan bir gap chiqarish qiyin, degandan keyin tashlab yuborganmiz.

— Xom ish qilgan ekansiz. Otingiz Zafarmidi? E, Zafarjon, xom ish qilib qo'yibsizlar.

Prokuror negadir turib yana shoshilib o'rniga o'tirdi. Boshini chayqab qo'ydi. Ichida, e attang, degan bo'lsa ham ajab emas. Stolni bir oz chertib turdi-da: «Im, da», deb kulimsiradi. Kulimsiragancha menga uzoq tikilib qoldi.

— Axborotlaringiz qiziq, juda qiziqarli. E'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi, albatta. Lekin, menga qarang, siz jinoyat deb atagan narsangizni tasdiqlovchi biron guvoh bormi?

— O'zim guvohman.

— Demak, ham da'vogar, ham guvoh, o'zingiz, shundaymi? Biron ashyoviy dalil-chi?

— Ashyoviy dalil ham o'zimman. O'z ko'zim bilan ko'rganman. Qasam ich desangiz, qasam ichaman, non ursin agar.

— Demak, Zafarjon, ularning olishi, sizlarning berishingiz hamisha maxfiy bo'lgan, shundaymi? Oluvchi bilan beruvchining manfaati teng bo'lgani uchun yopig'liq qozon yopig'ligicha qolavergan.

— Juda to'g'ri aytdingiz, — dedim tushungani uchun xursand bo'lib, — doim shunaqa bo'lgan. Eh-he, ular shunaqa ko'p olishganki...

Suhbatimizning u yog'i xuddi o'zim kutgandek bo'ldi, nasihatga aylanib ketdi. Umuman, biz yoshlar o'zi bu dunyoga faqat nasihat eshitish uchun kelganga o'xshaymiz. Kattalar oldida bizning hamisha aqlimiz past, ishimiz xom bo'lib chiqaveradi. Davogarning og'zaki axboroti bilan duch kelgan odamni poraxo'rlikda ayblab bo'lmas emish. Buning uchun ishonchli guvohlar, ashyoviy dalillar, jinoyat ustida tuzilgan aktlar, ekspertiza xulosalari kerak bo'larkan. Prokurorning nasihat bilan aytgan javobi shu bo'ldi.

— Axir o'z ko'zim bilan ko'rganman, — dedim qaltirab.

— Ko'rish boshqa-yu, isbotlash boshqa.

— Demak, ularni javobgarlikka tortmaysizmi?

— Afsuski, hozircha yo'q. Endi yigitcha, otingizni yana esimdan chiqarib qo'ydim, suhbatimiz cho'zilib ketdi. Borib o'qishingizni davom ettiring. Yaxshi o'qisangiz, jinoyatchilarga bergan javobingiz shu bo'ladi.

— O'qishdan bir yilga «otsrochka» berishgan.

— Prokuratura siz aytgan shaxslarni nazoratga oladi albatta. Kerak bo'lsa sizni chaqirtiramiz. Manzilingizni yozib oldim. Gaplashingiz kelib qolsa, eshigimiz ochiq, istagan vaqtingizda kelavering.

Prokuror oxirgi so'zlarini, «tezroq chiqib keta qolsang-chi, boshimni qotirib yubording-ku», degandek bir ohangda aytdi. Kirmasam ham bo'larkan, pushaymon bo'ldim. Nazoratga olarmish, aytgan gapini qarang. Menga nazoratning nima keragi bor! Javobgarlikka tortilsin, qamashsin. «Volga»-yu, taqinchoqlarimizni qaytarib berishsin! Yo'q, men qabristonda bekorga qasam ichmadim. Oxirigacha olib boraman. Nega akam yozganda ishonishib, dadajonim bilan oyijonimning ustidan jinoiy ish qo'zg'ashadi-yu, mening qasam ichib aytgan gaplarimga ishonishmaydi. Demak, prokuror ham ulardan qo'rqar ekan. Aslida, bu shaharda ulardan qo'rqmaydigan odamning o'zi yo'q.

Men qo'rqmayman, qamashsa qaytaga yana yaxshi. Dadam bilan birga bo'laman.

Bir oy davomida boshqa ish qilmadim. Viloyat militsiya bo'limiga, respublika ichki ishlar vazirligiga, Toshkentda chiqadigan to'rt betlik katta gazetaga shikoyatlar yozdim. Hech narsani yashirmadim. Oilamiz vayron bo'lganini aytdim, gapim yolg'on bo'lsa, mayli, o'zimni ham sud qilib eng oliy jazo beringlar, mayli, otinglar, uch qabr yoniga to'rtinchi qilib meni ham ko'mishsin, dedim. Yanvar oyida, chillai zimistonda Barno xolamning uyiga qamalib o'tirib mana shularni yozaverdim.

Uch kun oldin meni shahar militsiyasiga chaqirishdi. To'g'risi, militsiya kelib olib ketdi. Boshqa vaqtda qo'rqib ketgan bo'larmidim, lekin yuqoriga yozgan shikoyatlarim esimga tushib, o'shalar munosabati bilan chaqirishayotgandir deb o'ylab, o'zimni bosdim. Boshliqning xonasida meni yoshgina, xuddi qiz bolaga o'xshagan qosh-ko'zi qop-qora, kipriklari uzun, ovozi ham mayingina, sergo'sht lablarida tabassum o'ynab turgan leytenant kutib olib, yuqori idoradan mening shikoyatim bo'yicha kelganini aytdi. Xayriyat, biz ham odam qatoriga qo'shilib qolibmiz, deb sevinib ketdim.

— «Inson va qonun» ko'rsatuvidanmisiz? — deb so'radim, — negadir boshqa so'z esimga kelmay.

— Viloyat militsiya bo'limidanman. — deb leytenant yumshoqqiina jilmayib qo'ydi. Jilmayganda yana ham yoqimli bo'lib ko'rinarkan.

— Muhamedov bilan gaplashdingizmi? — deb so'radim. — Badalov bilan-chi?

— Gaplashyapmiz... Necha yoshdasiz?

— O'n oltiga to'lib, o'n yettiga ketyapman.

— O'qishga nega bormay qo'ydingiz?

— O'zlari «otsrochka» berishdi.

— Nega «otsrochka» berishadi?

— Ko'p kasal bo'ldim-da.

— Albatta, shuncha g'amu tashvishlardan keyin kasal bo'lmasdan ham ilojingiz yo'q-da, — leytenant menga achinib, qop-qora ko'zlari to'la shafqat bilan boqqandek bo'ldi, — Toshkentda qaysi ruhiy kasalxonada yotuvdingiz?

— Ruhiy kasalxonada emas, nevrologiya sanatoriyasida davolandim. Sogʻayib ketganim haqida spravka ham berishgan. Uyda, olib kelaymi?

— Hojati yoʻq. Hozir qalay, haligi... oʻzingizni qanday sezyapsiz?

— Yaxshiman.

— Yordam kerak boʻlsa, tortinmang. Kelganingiz uchun rahmat. Zarur boʻlsa yana chaqirtirarmiz. Oʻzingiz keta olasizmi. Yaxshisi, serjant kuzatib qoʻyadi sizni.

— Meni jinoyatchilar bilan qachon yuzlashtirasiz?— deb soʻradim oʻrnimdan turayotib.

— Qaysi jinoyatchilar bilan? — leytenantning chiroyli qoshlari gʻalati chimirildi.

— Badalov, Muhamedov...

— Ha, ular bilanmi... Yuzlashtiramiz, albatta yuzlashtiramiz. Xoʻp xayr.

Ikki kungacha yuzlashtirishlarini kutib, kerak boʻlib qolsam axtarib yurishmasin, deya uyga qamalib oʻtirdim. Uchinchi kuni ertalab jilmayishib, xiyol tortinishib erkak doktorlar kirib kelishdi-yu, shirin gapirishib, yelkalarimni silashib, mana, koʻrib turganingizdek, jinnixonaga tashlab ketishdi.

Tavba, nega bunday qilishdi, nega?

Hali aytganimdek xona uch kishilik. Ikkita karavot boʻsh, uyoq-buyoqni timirskilab koʻra boshladim. Tumbochkalardan birida uch-toʻrt dona qurtlagan konfet, qurib, tarasha boʻlib ketgan ikki dona qurut, boshqasida kirlanib, titilib ketgan qartayu jildi yoʻq kitob! Kimlar yotgan ekan bu yerda, nahotki jinnilar yotgan boʻlsa? Unda qarta bilan kitobning nima keragi bor edi ularga? Axir jinnilar kitob ham oʻqimaydi, qarta ham oʻynashmaydi-ku?

Xonam ikkinchi qavatda. Yakkayu yolgʻiz derazasi bor. Ortidan temir panjara qoqib qoʻyishibdi. Qochib ketmasin, deyishgandir-da. Derazani lang ochib yubordim. Muzdek namxush havo yopirilib kirdi. Yoʻq, havo emas, koʻkish tuman bu. Tanim yayrab ketdi. Tugmamni yechib, koʻkragimni keng ochdim — qanday yaxshi-ya!

Xona eshigi ochilib, ikki kishi barobariga, xuddi orqalaridan birov zarb bilan itargandek oʻqdek otilib kirishdi. Norgʻul,

barvasta erkaklar. Agar egnida oq xalati bo'lmasa, sirk pahlavonlarimi deb o'ylash mumkin. Ikkovining ham do'rdoq labida sovuq, zaharli tabassum bor.

— Derazani yop, shamollab qolasan, — dedi biri.

— Qani, yur, dushga tushasan, — dedi boshqasi. Kasalxonalarda o'zi tartib shunday. Yangi mehmon albatta, yuvinib olishi kerak. Buni o'zim ham yaxshi bilaman, boshimdan o'tgan. Jimgina ergashdim. Kirsovun bilan yuvindim. Kasalxonaning xlorning hidi anqib turgan kiyimlarini ham kiydim. Qaytib chiqishim bilan xona ustidan yana qulflab qo'yishdi. Nega bunday qilishdi-a, nega?

Kim tashkil qildi buni, «mehribonim» kim bo'ldi ekan?

Derazani yana ochdim. Shamollasam mayli, shamollab ola qolay, dedim. Shundoqqina derazaning uyog'i rostmana jinnixonaga o'xshaydi. Katalakdek-katalakdek hovlichalar. Bir hovlichada to'rt-besh ayol ko'rinyapti, sochlari alavastinikidek to'zg'igan, bittasi ich ko'ylakda, mammalari osilib turibdi. Qarsak chalishyapti, sakrab-sakrab o'yinga ham tushishyapti. sement zax, bilch-bilch loy, oyoqlari sovuq qotmayaptimikan? Narigi hovlichaning qoq o'rtasida oyog'i ostiga tikilgancha bir odam simyog'ochdek qotib turibdi. Qiziq, qachondan buyon turibdiykin? Hali birinchi bor derazani ochganim-da ham ko'zim tushuvdi. O'shanda yog'och qotib, ustiga xalat yopib qo'yishgan bo'lsa kerak, deb o'ylovdim. Endi, tuman tarqalgach, u ko'zga rosmana tashlanib turibdi — o'rt. yoshli bir kishi. Soch-soqoli o'sib ketgan. Nega bunday turibdi ekan? Bechoraning oyoqlari ham tolib ketgandir?

Derazam ostidan o'zim tengi, nozik-nihol, kallasi katta, bo'yni ingichka bir yigitcha o'tdi. Ikki poy ipli botinkaga ip bog'lab olib:

— Bibib-bibip, — deb boryapti. Bechora, botinkalarni mashina deb o'ylayotgan bo'lsa kerak.

— Og'ayni, mashinang zo'r-ku, — deb qichqirdim beixtiyor.

Yigitcha to'xtadi. Og'zining tanobi qochib, iljaydi:

— Jinnimisan, bu botinka-ku! — dedi-da, yana bi-biplab yo'lga tushdi. Hovlining ichkarisiga o'tib ketguncha orqasidan tikilib qoldim. Endi derazam ostidagi boshqa bir manzara

e'tiborimni tortdi. Kap-katta, dadam tengi, boshi kal bir odam o'zi tengi boshqa bir kishini yelkasiga mindirib, ikki oyog'i ostidan qo'llarini o'tkazib, oyoqlarini salanglatib choptirib yuribdi.

— Endi men seni minaman, — dedi kalbosh yelkasidagini tushirib.

Sherigi bosh chayqadi:

— Yo'q?

— Sen meni minding-ku?

— Mindim.

— Endi mening galim. Nega yo'q deysan, jinni?

— Orqamda qitig'im bor.

— Baribir minaman.

— Minmaysan.

Hovlida, hali meni dushxonaga kuzatib borgan ikki barvasta ko'rindi. Qo'llari orqada, bitta-bitta bosib, jilmayishib kelishyapti. Janjallashayotganlar jim bo'lib, avvaliga xuddi favqulodda qiziq, g'aroyib bir narsani to'satdan ko'rib qolgandek angrayib turishdi. Keyin ko'rib turganlari g'aroyib emas, dahshatdan iborat ekanini yana, to'satdan payqab qolgandek jon-jahdlari bilan shataloq otib qocha boshladilar. Beixtiyor kulib yubordim, to'yib-to'yib kuldim.

Barvasta kishilar, qo'llari hamon orqada, qattiq bossak yer qiynaladi degandek, ohista qadam tashlab, goh o'ngga, goh chapga burilib jilmayib, hovlining narigi tomoniga o'tib borisharkan, katakchalardagi bemorlar xuddi qirg'iyga duch kelgan chumchuqlardek o'zlarini ochiq turgan eshiklarga ura boshlashdi. Hovli suv quygandek jimjit bo'lib qoldi. Yuragimni vahima bosdi. Meni ham bugunmi, ertami o'shalarning qatoriga kiritib qo'yishsa-ya, bitta-yarimtasi yelkamga minib olib choptirasan deb turib olsa-ya!

Yo'q meni nega olib kelishdi bu yerga?

Kim tashkil etdi ekan?

Ko'zimni uzmay kuzatib turgan hovli o'rtarog'idagi uychaning ochiq derazasidan ashula eshitildi. Kuchli, shirali ovoz bilan kuylayapti. Kim bo'ldi ekan? Xastalardan biridir-da. Xiyol o'tmay eshik ochilib, yoqavayron bir yigit otilib

chiqdi. Qo'llari xuddi dutor ushlab turgandek holatda. Yer tepinib, yo'q dutorni chertib, ashulani o'sha aytayotgan ekan!

Mehriboning kim desang Jonajonim onam derman,

G'amg'uzoring kim desang Jonajonim onam derman.

Yopiray, ovoz ham shunaqa sehrli bo'ladimi, fig'on ham shunaqa dardli, alamli bo'ladimi! Yuragim zirqirab ketdi, onam deyapti u, onajonim deb faryod chekyapti, Oyijonim... men ham undan allaqachon judo bo'lganman. Tirik bo'lganda men bu ko'ylarga tushmasdim. Aldab-suldab olib kelganlarning sochlarini oyijonim yulib olardi, go'shtlarini tishlab-tishlab uzib olardi.

Oyijonim!

Yig'lab yubordim.

IV BOB

— Voy, derazani yoping, shamollab qolasiz-a, — dedi kimdir. Orqamga o'girildim. Xonaga doktor opa kirganini payqamay qolibman. Yonimdan tezgina o'tib deraza tabaqasini o'zi yopdi. Shosha-pisha ko'zyoshlarimni artdim. Uyat-da, shu ahvolda ko'rinish.

— Tashqari juda sovuq-a, — dedi yana doktor opa, — qani, karavotingizga o'tiring-chi. Yoshsiz-da, ancha-muncha sovuqni parvo qilmaysizlar. Biz bo'lsak darrov shamollab qolamiz. Uhu-u, yo'tal-u, burundan tarnovdan oqqanday suv kelgani kelgan. Meni kutib qolmadingizmi? Voy, bugun biram bemor ko'p ediki, hammasini kutib olguncha kunni yarim qildim-a. O'tiring, mana men ham o'tirdim.

O'tirayotganimizda bir-birimizga zimdan nazar tashlab oldik. U kulimsirab, men qovog'imni uyib qaradim. Lutfi xolamga o'xshaydi, to'ladan kelgan, ko'kragi baland, yuzi lo'ppigina. Yana qaradim, qoshlari ingichka terilgan, peshonasi keng, silliq, ko'zlari shahlo, burni puchuqqina. Yo'q, Lutfi xolamga o'xshamas ekan.

— Otingiz Zafarjonmidi?

— Ha.

— Familiyangiz Karimov.

— Ha.

— Meni Mastura Xayriyevna deb chaqirishadi. Ana, tanishib ham oldik. Xohlasangiz yonboshlab olishingiz mumkin. Uzoq gaplashamiz. Tortinmang, mening ham sizga o'xshagan o'g'illarim bor. Yoshingiz o'n yettidami?

— Yo'q, o'n olti-yu, uch oylik bo'ldim.

— Qarang, o'g'lim bilan teng ekansiz. O'qishlar qalay?

— Bir yilga «otsrochka» berishdi.

— Hozir bekorchiman deng?

— Lekin juda bekorchi ham emasman, ko'proq kitob o'qiyapman.

— Kitob o'qiganingiz yaxshi. O'g'lim ham shunaqa — qo'lidan kitob tushmaydi. Qanaqa kitoblarni o'qiyapsiz?

— Ko'proq qonunshunoslikka oid.

— Kutubxonalarining shunaqa boymi?

— Bu kitoblarni menga Ataullo Isayevich topib beryapti. O'zimiznikini, akam, eshitgandirsiz, maktabga topshirib yuborgan. Gazetaga ham yozib chiqishgan. O'ninchini bitirsam yurist bo'lmoqchiman. Shuning uchun o'shanaqa kitoblarni o'qiyapman.

— Niyatingiz yaxshi ekan, Zafarjon. Boshingizga ko'p tashvishlar tushgan, buni butun shahar biladi. Naq to'rt oycha mish-mish bo'lib turdilaring-a. Vrach sifatida shuni bilamanki, sizga oson bo'lmagan. O'shandagi kechinmalaringizni, albatta, esda qolganlarini, masalan, boshingiz aylanganini, o'zingizdan ketib qolganingizni, keyin shu kunlarda sizni nimalar bezovta qilayotganini, nimadan ko'proq qo'rqayotganingizni, tortinmay aytib bersangiz, ona-boladek gaplashib o'tiribmiz-ku, tartibli aytaman deb qiynalib o'tirmang, esingizga kelganini gapiravering.

Gapning oqovasi qayoqqa ketayotganini shu zahotiy oq payqab qoldim. Men jinnimi, jinni emasmi, jinni bo'lsam jinnilikning qaysi turiga kiraman, suhbat davomida shuni bilib olmoqchi. Niyati boshqa ekan-u, nuqul o'g'lim-o'g'lim deydi-ya! Javob bermayman, deb turib olishim ham mumkin edi. Unda meni paqqos jinniga chiqarib qo'yishadi. Axir jinnilikning bir belgisi qaysarlik-ku, fikri va niyatlarini birovlardan berkitishga intilish-ku!

Shoshmasdan, hammasini joy-joyiga qo'yib, uyoq-buyoqqa o'tlab ketmasdan aytaman, shunday qildim ham.

— Demak, birinchi marta onangizning vafotini eshitganda o'zingizdan ketgansiz?— so'radi doktor opa hikoyaning so'nggida.

— Ha, o'shanda o'zimdanda ketganman.

— Keyin yana takrorlandimi?

— Akam uyda kuyayotganda yana o'zimdanda ketdim.

— Avvallari ham shunaqa bo'larmidi?

— Hech qachon bo'lgan emas.

— Bolaligingizda qanaqa yuqumli kasal bilan og'rigansiz?

— Bir marta jag' tishim og'rigan, xolos.

— Oldirganmisiz?

— Yo'q, davolatganman.

— Dadangiz icharmidi?

— Onda-sonda.

— Onangiz-chi?

— Uyam.

— Chekisharmidi?

— Yo'q.

— Qarindoshlaringiz orasida birontasi dovdirash, vahima qilish singari kasalga chalinganini eslay olmaysizmi?

— Unaqalar yo'q edi shekilli, eshitmaganman.

— Shu kunlarda sizni ko'proq qanday vahima qiynayapti?!

— Vahimami, tashvishmi?

— Farqi bor deb o'ylaysizmi?

— Bo'lmasa-chi.

— Oldin, bo'lmasa, vahimangizni ayting.

— Qalbimda zig'ircha ham vahima yo'q.

— Tashvishingiz-chi?!

— To'lib yotibdi.

— Uyqungiz qalay?

— Yaxshi uxlayman.

— Ishtahangiz?

— Hamisha karnay.

— Zafarjon, ayting-chi, birinchi bor hushingizdan ketganingizdan keyin xotirangiz qalay bo'lgan?

- Hushimga kelishim bilan nima bo‘lganini darhol esladim.
- Toshkentda, nevrologiya sanatoriyasida yotganingizda ko‘p kitoblar o‘qidim, dedingiz. Namlari esingizda yo‘qmi?
- Nega bo‘lmasin, bor. Masalan, bittasi «Shok, psixonevroz, shizofreniya holatlari» deb atalardi.
- Katta kitobmidi?
- Yo‘q. O‘n olti varoq edi, xolos.
- Bu kitobchani sizga doktorlar berishdimi?
- Vannaxonaning oldidagi stolga, navbatda turganlar zerikmasin degan niyatda bo‘lsa kerak, shunaqa yupqa-yupqa kitoblardan anchaginasini yoyib qo‘yishgan ekan. O‘shalar ichidan tanlab oldim.
- Nega endi, albatta, shu kitobni tanladingiz?
- O‘zim shok bo‘lganman-da.
- O‘qiganlaringizdan esingizda biron narsa qoldimi?
- Xotiramni tekshirib ko‘rmoqchimisiz?
- Tekshirsam buning nimasi yomon, Zafarjon? Faqat sizdan emas, o‘g‘limdan ham o‘qigan kitoblarini so‘rayman, qayta-qayta so‘rayman. Takrorlasa xotirada yaxshi qoladi.
- Men u kitobchani deyarli yodlab yuborganman.
- Qayta-qayta o‘qingizmi?
- Uni yonimda olib kelganman. Xolamnikida turibdi. Xo‘p desangiz, keltirib berishim mumkin.
- Yo‘q, esingizda qolganini ayta qoling.
- Shizofreniyani aytaymi?
- Qani, ayting-chi.
- O‘zi lotincha so‘z bo‘lib, ong, fikr, aql degani ekan. Vosvos, gallyutsinatsiya, qo‘zg‘oluvchanlik, harakatsizlik holatlarida namoyon bo‘lar ekan. Uyog‘iniyam aytaveraymi?
- Voy, aytavering. Juda yaxshi hikoya qilyapsiz.
- O‘sha kasalga uchragan odam kamgap, odamovi, o‘zi bilan o‘zi gaplashadigan bo‘lib qolarkan. O‘qishga, yaqin odamlariga e‘tiborsiz bo‘larkan. Ba‘zan qiziquvchanligi haddan tashqari kuchli bo‘larkan. Bittasi shunaqa kasalga uchrab, buyuk matematik bo‘lib ketgan ekan. Bir xillari qo‘rqoq, vahimachi bo‘lib qolarkan. Nimanidir axtararkan, axtarayotganini hech kimga aytmas ekan?

— Shularning hammasini o'sha kitobchadan o'qingizmi?

— Ha.

— Kitobni kim yozgan ekan?

— E, Mutalov, G. Tarasova.

— Zafarjon, xotirangiz yaxshi ekan, barakalla, o'g'lim! Yuragingizni eshitib ko'rsam maylimi? Qani, ko'ylakni ko'taring-chi? U, juda zo'r-ku. Jismoniy ish bilan shug'ullanasizmi deyman, temirchining bosqonidek gursillab uryapti.

— Badantarbiya qilaman.

— Anchadan buyonmi?

— Sanatoriyadan qaytgandan beri.

— Har kunimi?

— Ha.

— Yaxshi qilasiz, buni aslo kanda qilmang. Men o'g'linga hech o'rgatolmadim-da. Kech turadi, kunbo'yi lanj bo'lib yuradi.

— O'g'lingizda shizofreniya kasalining alomati bor ekan-da.

— Voy, nega unday deysiz?

— Kitobchada shunday deb yozilgan... O'g'lingiz ko'pincha jahldor ham bo'p qoladimi? Shizofreniyaning yana bir ko'rinishi jahldorlik ekan.

— Yug'-e!

— Mabodo o'g'lingiz arazchi emasmi?

Doktor opa sharoqlab kulib yubordi. Shunday qattiq kuldiki, ikkovimiz o'tirgan karavot qimirlab ketdi. Hayron bo'p qoldim, kuladigan qanaqa gap aytdim ekan?

— Ob-bo siz-ey, — o'zini arang bosib yana gap boshladi doktor opa, — men sizni tekshirgani kirsam, siz mening o'g'limni tekshira boshladingiz-a. Balo ekansiz-ku! Qani, endi bilakni yalang'ochlang. Qon bosimini ham bir ko'ramiz-da. O'-o', mushaklaringiz ham juda qattiq, qadoq toshdek o'ynab turibdi. Badantarbiya yaxshi-da... Hozir, hozir, zo'r, juda zo'r! Gagarin osmon-ga uchayotganda uning ham qon bosimi bir yuz yigirmayu sakson edi!

Mastura Xayriyevna menga tikilib qoldi. Xuddi endi qalbmida nima borligini ham bilib olmoqchidek uzoq tikildi. Ko'zlarini xiyol qisib turibdi.

- Yomon tush ko'rmaysizmi? — dedi nihoyat past ovozda.
- Onda-sonda ko'rib turaman.
- Nimalarni ko'rasiz?
- Oyijonimni tobutda olib chiqib ketayotganlarini... Akamning yonayotganini. Ukamning avariya uchraganini.
- Mayli, bas qiling... Bunaqa tushlar og'ir albatta. Odam qiynaladi. Menga qarang, Zafarjon. Siz shu kunlarda kimlarni juda yomon ko'rasiz?
- Muhamedov bilan xotini Qozi xolani.
- Sudya Muhamedovnimi?!
- Ha.
- Yana?
- Shahar savdo markazining boshlig'i Sadir Badalovichni.
- Uniyam xotinini yomon ko'rasizmi?
- Hammasi bir go'r ular.
- Nega endi, faqat shularni yomon ko'rasiz?
- Bizning oilamizni shular vayron qildi-da. Ota-onamni jinoyatga yetaklashmaganda biz ham boshqalarga o'xshab yashayotgan bo'lardik. Balli-balli, rahmat-rahmat, biz bor ekanmiz sizlarga hech kim tegmaydi, deyishib, oxiri vayron qilishdi.
- Mayli, qizishmang. Suhbatimizni to'xtata qolaylik. Hozircha shuyam yetar, hali ko'p gaplashamiz. Analizga qon olishdimi?
- Sizdan boshqa hech kim kirgani yo'q bu yerga.
- Aytaman. Kirishadi endi. Sizdan juda qo'rqib ketishibdi-da, vahima qilib yuborishgan ekan. Sizda men hech qanday kasallik alomatini sezmadim.
- Unda ketsam maylimi?
- Qayoqqa?
- Uyimizga-da.
- Yo'q, Zafarjon, sabr qilasiz. Bu yerga kelish ham, ketish ham bemorning ixtiyorida bo'lmaydi. O'zlari olib kelib, o'zlari oborib qo'yishadi. Bir-ikki kun kutishingizga to'g'ri keladi. Aytib qo'yaman, endi eshigingizning ustidan qulflashmaydi. Xohlasangiz koridorga chiqishingiz mumkin. Hovliga chiqqingiz kelsa... kuzatib chiqishadi. Lekin mana bu derazadan narigi hovliga ko'pam qarayvermaig. Ular butunlay boshqa odamlar.

Eshik yoniga borganda Mastura Xayriyevna to'xtab, g'alati bir jilmaydi-da:

— Chindan ham o'g'limga o'xsharkansiz, — dedi, — qoshu ko'zingiz, chimirilib turishingiz. Ha, aytgandek, so'rash esimdan chiqibdi. Mabodo nasha-pasha chekmaysizmi?

— Chekmayman, — dedim.

— Dadangiz-chi?

— Uni, — kulib yubordim, — qamoqdan qaytgandan keyin dadamning o'zidan so'rarsiz.

Koridorga chiqdim, torgina, qorong'i, energiyani tejash uchun bo'lsa kerak chiroqlarni o'chirib qo'yishibdi. Stend ustida bittaginasi sovuq urgan pomidordek gezarib turibdi xolos. Stend katta, juda katta, ilg'or vrachlarning suratlari, doktorlarning qasami, devoriy gazeta ham bor. Gazeta yozda chiqarilgan bo'lsa kerak, hammayog'iga pashsha o'tirib ketibdi. Qo'pol matodan tikilgan xalatlarga o'ralgan qovog'i soliq, uychan bemorlar... bir xillari shundoqina eshigi yonida kir, shaloq stullarda o'tirishibdi, boshqalari xuddi bedana ovida yurgandek ohista-ohista qadam bosib uyoq-buyoqqa o'tib turishibdi.

Meni nega olib kelishdi bu yerga?

Qon, balg'am topshirdim. Xonamga ovqat keltirishdi. Haligi tabassumidan chakillab zahar tomib turgan barvasta kishilar olib kirishdi. Kulimsirab turishibdi-yu, nazarimda shu kulgisi bilan o'ldirib ham qo'yishadiganga o'xshaydi. Ko'zlari to'la dahshat, yuzlarida shafqatsizlik o'rmalab yurgandek...

Eshikni yana ustidan qulflab qo'yishdi.

O'y surib yotgan edim, birdan eshik taroqlab ochildi.

Mastura Xayriyevna, Barno xolam, Ataullo muallimlar kirib kelishdi.

— Mana, o'g'illaringni qog'ozga o'ralgan qanddek ehtiyotlab o'tiribmiz, — dedi doktor opa, — behuda shovqin solyapsiz kap-katta odam, uyat-e!

Mastura Xayriyevna chiqib ketdi. Bir daqiqagina, ha, ha, bir daqiqagina, bir-birimizga qarab turdik. Keyin xolamning ko'ksiga boshimni qo'yib yig'lab yubordim. Xolajonim yelkamdan, boshlarimdan silayapti. Ataullo muallim negadir bag'rida meni uzoq ushlab turdi, yelkamga urib-urib qo'ydi.

— Nega bunday qilding, esi yo‘q, — deb urishgan bo‘ldi keyin, — buyoqqa kelar ekansan, biz bilan bir og‘iz maslahatlashsang bo‘lardi-ku, begona emasmiz-ku! Peshindan buyon axtaramiz, — dedi.

— O‘zim kelganim yo‘q, — dedim xo‘rligim kelib.

— Kim olib keladi bo‘lmasa? Barno bilmasa, Lutfi bilmasa, men bilmasam. E o‘sha seni. Bu yerda bir marta yotib chiqqan odamning nomi bir umrga yomon otliqqa chiqadi-ya, esingni yeb qo‘yibsan.

— O‘zlari olib kelishdi, — deya tushuntira boshladim, — choy ichib o‘tirgan edim, ikkita doktor kirdi-yu, kasalxonaga borib yana bir tekshiruvdan o‘tasiz, deyishdi, juda yaxshi gapirishdi...

Ataullo Isayevich xolam bilan ma‘nodor ko‘z urishtirib oldi.

— Tavba, — dedi xolam.

— Said Karimovlar xonadonidan o‘chini ololmay qolgan yana kim bor ekan? — dedi xolamga qarab Ataullo muallim, — xonadon butunlay vayron bo‘ldi-ku! Nahotki, ko‘ngillari joyiga tushmagan bo‘lsa? Endi yakkayu yolg‘iz o‘g‘illarini jinnixonaga tiqishlari qopti-da. Zafar, bolaginam, o‘ylab ko‘r, so‘nggi kunlarda kimni uruvding? Kimni xafa qilgansan? Kimning orqasidan quchib, bo‘ynidan tishlagansan?

Yuragim shuv etib ketdi. Demak, tushunarli. Hammasining sababchisi o‘zimman. Badalov ham, Muhamedov ham, jinni bo‘p qobsan, deyishayotgan edi. O‘shalar tashkil qilgan bu ishni, o‘shalar!

Aytdim. Badalov bilan Muhamedovning uyiga borganim, kaltak yeganim, jinni deb haqorat eshitganim, yozganlarim, qiz boladek chiroylikkina leytenant bilan uchrashganim — hech biri qolmadi.

Ikkovlari ham qoshlarini chimirib, nafas olmay jim turishardi.

— Qahramonlik ko‘rsatgilari kep qopti-da? — dedi Ataullo Isayevich. Endi uning quyuq qoshlari pastu baland bo‘lib ketdi.

— Men «Volga»mizni qaytarib olmoqchi edim, — dedim o‘zimni oqlamoqchi bo‘lib.

— Nom chiqargilari kep qopti-da?

— Oyijonimning taqinchoqlari... Axir u yigirma ming so‘mlik edi. Xola, siz ayting!

Xolam sehrlangandek karaxt bir ahvolda o'tirardi. Yonimni oladigan biron so'z aytmadi. Muallim sekin o'rnidan turib yaqinimga keldi-da, qulog'imdanda cho'zib bo'yi barobar ko'tara boshladi. Yuzim yuziga to'g'ri kelgach:

— Axmoq! — dedi.

Indamadim.

— Jinni!

Yana indamadim.

— Bor, — dedi ko'kragimdan itarib, — karavotingni g'ijirlatib yotaver endi. Barno poshsha, turing, ketdik, jiyaningiz chinakam jinni bo'p qolgan ekan.

Barno xolam hamon miq etmay o'tirardi, Ataullo muallim eshik oldidan yana qaytdi.

— Hey, bolam, nima qilib qo'yding, — dedi uzun qo'lini shop qilib, — hech jahonda sichqon arslonni yengganmi? Ataullo Isayevichdek odam bas kelolmadi bularga-yu, senga yo'l bo'lsin! Sen shikoyat yo'llagan idoralarga shikoyatchining o'zi vos-vos edi, jinnixonada yotibdi, deb ma'lumotnoma jo'natgan bo'lishlari ham mumkin. Ha, allaqachon jo'natishgan. Tamom, yotaverasan endi osmonga qarab. Barno poshsha, turing, haliyam kech emas, bolani qutqarish kerak. Bosh vrachni topaylik.

V BOB

Yig'lavoray-yig'lavoray deb turgan xolam bilan quturgan arslondek hayqirayotgan Ataullo muallim chiqib ketishi bilan eshikni yana orqasidan qulflab qo'yishdi. E'tibor bermagan ekanman, eshikning o'rtarog'ida do'ppidekkina teshikcha bo'lib, sim to'r tutib qo'yishgan ekan. Bemorning holatini tashqaridan kuzatib turish uchun shunday qilishgan bo'lsa kerak. Kim biladi deysiz, bu yerda yotganlar, ehtimol sakrab-sakrab o'yinga tushgandir, o'tirib olib yig'lagandir, baliq ushlagandir, ovchi bo'lib qush otgandir, toychoq bo'lib kishnagandir, ana shularni teshikcha orqali suratga ham olishgandir.

Koridordan Ataullo muallimning qattiq-qattiq gapirayotgani eshitildi. Teshikchadan mo'raladim. Xolam ham ketmabdi.

Ataullo muallim stend yonida Mastura Xayriyevna bilan tortishyapti.

— Hoziroq yigitchaning kiyimlarini olib chiqing, — deyapti Ataullo Isayevich.

— Voy tavba-ey, gapga tushunsangiz-chi, — deydi Mastura Xayriyevna. — Yuz marta aytdim-ku, bosh vrach hal qiladi, deb.

— Bolani olib ketamiz, tamom. Chaqiring o'sha bosh vrachingizni.

— Voy, buncha betoqatsiz, odam yubordim deyapman-ku. Aslida ayb o'zimda. Sizlarni buyoqqa kiritmasligim kerak edi. Hali ko'rasiz, rosa gap eshitaman. Ana, o'zlariyam kep qoldilar. Ashur Qodirovich, bularning sizda gapi bor ekan.

Ashur Qodirovich oyog'i kalta, boshi dumaloq kishi ekan. Katta kuzoynak taqib olganidan yuzida burnidan boshqa hech narsa ko'rinmasdi. Muallim bilan qo'l berib illiqqina so'rashib, xolamga boshini silkitib qo'ydi-da:

— Nima gap, nimani talashyapsizlar? — deb so'radi.

Muallim o'zini tanitib, men, ya'ni Zafar Karimov bu yerga noto'g'ri keltirilganim, bu yerda davolatadigan hech qanday kasalligim yo'qligini aytib, hoziroq chiqarib yuborishini talab qildi:

— Axir bu borib turgan o'zboshimchalik emasmi?!

Ashur Qodirovich ko'zoynagini qo'lga olib, boshini xiyol qiyshaytirib:

— Nega o'zboshimchalik bo'larkan? — deb so'radi. — Biz, yanglishmasam, mas'ul o'rtoqlarning iltimosi va topshirig'i bilan bu bemorni nazoratimizga oldik. O'rtoq Badalov, o'rtoq Muhamedovlar kichkina odam emas. Yigitchaning taqdiriga achinishyapti. Vos-vosga uchrab, uyma-uy kirib, mushtlashib, allaqanday narsalarni da'vo qilib, bema'ni xatlar yozib, katta-kichik idoralarni bezovta qilib yuborgan bu yigitcha. Avval ham es-hushini yo'qotib shahar kasalxonasida yotib chiqqan ekan. Kasallik tarixini oldirib keldim. Rentgen tashxisini ham ko'rdik. Miyaning psixomotor zonasida katta dog' bor.

— Ashurjon, asli shu yerlik bo'lasizmi? — so'radi Ataullo muallim. — Meni taniysizmi? Ilgari mening nomimni eshitganmidingiz?

— Sizni, Ataullo Isayevich, butun shahar taniydi.

— Mabodo men o'qitmaganmanmi sizni?

— Afsuski, yo'q.

— Unda yo otangizni, yo onangizni o'qitgan bo'lsam kerak. O'shalarining hurmati, bolaga javob bering. Bu yerda nobud bo'ladi u. Muhamedov bilan Badalov masalasiga kelsak, ular nopok odamlar. Zafarjon ularning ustidan shikoyat yozgan. Bundan xabaringiz bormidi?

— Eshitdim.

— Eshitgan bo'lsangiz, shikoyatni yopish uchun bolani o'shalar jinniga chiqargan bo'lishlari ham mumkin-ku axir?

— Yigitchada baribir, dovdirash alomatlari bor.

— Gapingizni qaytarib oling, doktor.

— Besh-o'n kun nazoratimizda bo'ladi, boshqa ilojimiz yo'q.

Bosh vrach orqasiga qaytib nariroqda dahanaki jangni kuzatib turgan hamshiraga, nega duch kelgan odamni buyoqqa kiritaverasiz, shahar bedarvoza bo'p qoldimi, dedi-da, g'oyib bo'ldi. Xiyol o'tmay men bilan durustroq gaplasha olmagan bechora xolam ham Ataullo Isayevich bilan chiqib ketishdi.

Koridor suv qo'ygandek jim bo'lib qoldi. Keyin kechki ovqat keltirishdi.

Haftaning oxirigacha na muallimimdan, na xolamdan darak bo'ldi. Kun ora yegulik u-bu jo'natib turishdi, xolos. Xolajonim bir gal kelganda tugun ichida xat ham kiritib yuboribdi. «Jiyanginam-ey, buncha peshonang sho'r bo'lmas! Sabr qil, hech qanday kasal emasligingni bilamiz. Tuhmat qilishyapti. Nigora yaxshi, yuziga qizillik qayta boshladi. Ataullo Isayevich viloyatdan komissiya chaqirtirgan, kelib qolishar. Ko'rasan, hammasi yaxshi bo'ladi, tuhmatchilar jazosini olar...” Xat taxminan ana shunday mazmunda edi. Keyin bunday xatlarni har kuni ola boshladim. Nigoradan, Lutfi xolamdan, qishloqdagi ammamdan ham. Sinfdoshlarimiz ham kelganga o'xshaydi. Ulardan ham xat oldim.

Mastura Xayriyevnadan tashqari yana uchta vrach men bilan suhbatlashdi.

Suhbat uzoq davom etdi. Bilib turibman — mendan jinnilik asorati axtarishyapti. Bilganim uchun ham o'zimni hushyor tutyapman.

— Nega dorini ichmadingiz? — deb soʻraydi goho Mastura Xayriyevna.

— Bu uxlatadigan dori-ku, — deyman.

— Uxlasangiz yomonmi?

— Dorisiz ham yaxshi uxlayapman.

— Nega bunisini ichmadingiz?

— Bunisi asabni tinchlantiradigani. Hozircha asabim yaxshi.

— Zafarjon, doktorlarning gapini hadeb qaytaraverish odobdan emas, ukolga ham koʻnmayotgan emishsiz, bu qanaqasi boʻldi?

Birinchi bor kasalxonada yotganimda hamxonalarimdan bittasi sariq kasaliga chalinib qoldi, shprintsdan yuqdi, deyishdi. Oʻshandan buyon ukoldan qochaman. Toshkentda yotganimda ham koʻnmaganman, boshimni urib yorishmovdi-ku. Mastura Xayriyevna, baribir, tushunmayapti, boʻlmasa arazlashib qolamiz, emish. Gapni qarang! Lekin oʻshanda ham juda katta xatoga yoʻl qoʻyganimni keyinroq, bu yerdan chiqib ketganimdan keyin tushundim. Dori ichishdan qochish, ukoldan bosh tortish shizofreniya kasalining bir koʻrinishi ekan. Men bosh tortganim sari nazoratni kuchaytirib, battarroq yopishib olishlarining boisi shunda ekan.

Asta-sekin uyqumning mazasi qocha boshladi. Endi muallimim berib yuborgan kitoblarni ham oʻqigim kelmay qoldi. Turaman, oʻtiranman, uh tortaman, nuqul kim bilandir mushtlashgim keladi. Oʻrnimga choʻzildim deguncha uyqu bilan uygʻoqlik oʻrtasidagi bir holatga tushaman-u, toʻsatdan yana oyijonimni koʻraman. Koʻpincha daryo boʻyidagi koʻm-koʻk maysazorda sayr qilib yurgan, keyin charchab, muzdek maysa ustida chalqancha yotgan boʻlaman. Oyijonim quchogʻi toʻla gul, asta-sekin yaqinlashadi-da, engashib yuzimni ohista silaydi.

— Tirikmisan, oʻgʻlim?

— Tirikman, oyijon.

— Men ham tirikman. Endi oʻlmayman, sizlarni tashlab ketmayman. Qorning ham ochgandir?

— Och qoldim, oyijon.

— Goʻsht qovurib beraymi?

— Ser piyozgina qilib qovuring...

Serp'yozgina qilib qovuring...

— Ololganim yo'q.

— Tur, Qozi xolang daryo bo'yida yuribdi. Kumush quticha qo'lida. Orqasidan yugur. Bo'lmasa daryoga tushib ketadi, tura qol o'g'lim.

Sakrab o'rnimdan turib ketaman. Bilaman, hozir ko'rganim tush emas, xayolot. Hammasi oyijonimni sog'inganimdan... Yana o'rnimga cho'zilaman. Nima ham qilardim. Yana uyqu bilan uyqusizlik o'rtasidagi tanga huzur beruvchi, oromli, farog'atli holat boshlanadi. Xuddi nurdan yasalgan arg'imchoqda qushdek yengil uchayotgandek bo'laman. Anvoyi gullar o'rtasidan o'tib boraman, nurlarga cho'milaman... Xalloslagancha dovdur ukam Zufar yugurib keladi:

— Uyg'oqmisan. Tur tezroq, «Volga»ni olib qochamiz!

— Ushlab olishadi.

— Meni ushlab bo'pti. «Volga» o'zimizniki, uni hech kimga bermayman.

Ukam nurdan yasalgan yengilgina «Volga»mizga o'tirib uchirib ketadi. Ikki qo'limni oldinga cho'zib baqiraman...

— To'xta, to'xta deyapman! — karavotimni g'ijirlatib o'rnimdan turib ketaman.

Qochish payiga tushib qoldim. Hovliga yozilgani chiqqanimda, hojatxonaning xom g'ishtdan tiklangan devori sho'rlab ketganini ko'rgandim, o'sha yerdan chiqib ketsa bo'lmasmikin, deb o'ylay boshladim. Qiyini birinchi g'ishtni ko'chirib olish, qolgani loppa-loppa tushaveradi. Tushlikka ovqat keltirishgandi, qoshig'ini bermadim. Semiz hamshira, qani, qoshiqni ber buyoqqa, degandi:

— Derazadan otib yubordim, — dedim aftiga qarab ma'nosiz iljayib. Semiz hamshira ham bir daqiqagina tikilib turdi-da:

— Jinni! — deb qo'ydi.

Qoshiq yaxshi ish berdi. Uch marta chiqqanimda g'ishtni ko'chirib bo'ldim. To'rtinchi bor chiqayotganimda, koridor eshigini ochib berayotgan amaki:

— Nima balo, ichburuq bo'p qoldingmi? — deb zarda qildi.

— Ovqatlaring yoqmayapti, — dedim qovog'imni uyub. U yog'i tez yurishib ketdi. Ko'z yumib ochguncha ko'chaga chiqib

oldim. Anovu kuni aytganimdek kishi xato qilayotganini xato qilayotgan paytida emas, peshonasi devorga taqillab tekkandan keyin bilarkan. Axmoq bo'lmasam, chiqa solib o'zimni avtobusga urmaymanmi! Panaroq ko'chadan piyoda keta qolay deb o'ylabman. Onda-sonda uchrayotgan yo'lovchilarda shubha tug'dirmay deb, hatto, orqamga burilib ham qaramabman. Yelkamdanda kuchli bir qo'l changakdek siqib o'ziga qarattirdi. Qarshimda quyon bolani tagiga bosgan burgutdek ko'zlari lo'lov yonib ikki barvasta turardi. Oyog'imni yerga tegizmay xonamga olib ketishdi. Polga yotqizib, ukol qilishgandi, issiqligini sezdimu lekin qanday uxlab qolganimni payqamay qoldim. Qancha uxladim, bilmayman. Ko'zimni ochsam, qiziq, ro'paramda Barno xolam o'tiribdi.

— Voy, uyqung qurg'ur muncha qattiq bo'lmasa-ya, — boshimni silab, erkalab qo'ydi xolam, — halidan buyon tebrataman, qani endi ko'zingni ochsang.

— Bu yerga qanday kirdingiz? — so'radim boshimni ko'tarayotib.

— Anavu bir ko'zi ko'r qorovul bor-ku, o'sha pul olib kirgizarkan, — dedi yuzimni silab xolam, — shuncha kundan buyon bilmaganimni qara-ya. Bilsam, har kuni kelmasmidim?! Tur, betingni yuv, Bibiqiz amming tovuq pishirib kelgan ekan. Jiyanimni yana ko'rolmayman deb, yig'lab-yig'lab ketdi...

Shahar ahlining og'zidan yana bizning gapimiz tushmay qopti. Meni, ayniqsa ko'p tilga olishayotgan emish. Ko'pchiligi sog' dermish, bir xillari miyasi sal aynigan bo'lsa bordir, deyishayotganmish. Lekin men esli yigit bo'lganim uchun, bularga e'tibor bermasligim kerak ekan. Xolajonim ketaturib shunday dedi:

— Ha, aytgandek, — dedi sumkasini titkilab, — senga gazeta olib keluvdim-a. Esimdan chiqib qolayozibdi.

Ataullo muallim yozgan. Sening haqingda. Doktorlarga ko'rsatma, ularniyam tanqid qilgan.

Shahrimizda chiqadigan gazeta. Maqola uchinchi sahifada ekan. «Bola ko'ngli — chinni piyola» deb sarlavha qo'yishibdi. O'qishdan oldin imzosiga ko'z tashladim. Margarita Markova, Ataullo Isayevich... o'qiyapman, qayta-qayta o'qiyapman.

Baribir, to'ymayapman. Yuqori idoralarga shikoyat yozgan o'quvchini, hali shikoyat tekshirilib bo'lmasdan turib jinniga chiqarib shoshilinch ravishda shahar ruhiy kasallar shifoxonasiga joylashtirishga kimning haddi sig'di ekan? Karimovning kasali ruhiy emas, balki asab buzilishidan yuzaga kelganligini Toshkent asab kasallari sanatoriyasidan berilgan ma'lumotnoma ham tasdiqlab turuvdi-ku — xullas ana shunaqa gaplar yozilgan... Ertalab meni chiqarib yuborishar deb o'ylagandim, yo'q, ertasiga ham, indinisiga ham javob berishmadi. Aksincha, meni viloyat kasalxonasiga o'tkazib yuborishdi. U yerda ham bir oycha qolib ketdim. Ming bir chig'iriqdan o'tkazishdi. Hayriyat, Mastura Xayriyevnaga o'xshagan mehribon opalar o'sha yerda ham ko'p ekan. O'shalarining yordami bo'lib, chiqayotganimda Zafar Karimovda hech qanday ruhiy kasallik alomati sezilmadi, o'qishni davom ettirishi va yoki xohlasa istagan kasbida ishlashi mumkin, degan mazmunda ma'lumotnoma qilib berishdi.

VI B O B

Sizning ham bir qarorga kelolmay, ikkilanib, oromingizni yo'qotgan paytlaringiz bo'lganmi? Ertalab bir narsaga jazm qilasiz, peshinga borib, yo'q, bu bo'lmaydi, deysiz. Boshqasini o'ylay boshlaysiz. Kechga tomon ikkala qaroringizdan ham voz kechasiz, qalbingiz bo'm-bo'sh bo'lib qoladi. Bo'sh qalabda tuni bilan yana alamdanmi, qasosdanmi o't yonib, vujudingizni lovullatib kuydira boshlaydi. Uyqingiz qochadi, terlab ketasiz. Ko'p dard bilan olishdim, lekin ikkilanish dardidan og'iri bo'lmas ekan.

Yo'q, ikkoviniyam o'ldiraman... Bu — jinoyat-ku?

Uyiga o't qo'yaman ularning, nega, bu jinoyat emasmi?

Qasos bilan insof olishyapti vujudimda.

O'n olti yoshimda men molu dunyoga nega bunchalik hirs qo'ydim ekan? Otamdan o'tdimi, onamdan yuqdimi?

Har ikkovining qalbi mening ko'ksimda urib turibdi. Ruhimda ularning ruhi, xarakterimda — xarakterlari, ongimda — onglari yashayapti. Nimani orzu qilishgan bo'lsa, o'sha orzu tomirlarimda qizil qonimga qo'shilib oqayotgandek. Sudga

tortib, sharmandalarini chiqarib, boyligimizni qaytarib olmoqchi bo'ldim, bo'lmadi. Bas qilaymi, yo'q, yo'q! Ilgari bas qilsam ham endi bas qilmayman. Nega meni jinniga chiqarishadi? Sog' ekanman, mana qo'limda viloyat kasalxonasi bergan ma'lumotnoma bor. O't qo'yamanu militsiyaga yugurib boraman, meni qamang, sudga bering, deyman. Sudda sharmandasini chiqaraman ularning.

Mart oyining boshlarida kunlar to'satdan isib ketdi. Lutfi xolam bilan Bozorvoy amakim, bu uy sizlarniki, singlingni olib kela qol, remont qilaylik, ota-onangning chirog'i uchib qolmasin, deyishdi. Taklif Barno xolamga ham ma'qul tushdi. Pochchamning xasislikdan tashqari, begonani xushlamaydigan odati ham bor ekan. Keyingi paytda qovog'i ochilmay qoldi. Magazinda savdoning mazasi yo'qligini bahona qilib kimlarnidir so'kkani-so'kkan.

— Qaytaga o'sha yerda tursanglar sizlarga yaxshiroq qarayman, — dedi Barno xolam o'pkasi to'lib, — nima qilay, peshonamga shunaqa er bitgan ekan.

O'n kuncha remont bilan ovora bo'ldik. Eh, qanday yaxshi bo'ldi-ya, hasharga kimlar kelmadi deysiz! Butun mahallamiz ishtirok etdi desam ishonavering. Ataullo muallimning chalakam usta o'g'illari, Turob melisaning molboqar farzandlari, birga o'qigan o'rtoqlarim — sayl bo'lib ketdi o'ziyam. Osh-ovqatni qo'shnilar chiqarib turishdi. Ko'chgan joylar alebastr suvoq bo'ldi, oqlandi. To'rt xona bo'yoqdan chiqdi. Mahallamiz yaxshi ekan... Bir xayolim, Ataullo Isayevichga shogird tushib ustachilikni o'rganay, gultuvak yasab ham tirikchilik o'tkazsa bo'ladi-ku, deb o'yladim. Yana tag'in, men gultuvak sotib kun ko'raman-u ular otam bilan onam topgan boylikni yeb yotishar ekan-da, deb g'azabga keldim. Yo'q, baribir o't qo'yaman!

Akam, keyinchalik o't o'chiruvchilarning aniqlashicha, uyni benzin sepib yoqqan ekan. Miyamga shu fikr o'tirib qoldi. Ikki kanistrda to'ldirib benzin keltirib, omborxonaga kiritib, ustini eski to'n bilan urab qo'ydim. Sizga voqea qanday yuz bergan bo'lsa, shundayligicha so'zlayman. Keyinchalik men bu gaplarni militsiyada ham aytdim. Harakatlarimni ixtiyorimdan tashqari allaqanday yovuz, beshafqat bir kuch boshqarganini, shu kuch

ongim va shuurimni o'z qo'liga olib, boshla, tez bo'l, deya buyurib turganini endi sizdan ham yashirmayman. Qiziq, o'sha daqiqalarda men xuddi xayrli ishga qo'l urayotgandek o'zimdanda o'zim mamnun edim.

Badalovlar xonadoniga ko'p borganman. Uylari burchakda, ikki tomoni ko'cha. Darvoza ochiladigan taraf serqatnov. Narigi tarafining boshi berk — qatnov yo'q hisobi. Shu tomondan devorga tegib o'sgan olisha daraxtlari yordamida hovliga tushsa bo'larkan. Devorga chiqishingiz bilan shundoqqina pastroqda tandir turibdi, uyog'i hovliga odam bo'yi xolos... Men bularni kechasi, el uxlaganda tekshirdim. Ilgari bunaqa ishlarni, hech qilmagandim, yuragim hapriqib, nafasimning qisilishi ehtimol shu boisdandir. Qiziq, yuragim hapriqiyapti-yu butun borlig'im bilan ilgari tuymagan g'alati huzurni his qilayotgandekman. Hozir, sizga hikoya qilayotgan shu daqiqalarimda bu voqealarni endi, shuncha alg'ov-dalg'ovlar bo'lib o'tgandan keyin, ayniqsa, Ataullo Isayevich singarilarning, jinoyatni jinoyat bilan tugatib bo'lmaydi, deya bunga meni ishontirganlaridan so'ng, sal boshqacharoq ta'riflashim mumkin edi. O'sha paytda butun ruhimni o'ch, molu dunyoga bo'lgan hirs — ehtiros qamrab olgan, bu tuyg'u xavfsirash deb ataladigan boshqa bir tuyg'udan xiyla ustun edi. Shu ustunlikdan harakatlarim dadil, oyog'im chaqqon, ishonchim komil edi.

Tungi soat uchlarda benzin to'la kanistrni olib ko'chaga chiqdim. Osmonni qora bulut qoplagan. Eshiklar tepasida onda-sonda yog'ib turgan lampochkalar arang miltiraydi. Aтроf qorong'i. Na bir sharpa, na bir tiq etgan ovoz bor. Butun borliq bamisoli mening qaltis harakatimni kuzatib, nafasini ichiga yutib turgandek. Niyatimni qanday amalga oshirishimga qarab menga baho beradigan-u tasanno aytadigandek. Ana shunday sirli sukunatlar ichida jinoyat bilan jinoyatni to'xtatishi mumkin bo'lgan omil o'zaro kelishib, ikkovi ham tomoshabinga aylanib, nafasini ichiga yutib jim qolarkan. To'g'ri, keyinchalik qonun yeng shimarib ishga tusharkanu tergovchi, sudya nomidan gapirib, harakatingizni baholay boshlarkan. Lekin baribir, qalbingizning tub-tubida nima borligini, o'sha daqiqalarda sizga nimalar dalda berib, nimalar turtki bo'lganini, baribir, ta'riflab

bera olmas ekan. Takror aytaman, men bu gaplarni sizdan ko'ra ko'proq o'zim uchun takrorlayotganga o'xshayman. O'zimni o'zim sud qilib, o'sha daqiqalarda qalbmning qaysi burchagi yorug'u qaysi burchagi qorong'i, qorong'ilik nimadan iborat ediyu, yorug'lik nimaning aksi edi, ruhimdagi jasorat, tomirlarimdagi qonning qaynab turishi nimaning boshlanishi-yu, nimaning ro'yobga chiqishi edi, ana shuni bilib olmoqchiman shekilli. Nazarimda, o'sha daqiqalarda men mutlaqo anglamagan, his qilmagan holda ruhimdagi qo'rquv bilan jasorat yuzma-yuz kelib, qo'rquvning orqasiga vahimayu jasoratning ortiga dalda berkinib olib, boshla — to'xtat, boshla — to'xtat, deb shivirlayotgandek edi. Qiziq, bu chindan ham ruhimdan oqib kelayotgan ovozmidi yoki yuragimning gursillab urishimidi — anglab yeta olmas edim. Ongim, shuurim ixtiyorimda emas, yelkamga devmi, alvastimi minib olgandek edi... To'g'ri, keyinchalik meni qayta-qayta sud qilishdi. Lekin, takror aytaman, o'sha daqiqalardagi holatimni baribir to'g'ri ta'riflay olmadilar.

Tandirning ustiga o'tgach, nafasimni ichimga yutib shohona hovliga nazar tashladim. Ha, ha, chindan ham, shohona! Dadamga o'xshagan, onamga o'xshagan o'nlab kishilar birovlarining haqidan urib, yeyayotganini og'zidan tortib olib, militsiyaga chap berib, nazoratdan qochib, qasam ustiga qasam ichib, tiyinlab yiqqan harom pullar evaziga tiklangan shohona imorat. Endi u kuyib kul bo'ladi. Tandirning ustida boyo'g'lidek cho'nqayib o'tirganimda ana shunday fikrlar miyamdan charx urib o'tayotganini his qildim. Pastga tushgach, ko'zimni yirib-yirtib ochib, benzin seplashni qayerdan boshlasam ekan, deya qorong'ilik yutib yuborgan hovlidan qulay joy axtarar ekanman, shu darajada, e, tavba, miyamda yana qarama-qarshi fikrlar talashib-tortishib o'ta boshladi. Nazarimda, ikkiga bo'linib ketgandek bo'ldim.

— Chakki qilyapsan, — dedi birinchi qismim.

— Tezroq boshla, — deyapti ikkinchi qismim.

— Jinoyat qilyapman!

— Jinoyat emas, o'ch olyapsan!..

O'g'ri mushukdek sharpasiz qadam bosyapman. O'n sakkiz metrlik katta ayvonga benzin sepib yana tandir yoniga qaytdim.

Jimlik, oromli uyquga ketishgan hammasi. Ehtimol, Badalov uyg'odir, ko'zini shiftga qadab, kunbo'yi olgan pullarini ovoz chiqarmasdan, fikran hisoblab yotgandir... Chiqib kelib, shu holimda ushlab, olishganda ham yaxshi bo'lardi. Ushlab olib sudga berishardi. Sud davomida men uning o'zini fosh qilib tashlagan bo'lardim. «Volga»mizni qaytarib olardim...

— O't qo'yma, fikringdan qayt, — deyapti birinchi qismim.

— Tezroq boshla, o'ch olyapsan, — deyapti ikkinchi qismim.

Badanimdan yopishqoq, badbo'y ter chiqib ketganini his qildim. Qo'llarim qaltiray boshladi. Qo'ltig'imdagi gazetani olib koptokdek yumaloq qilib o'ray boshladim. Tandir ustiga chiqdim. Yondirib, uzoqdan otaman, bo'lmasa o'zim ham yonib ketishim mumkin. Kunduzi o'ylab qo'yganman bu usulni. Yonib turgan qog'oz koptokni qulochkashlab otdim... Ayvondagi alanga men otgandan keyin ko'tarildimi, yoki gugurt chaqayotganimda ko'tarilganmidi — anglolmay qoldim. Ko'chadagi ariqqa o'zim otildimmi yoki benzin yuqi kanistr portlaganda o'shaning to'lqini ko'tarib urdimi, buni ham payqamay qoldim. Magazin tomonga qochib borayotganimnigina aniq sezib turibman. Ha, ha, qochib boryapman. Nega qochyapman, buni ham bilmayman. Maktabimizga yetganda to'xtab, orqamga o'girildim — dahshat! O'sha tomon kunduzdek yorishib ketibdi. Mahallani boshiga ko'tarib, vahimali signal chalib bir-birini quvlashib o't o'chiruvchi mashinalar o'ta boshladi. Qaytdim, qo'rqadigan joyim yo'q-ku, axir! Ushlashsa, qaytaga yana yaxshi — niyatim ham shu edi. Yo'q, hali Muhamedov turibdi. U bilan ham bir gaplashib qo'yaman. Olov tili bilan, lovillab yonib turgan qizil alanga tili bilan gaplashaman.

Odam demagani ko'chaga sig'may ketibdi. Olov shunday balandki, tafti ikki yuz metr yerga uryapti. Yorug'i ham kuchli, ignada chok tiksa bo'ladigan. Ko'cha tarafdagi derazalarni buzib, xonadon egalarini tortib olishyapti. Oxiri Qo'mondon xola chiqdi. Xalatining orqa tomoni yonayotgan holda tortib olib, yalang'ochlab allaqachon yetib kelgan tez yordam mashinasiga tiqishdi. Ichkarida olov goh pasayib, goh ko'tarilib yana atrofni charog'on qilib yuboryapti. Tomoshabin ko'pmi,

o't o'chiruvchi mashina ko'pmi, bilib bo'lmaydi. O'nlab brezent shlankalar ilondek bilanglab goh o'ngga, goh chapga tortilyapti. Olov pasayib, hammayoqni nam, achchiq tutun qoplab kela boshladi.

Men o't qo'yganimni odamlar payqadimikin, shuni bilmogchiman. Goh u to'daga, goh bu to'daga o'tib quloq solaman.

— Voy, tovba, bu mahallaga nima balo bo'ldi o'zi!

— Shuni aytaman-da, yaqinda bittasiniki yonib kul bo'luvdi.

— Badalovlar o'zi bosar-tusarini bilmay qoluvdi.

— Qarg'ishga qoldi, desangiz-chi.

— To'g'ri aytasiz, xudoyo uying kuygur, deganlar, kammidi?!

— Aytishlaricha, shaharda chayqovchilikni o'zi ataylab avj oldirarkan.

— Tushgan foyda arra bo'ladi, shuni ham bilmayapsizmi?

— Esizgina imorat-a!

— Achinyapsizmi? Achinmang, o'zlari sog' qoldi-ku... Yuzdan bir boyligi ham ketgani yo'q. Qop-qop pullari, jaroq-jaroq tillolari bor deyishadi...

— Siz gumburlagan ovozni eshitdingizmi?

— Gumburladimi?!

— Gazxonasi portladi shekilli.

— Tillalari bo'lsa erib ketdi desangiz-chi.

— Haromdan topgan — olovda ketarkan-da.

— O'zlari o't qo'ygan bo'lishlari ham mumkin.

— Komissiya ustiga komissiya bosayotuvdi.

— Bularning qo'lidan har balo keladi.

— Hoy, qo'shnilar, qo'ysalaring-chi, shunaqa gaplarni. Nima bo'lganda ham xudoning bandasi.

— To'g'ri aytasiz, ovsin. Boyishsa, boyligini Afg'onistonga olib o'tib ketarmidi. O'zimizga to'y qilib berishadi-da.

To'dadan-to'daga tez-tez o'tib turibman. O't o'chiruvchilarning landovurligini pisanda qiluvchi so'zlarni hisobga olmaganda, hammasida bir xil gap. Nafrat bilan quvonch, achinish bilan qanoat aralashib turibdi. Menga bularning qizig'i yo'q. Jinoyatchini sezishdimi, yo'qmi — shuni bilmogchiman. Sezishmaganga o'xshaydi.

— Voy, Zafarjon, sen ham shu yerdamisan? — deya bilagimdan ushladi Lutfi xolam, — aytdima ko'cha eshik ochiq deb. Mendan oldin yugurib chiqqan ekansan-da. Sovuq qotib ketibsan, yura qol toylog'im. Bunaqa narsalarni ko'rmaganing ma'qul. Zo'rg'a oyoqqa turg'azib oldim seni... Ataullo muallim jindek dovdirroq bo'lsa ham hamisha to'g'ri gapni aytadi. Bu dunyoda yomonlik jazosizu yaxshilik mukofotsiz qolmas ekan. Qarg'ishga uchradi bular. Yura qol, arslonim.

Yanagi haftaning xuddi shu kunida, chorshanbadan payshanbaga o'tar kechasi Muhamedovning uyiga ham o't qo'ydim.

VII BOB

O't qo'ydimu Mutal oshpazning hovlisi orqali ko'chaga chiqib, qo'limdagi kanistrni salanglatib, militsiya idorasiga yugurdim. Ikki-uch bor to'xtab orqamga o'girilib qaradim. Alanga ko'tarilibdi — demak yonyapti! Kanistrni tashlamayman. Bu menga ashyoviy dalil bo'ladi, benzin to'kib o't qo'yganimni tasdiqlaydi.

Navbatchi militsioner boshini muzdek stolga qo'yib mudrab o'tirgan ekan.

— Nima gap? — dedi uyqusiragan ko'zlarini menga qadab.

— Meni qamang, — dedim entikib.

— Nima?!

— Tezroq bo'ling. Bo'lmasa ushlab olib uldirib qo'yishadi.

— Uyqusirayapsanmi? Kim o'ldirib qo'yadi seni?

— Men o't ko'yib kelyapman.

— O't quyib, qayerga?

— Sudya Muhamedovning uyiga.

— Nima?!

Militsioner o'rnidan turib ketdi. Qaytib o'tirib, «01»ga qo'ng'iroq qilib, tinchlikmi, deb so'radi. Ancha mahal, tak, deb turdi-da, trubkani taq etkazib o'rniga qo'yib, xo'mrayganicha, negadir, ko'zimga emas, qornimga tikildi:

— Axmoq!

— O'z ixtiyorim bilan kelganimni bir joyga qayd qilib qo'ying.

— Ahmoq! — engashib g'aladonidan bir dasta kalit oldi militsioner, — qo'lingdagi nima?

— Kanistr, shundagi benzinni to'kib o't qo'ydim... — Qani, buyoqa ber-chi.

— Yo'q, o'zimda turadi.

— Ber deyapman!

— Bo'lmasa aktingizga buniyam qo'shib qo'yasiz. Kanistrniyam o'z ixtiyori bilan topshirdi deysiz.

— Ahmoq!

Shu so'zdan boshqasini bilmaydi shekilli, ikki kishi yotgan xonaga kiritib qo'yguncha o'n martacha takrorladi. Xona nimqorong'i. Sim to'r orasiga qo'yilgan lampochkadan tuynukchaga ojizgina nur tushib turibdi... Yuragim urib ketdi — oyijonim yotgan xona-ku bu! E, tavba, mana bu tasodifni qarang. Qamalishimni bilardim-u lekin mehribonim yotgan xonaga tushib qolishim yetti uxlab tushimga ham kirmagan edi. E, tavba!.. Burchakda ikki kishi g'ujanak bo'lib yotibdi. Biri men tengi yigitcha, nasha sotibdi. Bir o'ramini uch so'mdan pullayotganda qo'lga tushibdi. Boshqasi dadam tengi bir kishi. Xotinini uribdi. Bu gaplarni men ertasiga eshitdim. U hozir burchakda, ikki tizzamni quchoqlab, mung'ayibgina o'tiribman. O'zimni emas, oyijonimni o'ylayapman... Birinchi bor bu yerga kiritib qo'rganlari-da bechoraning ko'nglidan nimalar kechdi ekan? Hoyna-hoy, yig'lagandir. Men hecham yig'lamayman. O'z ixtiyorim bilan keldim-ku! Yo qochishim kerakmidi. Qochib qayoqqa ham borardim. Ataullo Isayevich, odam o'zidan qocholmaydi, derdi, qiziq gap-a... Har qanday sudga chap berish mumkin, lekin vijdon sudiga chap berib bo'lmaydi, degan gaplarni ham aytgan. Bu ham qiziq gap-a, to'g'rimi?

...Ertalab hamxonalarimni olib chiqib ketishdi. Anchagacha qaytishmadi. So'roq berishayotgandir-da. Nihoyat, menga ham navbat keldi. Bitta eski stol, to'rtta kir, qiyshiq stul qo'yilgan xona. Orqamdan tergovchi ham kirdi. Qo'ltig'ida qog'oz papka, gap qo'shmadi. O'tirib bir narsalarni yoza boshladi. O'rta bo'y, mittigina. Bug'doyrang yuzi etsiz, terisi suyagiga yopishgan. Angishvonadan sal katta burnining ostida o'rmalab ketayotgan,

ha, ha, o'rmalab ketayotgan qo'ng'izchaga o'xshash mo'ylovchasi ham bor. Sochi quyuq, mum surtilgandek qopqora. Hammayog'idan burqsib «Shipr» atirining hidi kelib turibdi.

Nihoyat, boshini ko'tardi. Ko'zi muloyimgina boqarkan. Ismim, familiyam, turar joyim, o'qigan maktabimni aniqlab oldi.

— Qani, bir boshdan gapiring-chi, — dedi oxirida.

— Meni tergov qilmoqchimisiz? — deb so'radim.

— Ba'zi narsalarni aniqlashga to'g'ri keladi.

— Javob bermayman.

— Sabab?

— Mening yonimda advokatim bo'lishi kerak.

— Bu qanaqasi bo'ldi endi?

— Qoida shunaqa ekan. Kasalxonada yotganimda eshitganman, — deya tushuntira boshladim. — O'n sakkiz yoshga to'lmaganlar balog'at yoshiga yetmagan hisoblanarkan. O'z qulog'im bilan eshitdim. Bunday kishilarni advokat ishtirokida tergov qilish kerak ekan.

— Zakonchi ekansiz-ku, yigitcha.

— Siz ham otangiz qamalib, onangiz o'lib, bir yo'la ham akangizdan, ham ukangizdan judo bo'lsangiz, zakonchi bo'lib ketardingiz.

— Said Karimovning o'g'limisiz?

— Ha.

— Men tergov qilayotganim yo'q. Kechasi arz bilan kelgan ekansiz. O'shaning tafsilotlarini aniqlamoqchiman.

— Baribir, savol beryapsiz-ku.

— Javobingiz protokolga yozilmaydi. Uni chinakam tergovchi yozadi. Agar jinoyat qilgan bo'lsangiz, sizga maxsus tergovchi tayinlashadi. Advokatni o'shandan talab qilishingiz mumkin.

— Baribir, javob bermayman.

— Qaysarlik qilmang.

— Keyin yana bir iltimos, — asta-sekin dadillashib borayotganimdan o'zim ham hayron edim, — qamoqxonada yotganimni shahar prokurori o'rtoq Ibodovga ma'lum qilib qo'ysangiz.

— U... kimingiz bo'ladi?

— Hech kimim.

Tergovchi menga tikilib qoldi. Men ham tikildim. Lekin ko'zlarida qanday ma'no borligini uqib ololmadim, achinyaptimi, nafratlanayaptimi — bilib bo'lmaydi. Ehtimol, ey, yigitcha, shoshmay tur hali, bedana bo'lib sayrab berasan, deb o'ylayotgandir. Sayrab bo'pman! Mazax qilayotgandek bir jilmayib qo'ydi, men ham jilmaydim...

— Javob bermayman deng?

— Ikki dunyoda ham.

Papkasini qo'ltiqlab chiqib ketdi. Nazarimda niyatimga yetish yo'lida birinchi g'alabaga erishdim, shekilli. Demak, qattiq tursam ikkovini ham sudga tortib, sharmandasini chiqarib, biridan «Volga»ni, boshqasidan oyijonimning taqinchoqlarini undirib olsam bo'larkan.

Qancha yotdim, bilmayman, kech kira boshladi shekilli. Tuynukchadan botib borayotgan quyoshning qizg'ish shafari ko'rinyapti. Tashqarida havo ochiq, osmon bulutsiz bo'lsa kerak hamxonalarim cho'zilib yotishibdi. Men bilan deyarli gaplashishmaydi. Xotinini urib kelgan kishi har zamonda gurzidek og'ir mushti bilan polni gursillatib urib-urib qo'yadi. Og'ir, alamli o'ylar unga tinchlik bermayotganga o'xshaydi. Nasha sotib qo'lga tushgan yigitcha bo'lsa goho boshini ko'tarib:

— Yomon xumor qilyapti-da! — deb qo'yadi.

Indamayman. Ko'z o'ngimdan goh sovuq nigohli Muhamedov, goh ko'zi ilonnikidek sariq Badalov o'tadi. Xayolan yana ikkovini sud qila boshlayman. Ahvollari tang. Uyatdan, nomusdan boshlarini egib olishgan. Ayblarini shartta-shartta ochib tashlayapman.

— Karimov!

Sakrab o'nimdan turib ketdim. Qiya ochilgan eshikdan oldin melisaning qizil shapkasi, keyin ishshayib turgan yuzi ko'rindi:

— Tergovga!

Xayriyat, deya entikib orqasidan ergashdim. Ertalab kirgan xonamda, o'sha ertalab meni so'roq qilolmay xunob bo'lib chiqib ketgan qora soch yigit o'tiribdi. Endi forma kiyib olibdi — kichik leytenant ekan.

— Qani, o'tiring-chi.

O'tirdim. G'alati qilib tikildi. Men ham tikildim.

— Gap bunday, Zafarjon, siz hozircha uyga boravering.
Kerak bo'lganda o'zim yana chaqiraman.

— Nega? — deb o'rnimdan turib ketdim.

— Shunga qaror qildik.

— Men jinoyatchiman axir, sud qilishlaring kerak.

— Sud qilish qochmaydi.

— Ketmayman!

— Shovqin solmang.

— Bo'lmasa, dodlayman hozir. Men... men hamma narsasidan judo bo'lgan bolaman. Hammasi kuyib kul bo'ldi, hammasi o'ldi. Endi ularni ham sudga olib kelinmaguncha qo'ymayman.

— Albatta, sizga oson emas.

— Menga boshliqni chaqirib berasiz.

— Boshliq mehnat ta'tilida.

— Ketmayman dedimmi, ketmayman. Sudgacha shu yerda o'tiraman. Chiqsam o'ldirishadi. Bilaman, urishmaydi, lekin boshqacha yo'l bilan tinchitishadi.

— Zafarjon, tushunsangiz-chi, hozircha sizga hech kimning da'vosi yo'q. O'zingizni o'zingiz aybdor hisoblaganingiz bilan sizni aybdor hisoblash uchun militsiyaning qo'lida ham isbotu dalil bo'lishi kerak. Hozircha bizda unaqa narsa yo'q. Sizni ushlab turolmaymiz. Buning ustiga siz shaharda ancha mashhur ekansiz, ming joydan qo'ng'iroq bo'lyapti.

Ikki odim tashlab yaqiniga keldim-da, ko'ziga qattiq tikilib:

— Dadamni qamalganini eshitgandirsiz? — deb so'radim.

Leytenant xiyol orqaga chekindi. Lekin xuddi ilon ushlayotgan ovchiga o'xshab ko'zini ko'zimdan olmay turibdi:

— Eshitganman.

— Onamning o'lganini-chi?

— Bilaman.

— Akamni-chi, ukamni-chi?

— Hammasidan xabarim bor, Zafarjon. Sizga qiyin, juda qiyin. Shuning uchun ham uyga borib, bir-ikki kun dam oling.

— Mening yashashimni istaysizmi?

— Bo'lmasa-chi, nega bunday deysiz?

— Agar istasangiz, — dedim ovozingga vahimali ohang berib, — meni bu yerdan zo'r lab chiqarmang. Chiqarsangiz o'zimning ham ustimdan benzin quyib o't qo'yaman.

Leytenant yana bir odim chekindi-da, qo'y ko'zlari baqraygancha menga battarroq tikildi. Hayron qoldimi, qo'rqib ketdimi, bilib bo'lmaydi. Yelkasini qisgancha chiqib keta boshladi.

Qaytarib xonamga kiritib qo'yishdi. Hamxonalarim tinchlikmi, degandek bir-bir boqishdi-yu, savol berishmadi. Suhbatlarini davom ettirishdi. Xotinini urib kelgan kishi chekar ekan, xonani achchiq tutunga to'ldirib yuboribdi, nafas olib bo'lmaydi. Xiyol o'tmay menga ketma-ket ikkita tugun kirdi. Ikkoviyam qog'oz xaltada. Birida dimlab pishirilgan tovuq, parnikda o'sgan sapcha bodring, yangigina uzilgan bo'lsa kerak, suvning ta'mini beradigan hidi anqib turibdi. Yemasimdan og'zim suv ochib ketdi. Boshqasida kolbasa, pishloq, besh-o'nta «Qoraqum» shokoladi ham bor... Kimlar keldi ekan...

Xolanmi, Ataullo muallimmi? Bodring muallimdan bo'lsa kerak, ko'p odamlarning uyiga parnik yasab bergan u.

Tugunlarni o'rtaga qo'ydim. Suhbat qizidi. Xotinini urib kelgan kishining men tengi o'g'li, uchta qizi bor ekan. Kichigini — uch yoshlisini juda sog'inibdi. O'zidan ko'ra ham uning gaplarini sog'inganmish.

— Sen hech nasha chekkanmisan? — so'radi yigitcha.

— Chekmaganman, — dedim.

— Nasha chekmabsan, dunyoga kelmabsan. Ayniqsa u, og'aynijon, ishtahani karnay qiladi. Bir lagan palovni ko'rdim demaysan. Oh, hozir bir tortganimdami-di! Xayriyat, tortmaganing, deb o'yladim ichimda. Bo'lmasa, tovuqning bitta ham oyog'i menga tegmagan bo'lardi.

— Mening fikrim bunday, — deb endi kolbasaga qo'l cho'zdi yigitcha, — militsiya xodimlarini ham nasha chekishga o'rgatish kerak. O'shanda bizni tinch qo'yishadi. Oh, uning kayfi, odam qushdek yengil bo'lib osmon-da uchadi... Shokolad yangi ekan. Qara, yumshoqqina turibdi-ya. Ol, o'zing ham yegin. Sen boyning bolasisan-da, hali senga bunaqa narsalardan ko'p

keladi. Bizga esa alangali salom aytib yuborishadi, xolos... Dadangni otishganmi?

— Nega unday deysan? — qo‘rqib o‘rnimdan turib ketayozdim.

— Shaharda ovoza tarqab ketdi-da... Pishloqlarni o‘zlarining tayyorlaysizlarmi?

Yoqtirmay qoldim bu bolani. Qolgan ovqatni yig‘ishtirib xaltaga soldim-da, borib o‘rnimga cho‘zildim. Ertalabgacha gap qo‘shmadim. Kunbo‘yi hech kim yo‘qlamadi. Qiziq, nega jim bo‘lib ketishdi ekan? Yongan uylarni tekshirish bilan mashg‘ul bo‘lishayotgandir-da. Uchinchi kuni ertalab, xayriyat, yo‘qlab qolishdi. Tergov xonasiga kirib tik turgan Husanovni ko‘rdim. Mayor, oyimni tergov qilgan odam shu. Demak, militsiyamizga boshliq bo‘libdi-da,

— Assalomu alaykum, — dedim shosha-pisha. Keyin, odatimga ko‘ra ko‘zlariga tikildim. Sizga ilgari ham aytganman, suhbatdoshimning gapidan ko‘ra ko‘proq ko‘zlariga ishonaman. Bu dadamdan yuqqan odat. Aytilmagan gapni, ko‘pincha, ko‘zdan o‘qib olsa bo‘larkan. Ko‘z haqiqatchi, so‘z aldamchi bo‘ladi, derdi dadam. Mayorning katta-katta ko‘m-ko‘k ko‘zlarida men qorasoch leytenant ko‘zlaridan o‘qiganim loqaydlikni emas, balki vahima aralash achinishni ko‘rdim. Siz tubsiz jarlikka qulab borayotgan bolaning tepasida turib, shu daqiqadagi o‘z ojizligini sezgan otaning ko‘zlarini kuzatganmisiz? Avtobus oyog‘ini qoq ikkiga bo‘lib ketgan kishining tepasiga to‘plangan odamlarning ko‘zini-chi? O‘sha ko‘zlarda, bilsangiz, achinishdan tashqari aybdorlik ham akslanib turadi. Mushtumdek bola buncha mahmadonalik qilyapti demang. Yo‘q, men kuzatganlarimni aytyapman. Mayor tik turgancha sigaret chekib, og‘zi-yu burnidan para-para ko‘m-ko‘k tutun chiqarib, menga ana shu tutunlar orqali hamon tikilib turardi.

— Xo‘sh, yigitcha, eshitaman, boshliqda qanaqa gapingiz bor edi?— shoshmasdan so‘radi mayor.

Ikki xonadonga nima maqsadda o‘t qo‘ygan bo‘lsam, bu ishlarni qanday bajargan bo‘lsam, birma-bir aytdim. Mayorning keng peshonasi goh tirishdi, goh qoshlari chimirilib, o‘rtasida

asabiy tugunchalar paydo bo'ldi. Silliq yuzining yanoqlari tez-tez pirpirab uchib turdi.

— Obbo yigitcha-ey, — dedi nihoyat gapim tugashi bilan, — qani, o'tiraylik bafurja gaplashadiganga o'xshaymiz. Men bilan ko'rishmoqchiligingizni eshitib xursand bo'ldim. Yaxshi qilibsiz. Boshingizga tushgan tashvishlarni boshqalardan ko'ra men chuqurroq his qilaman. Shu yigitchaga biron yordam uyushtirish kerakmidi, deb ham o'ylagan paytlarim bo'lgan. Uylarning yonishi masalasiga kelsak, bu yerda sizning aybingiz yo'qqa o'xshaydi. Avvalo, shuni aytish kerakki, sizga hech kim da'vo qilayotgani yo'q. Qolaversa, o't uchiruvchilarning aniqlashlaricha, Badalovning uyidagi yong'in ayvondagi schyotchikning zamekaniyesidan chiqqan, Muhamedovnikida esa gazxona portlagan.

— Yolg'on! — dedim polni tepib, — ikkoviga ham o'zim o't qo'rganman.

— Faraz qilaylik, o't qo'ydingiz ham deylik, buni kim tasdiqlaydi?

— O'zim.

— O'zingiz ham jinoyatchi, ham guvoh, ham ayblovchi, shundaymi?

— Xuddi shunday.

— Yo'q, bunaqasi ketmaydi. Birovni qamash, javobgarlikka tortish uchun militsiyaning qo'lida ham yetarli asos bo'lishi shart. Unaqasi yo'q, hozircha.

— Demak, "Volga"ni maza qilib minib yuraverishar ekan-da? — yig'lamoqdan beri bo'lib dedim.

— Qo'ying bu gaplarni, — mayor o'rnidan turdi, — mening ham ishim boshimdan oshib yotibdi. Sizga kamoli achinganimdan oldingizga chiquvdim.

Mayorning gapi chala qoldi. Eshik zarb bilan ochilib, qo'lida kattakon qizil sumka, hovliqib Qozi xola kirib keldi. Kira solib meni mahkam quchoqlab o'pa ketdi. O'pgan sari yuzimni ilon yalayotgandek seskanib ketyapman.

— Xolaginang o'rgilsin, azamatginam! — deb tinmay javrab ham turibdi, — qanday kunlarga qoldik-a, Yoqutxonimning yakkayu yolg'izi! Kindigingni o'zim kesuvdim, roddomdan atlas

ko'rpalarga o'rab o'zim olib keluvdim. Seni nega olib kelishdi bu yerga. Muhamedov amakim bo'ladi, aytib beraman, demadingmi? Hoy mayor, nima qiliq bu? Kasal bolani nega so'roq qilyapsiz... Axir bolaginamning miyasida vos-vos bor, sal anaqaroq bo'lib yurganini nahotki eshitmagan bo'lsalaring! Yur, toylog'im, o'zim olib ketaman. Yoqutxonning arvohi bezovta qilyapti meni, yura qol!

— Taqinchoqlarni qaytarib berasizmi? — negadir tilimga shu gap kelib qoldi.

— Yana alahlay boshladi, sho'rlik bolam. Voy, xudoyim-ey, mayor, nega qarab turibsiz, tezroq doktor chaqirsangiz-chi.

— Men, men alahlayapmanmi? — Ikki qo'llab bor kuchim bilan Qozi xolaning ko'ksidan itardim. Orqasiga tisarilib borib boshi devorga urildi. Yig'lab yubordim. Ko'ksimni yirtib, polni tepib xonada aylana boshladim. Ikkovlari qochib chiqib ketganlaridan keyin xam anchagacha o'zimni bosolmadim... Kechgacha shu xonada qolib ketdim. Kun botish oldidan qora sochli leytenant kirib, qani, yuring bo'lmasa, o't qo'rgan uylaringizni ko'rsating-chi, dedi. Dilim sal yorishgandek bo'ldi. Benzinni qanday sepganimni ko'rsataman deb kanistrni ham so'rab oldim. Belida qizil lentasi bor, usti berk mashinaga o'tirdik. Uncha ko'p yurmadik shekilli, tushayotganimizda... bu qanaqasi bo'ldi... meni yana jinnixonaga olib kelishibdi! Darvoza tepasidagi yozuvdan bilib qoldim. Siltanib leytenantniig qo'lidan chiqdim-da, jinni emasligimning yakkayu yolg'iz isboti kanistrni salanglatib duch kelgan tomonga qarab qocha boshladim. Yetib bo'psan, ovora bo'lma, leytenant! Bu yerga bir bor tushgan odam tozidek chopag'on bo'lib qoladi. Kerak bo'lsa o'zing kira qol o'sha yerga. Aslida men emas, senlarning o'zing jinnisanlar-ku!

VIII BOB

Uyatdan, oru nomusdan, izzat-nafsim haqoratlanganidan, ko'chaga chiqolmay qoldim.

Oyijonim, meni ne kunlarga tashlab ketdingiz? Nega ham qalbimda molu dunyo, boylik ishqini parpiratib yoqib ketdingiz?

Men kim bo'ldim endi, qanday yashayman? Xo'p, endigina o'n oltiga kirdim. Hali ko'p narsani bilmayman. Mulohazam ham siznikichalik chuqur, tugal emas. Qani, bo'lmasa uyog'iga o'zingiz yordamlashib yuboring-chi.

Otam qamalmaganda, onam o'lmaganda, akam kuyib ketmaganda, ukam nobud bo'lmaganda men ustilaridan yozarmidim? Uylariga o't qo'yarmidim?

— Yo'q!

Oyijonim, men qiynalib ketyapman, mahalla to'la vahima, mish-mish, tortishuv:

— Jinni!

— Sog'!

— Jinni!

— Sog'!

Mana, qanaqa muhokama qilishyapti ular. O'zim bilan gaplashganlarida, tashlanib qolmasin deb, xavfsirab turishadi. Ko'zimga tikilishadi. Savol-javobni ham qisqa qilib, tezgina jo'nab qolishadi. Chindan ham aqldan ozgan bo'lsam-a!

Yo'q, men soppa-sog'man!

Dunyoga o't qo'yishga tayyor turgan alamzadaman, xolos. Dadajonim, ahvolingiz qalay hozir? Bilaman, sizga oson emas. Kechqurunlari yolg'iz qolganingizda boshingizni devorga urib yig'layotgandirsiz. Yig'lamang!

Nega bunday bo'ldi, nega shuncha boylik to'plovdingiz?

O'sha boyligingiz ajdaho bo'lib hammamizni yutib yubordiku, xonimonimiz barbod bo'ldi-ku! Nega, siz, dadajonim, Ataullo Isayevichdek muallim bo'lmadingiz, Ilhomning dadasidek avtobus haydamadingiz, nega marhum akam orzu qilgandek yukchi bo'lmadingiz, nega? Mayli, bo'lari bo'ldi. Men sizni ayblamayman. Bir marta sud bo'lgansiz, o'sha ham yetar. Aybli bo'lsangiz ham baribir, siz mening dadamsiz, mehribonimsiz. Faqat yig'lamang.

Yig'lamang, dadajon!

Menga ham oson emas. Hamma o'zini olib qochyapti. Lutfi xolam ko'chaga chiqarmasam, deydi. Chiqsam, bir falokat chiqarmasin deb, orqamdan poylab boradi. Ataullo Isayevich deyarli gaplashmay qo'ydi. O't qo'yganim uchun uyi kuyganlar

kechirdi-yu, qiziq, Ataullo Isayevich kechirmadi. Jinoyatchi bilan gaplashadigan gapim yo'q, tamom, vassalom, dedi-qo'ydi. Gaplashmasa-gaplashmas, nasihatlari ham joningga tegib ketgan edi.

Qozi xola nega bunday qildi? Chindan ham menga achinib gunohimdan o'tishdimikin? Yoki meni jinniga chiqarib, shu jinni bilan olishib nima obro' topardik, deb qo'l siltashdimikin? Tavba, hech tushuna olmadim...

Lekin, baribir shaharda turolmay qoldim. Qalbim qishloqqa, ammamnikiga talpinaverdi. Xolalarimning ruxsati bilan yakshanba kuni ertalab o'sha yoqa otlandim. Shahardan chiqishim bilan, xuddi qamoqdan bo'shagandek dilim yayrab ketdi. O'riklar qiyg'os gullagan, bog'lardan toshib ketay deb turibdi. Ariqlar bo'yida o'tlar ko'karib, chuchmomalar gullab, asalarilarga ermak bo'libdi. Atrofga tikilib to'ymayman. Qizaloqlar tol navdasidan soch popuk taqishibdi. Yangi tug'ilgan qo'zichoqlar sakrashib, bir-birlari bilan quvlashmashoq o'ynashyapti... Nega qo'zichoq bo'lib tug'ilmadim ekan?..

Ammam o'pib, silab-siypalab, yig'lab-yig'lab kutib oldi. Ammavachchalarim ham, nazarimda, quvonib ketishdi. Kamgap pochcham, odaticha quchoqlashib ko'risharkan, qani, bellarimizni ham bir siqishaylik-chi, kim kuchli ekan, deya hazillashgan bo'ldi. Keyin uch kungacha qo'yarda-qo'ymay fermaga olib ketdi. Hidini yomon ko'raman desam ham, otabobong mol boqib katta bo'lgan, dadang axmoqlik qilmaganda yaxshigina molboqar bo'lardi, orden olardi, menga o'xshab deputat ham bo'lardi, deb qo'ymadi. G'aramdan pichan olib, aravachaga yuklab, uzundan-uzoq bo'lib cho'zilib ketgan oxurlarga tarqatar ekan:

- Qalay? — deb so'rab qo'yadi goho.
- Bu juda oson-ku, — deyman.
- Yo'q, hidini aytyapman. O'rganib qolay deyapsan-mi?
- Baribir, burnimdan nafas ololmayapman.
- Bora-bora o'rganib ketasan. Keyin xumor ham qiladigan bo'lib qoladi. Men hali-hali sartaroshxonaga kirolmayman, atirning hidi ko'nglimni aynitadi... Mol jannatdan chiqqan

deyishadi, jiyani. Unga mehr ko'rsatsang, kam bo'lmaysan. Dadang Saidjon shaharga ketmasdan oldin, menga o'xshab buzoq boqardi. O'ziyam, buzoqchadek yuvosh edi... E, u paytlarda bunaqa binolar qayoqda edi. Molxonaning ichkarisiga kunduzi chiroq ko'tarib kirardik. Qop-qorong'i bo'lardi... Haliyam bo'lsa biz bilan qola qol.

— O'zim ham shuni o'ylab yuribman.

— Qolsang o'ttizta buzoqcha olib beraman.

— Buzoqchalar... suzmaydimi?

— Be, o'zi buzoqcha bo'lsin-u, uning suzgani qayoqqa borsin.

— Faqat xashak solish bo'lsa, mayli.

— O'rganguningcha tagini o'zim tozalab berib turaman. Hali senga, shoshmay tursang, panshaxa ushlashni, kurak ishlatishni ham o'rgataman.

— Ammamdan so'raylik-chi.

— Bu gap aslida ammangdan chiqdi. Jiyanimni endi shaharga jo'natmayman, adoyi-tamom bo'пти, deyapti. Yo'q dema, polvon. Maktabni bitirsa, Karim o'rtog'ing ham yoningga keladi. Uchovimiz gullatamiz bu yerni. Nigora qizimizni ham olib kelamiz. Ammang sho'rlik peshonamga qiz bitmadi, deb o'ksigani-o'ksigan... Yuzidagi oqi kamayay deyaptimi?

— Bir kamayib, bir ko'payib qoladi.

— Uni o'zimiz davolaymiz. Luqmonu hakim sigirning yangi sog'ilgan suti ming bir dardga davo, degan ekanlar. Ko'rasan, singling oydek bo'p ketadi... Qalay, buzoqchalarni olamizmi?

— Qaydam, — deb qo'ydim.

Ammamnikida jon-jon deb qolgim bor. Lekin barvaqt turishlari yoqmaydi. Xo'roz qichqirmasdan turib olishadi. Erta turganning rizqi ulug' bo'larmish. Men bo'lsam ertalabki uyquni yaxshi ko'raman. Rahmatli oyijonim ham shunaqa edi. Ertalab turolmaganidan bog'chadagi ishiga qatnamay qo'ygandi... Menga buzoqchalar olib berish masalasi kechki ovqat mahalida ham suhbatga mavzu bo'ldi. Har xil fikru mulohaza aytishdi. Qolishim aniq ekan.

— Sen, polvon, barvaqt turolmayman deb qo'rqma, — dedi pochcham choy ho'plab, — qalbingda biror narsaga muhabbat

paydo bo'lsa, o'sha muhabbat turtkilab uyg'otaveradi. Mashoyixlar shunday degan: "Eng yomoni hech narsaga muhabbat qo'ymaslik".

Bedapoyalarini chopib o'rniga ertangi pomidor ko'chat qilishlari kerak ekan. Kunlar isib, parnikdagi ko'chat gullashga kelib qolgan emish. Endi shuni muhokama qilishga o'tishdi. Pochchamning vaqti yo'q emish.

— Men chopishib yuboraman, — dedim negadir dadillanib.

— Seni hozirdan ishga solsak, yo'g'-e, — dedi Abdukarim, — o'zim ag'darib tashlayman.

— Unday dema, — gapga qo'shildi ammam, — akam bechora buning yoshida butun bog'ni bir o'zi boshqarardi, ota o'g'li-da, o'rgansin.

Ertalab tursam uch aka-uka allaqachon ishga tushib ketishibdi. Apil-tapil nonushta qilib, yonlariga bordim. Ancha-muncha yerni ag'darib ham qo'yishibdi.

— Men ketmonda chopaymi, yo belkurakdami? — deb so'radim ishboshi Abdukarimdan.

Abdukarim chopishdan to'xtab qaddini rostladi. Peshonasidan terini sidirib oldi. Pochchamga o'xshab yoqimligina jilmayib:

— Qaysisida yaxshi chopasan? — deb so'radi.

— Hech qaysisida chopib ko'rmaganman.

— Hecham-a?

— Hecham.

— Unda ketmon o'ng'ayroq. Dadam, qo'sh haydamoq bormoq-kelmoq, xamir qormoq jon chiqmoq, ketmon chopmoq, olmoq-solmoq, deydi. Havosini olsang — ketmon yaxshi.

Ammavachchalarimning menga ko'rsatayotgan mehribonligiga munosib ishlasam devdim. Jon-jahdim bilan yopishdim. Lekin, qiziq, yo men tushgan qator qattiqroq ekan, yo ketmon nobop ekan. Ketmon mo'ljallagan joyimga tushmayapti, keyin sakrab ham ketyapti. Qiziq ko'z qirim bilan goh Abdukarimga, goh Abduhalimga o'g'rincha qarab olaman. Oyoqlarini keribroq olishgan. Ketmonlari, o'tkir pichoq kart dumbani kesgandek tuproqqa osongina botyapti. Ag'darib, orqasi bilan urib ham qo'yishyapti. Yo'q, ayb ketmonimda

bo'lsa kerak. Chopgan yerim goh do'mpayib, goh chuqur bo'lib qolyapti. Terlab ketdim. Suv ichib olish bahonasida ketmonni belkurakka almashtirdim. Bedaning tomiri qattiq bo'larkan xiyol o'tmay uni sindirib qo'ysam bo'ladimi?

Hammalari kulib yuborishdi, o'zim ham qo'shildim. Ular mendagi xijolatpazlikni tarqatish, noqulaylikni ko'tarib tashlash uchun kulgan bo'lishlari mumkin. O'zim bo'lsam bir mahal dadamdan eshitganim, yomon ho'kiz bo'yinturuq sindiradi, degan gap esimga tushib kulayotgan edim.

— Charchagan bo'lsang damingni ola qol, — dedi Abdugarim, — yo bo'lmasa Abdupattoh bilan tomir tersalaring ham mayli.

Abdupattoh o'zi bir dunyo, gaplashsangiz huzur qilasz. Kelganimdan buyon meni, negadir, akalaridan ham o'ziga yaqin oladi. Goho shaharli akamga aytib beraman, deb do'q ham urib qo'yadi.

— O', senga ishning og'iri tushibdi-ku, — dedim yoniga borib.

— O'zlariga esa doim yengilini olishadi, — dedi Abdupattoh to'lib turgan ekan shekilli.

— Xafa bo'lma, o'zim yordamlashib yuboraman, — ko'nglini ko'targan bo'ldim.

— Meni hech mensishmaydi.

— Yo'g'-e.

— Mana, oyog'imdagi tuflini ko'ring. Shuyam Karim akamniki. Eskirgandan keyin menga berdi. O'ziga bo'lsa yangisini olgan. Qizlarga borib maqtanadi-da, yangi tuflim bor deb.

— Xafa bo'lma.

— Halim akam ham aldaydi meni. Mana ko'ring, shu jemper tormi?

— Torga o'xshamaydi.

— Akam bo'lsa menga tor bo'p qoldi deb aldab, dadamga yangisini oldirdi. Aldoqchi! Baribir qochib ketaman.

— Qayoqqa qochasan?

— Shaharga, sizlarnikiga.

— Men sizlarnikiga keldim-ku!

— Butunlaymi?

— Ha, buzoq boqmoqchiman.

— E, buzoq boqmang, qochirib yuborasiz. Men bir marta buzog'imizni qochirib yuborib, kanalning bo'yidan zo'rg'a ushlaganman, rosa yig'laganman. Undan ko'ra tovuq boqa qoling. Qochsa ustidan suv quysangiz yomg'ir yog'yapti deb pusadi-qo'yadi.

Abdupattoh bilan hasratlashib, tomir terib to'plaganlarimizni bostirma ostiga tashib kunni kech qildik. Kechqurun ammam ovqatga unnadi. Abdukarim joyida mollariga poya qirqa boshladi. Abduhalim kun-bo'yi donlab to'ymagan badnafs ona tovuqlarni katagiga quvish bilan mashg'ul bo'ldi. Abdupattoh, men hozir kelaman, deb ko'chaga qarab qochdi.

Pochcham xushxabar olib keldi:

— Qani, polvon, suyunchini chiqaraver, — dedi darvozaxonadan turib, — mudir ko'ndi. Ko'nish ham, gapmi, shaharda shunaqa yigitchalardan bo'lsa, yana besh-o'ntasini olib kelsin, dedi. Ertaga bozorni olamiz-u indinga ishga tushasan.

«Moskvich» olishganda ozgina qarz bo'lib qolishgan ekan. O'shani to'lash uchun bozorga to'rt qop makka, bir qop behi olib jo'nadik. O'zlari hali mashinani yaxshi haydasholmaydi. Men bo'lsam bilamanu haydovchilik guvohnomam yo'q. Qo'shnilar olib borib qo'ydi. Abdukarim — makkada, Abduhalim — behida, savdo — avjida. Men ikkovlari o'rtasida borib-kelib turibman... Ilgari ham aytuvdim shekilli, jon-dilim noxotsho'rak bilan yaxna kalla-go'shti. Shahrimizda yurganimda ham qo'limga pul tushdi deguncha Chorsuga yugurib, goh unisidan, goh bunisidan to'yib-to'yib yeb kelardim. Bu yerda ham noxotsho'rak sotisharkan. Qizartirib pishirib ustiga mayda to'g'ralgan oppoq piyoz bosib qo'yishibdi. Bug'i ko'tarilib turibdi. Shundan olaman deb endi cho'ntagimga qo'l solgan edim, ushla-ushla, ana-ana, deyishib, ikki yigitcha olomon orasidan yorib chiqdi-da, biri meni mahkam quchoqladi. Boshqasi qulog'imning tagiga chunonam keltirib tushirib, ikkovlashib cho'ntaklarimni paypaslab, turtib-itarib:

— O'g'ri, cho'ntakkesar! — deb baqira boshlashdi.

Gap nimadaligini anglab yetmasimdan atrofimizni tomoshatalab odamlar qurshab olishdi. Militsioner ham hoziru nozir turgan ekanmi, xalloslab u ham yetib keldi.

— Nima gap? — deya meni urib yuboray deb turgan olomonni chekkaga surdi.

— Pul o'g'irlabdi.

— Meniki edi o'sha pul!

— Voy afting qurg'ur-e, — degan ovozlar eshitildi har tomondan.

To'polonning sababiga endi tushundim. Voy pastkashlar-ey, meni o'g'ri deb o'ylashayotgan ekan, voy nomardlar-ey! Yo'qol, deb yigitchaning yoqasidan ushlab itarib yubordim. Militsionerga qarab:

— Men... men... hech narsa olganim yo'q! Bular yanglishyapti, — dedim hamon o'zimga kelolmay, — noxotsho' - rak olaman deb turuvdim, har narsa bo'lay agar!

— Yo'q, shu oldi, cho'ntagida, ablah, hozir boshingni yoraman! — barobariga baqirishdi yigitchalar.

Melisa ikki qo'limni ko'targ'izib qo'yib, cho'ntaklarimni paypaslay boshladi. Biridan o'n uch sum pul bilan yondaftarim chiqdi. Boshqasidan eski ro'molchamni olib, odamlar ko'rsin dedi shekilli, namoyishkorona silkitib qo'ydi. Ballon kurtkamning ichki cho'ntagidan... e tovba, e tovba, bu qanaqasi bo'ldi-a, pasport topib olishsa bo'ladimi? Kim solib qo'ydi ekan, yo makka sotayotgan Abdukarimnikimikan?..

— Pasport meniki, — baqirib yubordi yigitcha, — ichida puliyam bor edi, qarang-chi, ablah!

Rost, ichida puli bor ekan — to'rtta ellik so'mlik! Qotib qoldim. Melisa uch-to'rt guvohni ham menga ergashtirib olib ketdi. Qo'limni orqamga qayirib olgan. Bu qanaqasi bo'ldi, a? Nega bunaqa bo'lyapti? Makka bilan behi sotib o'tirgan qarindoshlarim yugurib kelishdi. Yolvorishdi, bu unaqa bola emas, deyishdi. Otasi qamoqda, onasi vafot qilgan, yetimchaga jabr qilmaganlar, deyishdi.

— Isming? — deb so'radi menga tuhmat qilgan yigitchadan.

— Aziz.

— Familiyang?

— Isroilov.

— Qayerdansen?

— Shahardan.

- Qaysi ko'chada turasan?
- Obiravon ko'chasida.
- Ishlaysanmi?
- Bilim yurtida o'qiyman.
- Bu yerga nega keluvding?
- Yarmarkadan kostyum olmoqchi edim.

Hammasini ko'rib, eshitib turibman. Faqat tushunolmayapman. Nega bunaqa bo'lyapti, nega?

Yolg'iz o'zimni qamab qo'yishdi. Kechga tomon ammam bilan pochcham keldi. Ular ham yolvorishdi, do'q urishdi, tuhmat bu deyishdi. Melisa, tuhmatligi isbotlansa men ham xursand bo'lardim, deputat bo'lsangiz jiyaningizni yaxshi tarbiyalang edi, dedi. Bechoralar sudgacha o'n kun davomida to'xtamay olishishdi. Nazarimda, bormagan joylari, yolvormagan rahbarlari qolmadi shekilli. O'n to'rtinchi kuni tuman markazida sud bo'ldi. Qisqagina, bir soatcha davom etdi, xolos.

O'g'irlik va militsiya xodimini urganlikda ayblandim. Urganim to'g'ri, o'sha bozordagi to'polonda qochmoqchi bo'lib, ko'krigidan qattiq itarganman. Yiqilgan bo'lsa bordir. Buni darrov bo'ynimga oldim. Ammo pasport bilan pulni olgan emasman. Cho'ntagimga qanday tushib qolganini ham bilmayman. Besh yil berishdi.

— Ha mayli, boshing toshdan bo'lsin. Buyam senga bir maktab, zora pishibroq chiqsang, — dedi keyinchalik xolimdan xabar olgani kelgan Ataullo Isayevich. — O' bolam, o'ynashmagin arbob bilan, arbob urar har bob bilan demaganmidim: arboblar urdi seni. Lekin, bolaginam, kimligini bilmay o'zim ham dog'da qoldim.

IX BOB

Mana, ko'rib turganingizdek qamoqda yotibman. Yo'q, qamoq emas shekilli, axloq tuzatish mehnat lageri, deb atashadi. Tag'in bilmadim. Yaxshisi o'zingiz biron nom topib, o'sha bilan atay qoling. Axloqimizni tuzatishadi, mehnatga, kasbga o'rgatishadi. Lekin bularning hammasini qamab turib qilishadi.

Tashqariga chiqish yo'q, uch oyda bir marta, xolos. O'shanda ham usti berk mashinada. Hech joyni ko'rib bo'lmaydi. Shuyam sayohat bo'пти-yu. Yana tag'in a'lo o'qigin-u, yaxshi ishlagin, deb boshingni qotirishadi... Tarbiyachilar to'lib yotibdi. Qaysi biriga quloq solishniyam bilmaysan. Lekin bittasi bor — zo'r! Xuddi Ataullo muallimning o'zginasi deysiz. O'ziyam ilgari boshlang'ich sinf muallimi bo'lgan ekan. Keyin militsiyaga o'tibdi. Unvoniyam chakki emas — kapitan, bosh tarbiyachi. To'g'risi, tarbiyaviy ishlar bo'yicha komandir o'rinbosari. Oti — Sulaymon. Bu yerdagilar uni, negadir So'laxmon deb atashadi. Qiziq, o'zi xafa bo'lmaydi deng. Bo'ziyam o'lardek novcha-da, simyog'ochdek keladi. Meni yaxshi ko'radi u.

Menam yaxshi ko'raman. Gaplashganda xuddi Ataullo Isayevichga o'xshab jon-dilidan gaplashadi. Qonunlarni suv qilib ichib yuborgan. Olishib qolsa, har qanday sudyani bir cho'qishda qochiradi. O'tgan yili Shuhrat degan bolaning nohaq qamalganini isbotlash uchun eh he, ishonsangiz, Moskvagacha yozdi-ya! Eh, Shuhratdan So'laxmonning nomiga kelgan xatni o'qisangiz, yig'lavorasiz. O'ziyam yig'lab turib yozgan bo'lsa kerak. Tirik bo'lsam sizni haqiqat va adolat ramzi deb bilaman, otam o'rnida otam, akam o'rnida akamsiz. Suratingizni kattalashtirib xonamning to'riga ilib qo'yganman. Ishga ketayotganda xayr deyman, qaytganda salom beraman, deb yozibdi. Men ham yig'lab yubordim, nega desangiz, o'sha kunlari dadajonimni judayam sog'inib yuruvdim, xat kelmay qo'ydi. Qant kasali bor edi, kuchayib ketgan bo'lsa, yotib qolmadimikin, deb tashvishda edim. To'yib-to'yib yig'ladim. Ishonsangiz, o'sha kezlarda qalbim mehrga, bir og'iz shirin so'zga juda-juda tashna edi...

Bu yerda Sulaymon G'ulomovdan boshqa ko'ngilni ko'taradigan kishi yo'q. Jinoyatchisan, odam bo'laman desang, ko'p o'qi, ko'p ishla — topib olganlari shu. Lekin, bittasi bor — dahshatning o'zi. Urmaydi, so'kmaydi, xo'mrayib qo'yadi, xolos. Xo'mrayganda ichak-chavog'ingiz uzilib, tovoningizga tushib ketgandek bo'ladi. Xo'mrayganicha kazarmani aylanib qolsa bormi, bolalar turgan joyida tarrakdek qotib qolishadi. U kelmasdan oldin bu yerda katta-katta mushtlashuvlar

bo'larkan. O'sha kelibdi-yu, bunaqa narsalar o'z-o'zidan yo'q bo'libdi. Ko'zida magniti bor emish. Hamma uning ana shu magnitli ko'zidan qo'rqadi. Men ham qo'rqaman. Qarasang, oyog'ing chalishib ketadi.

Ishlab chiqarish komandirimiz... nima desam ekan, xuddi ammamning eri — kamgap pochchamga o'xshaydi. Kulib turadi, boqishlariyam mayingina. Agar men bu yerdan eson-omon chiqib ketsam, xat yozish lozim bo'lsa — albatta, shu ustaga yozaman. Nega desangiz, u menga ustoz bo'lib qoldi. Svarkani o'rgatdi, hozir gazosvarkaniyam, elektrosvarkaniyam bemalol eplayveraman. Olma teradigan, trubadan yasalgan ikki oyoqli narvon bor-ku, biz hozir ana o'shandan yasayapmiz. Guruhimiz uch kishilik: buxorolik qiziqchi, tepsa tebranmas Sayfullo, urgutlik sirkasi suv ko'tarmaydigan injiq Barotvoy va men. Kelganimdan buyon birgamiz. Biri o'ng tomonimda, boshqasi chapimda yotadi. Bir-birimizning narsamizni o'g'irlamaymiz. U yog'ini surishtirsangiz, o'g'irlyadigan narsaning o'zi ham yo'q. Uchrashuvlar bo'lib, artistlar, yozuvchilar kelganda ham zalda shu uchovimiz yonma-yon o'tiramiz. Kitob o'qisak ham birga o'qiyamiz... O'tgan hafta yana yozuvchilar keldi. G'alati odamlar ekan. Xayriyat, nasihat qilishmadi. Bittasi tarjimai holini so'zlab berdi. Chaqaloqligidayoq yetim bo'lib qolgan ekan. Qiziq-qiziq gaplarni aytdi, odam niyat qilsa, tog'ni qo'porishi mumkin ekan. Masalan, tog'dan tomayotgan tomchi o'zi ojizgina narsa, doimiy ham uzviy bo'lgani uchun toshlarni teshib o'tadi. Yoki bo'lmasa, masalan, ko'chada, asfaltni yorib chiqqan giyohni olaylik, deb davom etdi yana, quyoshga talpingani, yuksaklikka intilgani uchun o'zidan yuz karra qattiq bo'lgan asfaltni yorib chiqadi...

Xullas, uchovimiz birgamiz. Oldin payvandlashda edik, keyin tayyorlov sexiga o'tkazishdi, hozir bo'yoqchilikdamiz. Tayyor narvonlarni ko'k rangga bo'yaymiz. Eh, hozir ochiqda bo'lganimda sizga bitta qoyilmaqom narvon yasab bergan bo'lardim. Goho uchovimiz qorong'i kechalarda urishib qochib, hasratlashib ham qolamiz. Qaysi sababga ko'ra bandi bo'lib, atrofi sim bilan o'ralgan g'amxonaga tushib qolganimizni bir-birimizga aytib beramiz. Yig'lagan paytlarimiz ham bo'ladi.

— Ey, Zafar, ey boyning bolasi, — deya tishlarini g'ijirlatadi Sayfullo, — sen o'rtog'im bo'lsang ham baribir meni tushunmaysan. Meni noto'g'ri qamashdi. Tergovchi ham, sud ham gapinga quloq solmadi. To'g'ri, men o'g'riman, chakanasiman. Soat o'g'irlaganman, magnitafon olib qochganman, mushtlashganman, nega boshqalar soat taqqanda men taqmas ekanman, oyim farrosh bo'lgani uchunmi? Ular jinsi shim, fin kurtkasini kiyib, kechqurunlari yapon magnitafonini qo'yib, yallo qilib o'ynashar ekanu men maktabga borib onamning o'rniga pol yuvib, hovli supurib yuraverar ekanman-da. Yana tag'in oyog'imni yuvib qo'y, yelkamni silab qo'y deb ustimdan kulishganlari-chi...

G'oyibni yomon ko'rib qoldim. Mendan o'n karra past o'qiydi-yu, kiygan kiyimini ko'rsang ministrni o'g'limi deysan. Kechqurun pana joyda poylab turdim-da, tomog'iga pichoq qadab:

— Soatni yech, — dedim.

Dag'-dag' qaltirab soatni yechdi.

— Pulni chiqar, — dedim.

— Pulim yo'q, — dedi qaltirab yana.

— Joningdan umiding bormi? Bor bo'lsa, ertaga shu vaqtda yuz so'm keltirasan! — dedim devorga qisib.

— Pichoqni ol tomog'imdan, — deb yolvordi.

— Keltirasanmi?

— Keltiraman.

— Birovga g'ing desang boshingni olaman, — deb qo'yib yubordim. Oliftalarning hammasi ham qo'rqqoq bo'ladi o'zi, to'g'ri tanlagan ekanman. Sotmabdi, pulni olib keldi. Eh maza qildim-da. Soatni taqdim, yangi ko'ylak, yangi shim oldim. Yangi kiyinganda odamning ko'ngli tog'dek ko'tarilib ketarkan. Endi bitta tufli ham olsam deb yana G'oyibning yo'lini to'sib tomog'iga pichoq qadadim. Yo so'raganimni berasan, yo o'lasan, dedim. Yuz so'm pul unga hech narsa emas, otasi nonvoyxonada direktor. Un, yog' shakar, hammasini pullashadi... Lekin bu gal ablahlik qildi, sotgan ekan. Devor ortiga melisa yashirib olgach, keyin menga ro'para bo'libdi.

— Olib keldingmi? — dedim.

— Olib keldim, — dedi rangi quv o‘chib.

— Qani, cho‘z tezroq.

Pulni olib cho‘ntakka solishim bilan qo‘lga tushdim. Qani Zafar, uyqusiramay ochig‘inii ayt-chi, ular har kuni yangi kiyganda, mening bir martagina yangi kiyinishga, bir martagina soat taqishga haqim yo‘qmi? Dadam o‘lib ketgan, onam yetmish so‘m oladi, ovqatdan ortmaydi. Yo‘q, og‘aynijon, sen, baribir, boyning bolasisan, tengqurlaringdan ustun yurgansan, xo‘rlik, o‘ksish nimaligini bilmagansan, lekin soati zo‘r edi-da, vaqti-vaqti bilan yoqimli kuy ham chalib qo‘yardi. Keyingisini so‘ramasam ham bo‘larkan...

Sayfullo hasratini tugatishi bilan uchovlashib bo‘lgan voqeani muhokama qilishga tushamiz. O‘zimiz muddatini o‘tab yurgan, yelkasi qisiq, boshi egik mahbuslarmiz-ku, goh novvoyxona direktorini, goh chaqimchi G‘oyibni xayolan sud qilamiz. Lekin, baribir, chiqargan hukmimizdan sariq chaqalik naf yo‘qligini nam sezib turamiz.

— Onajonimga jabr bo‘ldi-da! — deydi Sayfullo alam bilan to‘rpani g‘ijimlab, — nafas qisish kasali bor edi bechoraning...

Keyin jim bo‘lib qolamiz. O‘ttiz ikki yigitchaning kamida yarmi xurрак tortadi, uyqusida javrab chiqadiganlar ham bor. Bizdan to‘rt o‘rin naridagi Turg‘un qassob degan bola (kombinatdan go‘sht o‘g‘irlab qo‘lga tushgan, shuning uchun qassob deb laqab qo‘yganmiz), uyqusirab o‘tirib olib uxlayveradi. Bir xillarining oyijon, deb baqirib yuborgan paytlari ham bo‘ladi.

Boshqa bir kuni jahli hamisha burnining uchida turadigan, gaplashganda butun vujudi varrakdek titraydigan Barotvoyning hasratini tinglaymiz. Mendan bir yosh katta, ham oldinroq kelgan. Asabi buzug‘u lekin qobiliyati zo‘r. Muallimlar ham tan berishgan unga. Akademik deb laqab qo‘yganmiz. Yaqinda o‘ninchini bitirdi. Ishonasizmi, hamma fanlardan faqat a‘lo oldiya. Lekin, baribir oltin medal berishmadi. Sulaymon G‘afurovich, surishtirib ta‘lim vazirligiga borib keldi. Hamma fanlardan a‘lo olgani bilan, qamoqda yotgan yigitning qo‘liga a‘lo baho qo‘yib bo‘lmas ekan. Yaxshi qo‘yamiz xulqiga, kumush medal ola qolsin, deyishibdi. Shuyam gap bo‘ldi-yu...

Barotvoy qotillik bilan qamalgan. Otasini chopib tashlagan. Onasini qutqaraman deb shunday qilgan ekan. Otasi, aytishicha, yovuz ekan...

— Eh, — deydi Barotvoy goho tishlarini g'ijirlatib, — o'zi qotil edi, beniyam qotil qildi-ya. Ukasi bilan meros talashib, uni so'yib sakkiz yil o'tirib keluvdi... Bechora onamda ayb nima, beshta bolani katta qilguncha adoyi tamom bo'luvdi... kela solib haromsan, buzuqsan, deb onaginamni sudrab ko'chaga olib chiqib sazoyi qildi-ya! Bolalar mendan emas, deb bizniyam sharmanda qildi. Axir qamalayotganda kenja singlim onamning qornida ekanini bilardi-ku. Sayfullo, ayt-chi, onaizoringni birov hammaga eshittirib «fohisha!» desa qarab, turarmiding?

— Yo'q, — dedi Sayfullo bosh chayqab.

— Bu gapni otang aytsa-chi?

— Baribir.

— Hay, jo'rajonlar, hozir ham yuragim yonib ketyapti, bechora onaginamning kaltak yemagan kuni yo'q edi, sho'rlik mayib bo'lib qoldi, beli sindi! Singillarimchi, tepki zarbiga chiday olmay chinqirib yig'lashardi. Qiz bola, haromi degan nom olsa, nomusdan ko'chaga chiqolmay qolarkan. Zafar, mana sen onaizoringdan judo bo'lib, kechalari yum-yum yig'layapsan. Oyijon, deb o'rningdan turib ketgan paytlaring ham bo'lyapti. Qani, insof bilan ayt, onangni birov sochidan sudrab ko'chaga olib chiqayotganda, ustiga kelib qolsang, nima qilgan bo'larding?

— Dahshat, — deb o'rnimdan turib ketaman.

— Ayt, nima qilarding?

— Qo'rqib ketyapman.

— Yo'q, qo'rqma, sen bu zolimni ilgari bir necha bor ogohlantirgansan, bas qil, bo'lmasa chopib tashlayman, degansan, aksincha, sening o'zingni chopaman haromi, degan u. Men otamning qo'lidagi boltani olib o'zini chopib qo'ydim.

Barotvoyning vujudida xuddi bezgak tutgandek qaltiroq turadi. Birimiz suv ichiramiz, boshqamiz yelkasini silab, tarashadek qota boshlagan qo'llarini uqalashga tushamiz.

Keyin yana asta-sekin jimlik cho'kadi. Hamxonalarim birin-ketin uyquga keta boshlaydilar. Kimdir uyqu aralash xo'rsinadi, kimdir bosinqirab xurrak tortadi. Kimdir yaxshi tush

ko'rayotgan bo'lsa kerak, qiqirlab kulib qo'yadi... Baribir uxlay olmayman. O'y surib ketaman. Boshimdan kechgan qayg'uli voqealar ko'z o'ngimdan nursiz, rangsiz bo'lib o'ta boshlaydi.

Qorong'ilik, tumanlik ichida asta-sekin erib borayotgandek bo'laman, uyqu elita boshlaganini his qilib turaman. Ammo o'ylarim to'xtamaydi. Akamni, poklik, halollik uchun o'zini qurbon qilgan, orzu-armonlari bilan olov ichida yonib ketgan akajonimni eslab ketamanu uyqum qochib, ko'zlarim yaraqlab ochilib ketadi. Nazarimda, shu nimqorong'i xonamga aravachasini g'ijirlatib kirib kelayotgandek, boshimda to'xtab «uyg'oqmisan?» deb so'rayotgandek bo'ladi... Ha, uyg'oqman, deyman. Nimalarni o'ylayapsan, deb so'raydi yana. Seni o'ylayapman, akajon, deyman. Yo'q, meni o'ylama, deb shivirlaydi Akbar akam, axir men o'lganman-ku! Akajon, sen o'lmagansan, hech qachon o'lmaysan ham, sen, poklik, halollik, vijdonlilik ramzi bo'lib hamisha men bilan yashaysan. Men, akajon, avvalgi Zafar emasman, men sening o'zingman — Akbarman! Sen nimani orzu qilgan bo'lsang — men o'shaman! Mana, suratingni qalbinga bosib yuribman, tumor qilib taqib olganman. Bu yerdan eson-omon chiqsam, sen orzu qilgandek, halol yashayman, eshityapsanmi, akajon, halol yashayman! Bu gapni men senga, mana, yig'lab aytyapman. Haromxo'rlikka qarshi kurashaman, ehtimol, payvandchi bo'larman, ehtimol, buzoq boqarman, ehtimol, orzuim ushalib, prokuror bo'larman. Lekin kurashaman, qattiq kurashaman... Bu yerdan chiqayotganimizda bizga yangi pasport berishadi. O'shanda, akajon, Zafar ismimni o'zgartirib, rozi bo'lsang, Akbar Karimov deb yozdiraman.

— Rozimisan?

— Roziman, ukajon, uxla, uxla, uxla... Ko'z o'ngimdagi tumanlik quyuqlashadi, qorong'ilik ichida akajonim asta-sekin erib boradi, olis-olislardan uxla, uxla, degan ojiz ovozi eshitingandek bo'ladi.

Uxlab qolaman.

1987-1988 yil, Toshkent

MUNDARIJA

G'aroyib saltanat	3
<i>Birinchi qism. Jinoyat</i>	10
<i>Ikkinchi qism. Jazo</i>	132
<i>Uchinchi qism. Oqibat</i>	246

Adabiy-badiiy nashr

XUDOYBERDI TO'XTABOYEV

MUNGLI KO'ZLAR

Ertak-roman

Qayta nashr

Muharrir Ma'mura QUTLIYEVA
Musahhah Navro'z BEKMURODOV
Badiiy muharrir Uyg'un SOLIHOV
Texnik muharrir Surayyo AHMEDOVA
Kompyuterda sahifalovchi Feruza BOTIROVA

Bosishga 10.07.2014-y.da ruxsat etildi. Bichimi 84x108 1\32.
Bosma tobog'i 9,625. Shartli bosma tobog'i 16,17.
Adadi 10000 nusxa. Buyurtma № 85.
Garnitura «LexTimes Cyr+Uzb». Gazeta qog'ozi.
Bahosi kelishilgan narxda.

«Yangi asr avlodi» NMMda tayyorlandi.
Litsenziya raqami: AI № 198. 2011-yil 28.08 da berilgan.
100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.

Murojaat uchun telefonlar:

Nashr bo'limi – 278-30-52; Marketing bo'limi – 128-78-43
faks – 273-00-14; e-mail: yangiasravlodi@mail.ru



Xurduyberdi TO'XTABOYEV

Farg'ona viloyatining Katta Tagob qishlog'ida 1932-yil 17-dekabrda tug'ilgan. 1949-yilda Qo'qon pedagogika bilim yurtini, 1955-yil Toshkent Davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti)ni tamomlagan. Ish faoliyatini Farg'ona viloyati tumanlaridagi maktablarda o'qituvchilikdan boshlab, keyinchalik ilmiy bo'lim mudiri, maktab direktori bo'lib ishlagan. 1958-yilda o'z jurnalistik faoliyatini boshlagan ijodkor 300 dan ortiq felyetonlarni e'lon qilgan. Qator nashriyot va jurnallarda faoliyat ko'rsatgan.

1958-yildan badiiy ijodga kirib kelgan X. To'xtaboyev "Omonboy va Davronboy", "Sariq devni minib", "Sariq devning o'limi", "Qasoskorning oltin boshi", "Yillar va yo'llar", "Sehrgarlar jangi yoki shirin qovunlar mamlakatida", "Jannati odamlar" va boshqa shu kabi kitoblar muallifi. Sevimli bolalar yozuvchisi 1982-yilda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, 1989-yilda O'zbekiston Davlat mukofotining sovrindori, 1991-yilda O'zbekiston xalq yozuvchisi unvonlari bilan taqdirlangan.

Asarlari rus, ingliz, nemis va fransuz tillarida tarjima qilinib, dunyoning 28 ta mamlakatida nashr etilgan.

ISBN 978-9943-27-032-9



9 789943 270329